

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

YUSUF XOS
HOJIB
AHMAD
YUGNAKIY

3

YUSUF XOS HOJIB
AHMAD YUGNAKIY

3

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

YUSUF XOS
HOJIB
AHMAD
YUGNAKIY

1-512158400
2022-07-19 07:



YUSUF XOS HOJIB

AHMAD YUGNAKIIY



“O’ZBEKİSTON”
TOSHKENT – 2022

UO'K 821.512.1-1
KBK 83.5(54)
Yu 91

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadijon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojjiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrcha tayyorlovchilar:

Boqijon To'xliyev, Ergash Ochilov



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yetinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot dordonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezu tashabbus asosida birinchchi bo'lib O'zbekistonda mana shu multashham adabiy majmuua yaratildi. Mazkur keng ko'lami, zalvorli badiiy silsillaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalarini, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Yengriya davlatlarning atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tili davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

OzBLK.O.M.L. MF
M. B. O.
MKV. 1
5765(66)

ISBN 978-9945-8722-0-2

© "O'zbekiston" nashriyoti, 2022

Shoirning turli-tuman kasb hunarlar bilan bog'liq fikrlari uning qiziqish chegaralarining ham niyoyatda keng bo'lganiga dalolat. Tabiiyki, bular orasida "bezzaklig saroy", "suratl qasr", "tugatilmagan surat", "o'yin", "qo'shiq" singari idoralarining uchrashi muallifning me'morlik, rassomchilik, muzika sohalaridan ham yaxshi xabardorligini ko'rsatadi.

Yusuf Xos Hojib bir necha tillarda gaplasha olgan yoxud chet tillardagi kitoblarni o'qiy olish imkoniga ega bo'lган. Uning "Arabcha, tojikcha kitoblar o'kqush (ko'p)", — deb ta'kidlashi bejiz emas. Ayrim hollarda "Neku ter, eshitgil, tajik bilgasi", yoxud "Bunga o'xshar endi toziy (arab)lar tili" deb yozishi ham fikrimizing dalilidir.

"Qutadg'u bilig" — falsafy-didaktik asar. Har qanday yaxshি badiiy asar ayni payning o'zida bir necha vazifalarga bo'ysundi-rilgan bo'ladi. Yusuf Xos Hojib asari ham bundan chetda emas. Unda bir tonondan mamlakatni siyosiy jihatdan jipslashitirish, qoraxoniylar davlatining iqtisodiy asoslarini mustahkamlash vazifasi olg'a surilgan bo'lsa bo'lak tomondan mamlakat aholisini o'zaro itifoqqa undash, eng yaxshi insoniy xislatlarni targ'ib qilish, shoir sifatida qalbini hayajonga solayotgan masalalami o'rtaga qo'yish ham turadi. Bularning barchasini yuksak badiiylik asosida ado etish o'ziga xos vazifa bo'lganiga shubha yo'q.

Yusuf Xos Hojib shoirlar haqida yozarkan, ulami "so'z teruv-chilar" deb baholaydi. "Tillari qilichdan o'tkirroq", "xotir yo'llari qildan ham ingichkarоq" ekanini alohida ta'kidlaydi. Qalam ahlini dengizga kirib gavhar, yoqut, inju olib chiqqan g'avvoslarga qiyoslaydi. Agar shu mezondan kelib, chiqib baholaydigan bo'lsak, "Qutadg'u bilig" ana shunday injularning o'ziga xos xazinasidir.

Bu xazina 73 tillo sandiq — alohida boblarga joylashgan. Yirik hajmli dostonlarda ko'zga tashlanadigan voqealarning epik baryoni "Quadg'u bilig" uchun xos emas. Aniqrog'i, shoir bu yerda mutlaqo yangicha yo'l tutgan. Unda ishtirot etadigan qahramon-larning "sarguzashlari" asar boblarining o'zaro aloqasini ta'minlashning yagona va eng kuchli omili sifatida ko'zga tashlanmaydi. Aksincha, bu vazifa qahramonlarning ramziy ma'nolari orqali anglashiladigan vazifalari orqali amalga oshadi.

YUSUF XOS HOJIB VA UNING "QUTADG'U BILIG" ASARI

Tarixda nomlari qolgan buyuklar ko'p. Ular o'zlarining keng ijodiy faoliyati, ko'plab ilmiy, tarixiy, adabiy asarlari bilan zamonodoshlarning hurmat va e'tiborini ozzonishgan, keyingi avlodlarning ham e'tiroflariga sazovor bo'lishgan. Ammo shunday ijodkorlar ham borki, ularidan faqat birgina asar yetib kelgan, xolos. Mahmud Koshg'ariy ("Devonu lug'ot it-turk"), Yusuf Xos Hojib ("Qutadg'u bilig"), Ahmad Yugnakiy ("Hibat ul-haqoyiq")-lar mana shu silsilaga kiradi.

Ulaming uchralasi ham Sharq Renessansi — Uyg'onish davrida yashagan, aniqrog'i, o'sha ilk Renessansning ravnaqiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishgan. Adam Mets "Muslimmon Renessansi", akademik N.I. Konrad "Sharq uyg'onishi" deb nomlagan ushbu davr ko'plab mutafakkirlarni, buyuk allomalarini maydonga keltirgan. Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sinolar o'sha davrlardayoq jahoniy e'tiroflarga sazovor bo'lishgan. Yuqoridagi uch mutafakkir ham shu silsilaning munosib halqalaridir.

Uyg'onish davrinining asosiy xususiyatlardan biri madaniy va tafakkurdagi yuksalishning ochiq namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Uning asl mohiyatini jaholat va mutaassiblikka o't ochish, insonni ulug'lash, uning iste'dod va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, umuminsoniy va milliy-ma'naviy fazilatlar uyg'unligini targ'ib va tashviq etishni tashkil etadi. Ayni mana shu jihatlar Yusuf Xos Hujbni ham ilk Uyg'onish davrinining munosib vakiliga aylantirgan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" o'n birinchi asrda yaratilgan. U turkiy tilida yozilgan ilk yirik yozma doston sifatida alohida ahamiyatga molik. Asarda o'sha davrdagi ajoddolarning tasavvur va dunyoqarashlari, falsafasi, axloqi, ma'naviyati va madaniyati badiiy so'z vosisasida o'ziga xos tarzda tasvirlab berilgan. Ayni paytda bu asar turkiy davlatchilikning o'z davridagi badiiy nizomnomasi sifatida ham e'tirof etilgan.

Gap shundaki, "Qutadg'u bilig" qahramonlari Kuntug'di, Oyto'ldi, O'gdulmish, O'zg'urmishlar elig (davlat boshlig'i), vazirning o'g'li va uning qarindoshi sifatida ko'rinsa ham, ularning bosh vazifasini Adolat, Davlat, Aql va Ofiyat (salomatlik, qanoat)ni ramziy tarzda aks ettirishdan iboratdir.

Voeqelar davomida Oyto'ldi bilan O'zg'urmish, ya'ni Davlat bilan Ofiyat yemiriladi (halok bo'ladi), Kuntug'di (Adolat) bilan O'gdulmish (Aql) esa tirk qolishadi. Mana shuning o'zida qanchalik kuchli ramziy ma'no borligi ko'rinib turibdi. Zukko kitobxonlarimizning o'zlarini bularning mag'zini chaqib olishlariiga ishonganimiz uchun ham izohni ortiqcha hisobladi. Qahramonlar nomi ham ularning ramziy ma'nolariga uyg'un holda tanlangan. Kuntug'di — "tug' gan kun" demakdir. Kun — Quyoshning butun yil davomida mavjud bo'lishi uni Adolat bilan aloqalantiradi. Quyoshning har doim ko'rinib turishi borliqqa ro'shnolik, tabiatga harakat bag'ishlasa, Adolatning amal qilishi jamiyat ravnaqini, uning baxt-saodati yo'lida undan kam vazifani bajarmasligiga ishora.

Oyto'ldi — "to'lgan oy" demakdir. To 'lin oyning yog'dusi ravshan bo'ladi. Ayni paytda to 'linlik Oyning tugashi bilan ham bog'liq. Har qanday davlatning muvaffaqiyatini eslatish maqsadida Oyto'ldining tanlangani bejiz emas.

"O'gdulmish" ning o'zagida "o'g" so'zi bor. Bu Aql demakdir. Uning "urug", "qabila" ma'nosi ham bor. Shu ma'nodan o'sib chiqqan "ona" ma'nosi ham unga tegishli. Qadimgi turkiy tilida to'rt yoshidan katta bo'lgan hayvonlar, katta yosholi (ayni paytda aqli komil) insonga nisbatan ham bu so'zning qo'llanishi ko'p uchraydi. Adolat va Davlatning Aql bilan ham, el-yurt bilan ham aloqasi tabiiyidir. "O'zg'urmish" — uyqudan (g'aflatdan) uyg'ongan, hushyor, hushyorlantiruvchi degan ma'no bildiradi.

Asar qahramonlarining nomi qadim an'analar bilan chambarchas bog'liq. Turkiy xalqlarning juda ko'philigidida Kun va Oy bilan bog'liq bo'lgan ertak, afsona, maqol va matallar saqlanib qolgan, ular bilan bog'liq ko'plab ethnografik detallar ma'lum. "Qutadg'u bilig" ning maydonga kelishi juda katta ijtimoiy hodisadir. U bir qator ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-tarixiy, estetik, ethnografik, lingvistik hodisalarining to'g'ri tushumilishiga oydimlik

kiritadi. Adabiy asar sifatida esa jahon adabiyoti tarraqqiyotidagi alohida davrini tashkil etadi.

Asar janr xususiyatlariiga ko'ra ham tamomila o'ziga xos. Yozma adabiyotdagi dostonchilik an'analarini "Qutadg'u bilig" dan boshlanadi. Yusuf Xos Hojib asos solgan dostonchilik maktabi Ahmad Yungnakiy timsolsida o'z davomchisini topgan bo'lsa, keyingi astlarda alohida xalqlar sifatida shakllangan o'zbek, uyg'ur, ozarbayjon, turk (usmonli turk), turkman, qozoq, qirg'iz va boshqa xalqlar adabiyotida yanada takomil topdi. Bu an'ana o'zbek adabiyotida, tabiiyki, Alisher Navoiy ijodida o'zining oliv cho'qqisiga ko'tarildi. Doston masnaviy tarzida yozilgan. Masnaviy orasida boshqa janr namunalarini ham uchraydi. Unda ikki yuzdan ortiq to'rlilik, uchta qasida ham mavjud. Turkiy yozma adabiyot tarixida masnaviy orasida boshqa janr namunalarining keltirilishi Yusuf Xos Hojib kashfiyotidir. Faqat shu kashfiyotning o'ziyoq Yusuf Xos Hojibning she'riy iqtidori, uning shoirona mahorati, ijodkor sifatidagi jur'atiga yorqin ishoralarini bera oladi. Agar bularning hammasi nihoyatda yuksak darajadagi badiiyat talablariga to'la-to'kis javob berishini e'tiborda tutadigan bo'lsak, fikrimiz yanada oydinlashadi. Yozma adabiyotimizdagidagi dastlabki to'laqonli qasidalar ham Yusuf Xos Hojibga tegishli. Qasidalarining avtobiografik tabiatini adlibning hayoti va ijodi haqidagi ayrim fakt va mulohazalariga ko'ra ham e'tiborli.

Asardagi to'rliliklar ham alohida mavqega ega. Ular xalq to'rliliklari, shuningdek, yozma adabiyotning XI asrgacha bo'lgan shu janri bilan aloqador an'analarini yana bir pog'ona yuqoriga ko'taradi hamda mumtoz adabiyotimizda mashshur bo'lgan ruboiy janrinin o'ziga xos turkiy zaminini tayyorlab beradi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ular to'rliklarning ruboiyiga o'tishidagi o'ziga xos adabiy ko'priq vazifasini ado etgan.

Asarda tuyuq hamda munozara janrlarining o'ziga xos namunalarini mujassamlashgan.

"Qutadg'u bilig" dagi bosha massalalardan biri komil insomni tarbiyalashdir. Yusuf Xos Hojib bu asari orqali o'z tasavvurida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insomni qanday ko'rgan bo'lsa, shundayligicha tasvirlashga harakat qiladi.

Shoir nazarida bola qanchalik puxta nazorat ostida bo 'Isa, otanining yuzi shunchalik yorug' bo'ladi. Nazoratdan chetda qolgan bola behuda, yaramas ishlarga bosh qo'shishi mumkin. Bunday boladan ko'nqilni uzib qo'yish kerak. Agar ota o'z farzandini birlimdon, aql-idrokli qilib tarbiyalamoqchi ekan, albatta, uning nazorati bilan mutlaqo jiddiy shug'ullammog'i shart. Bola tarbiyasi bilan aloqador bo'lgan quyidagi misralar ham e'tiborli:

Kichigda ata idsa o'g'ilin yava,
O'g'uldin yazuq yo'q, atadin jaſa.
O'gul-qiz esiz bo'lsa qilqi, yangi,
Ul esiz ata qildi, andin o'ngi.
Qisa tutsa o'g'ilin ata o'gratu,
Ulug' bo'lsa sevnur o'g'ul-qiz teyu.

Mazmuni:

Ota bolani kichikligidan bebosh qilib tarbiyalasa,
Bolada gunoh yo'q, [barchal] jaſo ota[ning o'z]ida.
O'gil-qiz[ning] xulq'avori, fe li yaramas bo 'Isa,
(Ular) ulg'aygach, o'g'il-qiz [i twafayli] sevinadi.

“Qutadg'u bilig”da bilim va bilimdonlik ham juda ulug'lanadi. Shoir kishi ko'nglini dengizga o'xshatar ekan, bilimni shu dengiz tubidagi injuga qiyoslaydi. Agar shu inju dengiz tubidan chiqarmas ekan, uning oddiy soy toshidan qanday farqi qoladi. Aql-idrokli beglar o'zlariga maslahatchi qilib bilimdon doneishmandlarni tanlashi beijz emas. Juhonda bilimdan qadrliroq hech narsa yo'q. Bilimsizlik aslida kishi uchun haqoratdir. Hattoki bilimsiz odam to'rga chiqib o'trsa unday to'mi to'r deb bo'lmaydi. Uni poygakdan ham past deb bilish kerak. Ammo poygakda bilimdon kishi o'trsa, u joyni to'r dan ham a'lo deb bilish lozim. Bilimsiz odam ko'zi ko'r kishiga o'xshaydi. Uning qo'lidan yetaklab yo'llko'rsatish, ya'ni bilimga chorlash shart. Uquv-idrok zulmat tunidagi mash'aldir. Bilim kishini shu zulmatdan ozod qiladi. Bilimning qadri shu daraja balandki, u do'zax o'tidan ham kishini xalos qilishi mumkin.

Bilim — boylik. Ammo uning boshqqa boyliklardan farqi bor. Har qanday boylik o'g'rinning qo'lliga tushsa tamom, undan ayrib qolish mumkin. Biroq bilimni hech bir o'g'ri o'g'irliy olmaydi. Aksincha, u qancha ko'p ishlatsa, shuncha ko'payib boraveradigan boylikdir. Yusuf Xos Hojibning har bir so'zida, har bir misrasida turkiy xalqlar uchun xos bo'lgan fikrash tarzi, mushohada usuli ko'zga tashanadi.

Uning qiyoslarida, o'xshatishlariда, tasvirida turkiy xalqlarga xos bo'lgan an'analar davom ettiriladi.

Yusuf Xos Hojib qomusiy bilimlarga ega bo'lgan buyuk mutafakkir sifatida turkiy dunyoning baxti va iqbolidir. U ayni mana shu millat sharifi deb yashadi, ijod qildi, o'zining buyuk qumarusi — millat uchun merosini qoldirdi.

Adibning “Qutadg'u bilig”da boshqalarning e'tiboriga yetkazishi lozim bo'lgan fikrari ko'p va bu fikrlarning ifoda tarzi ham shunga mos va munosib tarz-la rang-barangdir. Shunga qaramasdan ulaming eng saralari qatorida u milliy-ma'naviy omillarni alohida ajratadi.

Oruu tutmag 'inchu evurməs yoriq

Mazmuni:

Ya'ni ezgu qiliq oq sut bilan kitrar ekan,
Umring oxirigacha ham shu yo'lni yo'qomaydi.

Shuning uchun ham xalq boshliqlari ezgu bo'lishi shart. Shunda ajoyib natija bo'ladi:

Qali edgu bolsa budun bashchisi,
Qamug' edgu boldi aniq ishchisi.

Mazmuni:

Agar xalqning boshchisi yaxshi bo 'Isa,
Uning xizmatchilari barchasi yaxshi bo 'ladi.

Albatta, kishilarning yaxshi yoki yomon degan guruhlarga airatishning o'ziga xos o'ichov birliklari ham mavjud. Shulardan biri bilimdir. Adib buning uchun nihoyatda go'zal qiyosni topadi. Bilimlining so'zi oqib turgan zilol suvg'a o'xshaydi. Bilimsizing ko'ngli esa sahrodag'i qum bilan barobardir.

Aidibning nazarida, eng muhim qadriyatlardan biri inson umridir. Uni behuda va hayf qilmaslik kerak. Hayotda aniq maqsadi bo'lgan kishilar o'ziga nima keragini biladi. Shuning uchun ham ular behudakorlikdan tiyilishiadi, aziz umrni munosib narsalargagi na sarflashadi. Bir narsani esdan chiqarmaslik lozimki, bu dunyoda har kim ekkaniniga o'radi, xolos:

Tarig 'lag' erur durnya, elig quyi,
Tarisa orar er tirlig yoti.

Neku eksa yerkə yana ul unur
Neku bersa evra ani-oq alur.

Mazmuni:

Baxtiyor elig, bu dunyo bir ekinzordir,
Ekin unsa, kishi o'z yeydigan o'tini o'radi.
Yerga nima eksa, o'sha narsa unadi,
Senga (tabiat) nimani bersa,

o'shani yana qayta oladi.

Bu dunyodagi odam safarga chiqqan kishiga o'xshaydi. Bu safar uzun yo'lidan iborat. Uzoq yo'lgat tushgan kishi esa unga munosib tayyorgartlik ko'rishi kerak. Barcha orzularga erishdim degan kishi, umrining ham tugaganini bilmay qoladi. Hashamatli uy va saroylar qurishning nafi yo'q — seni qora yerdan iborat qabr kutib turidi. Shuning uchun ham ba'zi narsalardan tiyilib, ba'zi narsalarga kuch berish lozim. Xususan, haromga aralashmaslik, zulm qilmaslik, kishi qonini to'kmaslik, xusumat va o'chdan tiyilish shart.

To'rtliklar Sharqda, xususan, O'rta Osiyo xalqlari orasida qadamdan keng tarqalgan. To'rtliklarining tarixiy taraqqiyoti dunyoga mashhur bo'lgan ruboiy janrini yuzaga keltirgan. "Qutadg'u biling" to'rtliklarini ruboiy deyish mumkими? Umumian, asar to'rtliklarining ruboiy janri va xalq to'rtliklari bilan qanday munosabati bor?

Ma'lumki, "ruboiy deb Ajam shoirlari to'rt misrasi qofiyalangan, uchinchini misrasining qofiyalanishi shart bo'lmagan hamda hazaq bahrining axrab va axram vaznidagi yozilgan she'mi" aytadilar.

"Qutadg'u biling" to'rtliklari yuqoridaq talablargacha asosan javob bera oladi. Ularning mavzu qamrovi ruboiy mayzulariga tamomilla ning, jumladan, to'rtliklarining muhim xususiyati hisoblanadi.

mos. Biroq bu talablardan chekinadigan tomon ham borki, bu vazn masalasidir. Mana shuning o'zi ularni ruboiydan farqlaydi, chunki Alisher Navoiy ta'kidlaganidek, "ruboiy vaznikim, ami dubaytiy va tarona ham derlar, xazaj baxrining axram va axrabitdin izitxoj qilibdurlar va ul vaznedur asru hushoyanda va bag'oyat raboyanda" ... Shunga ko'ra, "Qutadg'u biling" to'rtliklari ruboiy darajasiga yetmagan, biroq ularning janr xususiyatlarni o'rganish bu to'rtliklarning turkiy tilidagi ruboiylarning shakllanishida muhim bosqich bo'lganini ta'kidlab turadi.

Yusuf to'rtliklarini kompozitsion-sematik xususiyatlariiga ko'ra, bir necha tipga ajratish mumkin.

Uqushlug', vafolig', kishi tuzuni

Yulug 'lar kishika qamug' o'zini.

Arig 'siz, jafalig', qilinchchi o'tun

Qali aydi ersar qiyar so'zini.

Mazmuni:

Zakovatli, vafoli, kishi (lar) ning yaxshisi

Odamga butun jonini fidio qiladi.

Nopok, jafokor, qilmishlari tuban (kishii).

Agar va'da bergen bo'lsa ham

so'zidan qaytadi.

Ko'rinish turibdiki, to'rtlik tarkibi jihatdan ikki qismiga bo'lin-gan. Birinchisi qismida ezzulik yo'lida jon fiddo qiluvchilar ulug'lanadi. Ikkinchisi qismida tamomila qarama-qarshi qutbdagi: nopol, jafokor shaxslar qoralanadi. Agar bu kompozitsion qismalar alohida tasavvur etiladigan bo'lsa, ularda oddiy bir xususiyat — quruq xabargina qoladi, xolos. Ularning yaxlitligi poetik fikrining ham yaxlitligini ta'minlagan. Bundan tashqari, qismalarning mana shu tartibi kitobxonni misralarni qiyoslab ko'rishga va bu ikki qism o'rtasidagi ma'naviy ziddiyatni sezsa olishga imkon beradi. Bu esa to'rtlikning emotsiyonal tomoni, ya'ni keltirilayotgan fikringa ta'sirini kuchaytiruvchi muhim omildir.

Asardagi to'rtliklarning ko'pi xuddi shu yo'l bilan yuzaga kelgan. Bu uslubning afzallik tomoni fikrning ixcham, lo'nda va ta'sirchan ifodalanimishidadir. Lo'ndalik va ixchamlik lirik jarlar ning, jumladan, to'rtliklarning muhim xususiyati hisoblanadi.

Ko'ngul kimni sevsə, mun erdam bo'lur,
Qamug' tatusi o'ng, ququzi to'lur.
Ko'ngul kimni sevsə qamug'i sevug,
Ko'rur ko'zka ursa, ko'rinnas bo'lur.

Ko'ngul kimni sevib qolsa,
uning nuqsonlari ham aifsal ko'rinadi.
Barcha tersliklari o'ng (ko'rinnib),
rahnalari (ya'ni kamchiliklari) to'ladi.
Ko'ngul kimni sevib qolsa,
uning butun borlig'i sevimli ko'rinadi,
Ko'rib turgan ko'z oldida ursa,
ko'rmatganday bo'ladi (ya'ni uning
ayblari ko'rinnaydi).

Bu yerda ham to'rtlik aslida o'zaro teng qismlarga — baytlarga bo'linadi, biroq bo'limish mazmuniy ziddiyat natijasi emas. Birinchi misrada o'rtaga qo'yilgan fikr ikkinchi misrada o'zinинг poetik rivojini topgan. Ikkinci misra oldindgi misradagi fikrni to'ldiradi, ayni paytda, uni mustahkamlaydi. Shu bilan ma'lum she'riy fikr o'z nihoyasiga yetadi.

"Outadg'u bilig" badiyatning yuksak namunasi hamdir. Unda shoir fikri go'zal obrazlar, hayotiy o'xshatish va lo'nda istioralar, ta'sirchan tamsillar hamda mo'jaz ramzlar bilan ziynatlangan. Yusuf Xos Hojib so'z quadratini, ona tilining ichki imkoniyatlarni nozik darajada his etadi. Uning o'zi "men turkcha so'zлarni yovvoyi tog" kiyigi singari deb bildim, shunga qaramay ularni avaylab-asrab qo'lg'a o'rgatdim", — deb yozadi.

Hurmatti kitobxon! Qo'lingizda asarning yana bir yangi nashri turibdi. Bu nashrning o'ziga xosligi uning qadimgi turkiy tilda emas, balki zamonaviy o'zbek tilidagi she'riy tabdilidin iborat. Bu sizga asar mazmumi va mohiyatini yanada teraroq tushunishingizga, uning asliyatidan yanada ko'proq bahra olishingizga ko'mak beradi, deb ishonamiz.

Boqijon To'xliyev,
filologiya fanlari doktori, professori

OUTADG'U BILIG

*Bismillahir rohmanir rohim
Marhamatli, mehribon Tangri nomi bilan*

Eng aziz va eng ulug' tangriga hamd-u sano, shukrona va ol-qishlar (bo'lsin). U ulug'lik egasi, tugal quadrati podshoh(dir); yerni, ko'kni yaratgan, hamma nimani istasa qila oluvchilarga rizq bergandir.

U nimani istasa, (o'shani) qila olgan, yana nimani istasa qila oluvchidir. "Nimaga qasd qilsa, qilg'an va nimani o'ylasa qila oluvchidir". Yana tangrining elchisi kishilarning sarasiga, aziz va hummatli sahobalar(i)ga son-sanoqsiz salomlar bo'lsin! (Ularning barchalariga tangrining roziligi yog'ilgay!)

Bu kitob nihoyatda azizdir: (U) Chin¹ donishmandlaring masallari bilan yaralgan, Mochin² bilimdonlarining she'rlari bilan ziynathangon. Bu kitobni o'quvchi, bu baytlar (ma'nosi)ni yorituvchi (kishilar)lar (mazkur) kitobdan (ham) yaxshiroq, azizroq bo'ladi. Mochin olimlari va donishmandlari(ning) (barchasi bir) xulosaga keldilarki, Mashriq viloyatida³ Turkiston ellarida⁴ Bug'roxon tili bilan mutlaqo bu kitobdan yaxshiroq (kitob)ni biror kishi yaratqan emas.

Bu kitob qaysi podshoh(lik)ka yoki qaysi iqilinga yetsa, nihoyatda nafisligidan, nihoyatda ortiq (darajadagi) jozibaliligidan o'sha ellarning donolari, olimlari qabul qilib, har birlari bir turli ot, laqab berdilar:

¹ Chin — Hozirgi Xitoy qadidinda uch qismiga ajratilgan holda tasavvur qilingan va nomlangan. Unga ko'ra, Chin, Mochin, Qitay (Xitoy) tarzida aytilgan.

² Mochin — aslida, bu so'z hindcha "mahochin" ning qisqargan shakli bo'lib, "maho" — katta, ulug' degan ma'noni bildiradi. Demak "katta Xitoy" ni anglatadi.

³ Mashriq — Sharq, kunchiqar.
⁴ Turkiston ellari — turkiy xalqlar yashaydigan o'lkalar.

Chinlilar “Adab ul-muluk” (“Mamlakat odobnomasi”) (deb) ot berdilar, Mochin malikining¹ a’yonları “Oyin ul-mamlakat” (“Mamlakat urf-odatlari”) (deb) atadilar, mashriqliklar “Ziynat ul-umaro” (“Amirlarning bezaklari”) deb aytdilar. Eronliklar “Shohnomayi turkiy” (“Turkiy shohnomasi”) dedilar. Ba’zilar esa “Pandnomai muluk” (“Davlat o’g’itnomasi” demishlar. Turonliklar “Qutadg’u bilig” deb aytmishlar.

Bu kitobni yozuvchi Balasog² unda³ tug‘ilgan nafsi tiyiq, pokdomon (Ya’ni o’zini har narsadan tiyuvchi) kishidir. Ammo bu kitobni Koshg⁴arda⁵ tugal qilib, Mashriq maliki Tavg’achxon huzuriga keltirgandir, malik uni qadrlab, ulug’lab, o’z (saroyida xos Hojiblik (lavozimi)ni unga bergandir. Shuning uchun (uning nomi, shuhrati Yusuf Ulug’ Xos Hojib deb yoyilgan. (Kitobning) qadr-qimmati mana bular ustiga qurilgan: biri — Adl, ikkinchisi — Davlat, uchinchisi — Aql, to’rinchisi — Qanoat. Yana ularning har biriga bir turkcha nom bergrandir: aqlga — Kun-tug’di elig ot berib, podshoh o’mida taqdirm etgan, davlatga Oy-to’ldi nomini berib, vazir o’mida ko’rsatibdi, Aqlga O’gdulmish nomini berib, vazir (Oyto’ldi)ning o’g’li sifatida taqdirm etgan, qanoatga O’zg’urmish nomini berib, (O’gdulmishning) qarindoshi deb atagan. Yana ular orasida munozara savol-javobi bo’lib o’tgandek tasvirlagandir.

Uquvchi(ning) ko’ngli yorishib, kitob egasini ezzu duo bilan yod qilsin, inshoollohu taolo!⁶

Muqaddima

Olanda yagona qodir Xudodir,
Talay hamd-u sano unga sazodir.

Ulug’lik egasi, qodir, zuljalol,
Yaratgan, yashatgan va qodir kamol.
E yer-ko’k egasi, xaloyiq ila,
Nasibang yaratmish, yegin sen kula.

Hisobsiz berilgan elga rizq-ro’zi,
Yeyishar tirik jon, lek yemas o’zi.
Birota tirik zot qolarmikan och,
Ammo o’zi bo’lmas yeyishsga muhtoj.

Neni tilar esa, bo’ladi to’liq,
Tilasa qulin ham etolgay ulug’.

Sara yalavochga¹ so’ngi yo’q salom
Yana eshlariiga salom notamom.

Muhammad yalavoch — xaloyiq boshi,
Ulug’-u kichikning udir ko’z-qoshi.

Yana bu kitobdir juda ham aziz,
Bilimliga bo’lar bilimdan dengiz.

Bezanmish zakovat, bilimlar ila,
Bilimlar ichida qanoat tila.

¹ Yalavoch — elchi; “payg’ambar”, “rasul” ma’nolaridagi so’zlamning turkiy ifodasi

² Balasog’un — uning ikkinchi nomi Quz ordu bo’lib o’z davrida yirik shahardan biri bo’lgan.

³ Koshg⁴ar — Qashqar.

⁴ Kitobda uchta muqaddima mavjud. Ularning bittasi nastiy ikkitai esa nazmida ado etilgan.

Boshidan oxiri donolar so'zi
Go 'yo shoda marjon tizilgan o'zi.

Tug'ar¹ malig'-yu² Mochinlar³ begi,
"Bu kitob, — deyishdi, bilim tingagi."

Bu kitobni bir-bir oshirishdilar,
Xazina ichiga yashirishdilar.

Biridan biriga qumaru⁴ qolib,
Nodonlarga bermas, o'ziga olib.

Nafi ko'p-u, yo'qdir halal yo zarar.
Lekin bilmas uni, esiz, ba'zilar.

Kitobdan o'qigan biladi buni,
Kitob ko'rмаганлар uqolmas uni.

Tutar qo'llaridan kitob so'zları,
Yorishadi undan kishi ko'zları.

Mochinlar⁵ hakimi, bu kitob Chin⁶ boshchisi.
Dedilar: olamda yaxshisi.

Bu Mashriq elida, bori Turku Chin,
Bu yanglig' kitob yo'q olam ichra chin.

Kitob qadrini ham bilimli bilar,
Bilimsiz kishidan nima ham kelar.

Ba'zi kishilarga kitob bermagin,
Magar do'st esa-da emin bo'Imagin.

Bilimsiz sira ham bilolmas buni,
Zakovatli uqib kuzatar uni.

Qora Bug'ra¹ edi xon o'sha zam'on
Yana xon tilicha² etilgan bayon.

Bu yanglig' kitobni kim ayrtan azal,
Keyin ham kim aytar bu qadar go'zal.

Biror kimsa shunday yozarmi, qani,
Yozuvchi topilsa, ulug'lay uni.

Ne shahar, qishloqlar, saroyu bog'ot,
Kitobga berishdi munosib bir ot.

U elning donosi, hakimi turib,
Ot urdi elining odatin ko'rib.

Chiniylar "Adab ul-muluk"³ dedi belgisi,
"Anis ul-mamolik"⁴ Mochin degusi.

Bu Mashriq elining donishmandlari,
"Ziynat ul-umaro"⁵ deyishdi bari.

¹ Tug'ar — Kun chiqar, Sharq.

² Malik — podshoh, hukmron.

³ Mochin — Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'ot it-turk"da "Chin" ning Xitoy, "Mochin" ning — Tavg'ach deb yuritilishini ko'rsatib o'tgan.

⁴ Qumaru — metos, xotira, esdalik, yodgorlik. Bu so'z asarda kishi nomi sifatida ham uchraydi.

⁵ Mochin — oldingi sahifadagi izohga qarang.

⁶ Chin — qadimgi turkiy xalqlar yashagan joy nomi. "Ulug'" degan manoni bildiradi. Quyi Chin "Barxan" deb yuritilgan. U hozirgi Qashqar atrofalariga to'g'ri kelgan. Bu so'z Xitoy ma nosida ham qo'llanadi.

¹ Qora Bug'ra — asarda uning to'lq nomi Tavg'ach ulug' Bug'ra Qoraxon abo Ali Hasan binni Arslonxon tarzida keltirilgan.

² Xon tili — bu "Bug'raxon tili" deb ham yuritildi. Turkiy tilning o'sha davrdagi nomlардан biri.

³ Adab ul-muluk — "Mamlakat oddohnomasi"

⁴ Anis ul-mamolik — mamlakat (boshqaruvchi)larning do'sti.

⁵ Ziynat ul-umaro — Amirlarning bezaklari.

Eronlik "Shohnoma"¹ deb atadilar,
Turonlik "Qutadg'u bilig"² deb uqr.

Ne turli bu so'zlar aql-u tildagin
Jam etdim, yig'ildi bori eldag'i.

Kitobga nom urgan odamdir buyuk,
Xudo uni etsin olamga suyuk.

Kitobga nimaki qabul qilindi,
Bu turkiy tilida ajab ko'rindi.

Yana ushbu kitob bor ishga yarar,
Maliklarga ellar yana keltirar.

Bu mulknii tutishning sir-asrorini,
Hakimlar deganlar butun-borini.

Maliklar qo'rg'oni, kerak narsasi,
Ular tartibi-yu sharti barchasi.

Bu yurting xarobi, baqosi nedan?
Yo mulknin ketishi, vafosi nedan?

Qo'shin-u yigit, ot — amirning qo'li,
Ne tarzda bo'lishi ularning yo'li.

Bularning tartibi, nizomini ham
Saralab, avaylab, yozishgan begam.

Yana mulkda qo'li uzun har kishi,
Yaroqli yigitga tushadi ishi.

¹ "Shohnoma" — Abulqosim Firdavsiyning shu nomdagi mashhur assari nomi.

² Qutadg'u bilig — Yusuf Xos Hojib asarining nomi. U "Qut" (baxt) kel-tiruvchi bilim demakdir. Uning "Saodatga eltuvchi bilim", "Baxtilantiruvchi bilim" va b. taqinlari ham mavjud.

Bu yanglig' yigitlar har ishda chirov,
Go'yo tun chog'ida shu'la bergen oy.

Elining haqiqi bor maliklaridan
Malikning haqin ham eli oldi tan.

E'zozlasa eli yarashar uni,
Maliklar tufayli omon el joni.

Eliglarning¹ urush qilishlarini
Yov-askar sirimi bilishlarini.

Ne tarz hiyla-tadbir ko'rishin deyar.
Yov askariga duch kelishsa agar.

Elig qanday tadbir ko'rishi lozim,
Shodon yursa toki bari mulozim.

Haloyiqqa bo'lsa bu yanglig' elig,
El uni ko'ray deb shoshar belgilig.

Quti bor, ma'qili etay deb yumush
Yirog'-u yaqindan kelar el demish.

Yaqinlik deganni o'zing qil yaqin
Yovuz-u yomonni yiroq tut tag'in.

Siyosat boshini kesuvchi kishi
Adovatni kessa, ketar tashvishi.

Zakoli, bilimdon, yana alp yurak —
Yigitlar xazina urmog'i kerak.

Raiyatg'a bo'lsa baland toqati,
Bari ish ichida bo'lar rohati.

¹ Elig — elga ega bo'lgan shaxs, podshoh, hukmdor.

Sara so¹zni siylov qilarman senga,
O'gitim unutma, duo qil menga.

Boqib ko²r, kitobni yaratgan kishi,
Hunarli er emish, kishilar boshii.

Bu turli fazillat, zakovat ila,
Orasta emish u, yurarmish kula.

Sadorqat-u dili oqligi uchun
Uyatlifi, bilimli, sofligi uchun.

Quz O'rdu³ o'lkasi aslida eli,
Tub-asli, nasabdan so'z ochdi tili.

Tug'ilgan elidan chiqib borgani,
Kitobini yozib tugal qigani.

Borini bitibdir, ne esa kalom.
Bu Qashg'ar⁴ elida qilindi tamom.

Malik huzurida o'qidi uni,
Qora Bug'ra Tavg'och⁵ — u xonlar xoni.

E'zoz oldi ortiq adib xizmati,
Talay tuhfa berdi qalam — hurmati.

Xos Hojib⁶ unvonin loyiq bildi u,
O'ziga eng yaqin kishi qildi u.

Bu e'zoz-u izzat sababi uchun,
Yusuf Xos Hojib deb ataydilar chin.

Yana bu kitobni qilarkan bayon,
Uni to'rt moyadan qiladi ayon:

Biri to'g'rilikka tayanch — Adolat,
Biri Davlat erur, u qutli g'oyat.

Uchinchi ulug'lik ichida Zako,
Birovi Qanoat, erur bebaho.

Nom olgan ularning har biri tag'in,
Bularning sababi keladi keyin.

Adolat Kuntug'di bo'lар belgilig,
Uning mansabini deyishar Elig⁷

Bu Oyto'ldi Davlat atalar yana,
Vazirlik yeriga tengdir u — ana.

Atar Aqlni u deya O'gdulmish,
Uni shu vazirming chin o'g'li demish.

Qanoat O'zg'urmish nomini olar,
Bu yigit vazirming yaqini bo'lar.

Kitob hikmatiga asos to'rt maioz
Adibning qalami yana unga mos.

Arabcha-tojikcha kitoblar-ku ko'p,
Ona tilimizda kitob bo'ldi xo'b.

Bilimli bilim hurmatin,
Uquvli uqadi uquv qiyamatin.

¹ Elig — podsho, hukmdor, mamlakatdagi eng olyy mansab

² Quz O'rdu — Balasog'un shahrining ikkinchi nomi.

³ Qashg'ar — Qashqar, shahar va mamlakat nomi.

⁴ Tavg'och — asarda uning to'liq nomi Tavg'ach ulug'

Bug'ra Qoraxon abo Ali Hasan binni Arslonxon tarzida keltirilgan.

⁵ Xos Hojib — qoraxoniyilar davlatidagi yuqori darajadagi mansablardan birining nomi. Hozirgi ishlar boshqarmasi boshlig'i lavozimiga yaqinroq deb tasavvur etish mumkin.

Bu turkcha qo'shiqlar tuzattim senga,
O'qishda unutma, duo qil menga.

Borurman olamdan, eshit sen o'zing,
Ko p ibratlar olgin, och endi ko zing.

Muqaddima

Xudo nomi ila so'zim boshladim.
Yaratgan, kechirgan, astragan dedim.

Talay olqish-u ko'p duo va sanoa
Qodir bir Xudoga — unga yo'q fano.

Yashil ko'ku bo'z yer, Kun, Oy ila tun,
Yaratdi el-u yurt, zamoni bu kun.

Yaratdi u istab butun dumyoni,
Bari bo'ldi oxir, u degach neni.

Ne mayjudki mungli yaratilishi,
Mungi yo'q, Xuddodir, uning yo'q eshi.

Qodir, erkli, mangu, e mungsiz Xudo,
Bo'lakka yarashmas sira bu sado.

Ulug'lik sengadir, buyuklik senga,
Senga kelolmaydi hech nima teng-a!

Qo'shila olmagay senga hech zuhur,
Sen o'zing birinchisi, sen o'zing oxir.

Sening birligingga gumanomi bo'lar?
Sening qudrating-chi yo'q-u bor qilar.

Aniq yagonasan, e mangu Xudo,
Olamda o'zingcha nima bor a'lo!?

Ey ich-tashni bilgan, e haqqul yaqin,
Ko'zimdan yiroqsan, ko'ngilga yaqin.

Boring belgilidir, kun-oydek yorug',
Seni anglaguchi olam ichra yo'q.

Ne'matlardan emas sening birliging,
Ularni yaratding, ulardir sening.

Tugal oldi sendan vujudlar qaror,
Ular-ku yo'qolar, o'zing — mangu bor.

Yaratgan boriga yaralgan nishon,
Yaralgan neki bor tanqli, ishon.

Uning o'xshashi yo'q olamda, biroq
Tasavvur etishga yo'q aql-u idrok.

U yurmas, yo yotmas sira mizg'immas,
Yo o'xshash surati yo'q olamda, bas.

Keyin, oldin emas, yo so'l yoki chap,
Yo ostin, yo ustin emas. vo ajab.

O'rinni yaratdi, o'rinsiz o'zi,
Uningsiz o'rın yo'q, ishon, ey qo'zi.

E sirga yaqin, e ko'ngilga aziz,
Bu barcha zuhurlar belgi, sendan iz.

Yaratding tuman ming tirik dumyoni,
Tekislik, chuqurlik, tog'u daryoni.

Yashil ko'k yaratding yana yulduzing,
Qora tun yaratding, yoruq kunduzing.

Uchuvchi, yuruvchi, oluvchi nafas,
Ro'zu-rizzqini yer, topishib havas.

Baland arshdan endi to tuproq qadar,
Tirik jon barisi qo'lingga qarar.

E dilga jo etgan bu bir Xudoni,
Dili pokiza-yu, tiniq imoni.

Surishtirma uni ne yanglig' deya,
Boriga amin bo'l, o'zingni tiya.

Qani qayda dema, tutib ol o'zing,
Qanaqa, u qanday deb aytma so'zing.

E mungsiz egam, bu mungli — quling,
Gunohlari ko'pdir, ma'zurin qiling.

O'zingga sig'indim, unidim senga,
Alam, mungda qolsam, panoh bo'l menga.

Rasul ila, illo, ko'rishtir meni,
Madadkor et uni qiyomat kuni.

Chahoryorlaringga tuman ming salom —
Tegizzgin begam-ko'st, uzun, bardavom.

Ulug' kunda ko'rsat ularning yuzin,
Qo'llim tutguchi qil ularning so'zin.

Sening olqishingga ojizman o'zim,
Buni sen o'zing qil, tugadi so'zim.

Payg' ambar alayhissalom fazilatlari borasida

Sevimli rasulni yubordi egam,
U edi ikishilar sarasi, begam.

Chiroy edi xalqqa qorong'i tuni,
Yorug'lik ulashdi, yoritdi seni.

Xabarchi u edi qodir ollandan,
O'zing bo'lding emin qazo-balodan.

Otasi, onasin fidu qildi ul,
Bor ummattariga u ko'rsatdi yo'l.

Kunduzi yemadi, kecha yotmadni,
Seni so'rди rabdan, bo'lak demadi.

Seni so'rди tun-kun sadqat ila,
Uni maqta endi, sevinchin tila.

G'am-u qayg'u yedi chin ummat uchun,
Ularga osoyish, farog' at uchun.

Otadan, onadan yaqinroq bo'lib
So'r edi ummat deya yolvorib.

Xudo rahmati u edi xalq uchun,
Tutumi xush edi, qillig'i butun.

Muhabbat-u mehri bor olamga teng,
Uyat-andishali yana bag'ti keng.

Yer-u ko'kda edi aziz, bebaboh,
Xudo izzat etdi ato beado.

Ulug' edi avval butun olamga,
Namunasi qoldi bari odamga.

Ko'ngilni bog'ladam endi o'ziga,
Butunlay ishondim ish-u so'ziga.

Illoho, sen asra dil-u tillimni,
Rasulim qo'liga tegiz, qo'limni.

Qiyomatga ko'rgiz to'lindek yuzin,
Qo'llimdan tutuvchi eta ber o'zin.

Payg'ambar sahabalarining, rizvonollohi alayhim, fazilatlari borasida

Ovungin uning to'rt eshini ko'rib,
Kengashchi ulardir baqanti yurib.

Ikov qaynota-yu ikovi kuyov¹,
Sara edi, butun el ichra yalov.

Ularning avvali edi bu Otiq²
Til-u ko'ngli to'g'ri, Xudoga sodiq.

Mol-u tan-u jomni u qildi qurban,
Payg'ambar sevinchin tiladi har on.

Foruq³ edi keyin eng sara kishi,
Xalqining asili, soz edi ishi.

U edi ko'makchi, din uchun chiroy,
Shariati qildi ravshan misli oy.

Keyin Usmon⁴ edi, ochiq, fazli mo'l,
Kishilar sarasi, fozil, ochiq qo'l.

Fido qildi borin: molin ham o'zin,
Rasul berdi unga ikkita qizin.

Ali¹ edi yana ularning biri,
Seridrok, yurakli, jasur, botiri.

Ochiq edi qo'li, himmati baland,
Billimi, tutumi o'ziga monand.

Bular edi din ham shariatpesha,
Bular tortdi pastlar yukin hamisha.

Bu to'rt esh men uchun to'rt mijoz misol,
Mijozing soz esa hayot barkamol.

Ularga tuman ming salomlar mendan —
Tegizgin, Xudoyim, umidim sendan.

Ularni shod etg'in yurgan yo'llimdan,
Ulug' kunda olsin mening qo'llimdan.

Muhtaram, muzaaffar, madadkor, haqiqat va din tayanchi
Tavg' och ulug' Bug'ra Qoraxon abo Ali Hasan binni
Arslonxon rahmatullohi alayhim sha'niga²

Esa keldi Sharqdan bahorning yeli,
Olamga ochildi bishishning yo'li
Iporlandi bo'z yer qor-u muz ketib,
Bezanadi olam chiroy ko'rsatib.

G'olib keldi qishdan bahnor chiroyi,
Qurildi yangidan bahorning yoyi.
Quyosh qaytdi yana kelib o'rninga,
Baliq³ quyrug' idan Qo'zi burniga⁴.

¹ Bu yerda gap Abu Bakr Siddiq (r.a.v.), Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon r.a. va Ali ibn Abu Tolib ustida bormoqda.

² Otiq — Abu Bakr Siddiq (r.a.)ning ikkinchi laqabları. Ma'nosi "[do'-zaxdan] ozod qilingan" demakdir.

³ Foruq — so'zning ma'nosi "haq ilá botilni ajratuvchi" demakdir.

⁴ Usmon — Usmon ibn Affon r.a.

¹ Ali — Ali ibn Abu Tolib r.a.

² Tavg' och ulug' Bug'ra Qoraxon abo Ali Hasan binni Arslonxon — Qoraxoniylar davlatining Yusuf Xos Hojib yashagan davrdagi hukmdori.

³ Baliq — Quyosh burjalardan birining nomi, Hüt.

⁴ Qo'zi — Quyosh burjalardan birining nomi, Hamal.

Bahorga yetishib kiyindi yashil,
Daraxtar yopinib sariq, ko'k, qizil.

Yashil harir kiydi bu bo'z yer to'la,
Go'yo Chin karvoni jo'nar bir yo'la.

Tog'-u qir, dalalar o'zini qo'yib,
Yasandi butunlay yashil-ol kiyib.

Ming alvon chechaklar ko'kardi shodon,
Iporning hidiga ko'mildi jahon.

Atirgil hidini yoyarkan sabo,
Butun dunyo to'idi iporga go'yo.

G'oz, o'rdak — jami qush havoda shodon,
O'yingga berildi quvonib chunon.

Havodagi turna navosin cholar,
Tuya karvonidek tizilar, chopar.

Birovi qo'nar, ko'r, birovi uchar,
Birovi chopar, ko'r, biri suv ichar.

Ularqush¹ kukular o'z eshi tomon,
Go'zal qiz oshig'in chorlagansimon.

Qo'shiq aytdi go'zal kaklik tog' ora,
Qizil og'zi qondek, qoshi qop-qora.

Quloqqa chalinar qora zog² sozi,
Go'yo nido solgan qizdek ovozi.

Chechaklar oralab yurarkan bulbul,
Olamni qurshadi shirin bir g'ulg'ul.

¹Ularqush — sayroqi qushlardan biring nomi.

Ohular o'ymashar chechaklar uza
Bug'ular bo'ylashar chechaklar keza.

Qovoq solib osmon ko'zi yosh sochar,
Chechaklar-chi, quvnoq, kulib yuz ochar.

Bu zamон olam o'z-o'ziga boqib,
Quvonib, suyunib, yugurib, shoshib —

Ta'na qilib olam ochar so'zini,
Nahot ko'rmading, — der, — xoqon yuzini.

Atirgil hidini yoyarkan sabo,
Bexabar edingmi, och endi ko'zing,
Eshitmagan esang eshitgin o'zing.

Uzoq yillar ichra ma'yus tul edim,
Bezandim: bu begin ko'p ulug' xoqon,
Bag'ishlay borimni — fidounga jon.

Guldirak uradi tug'i navbatin,
Yashin yashnadi — tortti xoqon tig'in.

Biri chiqdi qindan, ana, el tutar,
Birin ovozasi olamga yetar.

Olam tutdi Tavg'och-ulug' Bug'raxon,
Ato bo'lzinunga bu ikki jahon.

E din shavkat, e davlatga bo'yin
E millatga toj-u shariatga din.

Xudo berdi-neki tiladi tilak,
Xudo bersinunga doimo ko'mak.

E dunyo jamoli, sharafga chiroy,
E baxtga tayanchu qora tunga oy.

Falak otanibdi senga berdi taxt,
Xudo bergay endi bu taxt birla baxt.

Xoqon uzra tindi jahon aylanib,
Tutar hadyalar u ko'zi boylanib.

Falakda charx urib olam qushlari,
Biri keldi Rumdan, Sharqdan aksai.

Ovoza qilishib, ta'riflab ular,
Quvonchu sevinchda ovunadilar.

Chiroyga o'ralgan ko'katlar o'zi,
Yashilga belangan bu yerning yuzi.

Ba'zisi hididan berar dilga ion,
Ulaming hididan munavvar jahon.

Ba'zisi muattar hidini sochar,
Ba'zisi olamning chiroyin ochar.

Birovi Tug'ardan¹ keluvchi taniq,
Birovi Botardan² yumushchi aniq.

Yumushgga keluvchi eshikda turar,
Eshikda turuvchi yumushda bo'lar.

Bu yanglig' yumushga bosh urdi olam,
Yovi bo'ldi taslim etib bosjni xam.

Elig ovozasi olar dunyoni,
Ko'zi bilmas uyqu ko'ngli qoroni.

Olam osoyish-u siyosat odil —
Eligning nomi ham o'sar muttasil.

Saxiy suratini kim istasa gar,
Eligning yuzida udir jilvagar.

Jafosiz, vafoli kishi istasang,
Yuziga boqa ko'r — vafo birla shan.

Faqat naf tilasang cheksiz, bepoyon,
Kelib unga boqchin — tilak namoyon.

Sof-u mehribon ham saxo misoli,
Kishini ko'rib qo'y: elig — timsoli.

Eyezgu qiliqli, ey eze gu urug',
Olam qolmasin hech seningsiz qurug'.

Xudo berdi davlat, ey turk quadrati,
Uning shukri bo'lsin shoni-shuhratni.

Bir eski ta'bir bor — masalda kelar.
Ota o'mi, oti, o'g'ilga qolar.

Ota o'mi qoldi, yana oti ham,
Sira bo'lmasin u qatorlarda kam.

Senga tuhfa garchi talaydir, elig,
Qabul qil kitobim — "Outadg'u billig".

Ular tuhfasi bil, kelar ham borar,
"Outadg'u billig"-chi, u mangu qolar.

Necha yig'ma dunyo — tugar, ozayar,
Bitilgan so'z esa olam qozonar.

¹ Tug'ar — Kun chiqar, Sharq.

² Taniq — belgi, alomat.

³ Botar — Kun botar, G'arb.

Kitobga bitildi xoqonning nomi,
Demak, o'matildi baqo nizomi.

Yo Rab, sen qila ber davlatini bor
Butun ishlariда bo'lib madadkor.

Eshini oson tut, yovini yo'qot,
Sevonchin tugal tut, g'amin chetga ot.

Yog'a bersin yong'ir, yozilsin chechak,
Yalang'och daraxtlar chiqarsin kurtak.

Falak aylansin-u keltirsin omad,
Xoqonga qo'l bersin sevinch farog'at.

Bo'z yer misday bo'lib qolmagunicha to,
O't o'lani ko'karmay qolarkan hatto.

Bu turklar tayanchi mudom baxtiyor —
Yashab ahli hasad bo'lsin xor-u zor.

Yana bo'lsa qancha tilaklari bor,
Madad bersin endi bu parvardigor.

Sevinchda yashasa eshi, qardoshi,
Nasib etsin unga Luqmonning yoshi.

Yaratdi falakni: mudom aylanur,
U bilan barobar olam aylanur.

Yashil ko'k yaratdi, yana yulduzin,
Qora tun-u yana yorug' kunduzin.

Bu ko'kdagi yulduz birovi bezak,
Biri ko'rsatar yo'l kishiga beshak.

Ularni xaloyiq uchun bezadi,
Ular ko'rsatay yo'l, kishi sezadi.

Birovi balandroq, biri past, qara,
Birisi yorug' roq, birovi xira.

Bulardan tepada Sekantir¹ yurar,
Iki yil, sakiz oy bir uyda turar.

Undan keyingisi bo'ladi O'ngoy²,
Bir uyda qolar o'n yana ikki oy.

Uchunchi Ko'riddir³, yurar u mag'rur,
Qayerga u boqsa, ko'kargan qurir.

Quyosh keldi keyin — olamga ziyo
U chiqsa bu olam bo'lар pursafo.

Beshinchchi o'rinda keladi Sevit⁴,
Kulib boqsa, senga o'zingni ovut.

Yetti sayyora va o'n ikki burij haqida

Xudo nomi bilan so'zim boshladim,
Yaratgan, avaylab-asragan dedim.

Tilagiga ko'ra yaraldi olam,
Tilagiday etdi Quyosh Oyni ham.

¹ Sekantir — Zuhal yulduzining turkiy nomi. U yetinchi osmonda joylashgan.

² O'ngoy — Mushtariy yulduzining turkiy nomi. "Mushtariy so'zining lug' aviy ma'nosi boy: xaridor, sotuvchi va b. Ushbu yulduz oltinchi osmonda joydashgan. U Sa'di Akbar nomi bilan ham mashhurdit.

³ Ko'rud — Mirrix yulduzining turkiy nomi. Quyosh sistemasiga kiruvchi katta sayyorlardan birining turkiy nomi.

⁴ Sevit — Nohid, Zuhra.

Keyin keldi Orzu¹: tilak orzular,
Yaqin kelsa qut-u baraka tilar.

Bulardan eng oldin Yalchiq² yuradi,
Quyoshga boqsa bas, nurga to'ladi.

O'n ikki O'kakdi³ bulardan o'zga,
Biri yakka, biri juft ko'rinar ko'zga.

Qo'zi⁴ — yozgi yulduz, keyin Ud⁵ kelar,
Erandiz⁶ Quchiq⁷-la yugurar, yelar.

Zo'r Arslonga⁸ qo'shni bu Bug'doy boshi⁹,
Tag'in Ulgu¹⁰ bo'lди Chayon¹¹, Yoy¹² eshi.

Yana keldi O'g'laq¹³, Ko'naku¹⁴ Baliq¹⁵,
Ko'rindimi bular — yorishar borliq.

Uchi yozgi yulduz, uchi qishki bil,
Uchini bahorgi, uchin kuzgi bil.

¹ Orzu — Utord (Merkuriy), U Quyosh tizimidagi sayyoralar turkumiga kiradi. Quyosh sistemasi: Ichki guruh (Merkuriy, Venera, Yer, Mars) va Tashqi gunuhlarga (Yupiter, Saturn, Uran, Neptun, Pluton) adratilgan.

² Yalchiq — Oy

³ O'n ikki O'kak — O'n ikki buri.

⁴ Qo'zi — Hamal

⁵ Ud — Savr

⁶ Erandiz — Javzo yulduzinining turkiy nomi.

⁷ Quchiq — Saraton.

⁸ Arslon — Asad

⁹ Bug'doy boshi — Sunbulu

¹⁰ Ulgu — Mezon

¹¹ Chayon — Aqrab

¹² Yoy — Qavs.

¹³ O'g'laq (Uloq) — (lug'aviy ma'nosi "echkinning bolasi"), Jadiy.

¹⁴ Ko'nak — Dalv

¹⁵ Baliq — Huy.

Uchi o't, uchi suv, uchi bo'ldi yel,
Uchi bo'ldi tuproq, undan bari el.

Ularning birovi birining yovi, hisop
Yoviga yaqinning yurishmas ovi.

Qorishmas bu yov'lар yarashdi tugal,
Ko'rishmas yog'iylar keldi bu mahal.

Xudoyim siladi banda boshini,
Yarashtdi elning qari — yoshti.

Yana aytay endi yaralgan odam
Bilim-u uquvdan bo'lар muhtaram.

Insonning qadri bilim bilan belgilanadi

Odamni yaratdi yagona Xudo,
Bilim, hunar, idrok u etdi ato.

Ko'ngil berdi, qildi tilini ravon,
Fe'l-u andisha, xulq, ato qildi jon.

Bilim berdi — odam ulug'dir bukun,
Uquv berdi — undan yozildi tugun.

Xudo bersa kimga uquv, idrokin
Bu ikov qiladi odamni sokin.

Bilimni buyuk bil, uquvni ulug',
Bu ikov ulug'lар qilini to'liq.

Bu so'zga asosdir mana ushbu so'z,
Buni sen eshitgin, yo'riq so'ngra tuz

Uquv qayda bo'lsa ulug'lik bo'lar,
Bilim kimda bo'lsa buyuklik olar.

Uqavli uqar-u bilimli bilar,
Bilimli, uqavli tilakka to'lar.

Bilim ma'nisin bil, nima der bilim,
Bilimdonga balo yo'q, deyar tilim.

Bilimsiz kishida kasallik bo'lar,
Kasal emlammasa yashamas, o'lar.

Kel-u ey kasalining tuzatgin, nodon,
Bilimsiz tubandir, billimdon — shodon.

Bilim bir jilovdir, agar bilsa er,
Tilakka tegar ul, talay orzu yer.

Uquv bo'lsa erda nafi ko'p tegar,
Bilim olsa erlar aziz atalar.

Uquv birla bo'lar butun ish-amal
Bilim birla beglar qilar ishni hal.

Tilning fazilati, foyda-zararlariini so'zlaydi

Uquvu bilimga tilmoch erur til,
Kishiga farog'at tili deya bil.

Bu tildan topar qut, sharofat kishi,
Noo'rin esa-chi, yorilar boshi.

Til arslon misoli yotar qafasda,
Bexabar boshini u yer nafasda.

Tilidan tutilgan ne deyar, eshit,
Amal qil bu so'zga, o'zingga ish et.

Balo keltiradi boshga bu tilim,
Boshimni u kesmay, uni kesayin.

So'zingni tiyib yur, boshing yormasin,
Tilingni tiyib yur, tishing simmasin.

Elat tili yomon — seni so'zlagay,
Ular fe'li yomon — etingni yegay.

Nima der, eshitgin, dono qardoshing,
Ayo til egasi, avayla boshing.

Esonlik tilasang agar, sen o'zing,
Tilingdan chiqarma yaroqsiz so'zing.

Bilib so'zlasa so'z donolik erur,
Bilimsiz so'zi o'z boshini yeyur.

Oshiq so'zda aslo bo'larmi foyda,
Ziyondan bo'lak yo'q so'z ortiq joyda.

Oshiq so'zlama hech, juda so'zla oz,
Tuman so'z tugunin bu bir so'zda yoz.

Kishi so'z tufayli bo'ladi malik,
Oshiq so'z qiladi bu boshni egik.

Oshiq so'z kishiga beradi malol,
Agar so'zlamasang deyishadi lol.

Shuning-chun doimo yo'riq o'rta tut,
Yo'riq o'rta tutgan kishi topdi qut.

Tilingni avayla — omendir boshing,
So'zingni avayla — uzayar yoshing.

Til nafi talaydir, sen o'zingni bos,
Goho maqtalar til, goho so'ksa mos.

Necha so'zlamagin bilib so'zla so'z,
So'zing bo'lsin, axir, ko'r odamga ko'z.

Bilimsiz go'yo ko'r, boqib qarasang,
Kel ey nodon, olgin bilimdan hissang.

Tug'ilgan o'ladi, qolarmi nishon,
So'zing ezzu esa — mangusan, ishon.

Iki narsadan er qarimas o'zi,
Biri xush qilig'-u, bir ezgu so'zi.

Tug'ilgan odamning merosi kalom,
O'lib ketar o'zi, faqat qolar nom.

Tirklik tilasang sen o'zing mangu,
Fe'l-u so'zni xush tut o'zing, ey bo'gu¹.

Bu til ta'rifini, so'kishin dedim,
Tilagim so'z edi senga aytgamim.

Butun so'zni yig'sa bilolmas uquv,
Kerak so'zni aytar kishi besiuv.

So'zimni bahodir bolamga dedim,
Bu so'zni o'ziga atagan edim.

Senga so'zladim men so'zim, ey o'g'il,
Senga pandni berdim o'zim, ey o'g'il.

Kumush qolsa mendan meros gar senga,
Uni tutmagin sen bu so'zga teng-a.

Kumush ishga tushsa tugar, olqinar,
So'zim ishga tushsa kumush qozonar.

Kishidan kishiga qumaru bu so'z,
Amal qilsang unga, bo'lar, nafi yuz.

Bu kun boqma, dono, qoshingni tugib,
O'zim uzrim aysam, senga iymanib.

Kitob egasi o'ziga uzr aytadi

Tilagim so'z edi, dono bilag'on,
Keyin kelguchiga deyildigan.

Zakovat kelarkan kishi qoshiga,
"Dag'al so'z — ofat", — der, —
kishi boshiba".

Quloq ber: olomon seni so'zlagay,
Hasadli so'z, axir, etingni yegay.

Boqib ko'rdim esa yengil bo'lди yuk,
O'zim dedim: aytgin, bari so'zni to'k.

Ne yanglig' desang gar, deyayin senga,
So'zimni eshitgin, qulq ber menga.

Xato edi odam yaratilmog'i,
Xato bo'lди odat uning qilmog'i.

Xatosiz kishi kim, sanab ber menga,
Xatolik juda ko'p, sanaymi senga?

Bilimli behad kam, bilimsiz mo'l-a,
Zakovati kam-ku, zakosiz to'lal!

¹ Bo'gu — dono, bilimdon, domishmand.

Bilimsiz dononing dushmani bo'lar,
Bilimsiz donoga yomonlik tilar.

Kishidan kishi farqi bordir azim,
Bilimdan bu farq, der mening chin so'zim.

Bilmli kishiga yo'naldi so'zim,
Bilimsiz so'zidan yiroqman o'zim.

Bilimsizga sira so'zin yo'q, dono,
Senga, mayli, bo'lzin bu jonim fido.

So'z ayttishda o'zim iymanib, ba'zur,
Tutishing so'rayman o'zimni ma'zur.

So'z aytar chog'ida xatosizi kim?
Xatoni tuzatar donishmand hakim.

Tuya burnidek so'z — jiloyda turar,
Tuya bo'ynidek u: yetovga yurar.

Bilib so'zlaguchi kishi bor talay,
Buni bilguchi er aziz har qalay.

Butun yaxshilikka sababdir bilim,
Bilimdan ochilgay samoga yo'llim.

Bilimga ulagin bari so'zni sen,
Bilimla ulug' bil yot-u o'zni sen.

Yashil ko'kdan indi bu bo'z yerga so'z,
So'zi birla inson og'ir qildi o'z¹.

Kishi ko'ngli go'yo tubi yo'q dengiz,
Bilim bor tubida, u inju, tengsiz.

Dengizda qolarkan agar injular,
Ne farq: injumi u yo tosh, birodar.

Bu yer tagidagi kumush toshi-da,
Qazilsa bezakdir beg er boshida.

Bilmli etmasa so'zin gar bayon,
Qachon bo'lar edi billimi ayon?!

Zakovat, bilim ko'p azizdir, aziz,
Erishsang, qo'yarsan yashil ko'kka iz.

Nima der, eshitgin dononing so'zi,
Zakovat, bilimdan pishigan ko'zi:

Jahongir bo'lishga zakovat kerak,
El olmoq uchun-chi farosat, yurak.

Uquv-la oladi jahongir olam,
Olim bo'idi bilim sabab muhtaram.

Odamzod to qo'ydi olamga qadam,
Bilimdon yuritar siyosat began.

Qachon bo'lmasin ham: bugun yo burun,
Bilimliga tegar balandoq o'rinn.

Zakovat tozalar kishi nuqsonin,
Bilim-chi oshirar kishi chiroyin.

Shunda ham ish amal ololmasa hech,
Qo'lingga so'ng olgin nayza yo qilich.

Tutar esa kimki elat boshini,
Qilich birla etar nodon ishini.

Olamni tutishga uquv bilsa xo'p,
Elat bosmoq uchun bilim bilsa ko'p.

¹ Qadimgi turkiy tilda "ag'ir qilmaq" — "qadrini ko'tarmoq" ma'nosidagi ibora ancha faol qo'llangan

Bular gar biriksa bo'lur er tugal,
Tugal er olamni tamom yer tugal.

Agar ikki olam tilar esang sen,
Chora ezungulikdir qilar esang sen.

Agar ezungulikni tilasang o'zing,
Kel-u ezungulik qil, kesilisin so'zing.

Kishi mangu bo'lmas, bu mangu — oti,
Qumaru¹ qoladi shu ezgu oti.

O'zing mangu emas, bu ot mangudir,
Oting mangu esa, hayot mangudir.

Ezgularga aralashishi ezunguliklarini
aytadi:

Qo'lling bo'lса uzun el-u yurt aro,
Fe'l-u so'zni tutgin a'lo doimo.

Yigitlik kechar-u tiriklik uchar,
Bu tushdek tiriklik juda tez kechar.

Tiriklikda yiqqin jami eznalik,
Bo'lar sen uchun u ezgu kiygulik.

Nima der, eshitgil, kishi ezzus:
Bu nafas oluvchi axir o'lgusi.

Olamda ne yanglig' tug'ildi odam
Biroz yurdi, keyin o'zi o'ldi ham.

Xohi beg, xohi qul, aziz yo yomon,
O'zi o'lsa hamki oti bor omon.

Senga tegdi endi bu navbat joyi,
Faqat yaxshilik-la yasha kiroyi.

Tirik oxir o'lar qora yer quchib,
Nom ezgu esa-chi ketarmi o'chib.

Ko'ngilda qolari uzoq begumon,
Biri yaxshi nomdir, birisi yomon.

Dono maqtov olar: essizchi so'kish,
O'zing o'yla, senga ma'qui qaysi ish?

O'zing ezgu bo'lsang noming ham buyuk,
Yomon bo'lsang yetar so'kish, ey suyuk.

Nedan bo'ldi Zahhok¹ so'kishga duchor,
Faridunga² nechun omad sazovor.

Biri ezgu edi — qozondi duo,
Essiz bo'lgani-chi so'kish beado.

Essizmi senga mos yoki ezzumi,
So'kishmi tilatsan yo duonimi?

Tilasang nimani ayirgin birin,
Essiz ezgu bo'lsa o'kimma keyin.

¹ Zahhok — "Shohnoma" dagi bu personaj iblisning ig'vesi bilan otasini o'ldiradi. Iblis uning ticki yelkasidan o'pib g'oyib bo'ladi. Iblis o'pgan o'sha joylardan ikkita ilon o'sib chiqadi. Ma'lum bo'lishicha, ular insonning miyasini bilan oziqlanan ekan. Unga har kuni ikki yosh yigitning miyasini keltirib berishadi. Ahhok Jamshid ustidan g'alaba qilib taxtga o'tiradi. Xalqqa ko'p zulmlar qiladi. U temirchi Kovanning ham farzandlarini o'ldiradi. Kova xalqni oyqqqa turg'izadi. U Tahmrasp ajodidan bo'lgan Fardunni taxtga o'tirishi uchun yordam beradi. Xalq Zahhok zulmidan qutuladi.

² Faridun — Temirchi Kova yordamida taxtga chiqqan hamda mash'um Zahhokni yenggan podshoh.

Shunga o'xshab aytur simagan kishi
Sinaganga ayon el-u yurt ishi:

Olar yaxshi nomin, ko'r, ezgu kishi,
Yomonlar nasibi — olam qarg'ishi.
Uzoq, ko'p sinadim: yomon qilguchi,
Ishi ketdi ortga, uzildi kuchi.

Yana ko'p kuzatdim: yomonlar ishi,
Yurishmaydi jaddal, e dono kishi.

Yomonlik go'yo o't: tamom kuydirar,
O'tishga kechig yo'q — u soy tez oqar.

Qarasang u o'tgan bor avlod qadim,
Xoh avom bo'lishsin, xohiki nadim.

Bilimdon esa gar uning qay biri,
Eliga xush yoqar royi, tadbitri.

Olam begi bo'lsa bilimli, dono,
El ezgu nizomda yashar doimo.

Bu kun ham kim ezgu atalsa kishi,
U bo'ldi bor ezgu kishilar boshi.

Agar beg bo'larkan bilimli, dono —
Bilimlini turtar yaqin doimo.

Qo'l urgay bor ishga, ko'rib ishlagay,
Bilim ishga solar, elin boshlagay.

Elini tuzar u, boyir qora om,
Qora boyishimi qillar u nizom.

Oti ezu bo'lar, saxyi atalar,
Saxyi o'lsa, oti tirkdek turar.

Ezgulik etsa kim o'larin bilib,
Go'yo qoldiribdi go'zal xat bitib.

Bu kun kim o'qisa ularni bilar,
Bu noma ichidan ziyyolar kelar.

Jahonda nima bor bilimdan aziz,
Bilimsiz desa bu haqorat, esiz.

Nima der, eshitgil, bilimli kishi
Jahoni ko'rib ko'p, yettilgan yoshi.

Bilimsizga to'rida o'rin bo'lsa ko'r
Bu to'r poyga bo'ldi, poyga esa to'r.

Donoga quyidan o'rin bo'lsa gar,
Bu joy to'rdan a'lo, baland sanalar.

Bilim bo'ldi hurmat, e'zozga sabab,
O'rin belgilanar donoga qarab.

Iki turli bo'lgay, ko'r, asli kishi
Biri beg, birisi — dono el boshi.

Ulardan bo'lagi yilqi¹ — mol soni,
Tilasang buni de, tilasang uni.

¹ **Yilqi** — bu so'z Yusuf Xos Hojib asarida "hayvonlarning umumiy nomi" ma'nosida keladi.

¹ **Qora om** — oddiy xalq, fuqaro.

Sen qaysi birisan, menga ayt ocha,
Ikovdan biri bo'l, uchidan qoch-a!

Oilich oldi berdi elini tuzar
Qalamdan joyiga kelar zer-zabar.

Ular qoldirishdi ko'p ezgu qonun,
"Qumaru"¹ so'zidir, nafi ko'p uzun.

Bobolar so'zidur biz uchun meros
Bobolar so'zining nafi beqiyos.

Bilimsizni ko'r deb atar ahli hush,
E nobiyno, olgin bilimdan ulush.

Kishi ko'ki so'z-u, bu so'z bepoyon,
E til, maqta ezgu kishini shu on.

Masal bor turkchada bunga qiyoslab
O'shani deyin men so'zimga moslab.

Uquv ko'ki so'zdir, bu til ko'ki so'z,
Kishi ko'ki yuz-u, bu yuz ko'ki ko'z.

Kishi tili ishda keladi bakor,
So'zi yaxshi bo'lsa topar e'tibor.

Boqib ko'rsang endi bu turk beglari,
Bu turk beglarining eng ezzgulari.

Bu turk beglarining yetuk sarasi
To'nga Alp Er edi² — yoyligan sasi.

Bilimi ulug'u hunari talay
Bilim-u uquvda tengsiz har qalay.

Ne-na alp-u jasur, yosh-u navqiron,
Ne-ne mard, botimi yedi bu jahon.

Tojikcha nomidir ul — Afrosiyob,
Bu Afrosiyob o'tti ellar tilab.

Hunarlar kerak er yigitga, bilim,
Agar desa yetsin har ishga qo'lim.

Tojiklar kitobda yozishgan buni,
Yozuvda yo'q esa kim o'qir uni.

Juda yaxshi degan oziqli botir,
Tugunni yechishga botitlar qodir.

Hunar ko'p kerakdir olish-chun jahon
Botir sher kerakdir bosish-chun qulon.

Jahongirga lozim hunar ming tuman
Uni qo'llab eldan ko'tarsa tuman.

Qilich ursa, buksa yovi bellini
Nizom ila tuzsa vatan-elini.

Bilim, uquv-idrok farqini,
nafini aytadi

Mana men demoqchi gap-u aqida:
So'z aytmoq kerakdir bilim haqida.

¹ Qumaru — meros, xotira. Bu so'z asarda kishi nomi o'mida ham ketadi.
² Alp Er To'nga — Alp — botir, mard, dovyurak ma'nolarini bildiradi, Mahmud Koshg'ariy ham uning forslar tononidan Afrosiyob deb yuritilishini alohida qayd etishgan.

li, dovyurak yigitlarga laqab sifatiда berilgan. Alp Er To'nga qadimgi turkiy-larning ana shunday qahramonlardan birining nomidir. Yusuf Xos Hojib ham, Er — erkak, yigit ma'nolaridan tashqari mard, botir ma'nolarini ham anglatgan. To'nga — bu so'z hind yo'lbarsiga nisbatan qo'llangan. Turkiy xalqlarda kuch-

Uquv mash' aladek qorong'i tuni,
Bilim yog'du erur, yoritar seni.

Uquv beradi shon, dono yuksalar
Ular ila yigit sharaf qozonar.

Ishonch qilmassang boq, olanda bu jon,
Zakovat ko'zi-la yoritar jahon.

Ma'lumdir men uchun dononing so'zi:
Bilim-la do'zaxdan xalos do'zaxi.

Agar rost yuritsa nizomni xoqon
Duoga to'ladi bu yorug' jahon.

Kichiklarga qara: bilimga hecham
Yoshi yetmaguncha yuritmas qalam.

Uquvli kishin ko'r, qarisa ular,
Uquv ketdi deya qalamit tinar.

Agar o'lsa telba nodon bir kishi,
Ular o'limas, axir, o'lim — turmushi.

Ne yanglig' desang ko'r uquvsiz kishi,
Uquvsiz kishining yurishmas ishi.

Bu hurmat uquvga munosib beshak,
Uquvsiz kishi bir hovuchcha kepak.

Ko'ra ber dononing har aytar so'zin:
Uquvsiz ne xilda boyitar o'zin?!

Uquv ila bo'lar ne bo'lsa odam,
Bilim bilsa bo'lar uniki olam.

Uquvdan bo'ladi chin odam tugal,
Begi billimidan elat mukammal.

Bularning barini kuzat, qara, bil,
Uquvli dononing tub astli ma'quil.

Uquv bo'lsa kimda pokiza bo'lur,
Bilim bo'lsa kimda u beglik olur.

To ochiq odamga zamin uzra yo'l,
Ko'tarar olamga bilim birla qo'l.

Uquvdan pokiza atalar kishi,
Bilindan bo'ladi a'llo el ishi.

Tafakkur-u san'at, bu talay hunar
Uquvdan bo'lgani uchun maqtaclar.

Uquv oz demagin, nafis ko'p, talay,
Bilim oz esa-da nafli har qalay.

Bu to'rt narsa ozin dema oz sira
Qulog ber so'zimga, zehn sol, qara:

Bu to'rtdan biri — o't, yana biri — yov,
Uchinchi — kasallik, hayot — unga ov.

Bilim bo'lardan tag'in ulaming biri
Oyoq osti qilma, shu ular siri.

Talaydir ularning nafsi, zarari,
Birovi olimdek, berim qay biri.

Bilim kimyo misol: u turadi jam,
Zakovat saroyi misol o'zi ham.

Iporga bu bilim yaqindir juda -
Ulami yashimoq benaf, behuda.

Hidi bildiradi yashirsang ipor,
Bilimni yashirsang til etar oshkor.

Bilim boylik axir, zavoldan yiroq,
Uni ola bilmas qaroqchi biroq.

Bilim-u zakovat kishiga tuzoq,
Tushovda turuvchi yovuzdan uzoq.

Tushovda turadi suyukli, zo'r ot,
Qilingay bu xil ot doim ehtiyoq.

Kishanli qocholmas, kerakcha yurar,
Tushovli yiramas, tilakcha turar.

Zako qasam ichgan og'ayni misol,
Bilim bir qarindosh, buni dilga ol.

Bilimsizga dushman bilim, qilig'i,
Yetar ikovining shu qilg'ilig'i.

Shunga o'xshar endi bu turkcha masal,
O'qigil, dilingga jo etgin tugal.

Uquvli kishiga zakovati esh,
Bilimsizga "sovga" so'kish peshma-pesh.

Bilimliga bilim tugal to'n osh-ey,
Bilimsiz qilig'i yovuz yo'ldosh-ey!

Zakovatti inson, g'azabingni bos,
Bilimdon, og'ir bo'l zakiylarg'a xos.

Bu qahr-u g'azabni qo'yat tur, yo'qot,
Agar isnga solsang begor bu hayot.

O'kinchli bo'ladi zolimning ishi,
Adashar ishida g'azabkor kishi.

Og'irlik kerag-u qilig'i qulay,
Yorug'lik kerakdir, to tug'sa kun-oy.

Bosiq bo'lsa, yumshoq, yana muloyim,
Uqvvli, bilimli, bosiq har doim.

Ayirsa uquvli uquvsiz kishin,
Bilimlini chorlab, soz etsa ishin.

Yaroqli yaroqsizni bilsa qarab,
Kerakli keraksizni tursa so'rab.

Ayirsa, har ishni bila qolsa u
Butun ishda qo'lga o'zin olsa u.

Bo'lar keyin ishlar butun va tugal
Bilimli shu tarzda etar ishni hal.

Tilakka tegadi bu yanglig' kishi
Iki olam ichra bo'lар soz ishi.

Yovuzdir kishiga bu qahr-u itob,
Bulardan chekadi shirin jon azob.

Nima der eshitgin bilag'an, dono
Amal qil bu so'zga o'zing doimo.

Odan qahr etarmi — bilimsiz bo'lur,
G'azab kelsa uni uquvsiz qilur.

Johilni jaholat tutar qo'lidan,
G'azabda dono ham ozar yo'lidan.

Nima der, eshitgin, dono, bilag'on,
Donolar so'zidir go'yo tolli jon.

Bu bir qancha narsa kishiga raqib,
Bilib olsang buni bo'lар munosib.

Bulardan birisi bu til yolg'oni,
Yana biri esa so'zin qiygani.

Uchinchchi yana bir may ichsa suya
Bo'lar ish bo'ladi, uni yer kuya.

Yana biri ortiq qiliq, harakat,
Bu ortiq qiliqdan ketar barakat.

Yana bir yaroqsiz, yomon fe'l butun,
U qo'zg'ar kishilar uyida tutun.

Yana tili bo'sh, yomon, zardali
Odamdan olar jon ochilsa tili.

Bular gar biriksa bari o'zaro,
Muqaddas saodat ketar avvalo.

Falak boqmas unga-boshi aylanar,
Boshida tegirmiin toshi aylanar.

Kelu ezzulk qil, ey ezgu kishi,
Chiroyli bo'ladi ezzular ishi.

Nima der, eshit, endi fe'li ravon,
Fe'li munosibning poyida jahon:

Qarimas bu ezgu necha yashasa
Yomon aziz o'lmas necha yosh yesa.

O'kinchda qariydi yomonning bari,
O'kindisiz yuradi fe'li soz qari.

Tilagin topar ezgu kunda yangi,
Esizning kuniiga ming ontar mungi.

Kitobga nom berilishi
va o'z qariligini aytadi

Kitob nomi bo'ldi "Qutadg'u bilig"
O'quvchi topar qut o'qib belgilig.

So'zim so'zladim-u tugadi kitob,
Butun olam ichra u yetdi shitob.

Olam baxti agar yetishsa tayin,
Kishi baxtiyordir, bu so'z bo'lidi chin.

Bu Kuntug'di elig so'zimming boshi,
Sababim eshitgin, ey ezgu kishi.

Keyin aytdim endi bu Oyto'ldini
Yorishadi undan aziz qut kuni.

Bu Kuntug'di degan adolat o'zi
Bu Oyto'ldi esa saodat, qo'zi.

Bu O'gdulmish otli keladi keyin,
Zakovat nomi shu, u affazl tayin.

Bu O'zg'urmish otdi kelar nihoyat,
O'zida mujassam uning ofiyat.

Bu to'rtov haqida men aytay so'zim
Tushungin so'zimni, e qora ko'zim.

Sevinchda yuruvchi ey ezgu yigit,
So'zimga amal qil, shoshilmay eshit.
Dadil bo'l, yo'qotma adolat yo'lin,
Yigitlik yo'qolmay olib qol qo'lin.

Aziz tut, yigitlik ketadi shitob,
Qochar bu tiriklik, yo'rig'inini top.
O'zingda bor ekan yigitlik kuchi,
Toat qil, to o'tmay tiriklik kuchi.

Sog'imb, yigitlik, o'kindim o'zim,
O'kinchim nafi yo'q, kesarmen so'zim.

Agar qirqdan o'tsa tiriklik yili
Omonlashar unga yigitlik yili.

Tegizdi qo'lin menga ellik yoshim,
Oqish qildi quzg'un tusidek boshim.

Chaqirar bu ellik menga kel debon
O'lim bo'lmasa gar boray u tomon.

Agar oltmish esa har kimsada yosh,
Yozi qish, ko'zida to'la bo'lди yosh.

O'tiz berganini ellik oldi-ku,
Bu oltmish kelarkan, bo'lar bo'lди-ku!

Nima qilgan edim men, ellik, senga,
Nega o'ch olishga hozirsan menga?

Shirin edi barcha yigitlik ishim,
Zahar qildi endi qarilik oshim.

Bo'yim edi o'qdek, ko'ngil edi yoy,
Ko'ngil-ku hanuz o'q, bo'yim bo'lди yoy.

Yigitlik ne bergen esami menga,
Qarilik yo'qotdi, u kelgay senga.

Ayo asraguchi, kel, astra meni,
Mashaqqatda bo'ldim yil, oy tutquni

Kishansiz chalishdi, bu tinnas oyoq,
Qoraydi, yorishmas ko'ruchchi qaroq.

Totig' ketdi, so'ngi yuragim o'ti,
Yiroqlashdi endi yigitlik oti.

Bedor bo'l, ey ulug', o'limga qara,
Bu o'tgan kuningga achin o'kira.

Kechib bordi davron huda-behuda,
Bu qolgan kuningda ma'zuring tila.

E mungsiz egam, mangu mudom tirik,
O'limga yaratding bu sonsiz tirik.

Tilarmen o'zingdan duom tun-u kun,
Tirik tutgin ancha, yoshim qil uzun.

O'zingdan tilab kuch bu so'z boshlasam,
Tugatmoq uchun ber o'zing kuch, egam.

Tilim, timma, maqta yaratuvchimi,
Yaroqsizni mendan yaratuvchimi.

Ayirdi, yaratdi, yoritdi ko'ngil,
Ko'ngillarga berdi ravon, to'g'iti yo'i.

Qorong'ida edim, yoritti tunim,
Zimistonda edim, yorishdi kumin.

Ozib chopar edim, u ko'rsatdi yo'i,
Kuyar edim o'tga, avayladi ul.

Ayirdi u tanlab, ko'tardi meni,
Xatolar yo'lidan chiqardi meni.

Ko'ngilni bezadi yorug'lik bilan,
Tilimni bezadi timiqlik bilan.

Ko'ngil berdi, aql-u idrokim qo'shib,
Bugun so'z aytaman ko'pirib, jo'shib.

Sevikli rasulning yo'li — mayog'im,
O'zi ko'rsatadi qayon bormog'im.

Menga tuhfa bo'lib fazillat yo'li,
Aziz bo'ldi menday toatsiz quili.

Buning shukrin endi ne xilda o'tay,
Agarchi yashab men yil-u oy o'tay.

Iloho, bilarsan bu ojizligim,
O'zingga ocharmen mungim ham yig'im.

Qila olmasam gar bu shukring sening,
O'zing qil men uchun, haqimga mening.

Uzun yo'lda sobit tut o'zing meni,
Yechilmasin aslo bu iymon to'ni.

Tanimdan chiqarda shirin bu jonim,
Shohodat bilan kes oxirgi tinim.

Bu yolg'iz joninga makon yer qati —
Bo'larkan, ayama o'zing rahmating

Toatsiz qulingman, talay gunohim,
Karaming bilan sen kechir, panohim.

Butun mo'min ahlin ishin qil oson
Keyingi hayotdan bugun ber nishon.

So'z boshi Kuntug'di Elig to'g'risida

Uquv anglatar-u bilim bildirar,
Vafosiz olam ham fe'lin uqtirar.

Vafosiz bu kampir — olam serfusun,
Qiliqlari qizday, yoshi ko'p uzun.

Qiliqlari qizday chiroyli, go'zal,
Sevib qolsang, agar, qiladi o'sal.

Seuvuchini sevmas, kiyikdek qochar,
Qochuvchini quvar, oyog'in quchar.

Gohida bezanib yurar ergashib
Gohida o'tadi qoshi chirmashib.

Gohi ters o'girar besabab yuzin,
Avaylar, panaga oladi o'zin.

Ne-neni qaritdi, qarimas o'zi,
Talayni tugatdi, tugamas so'zi.

Jahonda bor edi, dono, ko'pga bosh
Olam bo'lidi uning zamoniда yosh.

Bu Kuntug'di elig taniqli otı,
Olamga tanilgan, qarorli qutı.

Ne qilsa xush edi, munosib chiroy,
So'zi rost edi-yu ko'zi ko'ngli boy.

Beg edi uquvli, zakiy ham dono,
Yomonga o't edi, yoviga — balo.

Fe'li rost edi-yu tag'in serg'urur,
Bular bari unga sharaf keltirur.

Bu yanglig' beg edi, bilimdon, dono,
Ishiga munosib so'zi doimo.

Siyosat qilar edi himmat bilan
Bu himmat yarashur siyosat bilan.

Bunga o'xshar endi shoirlar so'zi,
O'qisa ochilar o'quvchi ko'zi:

Kerak erga himmat, muruvvatda nom,
Yaramas-yovuzlar yirasa tamom.

Kishilikka himmat, muruvvat kerak,
Bulardan topadi kishi ehtirom.

Bu Kuntug'di elig shu xislat ila,
Olamga berardi quyoshday shu'la,

Zakovatilami yig'ib oldii ul
Donishmand elimi yig'a qoldii ul.

Jam yetti olamning saralarini,
Bilimdon, odamning saralarini.

O'zi-ku soz yetti eli ishini
Yana istar edi sara kishini.

Ko'mak bersa o'zi, ishin boshlasa
Elig joni tinsa, o'zi ishlasa.

Elig dedi bir kun, achinib o'zi:
Buyuk ish bu beglik ishi ham so'zi.

Bosh og'riqlari ko'p ham ishi talay
Talay ish bajargan botir har qalay.

Qilolmasman o'zim butun el ishin,
Yigitlar kerakdir — bilar ish boshin.

Kerak menga endi bir asil kishi
Zakovatli, dono, yigitlar boshi.

Fe'l-atvori rost-u sodiq, mehribon,
Til-u ko'ngli birday esa begumon.

Qila bersa edi meming ishlaram,
Ko'ra bilsa edi ich-u tashlarim.

Nima der eshitgan, sinagan kishi
Boshidan kechirgan, yetilgan yoshi.

Ko'makchi kerak erga yordamchilar,
Uqvuvi, zakoli, dono elchilar.

Ko'makchi degani ko'p ishni bilar,
Bilib ishlaganlar tilgin olar.

Ko'makchi ko'p esa, yurar beg shodon,
Muhayyo butun ish, qonun ham shoyon.

Ko'makchi kerak barcha ishda, jigar,
U beglik ishiga yayar, asqotar.

Ko'makchi tilab topmadi, ko'r, elig,
Bori ishni qildi o'zi u tetig.

Tegar bo'ldi kunda, ko'r,unga yumush,
Rohatga barobar alam bor ulush.

Qaragin, masalda bu xil so'z kelar
Sinab so'zlaguchi bularni bilar:

Rohatni tilasang mashaqqat yetar,
Sevinch istaganga azob yuz tutar.

Ulug'lar boshida bosim ortadi,
Bosh ulg'aysa qancha, yirik bo'rk kiyar.

Elig tutdi butun eliga quloq,
Ma'lum bo'ldi unga bari qora, oq.

Yaramasni bo'g'di, yo'qoldi urib,
Yomonni yiratdi elidan surib.

Odilllik ila u sura berdi ot,
Mol-u davlati har kun o'ldi ziyyod.

Butun barcha yerda ko'z esa ochiq,
Ishida oqillik bo'lar yarashiq.

Bu xil odam asli har ishda lozim,
Unga mos, munosib esa mulozim.

Bu shoir tili ko'p unga bo'ldi mos,
Shoirlar tilidir ma'niga asos:

Bu hushyor kishilar doim yer oshin,
G'ofillar yeyishar o'zining boshin.

G'ofil bo'lma, saqlan bari ishda ham,
G'ofilga keyin ham nasiba — alam.

Kishi beg'ami ko'r, g'ofillik qilar,
Agar yov yetishsa, g'ofillar o'lar.

Nima der, eshitgin, olam tutgan yer,
G'ofil bo'lmay aslo, yovin urgan er:

Elin yashmatishga, e hozir kishi,
Bu soqliq¹ erur ham shariat ishi.

G'ofil umri kechar g'ofillikda jum,
G'ofil bo'lma, asran, bilag'on hakim.

Elig hushyor esa eliga u naf,
Bu nafi bilan el topadi sharaf.

Eli yashnadi, shod elat farovon,
Bo'ri qo'y ila suv ichar yomma-yon.

Sevuvchisi shodon — uni maqtashar,
Yovi-chi eshitib yig'lab-siqtashar.

Ba'zisi sig'inib tilar tilagin,
Ba'zisi o'pishdi kelib etagin.

Nima der, eshit, ey dili beg'ubor,
So'zi, ko'r, chechakdek taratar ipor.

Bu beglik ulug'luk bo'lar, shubhasiz,
Yo'rig'i soz esa, e kuluvchi yuz.

Amal ezgu, ammo yana ezguroq,
Siyosatdir uni soz etmoq kerak.

Zamon-u xaloyiq uchun ko'p chiroy
Bo'lardi, begi gar durust tutsa roy.

Kishiga yarashar, axir ezgu nom,
Bu nom keltiradi unga ehtirom.

E'zozzar olar beg ko'makchi agar,
Kishilik-la etsa ishin jilvagar.

Olamga yetishdi elig farmoni,
Olamga yoyildi ovoza — shoni.

Duolar ichida taraldi oti,
Kun osha ko'paydi kuchi, quadrati.

Olam eli keldi uni orzulab,
Diliida ne esa tilagin tilab.

Beliga belbog'in bog'ladi bari,
Go'yo birga yurdi qo'y ila bo'ri.

Oyto'ldining Kuntug' di
xizmatiga kirishini aytadi

¹ Saqliq (*soqlik*) — qadimgi turkiy adabiyotda bu so'z hushyor, ziyrak, sez-gir ma'nolarini anglatgan. Bu o'zakdan yasalgan "soqli" so'zi hozirgi o'zbek tilida ham faol qo'llanadi.

Bir Oyto'ldi otli kishi bor edi,
Eligmung ishiga u tayyor edi.

O'zi yosh edi-yu qiliq'i ravon,
Bilimli, uquvli, og'ir-navqiron.

Yuzi ko'rqli edi qamashardi ko'z,
Fe'li yumshoq edi, yana ezgu so'z.

Talay ish hunarini mukammal bilib,
Yurardi hunarin qo'liga olib.

O'ziga o'zi derdi bir kuni qaray:
Bu san'at-hunar-la negajim yuray.

Ne uchun yurarmagan bu yerda begor,
Elig xizmatiga bo'lay endi yor.

Elingga naf etsa hunarim, ishim,
Yo'qolib-yitadi tugal tashvishim.

Uquvli, bilimdon, u sara emish,
Sohibi hunarni "bu yon kel" demish.

Bunga mengzatibdi shoir so'zini,
Ocharkan tinimsiz ma'no ko'zini:

Uquv qadrini ham uquvli bilar,
Bilim sotsa dono, bilimli olar.

Nodonlar ne bilsin bilim qadrini,
Bilim qayda bo'lsa bilimni tilar.

Bilimdon biladi, bilimning otin,
Bilimsiz ne bilar bilim qiymatin.

Bilim qadrin olar bilimdon, xolos,
Bu zar qadrina-chi bilar zarshunos.

Bu Oyto'ldi oldi ot-u kiyimin,
Elig xizmatiga, — dedi — borayin.

O'ziga keragin u qildi hozir,
Elig xizmatiga jo'nadi hozir.

Yana dedi: bugun boraman turib,
Elig xizmatiga o'zim yuz urib.

G'ariblik yerida kerak bo'lsa mol,
Molim tugasa gar bo'ladi malol.

Beshubha kerakdir pul: oltin-kumush
Ularga osondir qiyin har yumush.

Nima der bilimi dengiz kabi keng,
So'zini etuvchi muhim sirga teng:

Saroy xizmatiga yo'l olgan kishi
Bu ikkini bilsa, osondir ishi:

Trirklik kerak bir, bedard, begasal,
Yoritsa yuzini, og'ishmasa sal.

Yana bir sof oltin kerak bo'ladi,
Qachon qiyin bo'lsa, chora qiladi.
Shoista bo'ladi o'shanda ishi,
Bularga erishsa ketar tashvishi.

O'zi birla oldi talay pul-tovar¹,
Dedi: tanglik ichra bu pullar yarara.

Uyidan saroyga qo'yarkan qadam,
Biroz yurdi o'zi, biroz oldi dam.

Yetib bordi oxir saroy yoniqa,
Erihib dildida bor armoniga.

¹ Tovar — qadimgi turkiy so'z, u mol, narsa, umuman, moddiy narsa ma'nolarini anglatadi.

Kirib kent ichida tiladi qo'noq,
Topa bilmadi u qo'noqni biroq.

Musofirxonani topoldi arang,
To tongacha bo'lidi u yerda, qarang.

Nima der, eshit endi dono bilib,
Senga so'zladı so'z, bilimdan olib.

Juda qiynaladi tanishsiz kishi,
Talay yot aro kirsa yolg'iz boshi.

Bu yangi keluvchi juda qiynalalar,
Tanishi yo'q esa bu joyda agar.

Tanishsiz kishilar nobiyino soni,
Nobiyno adashsa koyima uni.

Begona elatga tusharkan yo'li,
Kelindek bo'lар er, soqovdek tili.

Begonani asra, ichir, ber yemak,
Musofirni doim avaylash kerak.

Aziz tutsang uni yorishar ko'zing,
Musofirni desang yoyilar so'zing.

Kishiga kerakdir tanishu bilish,
Ular ila bitar tuman-turli ish.

Bu Oyto'lди ancha — shu yo'sin yurdi,
G'ariblik yuziga sariqlik urdi.

Tanishdi, kishilar ila u shu ko'y,
Bazo'r topdi o'zi ijaraq uyu.

Yaqin etdi o'zin, yana do'st kutib,
Ulug' -u kichikka ochiq yuz tutib.

Oidirdi, nihoyat yurishdi ishi,
Unga qarshi keldi bir ezu kishi.

Yaqin bo'lди unga bir ezu kishi
Kusamish¹ oti-yu ko'p ezu ish.

Unga aytdi vijigit niyatim, so'zin,
Na edi tilagi, kim edi o'zin.

Uyidan bu elga nega kelganin,
Deya berdi barcha o'zi bilganin.

Eliga yaqin Xos Hojib² bor edi,
Oti Ersig³, elig unga yor edi.

Kusamish unga bordi bir kun turib,
So'zin so'zlatdi so'zga ruxsat ko'rib.

So radi u Hojib nega kelmishin,
Tilagi ne ekan oyog'u boshin.

Kusamish deya berdi barcha so'zin,
Ne ermish tilagi, kim ermish o'zin.

Hojib dedi: avval menga kelsin u,
Ko'rayin uni men, meni ko'rsin u.

Yana uqturayin eligga bu so'z,
U qay kun ko'rinsin, qachon kelsin uz..

¹ Kusamish — shaxs otı. Bu "kusa" fe'lidan yasalgan. Uning "kusamoq", "tusamoq" shakli hozirgi tilimizda ham mavjud bo'lib "istamoq", "xohiamoq" ma'nolarini anglatadi. Demak, "Kusamish" — xohlangan", "istalgan" degan ma'nolarni anglatadi.

² Hojib — davlat boshqaruvidagi yirik lavozimlardan biri — eshik og'asi, saroy amaldoirlari bilan shug'ullanuvchi lavozim nomi.

³ Ersig — shaxs otı, "dovyurak", "mard", "bahodir" ma'nolarini bildiradi.

Kusamish turib chiqdi, uyg'a yana
Kirib aytdi: Oyo'ldi, tug'di kun-a.

Yur endi, tanishgin bu Hojib ila.
Tilaging ne esa Xojibdan tila.

Ko'rib bilsin o'zi, eshitsin so'zing,
Tilaging ne esa, o'tingin o'zing.

Unga so'zladim men so'zingni ochib,
Yanada go'zalroq, o'zing ayt bichib.

Juda yaxshi degan til-u ko'ngli bir,
Dil-u ko'ngli birning so'zi ham nodir:

Birov takror etar birovning so'zin,
Kishi o'zi bilar o'z ishi ko'zin.

Kishi bo'lmasin senga qancha yaqin,
O'zingandan yaqinroq bo'larmi tag'in.

Yaqin do'st tilasang o'zingga o'zing,
O'zingdek yaqin yo'q, kes endi so'zing.

To'nin kiydi Oyo'ldi, yurdi nari,
Kusamish ikovi yurar ilgari.

Saroya yetishdi, kirishdi yurib,
Kutib oldi Hojib kishisi ko'rib.

Kusamish kirib chiqdi Hojib tomon,
Chaqirlidi ikki yigit shu zamon.

Ko'rishdi bu hojib, o'rin bo'ldi to'r,
Shirin so'zladu u boqib, mana, ko'r.

Hojib dedi endi bu ko'ngling nedek,
Kelib qayga tushding, u o'mning nedek.

Tanishing kim o'zi, yaqin, qardoshing,
Qalay holating-u, yemishing, oshing?

Yana dedikki ayt, tilaging nima?
Nima ish qilursan, keraging nima?

Bu Oyo'ldi aytdi, e qutli Hojib,
Sevindim Kuntug' di noming eshitib...

Eshitidim yiroqdan uning nomini,
Bilim-u, uquvi, zako — shonini.

Uning dargohiga yuz urdim bu dam,
Uning orzusida yugurdim, jo'ram.

Tilagim eliga yarasam o'zim.
Ma'qul ko'rsa Hojib, gar aysa so'zim.

Ko'rib sevdil Hojib bu Oyto'ldini,
Tiliida yuritdi shirin so'zini.

Yuzi ko'nkam edi, qilig'i toza,
Bu soflik kiyimi go'yo andoza.

Unga keldi ma'qul, shirin so'zлади,
Elig qabuliga uni ko'zladи.

Nima der eshitgin, sevilgan kishi,
Sevilganga qusur — fazilat boshi.

Kishi sevsra aybi bo'lар fazilat,
Agar sevmasa-chi? Fazilat — illat,

Bu so'zga dalili mama, sen eshit,
O'qigin, tushungin, o'zingga ish et;

Ko'ngil sevsra aybi fazilat bo'lur,
Bori fe'li maq'ul, har aybi to'lur,

Ko'ngil kimni sevsa ma'qul borlig'i,
Ko'rar ko'zga ursa ko'rinnas bo'lur.

Javob berdi Hojib, ko'r, Oyto'ldiga,
Dedi shoshma endi, elig oldiga —

Borayin, olayin uning so'zini
Qachon vaqt topadi bilay o'zini.

Seni bilsin avval, u ko'rsin yuzing
Tasavvur etolsin fe'ling-u so'zing.

Men esa o'zingga qarab turaman,
Butun ishlarin ni sevib qilaman.

Talay ezgu so'zlar Hojib so'zлади
Yigitga madad-u chora izladi.

Bu yanglig' bo'ladi kishi sarasi,
Ulardan tuzalar ko'ngil yarasi.

Nima deydi, eshit, elin boshlagan,
Butun ishga jonin berib ishlagan:

Kimning bo'lsa agar davlati ziyod,
Qilishi kerakdir el-u yurtni shod.

Kimning elga agar uzaysa qo'li,
Muloyim bo'llishi kerakdir fe'li.

Ochilsani agar eliga siri
Shirin so'zlasin u, shudir tadbir.

Vafosiz bu davlat: berar-u buzar,
Beqaror erur u: kelar yo to zar.

Bu qutga ishonma, o'zing ezzu bo'l,
Bugun bunda esa, keyin unda bil.

Bu qutga ishonma, e qut olguchi,
Keluvchi erur qut, yana borguchi.

E davlat egasi, davlat tutishda
Oqil-u hushyor bo'l, yana sarishta.

Sen ga bo'lsa beglik — ulug'lik nasib,
Kichik-kamtarilikni bilgin munosib.

Yana dedi Hojib, kel endi beri,
Sevin, senga mosdir shodlik qamari.

Shoshilma, ko'ngilni sen etma tushik,
Soat — vaqt yetilsa, ochilar eshik.

Yana yaxshi degan bu haqda dono,
Dono so'zi ipak yo shohi go'yo.

Kim ishda shoshilsa, aniq kech qolar,
Shoshilgan ish so'nggi o'kinchli bo'lar.

Ish qilar chog'ingda shoshilma aslo,
Har ish fursatida bitar, e dono.

Bu Oyto'ldi tinglar Hojib naqlini,
Qo'lliga olib kuch, yig'ib aqlini.

"Borim — shu, — dedi u, ey ulug' Hojib,
Eliga ayta ko'r, ne bilsang vojib."

Qachon kelishimni etishsa tayin,
O'sha daqiqada yetib kelayin.

Turib jo'nadi u uyiga sekin,
Bosib kelar edi bor olamni tun.

Hojib ko'rди uni: fe'l-u raftori,
Tamon o'zgachadir dil-u so'z — bori.

Dedi: ko'rganum yo'q bu yanglig' kishi,
Bilimli, zakoli, saralar boshi.

Bu yangliq kishilar eligga kerak,
Eligga keragi, ko'r, elga kerak.

Bu yanglig' kishilar edi ko'p noyob,
Noyoblar noyobligi uchun noyob.

Nima noyob esa o'shadir aziz,
Noyobni qidir, top, izla unga iz.

Butun ishga yayar bu hunarli er,
Bu hunar bilan u tilak-orzu yer.

Soati yetilgach Hojib bir kuni
Eligga dedi so'z — shu Oyo'ldini.

Deya berdi fe'l'in, hunari, so'zin,
Bilimi, zakosi, qo'yingki, o'zin.

Eshiddi, elig der: olib kel, qani,
Qayerda turadi, ko'rayin uni.

Tilar edim endi shu yanglig' kishin,
To menga bo'lib yor, etar el ishin.

Tilaklarni topdim, faqat shu so'zim,
Bu yanglig' kishiga zor edim o'zim.

Boru tez chaqirgin huzurim sari,
Hozir qil shu onda, ey el sarvari.

Hojibning bor edi quili navqiron
Jo'natdi o'shani u yigit tamon.

Bu o'g'lon yugurdii, dedi so'zini,
Bu Oyo'ldi qo'lga olib o'zini.

Saroyga yuz urdi minib otini
Kellib kirdi, Hojib chaqirdi uni.

Yaqin tutdi Hojib, o'rin bo'ldi to'r,
Oyo'ldi o'tirdi odob ila, ko'r.

Hojib kirdi elig tomon yuz urib,
Eligga o'tindi oyoqda turib.

Elig dedi, chaqir, menga kirsin u
Uni men ko'rayin, meni ko'rsin u.

Hojib chiqди, dedi: ey, Oyo'ldi, tur,
Kamar bog'jadi qut, qani endi yur.

OYTO'LIDINING ELIGGA KO'RINISHI

Bu Oyo'ldi kirdi, tiz cho'kdi o'zi,
Elig ko'ngli tindi, yorishib ko'zi.

Yukundi eligga, so'zin boshhladi,
Elig unga ezunga nigoh tashhladi.

Elig dedi, kimsan, nimadir oting,
Qayerdan kelarsan, ne tarz hayoting.

Oyo'ldi sokinlik ila oichti til,
Fasohat ichida so'zin aytdi, bil

Sokin suzamollik bilim belgisi,
Bilimsiz kishilar yobon' yilqisi,

Bunga o'xshab ketar endi ushbu bayt,
Shoir der: shoshilma, og'ir bo'l bu payt.

¹ Yobon — yovon, cho'l, sahro.

Shoshilma hech ishda, bo'lib ehtiyyot
Shoshilinch ish sira tugamas bedod.

Bori ishda shoshhma, og'ir bo'l, og'ir,
Og'ir bo'lgan odam ulug'lik olur.

Bu Oyo'ldi dedi, ey olam qutı,
Yarashiq bo'ladi kishi xizmati.

Otim — qul, makonim — eshik poyi bil,
Odatim — kishlilik mudom — oyu yil.

Seni keldim istab, uzun yo'l yurib,
Tilakka yetishdim orzuim qonib,

Tilagim shu: mendan o'girma yuzing,
Diling iimmasin, yaqin tut o'zing.

Eshiddi bu so'zni, suyundi elig,
Dedi: Xudo berdi tilakdek sherik.

Elig aytdi: Oyo'ldi, ko'rdim seni,
Sevintirdi fe'l-u qilig'ing meni.

Qo'lingga ol endi elig xizmatin,
Eshigimda o'zing sodiq bo'l, yaqin.

Mukofot beray men, sen etgin yumush,
Qoyil qil sen ishni, men beray ulush.

Bu kundan og'ishmay ishning et ado,
Haqing ham o'talur munosib, a'lo.

Yer o'pti, ko'r, Oyo'ldi aytdi, xoqon —
Ishora etarkan yorishdi jahon.

Senga xizmat uchun muqim tik turib,
Yetishdim, uyingga uzun yo'l yurib.

Xudo bersa quvvat, ishingni qillay,
Bu ishda o'zidan panohlar tilay.

Turib chiqdi sekin u saroy tomon
Dili porladi oy misol ushbu on,

Nima der eshitgin shodumon kishi,
Ruhi yengilerning yurishar ishi:

Kulib boqsami beg kishiga agar,
Ichiga u sig'mas, suyunar, yashar.

Ochiq tutsa beglar kishiga yuzin,
Yorishar ko'ziyu yod etar so'zin.

Agar tutsa beglar o'ziga yaqin,
Yaqin bo'lar unga bor olam tag'in.

Qut erur bu beglar, yaqin kim agar,
Yaqinlik haqiq u — tilakka yetar.
Eta berdi xizmat bu Oyo'to'ldi, ko'r,
Sahardanoq ishda hozir bo'ldi, ko'r.

Yorug'da qorovul, kecha posbon u,
Og'ishmay ishini etar dildan u.

Elig ishlarini saranjom qilar,
Elig ham kuzatar, ishini bilar.

Ishin do'ndira berdi o'zi mudom,
Elig eta berdi uni ehtirom.

Ishiga qarab qulni beglar to'liq —
E'zozlar, ishi singsa qul ham ulug'.

Bu xizmat tufayli kishi beg bo'lar,
Agar xizmat etsang tilaging to'lar.

Eshit endi dono so'zi ne deyar,
So'zi ma'nosini u nozik yo'yar.

Noloyiq yumushi to'rga tortadi,
Yaramas yarasa obro' ortadi.

Kishi xizmat etsa og'ishmay agar,
Bu xizmati singsa tilagin topar.

Bu Oyto'ldi kunda o'rinaltdi ish
Elig ham bera berdi unga ulush.

Kuniga bo'la bordi o'zi ulug'
Alami yo'qoldi, sevinchi — to'liq.

Ishiga berildi bu Oyto'ldi tez,
Elig marhamatin oshirdi u kez.

Butun ishlariда uni sinadi
O'zin baxtiyor deb elig sanadi.

Oyto'ldi o'zining davlat ekanligini aytadi

Elig tanho turib o'zi bir kuni
Chaqirdi yoniga bu Oyto'ldimi.

Kirib keldi o'zi u o'tirmadi,
Elig imladi, kel, o'tirgin dedi.

Chiqardi kichik to'p bu Oyto'ldi, ko'r,
O'tirdi o'shang, sokin bo'ldi, ko'r.

Elig qildi unga talay ko'p savol,
Javob berdi shoshmay o'zi bematol.

Sevindi elig, ko'r, yoritti yuzin,
Uni ko'rди Oyto'ldi, yundii ko zin.

So'zin kesdi elig, hech indamadi,
Ko'zin yundii Oyto'ldi hech ochmadi.

So'ray boshlar yigit yana elig so'zini
Javob berdi, tugib yuzini.

Rosa ko'rdi sinab bu elig uni,
Tugal bildi bilim, uquv, zehnini.

Kulib boqdi elig, ovutti o'zin,
Bu Oyto'ldi tezda o'girdi yuzin.

G'azablandi elig, yuzi ko'p qaro,
Dedi shoshqaloqlik kishiga balo.

Ishonchda adashdim, ehtimol, o'zim,
Nima deb ochayin kishiga so'zim.

Nima der, eshitgin, bilimliga boq,
Shoshilinch yumushning o'kinchi usoq,

Shoshilinch yumushlar yaramas bo'lар,
Shoshib pishgan ovqat bo'ladi zahar.

Shoshilish — adashgan kishining ishi,
Bosiqlik qilishi kerak har kishi.

Xatoyim shu bo'lidi, men o'zin shoshib,
Seni yaqin tutdim tamom adashib.

To etmasa quli yumushin bajо,
Begi ko'rmasin hech ish unga ravo.

Chiniqtursa avval yunushda uni,
Aziz tutsa arzir keyin tun-kuni.

Bu Oyto'ldi aytdi: e shodon xoqon,
G'azzabga kelasan nega bu zamoni?

Gunohim ne ekan, bilayin o'zim,
Ber aytdib, so'ng eshit mening ham so'zim.

Yo'q esa yuzingni qora qilmagin.
Bor esa gunohim keyin qynagin,

Nima der, eshitgin, zakovat, bilim,
Majoziy ma'noga moslagan olim:

Yumushchi adashsa chaqirmoq kerak,
Ne uchun adashdi — so'ramoq kerak.

Gunohi bor esa jazola tutib,
Yo'q esa ne uchun baqirmoq kerak.

G'azabi osharkan elig tobora,
Deyar: ey bilimsiz, qilig'i qora.

O'zingga boqib ko'r, kim eding menga,
Ne yerdan kelar bu fozillik senga?

Yumushing ham axir hali singmagan,
Nafi bor desam gar nafing tegmagan.

Yumushingni ko'rmay bilibman a'lo,
Sinamay o'zingni qilibman xato.

To'pingni hozirlab o'tirding unga,
O'tirish joyimi, shu joyim senga!

Senga so'zladim men, so'zing tingladim,
Ko'zing yumding, ammo neni angladim?

Kechirdim, yana so'zladim so'z senga,
Nega yuz o'girding, qani ayt menga?

Eshitmay qoldingmi donolar so'zin:
"Begiga yaqinlar asrasin o'zin".

Senga aymadimi onang yo otang:
"O'g'il, qilma begka sira o'zni teng".

Tushuntirmadimi senga xayl boshing:
"Aziz tut beginni, sen asra boshing".

Bu beglar o't erur, olamga taniq,
Yaqin borsang, seni kuydirar aniq.

G'ofil bo'lma, beglar kuyar o't erur,
Kuyar o't berari zarar, yut erur.

Boqib ko'r, bu beglar kuyar o't soni,
Agar bossang uni, so'rar bosh qonin.

Qarab ko'rsa uni kishi qo'rqtar
Agar qo'rqmasa, ko'r, ishi qo'rqtar".

Oyto'ldi eligga davlat sifatini
ko'rsatadi

Kulib aytdi yigit: tushundim o'zim,
So'radling bularni, eshitgil so'zim.

Uqib oldim endi bu ishlarni men,
Kerak edi bilsang ba'zi ishni sen.

Sening huzuringa — bu yon kelganim,
Mening fe'lim edi bari qilganim.

O'rin berding avval, men o'tiirmadim,
. O'rin yo'q menga, sen buni uq dedim

Mening xo'y-fe'limga to'p o'xshash edi,
Sababi shu edi — ko'p o'xshash edi.

O'rinsiz shu koptok misoli izim,
O'shandek yuraman bu davlat — o'zim.

Kulib boqqaningda ko'zim yumganim,
Senga ko'rsataman nima ekanim.

Bu kun men — shu davlat nobiyno soni,
Menga kim ilinsa, tutarmen uni.

Yana so'zladung so'z, men aytdim so'zim,
Kulib boqqaningda yashirdim yuzim.

O'zim ko'rsatarmen borimni senga,
Fe'lism, bad dedim men: ishonma menga.

Nima der, eshit endi, turkcha maqol,
Boshidan kechirgan bu ko'kchin sqol.

Quvonma bu qutga, e qutli kishi,
G'ofil bo'lma unga, e otli kishi.

Oqar suv, yo'riq til, bu qut turmadi,
Olam kezguchilar yurib tinnadi.

Ishonchisiz erur qut, vafosiz, yoyiq,
Yurarda uchar tez, oyog'i — toyiq.

Elig dedi: uqtim, ochildi so'zing,
Gunoh uzri bo'ldi, qutulding o'zing.

Menga aytgin endi nima hunaring,
Buyuk so'zlar aytar bu o'ktam tiling.

Bu Oyto'ldi aytdi, hunarim talay,
Kishilarga tegar nafim har qalay.

Qilik'im ma'qul-u bu yoshim kichik,
Butun beg, buyukka o'zimdan kechig.

Yuzim ko'rki ko'rqli, fe'lum juda soz,
Qo'llim yetmagan ish yo yo'q yoki oz.

O'zim qayda bo'lsam tilak orzular —
Mening birla chopar, o'zini ular.

Rohat menda, kulfat o'zimdan to'zar,
Sevinch menda, qayg'u yo'lidan ozar.

Menga zid esa kim uzalib o'lar,
Menga kim bo'yin egsa orzu olar.

Urayin deguvchi o'zi urilar,
Bosayin deguvchi o'zi bosilar.

Bu so'z o'xshagay endi bunga juda
Buni uqmaganlar bo'lar behuda

Bu qut qayda bo'lsa bo'yin ber, yarash,
Erishsang, bu qayg'u bilan sen kurash.

Bu qut kelsa odam bo'lar baxtiyor,
Tuman orzu topar, topar kuch, mador.

Elig aytdi: uqtim bu hunarlarling,
Ne aytning bor, aytgin, bilayin sening.

Bu Oyto'ldi aytdi: zararli biror-
Hunarim yo'q, lekin deyishadi: "bor".

Bu aybim: kishilar meni bevafo —
Deyishib yomonlab yurar doimo.

Beqarorligim ayb sanalmas menga,
O'zgarib turaman, so'z aytay senga.

Butun eski narsa yaramas bo'lar,
Yaramas bo'lar ham, yomon, past bo'lar.

Yangi mol borida yangimas nega?
Yaroqli borida yaramas nega?!

Yangida bo'ladi talay halovat,
Halovatni degan chekar malolat.

Vafosiz deyarlar odatim uchun,
Menga ayb taqarlar shu otim uchun.

Bunga o'xshatibdi Er To'nga¹ ochiq,
Uning ma'nosidir bu so'zga taniq²:

Yaralgan ne esa yo'qolgusidir,
Yaratuvchi xoliq tilagan qilur.

Tiriglik deganing bu yeldekketchar,
Qochar, yetsa bo'lmas, uni kim quchar?!

Quvonma bu qutqa — kelar ham borar,
Ishonma, bu davlat berar ham olar.

Vafosiz emas ersa davlat o'zi,
Ne ezu bo'lardi bu qut, ey qo'zi.

Kelib bormas esa bu davlat yana,
Qoraymas edi-ku yorishgan kun-a.

Elig aytdi: uqtum, o'zing — vafosiz,
Lekin qolmagaymi loaqal bir iz?

Bu Oyto'lди aytdi mening bu o'zim —
Kiyik misoliman, uqib ol so'zim.

¹ Er to'ng'a, Alp Er To'nga — Afrosiyob. — 46-sahifadagi izohga qarang.

² Taniq — belgi, nishon.

Meni istaganlar topolmas u kez,
Agar topsa, yana yo'qotadi tez.

Meni tutguchilar bosib ushlasa,
Qocholmasman undan, so'z aytay kesa

Elig aytdi: — Seni tutish yo'li ne?
Eshit, aytayin men uning yo'lini.

Elig aytdi: — Tutish qiyinmi, oson,
Seni tutmoq uchun bo'lар ne nishon?

Bu Oyto'lди aytdi: menga berk kishan,
Talaydir men aytay ulardan nishon.

Meni topguchi er zarifroq kerak,
Dili pok, til-u so'zda yunshoq kerak.

O'zin tutsa, sira lofin urmasa,
Yovuz — yaramasga yaqin turmasa.

Tengi birla tutsa terilgan molin,
Yo'riq tuzsa bilib fe'l-u ahvolin.

O'zidan uluuqqa tikib tursa ko'z,
O'zidan kichikka shirin qilsa so'z.

Hasad qilmasa u o'jarlik qilib,
Xor etmasa o'zdan kichikka kilib.

Yomonlikda mayga boshin suqmasa,
Behuda, begorga molin sochmasa.

O'yin-hiyla etmas esa hech qachon,
Fe'l-u atvorni tutolsa ravon.

Saodat nishoni mana shu erur,
Bu yanglig' esa qut qocholmas, qolur.

Bu so'zga dalili shoirning so'zi,
Bu shoir so'zidir haqiqat o'zi.

Kiyik soni davlat, kishidan qochar,
Bu tizginda ushla u kelsa agar.

Tutolsang bu davlat senga yuz ochar,
Agar to'za qaytmas, yugurar, qochar.

Elig aytdi: uqtim, ayo qut, seni,
Suyib qolgan edim, itarma meni.

Agar bo'lmasaydi beqarorliging,
Ne ezzu ish edi sening borliging.

Valekin yoyiqsan, o'zing — bevofo
Vafo ko'rsatarsan, qilarsan jafo.

Otadan, onadan yaqinroq, bo'lib —
Boshingda tutarsan shodon yuz urib.

Goho ko'rmagandek tutarsan o'zing,
Tamom bo'lak bo'lар qillig'ing, so'zing.

Berarsan, jam etsa, socharsan beshak,
Chaqirsan, yuziga yoparsan eshik.

Bu Oyto'lди aytdi, sohib ehtirom,
Hunar-nuqsonimni dedim nom-banom

Menga kim erishib gar ajray demas
Chorasin men aytdim, amal qilsa bas.

Jilov turmasa gar meni tutgan er,
Kiyikdek qocharman, menga kim yetar.

Nima der, eshitgin, sinagan qari,
Qarilar so'zi chin, sof oltin bari:

Kelar qut, tuta bilmasang u borar
Berar mol-u tezda u qaytib olar.

Yoyiq qut yetishsa, uni ezzu tut,
Durust ushlamasang ketar, shuni kut.

Qut olgan kishilar pishiq o'yasin,
Noloyiq ishni quvib haydasin.

Pokiza esa-yu, chin halol o'zi,
Tutishning yo'li shu, shu ishning ko'zi.

Elig aytdi, uqtim bu ayb — hunaring,
Bu Oyto'lди oting nimadir sening?

Uning ma'nosini tushuntir menga,
Bilayin, uqayin, ishonay senga.

Bu Oyto'lди aytdi otimni go'yo,
Dono oy misol deb attar doimo.

Tug'ilgan onida u kichik bo'lar.
Kuniga ulug'lab yuqori og'ar.

To'lın bo'lsa — to'lsa, olam yorishar,
Olam xalqi undan huzur topishar.

Tugal bo'lsa bu oy chiqib yuqori —
Yana yemrildi, ketar ko'rk bor.

Yorug'i kamayar, yana yo'q bo'lar,
Tug'ilsa yana u to'lishar to'lar.

Mening holatimdan nishona shular,
Goho bor bo'larmen, goho yo'q bo'lar.

Ne-ne bechoraga yuz ursam o'zim.
Uning ko'rik ortar, kesayin so'zim.

Boyisa, olamga yoyilsa otı
Ketarman u yerdan, ketar shuhrati.

Yana sochiladi u tergan moli,
O'sha-o'sha bo'lib qolar ahvoli.

Bunga o'xshar endi shoirning so'zi,
Bu shoir so'zidir bilimsiz ko'zi.

Kelar qut kishiga otı jonlanar,
Yangi oydek ortar, yorug'i bo'lar.

Yoyiq, telba-davlat, ko'ngil bog'lama
To'lindek bu davlat yana yemrilar.

Yana bir ma'nini ochayin senga,
Eshitgin uni sen, ishongin menga.

Bu oy o'rni bo'ldi juda munqalib,
O'rinsiz bo'ldi aijib ish qilib.

Bu oy burji Sar(a)ton¹ bu o'y aylanar,
Uyi aylanar ham o'zi o'grilar.

Ne uyg'a kirarkan bu Oy tez chiqar,
Chiqari uchun tez u uymı yiqar.

Mening o'zim unga, qara, o'xshadim.
Quyi goh yuqori bo'lar bu fe'llim.

Kelarman, ketarman, yurarmen burun,
Olamni kezarmen, menga yo'q o'rin.

Bu ma'nida meni Oyo'ldi bilib,
Atadi donishmand man' odor qilib.

Mana men — shu davlat, san'at-hunarim
Dedim ayb-u xislat — o'zimda borin.

Ochib so'zladim so'z, so'zim ishga sol,
Itarsang itar, yo o'zing tutub ol.

Elig aytdi bo'ldi, eshitim so'zing,
Yorishdi so'zing ham yaraysan o'zing

Tilagim shu erdi: seningdek kishi,
Xudo berdi endi, e erlar boshi.

Xudo kimga bersa tilak orzuni,
Xudo shukri uzar uning qarzini.

Bu kundan keyin men timim bilmayin,
Buning shukrin etay, xato qilmayin.

Nima der eshitigin donishmand tetig,
Olamdan o'tarda qo'yib bir bitig:

Shukur qil, e ne'mat egasi, unar,
Shukur qilsa, Xudo ne'mat orttirar.

Bu ne'mat egasi unutar o'zin,
Shukur qilsa Xudo o'girmas yuzin.

Oz ezgu uchun et talay shukrini,
Ne'mating ko'paysa bila qadrini.

Shukr qilsa ne'mat biri o'n bo'lar,
Biri o'n bo'lar, ko'r, uyi liq to'lar.

Elig berdi olqish, ko'r, Oyo'l'diga
Kecha-kunduz etti yaqin oldiga.

Rosa maqtadi-yu o'zin dedi soz,
Kumush-oltin ila etildi e'zoz.

¹ Saraton — bu burj nomi asarda ikki xil: Quchiq hamda Saraton nomi bilan keltirilgan.

Unga so'zlar elig deyar so'zini,
Unga tikdi elig javob ko'zini.

Bu Oyto'ldi topib elig shonini,
Qila berdi yumush tikib jonini.

Talay vaqt sinaldi, sinadi elig,
U bildi: olamda yetuk shu yigit.

Kuntug'di elig Oyto'ldiga adl sifatlarini aytadi

Elig bir kuni yolg'iz o'zi turib,
Siqildi parishon xayollar surib.

Qoshiga chaqirdi u Oyto'ldini
Kirib bordi xonga egib bo'yinini.

U turdi eligga bo'lib ro'para
Elig turdi ancha gapirmay sira.

Ma'noli qaradi, sekin imladи,
Ishorat bilan kel, o'tirgin, dedi.

Bu Oyto'ldi turdi xijolat bilan,
Ko'zin yerga tikdi malolat bilan.

Xavotirda boqdi u zimdan unga!
Yuzi so'lq'in-u qosh tugilgan nega?!

Kumush kursi uzra turarkan elig,
Ko'rар: kursi poyi uchov ayrilik.

Qo'lida tutardi yirik bir pichoq,
Shakar-u zahar ham hozir o'sha choq.

Bu Oyto'ldi ko'rib ularni bexos,
Cho'chib ketdi juda, olib tez nafas.

U Oyto'ldi tomon qarar tikilib,
"Nega, — der, — turibsan so'zing tutilib?

Nega jum turarsan soqovdek bo'lib,
Meni bunda yolg'iz bu yanglig' ko'rib?"

Bu Oyto'ldi aytди, e baxtli xoqon,
Qayerdan topayin jasorat bu on?

Ko'rinar bo'lakcha bu kun atvoring,
Shuning-chun turibman deyolmayin "g'ing".

Bilimli o'qitar nodongta tag'in:
G'azablimi beging — yo'lama yaqin.

Yana yaxshi degan dono bilag'on
Bek olov bo'ladi g'azablangan on.

Agar bo'lsa beglar juda serg'azab,
Yaqin turma unga, e fe li ajab!

Qutursami beglar kelib g'azabi
Yiroq tur ulardan, tegar azobi.

Shunga o'xshar endi bu so'zlar to'la,
Dilingga jo etg'in uni bir yo'la.

G'azab chog'i begka o'tirma yaqin,
Yaqin borsang agar balodir tayin.

Yovuz arslon misol bu beglar özi,
G'azablangsа bosnii kesar atayin.

Elig dedi kel-chi, menga ayt so'zing
Nega tong qotarsan, nega jum o'zing?

Bu Oyto'lди aytди: tongim bu mening,
Nedir kumush kursи — bu o'mинг sening.

Bu kursи, bu joy ne kerakdir senga,
Ne ma'ni uqayin tushuntir menga.

Yana bir qo'lingda nima bu pichoq,
Buni ham tugalroq bilay ushbu chog'.

Uchinchi, o'ngingda nega bu shakar,
So'lingda ne uchun turar bu zahar.

Boqib ko'rsam o'zing juda serg'azab,
Hushimni yo'qotdim, bu holat — ajab.

Bu yanglig' ko'rib men seni, iymanib
Turibman ocholmay dil-ut til yozib.

Kuntug'di elig Oyto'lдiga adl sifati qandayligini taytadi

Elig aytди: uqtim so'zingni tugal,
Eshitgin, sirimni ochayin bu gal.

Kecha taklif etib bergenimda joy,
Ayon bo'lди hurmat senga hoynahoy.

G'azabin chog'ida seskanding o'zing,
Yo'qoldi so'zing-u oqardi yuzing.

Menga qilding ajiб ishlar namoyon,
G'azab qaynadi-yu, o'zim lol, hayron.

O'zim — qutman, deding, tushundim seni,
Ishora, belgilar lol etdi meni.

Neki fazilating, borini deding,
Eshitdim qiloqni tutib rosa ding.

Qiliqlaring ko'rдim, mayliga ma'zur,
Fe'lingga yarasha toparsan huzur.

Qara, mendagi bu holat-u ravish,
Senga ko'rsatayin ne ma'ni, ne ish.

Adolat degani nimadir o'zi?
Qara, ilg'a, tushun, e hushyor qo'zi.

Qara kursiga, boq o'zim ustida,
Oyog'i uchtadir, u mahkam juda.

Bari uch oyoqli chidamli bo'lar.
Oyoqlari tengu pishiqdир ular.

Agar siljisami ularning biri,
Boshqasi sinadi, shu ular siri.

Bari uchtaлиkda shu marom bo'lar,
Agar to'rtta bo'lsa, pishiqmas ular.

Nima to'g'ri bo'lsa, o'sha soz bo'lar,
Nima soz esa u dilga mos bo'lar.

Og'ar bo'lsa narsa, bukiladi u,
Bukilsami narsa — beradi qayg'u.

Ne to'g'ri esa, bahosi oshar.

Xohi bo'lsa yaxshi, xohiki yomon,
Menga barobardir hukm chiqar on.

Adolat ichida kesarmان ishin,
Ayirib o'tirmay u yo bu kishin.

Bu bo'gda¹ — pichoqki, turar qo'llimda,
Qirar, qirqaverar ne bor yo'linda.

Pichoqdek kesarman, pishirib ishin,
Cho'zib turmagayman da' vogar kishin.

Shakar ul kishiga nasib bo'ladi,
Adolat sabab kim sevinch oladi.

Shakardek yoyilib borar u kishi,
Sevinchi ko'payib yozilar qoshi.

Zaharni qarasang, ne odam ichar?
Zolim esa, yana odilidan qochar.

Menga kelsa, agar g'alva qilib,
Urag'un² yegandek qisilar o'lib.

Qoshimning tugugi belgidir faqat,
Yovuzlarga menda sira yo'q toqat.

Menga teng o'g'il-qiz, yaqin-u yiyoq,
Musofirmi, mehmon misoli chaqmoq.

Adolat sahnida teng erur bari,
Qonunda barobar odat singari.

Bu beglik asosiadolat bo'lur,
Begi to'g'ri bo'lsa tiruklig olur.

Bunga o'xshatibdi donishmand kishi,
Dono so'zin tutsa yurishar ishi.

Adolatda bo'lur bu beglik qo'li.
Bu beglik moyasiadolat yo'li.

¹ Bo'gda — ikki tomoni ham keskir, xanjarsimon pichqa.
² Urag'un — bir xil dori.

Adolatli bo'lsa begi eliga,
Tilak orzulari kelar bir yo'li.

Bu Oyto'ldi so'rар, ey baxtli odam,
Kuntug'di nomini izohla bu dam.

Elig dedi: Dono, bilgalar¹ qo'yib,
Izohlab berishdi, o'zlar yo'yib.

Quyoshsga qaragin: kamaymas sira,
Kamaymaydi nuri, u bo'lmas xira.

Mening qilig'im ham unga o'xshadi,
Adolat-la to'ldi sira o'chmadi.

Tug'ar kun nuridan yorishar olam,
Bari xalqqa yetar, ozaymas hech ham.

Adolat degani mangudir mudom,
Bari xalqqa teng-u yana bardavom.

Zaminga socharmi nurini quyosh,
Ming alyon chechaklar ko'taradi bosh.

Qay elga yetishsaadolat agar,
Qoya tosh bo'lsa-da bo'lар jilvagar.

Bu yaxshi yomon deb saralamas kun,
Bariga nurini berar uzzukun.

Mening fe'l-xo'yim ham shunday belgilik,
Olamga yetadi o'zimdan ulig².

Yana kun burjidir sobit, barqaror,
Sira ado bo'lmas, nuri ham bisyor.

¹ Bilga — bilimdon, dono, donishmand.
² Ulig — ulush, hissa

Bu kun burji — Arslon¹, nomi ham muqim,
Joyi muqim esa uni buzar kim?

Mana, raftorim-u eshitding tugal,
Yorug'lik muqimdir menda har mahal.

Oyo 'Idining eligga savoli

Bu Oyo 'Idi dedi: Ko'pay sin quting,
Nasibang bo'lib ko'p, yoyilsin oting.

Mening ham o'zim ko'p uzun yo'l yurib,
Yetishdim nihoyat toliqib, horib.

Shu xil xislatiingni eshitib bilib,
Bekor kelmadim men seni sog' imib.

Qani ayt ne xilda qilayin yumush,
Sevinching nimadan, ma'quil qaysi ish?

Yumush beg diliqa o'tirmaسا gar,
Bu xil yumush oxir nimaga yarar.

Nima deydi, eshit Ila² otlig'i,
Yumush sabab bo'lgay eli qutlug'i.

Yumushchi yumushin etarkan jadal,
Begi sevinchingini desin har mahal.

Begi yumushidan bo'lsa gar rizo,
Out ochar eshging uyin doimo.

Yumushchi yumush-la chiqadi to'rga,
Yumush bilmasa gar qoladi yerdal.

Begi roziligin ololsa quli,
Eshigin ochadi saodat yo'li.

Elgining Oyo 'Idiga javobi

Elig dedi: Uqtim men bari so'zing,
Sevinchingni tutgin, avayla o'zing.

Senga aytayin: bor ba'zi bir yomon,
Ullardan yiroq tur, bo'lursan omon.

Menga yoqmas ishning birovi yolg'on,
Bulardan bo'lagi zug'um beomon.

Qurumsoq, suq ersa agar da o'zi,
Shoshib yursa, yana uytatsiz ko'zi.

G'azabkor, hovliqma yoki nafs qui,
Ichuvchi, yaramas ham egr qo'li.

Bu yanglig' kishilar yaramas menga,
Barin aytdim endi yashirmay senga.

Yarayin desang sen menga ushbu dam,
Ullardan uzoq tur, ayo muhtaram.

O'shanda yaqinroq bo'lursan menga,
E'zoz-u e'tibor ko'payar senga.

Oyo 'Idining eligga savoli

Bu Oyo 'Idi dedi: Eshitdim buni,
Yana bir savol bor, tushuntir uni.

Bu ezgu degani qanaqa kishi,
Ne xilda bo'ladi qilig'i, ishi?

¹ Arslon — Assad burjining turkiy nomi.
² Ila — joy nomi.

Eligning Oyto'ldiga javobi

Elig dedi: Ezgu degan har kishi,
Eng oldin eliga naf bermoq ishi.

Xalqqa bergen nafsi unga zeb, ziynat,
Sira qilmas ammo malomat, minnat.

O'z nafsin tilamas boshqalar uchun,
Fidoyi bo'ladi, saf etib kuchin.

Oyto'ldining eliggaga savoli

Yana aytdi Oyto'ldi: Uqtim so'zing,
Bo'lak bir savolga javob ber o'zing.

Menga to 'g' rillikni izohla bu dam
Kunini yoritsin toki har odam.

Qanaqa bo'ladi ularga qiyos,
Bu yo'lda yuruvchi bo'lari nega mos?

Eligning Oyto'ldiga javobi

Elig dedi: To 'g'ri deganning o'zi,
Tili-yu dilliida bir bo'lari so'zi.

Tashi ich, ichidek bo'ladi tashi,
Bu yanglig' bo'ladi asil, chin kishi.

Ko'ngil keng-u ochiq tutsa u yurib,
Xijolat chekmasa kishimi ko'rib.

To 'g' rillik kerakdir kishiga mudom,
Bu chimlik ichida yarashadi nom.

Oyto'ldining eliggaga savoli

Yana so'rди yigit: Ey, elning quti,
Men uchun ochilsin bir so'zning qati.

Munosib kishi ham bo'larmi yomon,
Yomon yo kelarni bu yaxshi tomon?

Eligning Oyto'ldiga javobi

Elig dedi: Ezgu bo'lari ikki xil,
Biri ezzu yo'llin mudom tutdi, bil.

Biri chin bo'ladi tug'ilgan ondan,
O'zin asragay u bari yomondan.

Biri ezgulikni tank ham qiladi,
Yomonga qo'shilsa yomon bo'ladi.

Yomon ham bo'ladi, qara, ikki xil,
Ullarning o'zaro ayirmasın bil.

Tug'ma yomon bo'lari ulaming bini,
. Toki o'llmas ekan arimas kiri.

Yana bir muvaqqat bo'ladı yomon,
Eshi ezu bo'lsa o'tar shu tomon.

Tug'ma ezu mudom ezunglik qilar,
Olam ahli undan talay naf olar.

Yomon tug'ma bo'lsa unga yo'q da'vo,
Odamga ofat — u olamga — balo.

Bunga o'xshar endi bu turkcha maqol,
Eshitgin uni sen, o'qi, dilga sol.

Ona suti ila kirs qay qiliq,
O'llim tutmaguncha buzulmas yo'riq.

Mijozga qorilib kelar bo'lsa ish,
O'llim kelmaguncha buzulmas emish.

Qorinda yaralgan qiliq yo'odat,
Qora yer qatida yo'qolar faqat.

Yaqin bo'lsa agar yaxshiga yomon,
Yomon bo'lar u ham qo'shilgan zamon.

Yomonga yaxshilar cho'zar esa qo'1,
Bari yaxshilarga shu bo'jadi yo'1.

Yana bir sabab ko'r: bu yaxshi yomon,
Yaqinlik tufayli turishar omon.

Begi ezu bo'lsa xaloyiq tugal,
Turish-turmushida turar shu amal.

Yaqin tutsa beglar ezu kishini,
Yomon ham soz etar qilar ishini.

Yomon yaqin bo'lsa begiga agar,
Yomon qo'l cho'zilar eliga qadar.

Yomon bosh ko'tarsa yaxshilar yitar,
Yaxshi madad olsa, yomonlar keta.

Agar beg soz etsa ishin tun-u kun,
Tugal ezu bo'lar fuqaro butun.

Bu begi yomon nom chiqarmasa to,
Yomonlar bir qadam qo'yolmas hatto.

Begi ezu bo'ldi mana ko'p zamon,
Yomonlar topolmas jazodan omon.

Agar ezu bo'lsa budun¹ boshchisi,
Faqat ezu bo'lar uning ishchisi.

Agar ezu bo'lsa beg bo'lar odam,
Eli boy bo'ladi, yashharar olam.

Oyto'ldining eligga savoli

Yana Oyto'ldi der: Ey fe'li go'zal,
Elig yorlaqadi, tushundim tugal.

Naffi bor nafni ololsa kishi,
O'ziga bo'lar zeb, yurishar ishi.

Tovar-molga intiq bor insoniyat,
Lekin kifoyamas faqat bir niyat.

Ulug'ilikni istan esa qay odam,
Pokiza, niyati sof o'lsin bu dam.

Niyat yaxshi esa, natija sara,
Bu xil mol yarashar saraga, qara.

¹ Budun — xalq, millat vakillari.

Yomonlik yomonlar nasibi mudom,
Unga kim qo'shilsa — "yomon" oldi nom.

Noshoyon neki bor joyi yerdadir,
Ipak, shohi — nodir: joyi to'rdadir.

Munosib sha'niga duo ming-tuman,
Yomon topgan o'rin tubandir, tuban.

Bunga o'xshab aytar piri zakovat,
Dononing so'zida naf bo'lar faqat:

Yaxshilik balandga chiqishdek go'yo,
Uni har nodon ham qilolmas ammo.
Ullug'lар ishiga havasmand talay,
Murodga yetishgan sanoqli, dono!

Oyo'larning elliga savoli

Oyo'lди so'radi, ey dono elig,
Agar-chi shu qadar esa ezgulik.

Uning bir qusuri bormi olamda,
Namoyon bo'lar u qaysi odamda?

Elibning Oyo'lidiга javobi

Ezgulik har doim odam dilliда,
U hatto maqtalar nodon tilida.

Yaqinlik qilishda yomon har kishi,
Avval o'ylab ko'rар: tusharmi ishi?

Kamsuqum bo'ladi bu xil odamlar,
Yomon esa unga beradi g'amlar.

Ezgular ezgulik qilar doimo,
Fisq-u fujurlarga qilmagay parvo.

Faqat hozirini o'ylagan kishi,
Yomonlik qilar-u topar ko'z yoshi.

Faqat yaxshi ishlar qiluvchin eshit,
Faqat yaxshilik qil, o'zingga ish et:

Yomonga ham yaxshi bo'luvchi odam,
Senga intilaman, tezlatib qadam.

Ey ezgu, senga kim to'yadi tugal?
Beri kel, quchayin seni ushbu dam.

Nima naf etsa senga gar bugun,
Zarar yetkazadi balki erta kun.

Bugun kelsa senga bior manfaat,
Zarar berishiga hozir tur faqat.

Yaxshilik o'ng bo'lar, yomonlik-chi so'л,
Biri do'zax, biri jannatsari yo'л.

Necha keltirarkan bu kuning rohat,
Keyin qayg'u g'amga keladi navbat.

Kishi ko'rsa qancha alam, a'ziyat,
U yodqa bo'lakcha bo'lar vaziyat.

Mana shuni bilgin haqiqat deya,
O'kimchsiz kun uchun shu bo'lar moya.

Yana yaxshi degan dili pokiza,
Dili pokizaning tili ham toza.

Kim ezgulik etsa yomonlik ko'rib,
O'shani qo'msayman men orzu qilib.

Ey ezgu senga kim to'yar, ayt menga,
Beri kel, men ochman, tashnaman senga.

Naqadar sitamgar bu ezgu kishi,
Roziman, bo'layin uning chin eshi.

Yomonlik ila bo'lsa beglik menga,
Qo'yarman, kerakmas-u, qolsin senga.

Kishilar fe'lida yomonlik to'la,
Halovatlari oz, azobi mo'l-a.

Bunga mengzar endi shoir ayrtgan so'z,
Uning ma'nosin bil, ochiladi ko'z!

O'kinarmi ezgu o'z ishi uchun,
Yomonlar o'kinchi qayerdan, nechun?
Yomonlik qilar yomonlik javob,
Yomonga yaxshilik qilaver bugun.

Nechuk olqish olsin tub asli yomon,
Nechuk duo olsin yomon bu zamон.

Tubanlik, yomonlik, yovuzlik to'liq,
Yomonlar qilg'i bo'lar, ey ulug'.

Balo, mehnat, azob, o'kinch-u yig'i,
Yomonga javobdir shu ko'rgiligi.

Nechuk seymay, axir, bu ezgu kishin,
Nechuk maqtamayin uning har ishin.

Saxovat, kishilik, naf-u ezzulik,
Shu ezgu kishidan kelar belgulik.

Birovki qilarkan mudom ezgu ish,
Bilib ol, o'shadir mudom ezgu esh.

Eshing ezgu bo'lsa, niyat ham bajio,
Eshing ezgu bo'lsa, yuzing pursafo.

Rohat-u farog'at, quvonch-u ovinch,
Yaxshilar javobi bo'lar bu sevinch.

Elig aytdi: Yigit uqib ol so'zim,
Sen ayrgan savolga javob shu, qo'zim.

Yer o'pti, ko'r, Oyto 'ldi qildi ta'zim,
Dedi: E bahodir, xoqonsan azim.

Jahonning jilovi bugun qo'lingda,
Esonlik, omonlik eshing yo'lingda.

Seni etmasin tank sira buyuklik,
Quvonch — qutqa eltsin seni tiruklig.
Ulug'lik ila sen topaver mador,
Adolat-u qonun senga dastiyor.

Oqaversin orzu quirimas bo'lib,
Bu davlat yashasim qarimas bo'lib.

Sevinchlar jam bo'lib qo'lingni olsin,
Alam, g'amda yoving tamom yo'qolsin!

Munosib ko'rolsa ishin turini,
Balandroq ko'tarar obro' qo'rini.

Nima deydi eshit, yumushchi kishi,
Yumushi tufayli yurishgan ishi:

Beray senga o'git: boshga tushsa ish,
Tasodif tufayli tilama yumush.

Yumush qilsang agar munosibga qil,
Saxiy huzurini kumush, oltin bil.

Baxillar ishiga ovungan kishi
Tirklik yo'qotar, o'kinchdir ishi.

Baxil bog'i qachon ko'karar, qachon,
O'zidan qizg'anib berarmidi non.

Bu Oyto'ldi sekin o'midan turib,
Uyiga yo'l oldi sevinchli bo'lib.

Tun-u kun ishini etardi bajo,
Yumush qildi o'zi go'zal bexato.

Sadoqatda bo'ldi o'zi tun-u kun,
Elig tutdi kunda o'ziga yaqin.

Kun-u oyalar o'ldi yugurib, shoshib,
Yigitning obro'si borardi oshib.

So'zlamoq yaxshimi yoki so'zlamay jim
turmoq yaxshilligi haqida aytadi

Elig Oyto'ldini bir kun undadi,
O'rinn berdi, o'tir deya imladii.

Yigit kirdi tutib o'zin muloyim,
Ko'zin yerga tikdi, quoq tutdi jim.

Elig dedi, so'zla, Oyto'ldi, so'zing,
Nega jim turibsan, soqovsan o'zing?

Javob berdi dedi: Ey dono kishi,
Beg oldida qulning yo'qolar hushi.

Elig indamasa, so'z ochgay nechuk,
Begi so'ramasa tilim berk, tugug.

Bilimli so'zin sen oson sanama,
So'ramasdan avval so'zing so'zlama.

Birovni chaqirsa birov tilab,
O'sha so'zin aytisin so'ziga ulab.

So'ramasdan oldin so'zin so'zlasa,
So'zi¹ to'g'ri uni, e yilqi¹, desa.

Yana telba, nodon kishi ul bo'lar,
So'ramasdan oldin donolik qilar.

Qizil til qiladi qisqa yosh seni,
Esonlik tilsasang, yopiq tut uni.

Nima deydi eshit, tilin qisgan er,
So'z-u muloqotda o'zin bosgan er:

Qora bosh yovi bu qizil til bo'lar,
Necha boshni yedi, yana ham tilar.
Boshningni tilasang, tilingni tiygin,
Tiling istagan kun boshing yo'q qilar.

Elig dedi: uqtim so'zing bemalol,
Tirikka so'z aytmay yurishi mahol.

Axir ikki turli gapirmas inson:
Birisi soqov-u, birisi nodon.

Soqov-ku tili yo'q, sira so'zlamas,
Bilimsiz nodor-chi, so'zin kizlamas.

Bilimsiz tilini tiymog'i kerak,
Bilimli chechanlik qilmog'i kerak.

¹ Yilqi – hayvon, bu so'z keyinchalik faqat "ot" ma'nosida qo'llana bosh-lagan.

Bilimli tilidir yerga suv misol,
Suv oqsa ko'karar o t-o'lan, nihol.

Bilimli kishining shoni ko'payar,
Oquvchi buloqning suvi ko'pirar.

Donolar misoli sero'tloq chizor,
Qayeriga boqma, uning suvi bor.

Bilimsizning ko'ngli qum, sahro soni,
Oqib kirsa daryo to'lmas o'pqoni.

Yana aytar: elig biladi magar,
Tiriklik tugaydi til etsa zarar.
Tirik odam axir nechuk so'zlamas,
Kerakli so'zini kishi kezlamas¹.

Kishi so'raganda kerak so'zlasa,
So'ramasa so'zin tamom kezlasa.

So'ramoq go'yoki bir erkak kishi,
Javobi ayoldir turar turmushi.

Ya'niki bu erkak birov bo'ladi,
Ayoldan bolalalar ko'p tug'iladi.

Tananing ulushi tomoqdan kirar,
Jonning ulushi — so'z, quloqdan kirar.

Elging Oyo'ldiga savoli

Elig dedi: uqdim, so'zing bari chin,
So'rab olay yana, javob ayt tag'in.

Bu til zararini deding sar-basar,
Nafi bormi shundan eshitay xabar.

¹ Kezlamoq — yashirmoq, berkitmoq.

Ba'zi so'zda bo'lar ziyon, zarari,
Nahot shunday esa so'zlarining bar?

Oyo'ldining elingga javobi

Javobida yigit beradi ta'lim,
Faqt zarar emas, albatta, tilim.

Yomon so'z bema'ni tilidan chiqar,
Bilimsizni dono yilqi deb atar.

Johil tili mudon yomon so'zlagan,
Yomon so'zdir asli qora bosh yegan.

Yomon so'z kishiga beradi zarar,
Yo'llin topsa, so'zlar faqt naf berar.

Qora qorni to'ysa yotar mol kabi,
Yomon so'zga moyil uning mathabi.

Yesa, to'ysa, yotsa u hayyon go'yo,
Bunga sabab uning qilig'i, dono.

Dono tanin qynar to bor imkonni,
Tani qynalar-u semirar joni.

Tananing ulushi tomoqdan kirar,
Jonning ulushi — so'z, quloqdan kirar.

Ikov belgi bo'lar bilimliga boq,
Ulardan bo'ladi yoqimli yonoq.

Biri bo'g'iz esa, biri yana — til,
Ular nafi sira tugamaydi, bil.

Bilimli tilining, nafin ko'p bilar,
Bo'g'iz, tilni asrab bilimdon bo'lar.

Eligning Oyto'ldiga savoli

Elig der tushundim, buni shubhasiz,
Ma'nida necha xil bo'lar ayt-chi, so'z!

Qayondan kelar u, boradi qayon?
Bularni tushuntir menga bu zam'on.

Qachon so'zlasa-yu qachon qolsa jum,
Yarashiq bo'ladi, e dono hakim?

Oyto'ldining eligga javobi

Bu Oyto'ldi aytdi: so'zning o'mi — sir,
Barin o'n desa, til deydigan — bir.

Birin ayt, tiyib to'qqizini o'zing,
Tiyillgan bo'ladi asil, chin so'zing.

Eligning Oyto'ldiga savoli

Yana so'rди elig: so'zda naf bormi?
Yo so'zdan kelari faqat ozormi?

Oyto'ldining eligga javobi

Javob berdi, dedi: nafi kam emas,
Topib aytsa, qulni birov kam demas.

So'z nafi bilan, ko'r, tuban, yerdagi
Yashil ko'kka tegar, bo'lar to'rdagi.

Agar so'zlay olmas esa ushbu til,
Yashil ko'kdan uni urar yerga, bil.

Eligning Oyto'ldiga savoli

Yana der: bu so'zlar qachon ko'p bo'lar,
Qachon oz, yoqimli yo mahhub bo'lar?

Oyto'ldining eligga javobi

Bu Oyto'ldi dedi: oshiq so'zdir shul,
Eshitar chog'ida zeriksa ko'ngil.

Savolga munosib bo'ladi oz so'z,
Uning ma'nosi ham yarashiq, soz so'z.

Bunga mos, munosib shoirming so'zi,
Munosib javobdan yorishar yuzi:

So'zing yaxshi so'zla, keragini bil,
So'raganda gapir, so'zni qisqa qil.
Talay tingla, biroq gapir ozgina,
Bilim birla aystsang, maqtaladi til.

Eligning Oyto'ldiga savoli

Elig dedi: senga savol bor yana,
Menga aytg'in uni ochib rosmana:

Bo'lar kimda, ayt-chi, bu so'zning chini,
So'zim kimga aytay, tushuntir shuni.

Oyto'ldining eligga javobi

Dedi: donolardan eshitgin tayin,
Billimsiz, nodonga eshitir keyin.

Ulug'dan eshitmoq joiz bo'ldi,
Kichiklarga aytса, ko'ngil to'ladi.

Ko'p eshitib ozroq so'zlasа, ammo
Menga shundoq degan bilimli, dono.

Talay so'zdan olim bo'lmas hech kishi,
Mudom tinglash ekan olimlar ishi.

Soqovsifat bo'lса qaniydi odam,
Bilimni gapi ko'p olar qaysi dam?

Elging Oyo'ldiga savoli

Elig dedi: bildim, tushundim so'zing,
Yana bir savolga javob ber o'zing.

Sukut yaxshimi yo so'zin so'zlasа,
Ochiq so'zlasami yoki kizlasa?

Oyo'ldining eligga javobi

Bu Oyo'ldi dedi: eshitgil, xoqon,
Tiling so'zlamasa, bilim noayon.

Agar o'ylasaydi, bilardi odam:
Tilda yaxshi-yu yomon mujassam,

Bari tebranuvchi, sanoqsiz inson,
Yaratganni tilda etadi bayon.

To'ralgan turman ming el-u xaloyiq,
Xudoni madh etar o'ziga loyiq.

Yaraldi olamda talay xaloyiq,
Ular madh etishar o'ziga loyiq.

Joni bor kishiga keragidir shu:
Birisi shirin so'z, biri ochiq dil.

Ko'ngil, til yaralgan, ko'ngil — so'z uchun
So'zi egri bo'lса, kuyar bus butun.

Nafi ko'p bo'ladi, so'z esa mavzun,
Agar egri bo'lса, azobi uzun.

Agar so'zlasа rost, tiling tebrasin,
So'zing egri esa yashir-chiqmasin.

Agar so'zlamasang deyishar soqov,
Talay so'z — ezmalik yo'liga garov.

Kishi ermалари yovuzdan yomon,
Kishi kamgapiga e'zoz har qachon.

Bu so'zdan eligning trashvishi arib
Ko'zin ko'kka tikdi qo'lin ko'tarib.

Xudo shukrin etti duo bepoyon:
O'zingsan, dedi u, — mehr etgan ayon.

Faqat ezguliklar berildi menga,
Ming bora qulliqdир, ey egam, senga.

Tilagimni berding, yana orzular
Yetishdi mol-dunyo, talay ezgular.

Ne tarzda etarman haqingni ado,
Men uchun o'zing qil, ey sohib ado?

So'zin kesti, ochdi karam qo'lini,
Bechora topoldi karam yo'lini.

Eliq Oyo'ldini qadr etdi chunon,
Tilda maqtov berdi, qo'lida ehson.

Vazirlikni berdi, yana tamg'asiin,
Tug'i, nog'orasi, unvon, jig'asin.

Bori elga qildi qo'llini uzun,
Bo'yin berdi yovi past bilih o'zin.

Bu Oyto'ldi bo'ldi bor ishga sarkor,
Taqdiridan bo'lib rozi, minnatdor.

Boyidi elati, yashnadi eli,
Elig duosida xalqining tili!

El-u yurt farovon, ketti g'amлari:
Qo'ziga qo'shilib yurdi ko'k bo'ri.

Yashnadi elati kelib adolat,
Baland bo'ldi elig qo'lida davlat.

Yuraberdi shu tarz mudom tun-u kun,
Toboro yashnadi eli bus-butun.

Elda ko'paydi yangi kent¹, ulush²,
Xazinaga to'ldi ko'p oltin, kumush.

Sevindi elig, ko'p shodlikda o'zi,
Olamga yoyildi nomi, ish, so'zi.

Baxting bebaqoligi va davlatning bevaloligini bayon qiladi

Tugal tilak topgan chog'i Oyto'ldi,
Quti qarib, orqa tayanch yiqildi.

Yana yaxshi degan bilimli dono,
Tugal bo'lsa ne'mat yeyilmas aslo.

Bundan ham yetukroq bilim so'zlagay,
Ne'mat tugal bo'lsa, tugar yosh degay.

Yana yaxshi demish donishmand so'zi,
Dononing so'zidir — bilimsiz ko'zi:

"Pasaygan o'sadi, baland pasayar,
Yorug' xira tortar, yurgan susayar.

Har ishning bo'ladi so'nggi, oxiri,
Oxiriga yetgach pasayish tugur".

Oyto'ldi tilagi topdi-ku kamol,
Tirklik tugadi, qolib ketar mol.

Yana yemirildi bu to'lgan oyi,
Qodir qishga yetdi bahor chiroyi.

Yarashiq mijozi qorishi tugul,
Birisi kuchaydi, birin bossa sal.

Mijozi aymidi, osh bo'ldi zahar,
Cho'kib ketdi ko'ngli, dardi kuchaytar.

Mijozi aynidi bo'lib bemajol
Misoli dol bo'ldi alifdek nihol.

Chalib yerga otdi og'ir dard kelib,
To'shagida yotdi u mungli ulib.

Tabiblar terildi, tomir ko'rдilar,
Har biri bilganin deya berdilar.

Birov dedi: balki qon tutgan buni,
Oqizmoq kerakdir tomirdan qonni.

¹Kent — shahar.

²Ulush — qishloq, aholi yashaaydigan manzil.

Biri dedi surgi ichirish kerak,
Ichi qotgan esa surishmi kerak.

Birov sovuqlik, deb keltirdi gulob,
Biri tayyorladi shira-yu sharob.

Davo, em qolmadi, barin ko'rdilar,
Yarashiq ne esa borin berdilar.

Kasali kuchaydi, naf etmas chora,
Madori quiridi har kun tobora.

Nima der, eshitgin, tadbirdor kishi,
Tadbirkor kishidir kishilar boshi.

Kerak shaliso-yu taryoq tayin qil,
Kerak surgi dori yo boshqasin ol.

Tila tabib asra, tila duoxon,
Naf etmaydi sira chiqar bo'lsa jon.

G'ofil bo'lmagin, ey tirk bo'luvchi,
Tirk bo'luvchidir bir kun o'luvchi.

Bu Oyo'ldi holin eshitti xoqon,
O'lim elchisi — dard yetar begumon.

So'rab keldi o'zi bu Oyo'ldini,
Kelib ko'rди elig uning holini.

Oyto'ldining eligga javobi

Oyto'ldi dediki, ey baxtli xoqon,
Meni tutti bir dard, undan yo'q omon.

To'la edi ishim yemirildi ular,
Sevinchlarim ketti yetib qayg'ular.

Sevinchda tug'illar edi har kunim,
Kunim botdi endi, yorishmas tunim.

Quvonchli tiruklig yashirdi o'zin,
Beqrar olam-chi, o'girdi yuzin.

Sevinch, orzu ne'mat qolar tobora,
Alam, qayg'u, mehnat kelar ro'para.

Mana ayrilarman o'zingdan bu kun,
O'lib ketmoqdaman — meni qoplar mung.

Nema der, eshitgin, dono el boshi,
Elimi boshlagan donishmand boshi:

Ne ezu ish edi bu davlat kelib,
Yana ketmas esa, tilakcha olib,

Ne yaxshi ish edi bu beglik ishi,
O'lim tutmay mudom yashasa kishi.

Ne ko'rklig kun edi yigitlik chog'i,
Qarilik bo'lmasa edi adog'i.

Eligning Oyto'ldiga savoli

Eliq dedi: endi bu ko'ngling nechuk?
Sog'lig'ing qanaqa ham uyqung nechuk?

Eligning Oyto'ldiga javobi

Elign Oyto'ldiga: bu so'zingni q'o'y,
Bu so'zni dediki: dema, to'g'ri o'y!

Kishi kasal bo'lar, yana sog'ayar,
Olamda kasal bir semmisan, jigar?

Nechun tilda ko'iksiz yurar bu so'zing,
Ko'ngilni ne uchun buzarsen o'zing?

Mengaku sen eding rahnamo, tayanch,
Tuzalib ketasan, so'z aytma ayanch.

Senga shifo bo'lar, umidsiz boqma,
O't urma dilimga, ji гарим yoqma.

Bu Oyto'ldi aytди, ey ulug' xoqon,
Bu dardga davо yo'q, chora ham biron.

Tug'ilgan odamzod o'lmog'i ham bor,
Balandning bir kun past bo'lmog'i ham bor.

O'sishga tushish bor, balandga quyj,
Sevinchga alam bor, baxtga ko'z suyi.

Axir senga aytgan edim bu so'zim:
Qilig'im beqaror, muqimmas o'zim.

Fe'l-u raftorimni aytgandim senga,
Ko'ngil bog'lash kerak emas-da menga.

Borarman, sen shubha qilma sira ham,
Ishonma, desalar o'lmaydi odam.

Ishonchsiz dema ham so'kmagin meni,
Vafo qilmас olam, qo'yар u seni.

Jafо qildi deb sen qisimma menga
Mendan-da jafochi bu dunyo senga.

Mendan so'ng o'larsan, g'ofil bo'lmagin,
Dunyoga ishonma, g'anda qolmagin.

Qadr etgan eding-ku xizmatsiz begam,
Xizmating qilolmay ketarman bu dam.

Tilak, orzu emas mening o'lmog'im,
Bu kun topib bo'lmas kelib bormog'im.

Qiynalib o'larman, jon erksiz bo'lib,
Qutular yerim yo'q tiruklig olib.

Yo'q edim yaratdi, qildi parvarish,
Meni ulg'aytirdi — edim bir qarish.

Siliq yuzli edim, bitirdi soqol,
Qora quzg'un edim, qildi oqqush — chol¹.

Bo'yim edi o'qdek, egildi qomat,
Tiriklik tugadi, yetildi fursat.

Juda yaxshi ekan, qara, ushbu so'z,
Eshitgin buni sen, ayo nurli yuz.

Qay boshgа yetishsa oqqushning tusi,
Ko'ngildan joy olsin uning yog'dusi.

Kishida egilsa o'q kabi qomat,
Pok etsin ko'ngilni, yetildi fursat.

Oqargudek bo'lsa qora soch, soqol.
O'limdan nishona erur ushbu hol.

Shoir nima deydi, sen o'zing eshit,
Eshitgin, ey ezgu, o'zingga ish et:

"Bu soch oqarishi — o'limdan xabar,
Tirikka hayotni u aziz qilar.
Bu ne'mat yegaming — tiruklig yeding,
O'lim ham seni yer, qolma bexabar."

¹ Gap qora sochlarining oqarishi ustida bormoqda.

Oyo 'ldi, der elig, — shoshilmal birrov,
Kasallik degani gunohga garov.

O'lib ketaversa barcha og 'rigan,
Kishi qolmas edi nasiba yegan.

Seni qutqaradi bu darddan o'zi,
Yomon o'yni dilga kirtma, qo'zi.

Duo qildi elig: "o'zing och yo'lin",
Shifo tilab Rabdan ko'tardi qo'lin.

Turib chiqdi keyin g'am-u alamda,
Saroyga yetishdi zo'rg'a u damda.

Xaloyiqqa berdi talay mol-tovar,
Umid qildi: "zora biron naf berar".

Naf etganda edi o'limga tillo,
Kumushni qillardi kishilar fido.

Sadaqani o'lim tan olsaydi gar,
Sira o'limas edi ulug' boshchilar.

Bu Oyo 'ldi dardi og 'irlashdi, ko'r,
Qo'lin yuvdi qondan, ruhga kelib zo'r.

O'kirdi, dedi, ey esiz, tirklik,
Behuda yo'qoldi, esiz, yigitlik.

Ochilgan g'unchaday edim-ku o'zim,
Ajal tutti, eltar, benaf bu so'zim.

Olam molin oldi ko'zin suqligi,
Qolar mol, kutarmi olam yo'qligi!

Uzun bo'lgan edi qo'lim-u tilim.
O'lim keldi endi, qisildi timim.

O'kindi, ko'zda yosh misoli buloq,
O'kinchi o'limga naf etmas biroq,

Ne mungli erur bu — kishi o'gloni,
Tilakdek bo'lomas uning davroni.

Tilak topsa bo'lmast tiruklig degan,
Tirik bo'lsa, bo'lmas tilagin yegan.

Kishi topsa davlat unutar o'zin,
Yashil ko'kdan ustun yuritar so'zin.

Amalga erishsa olam hech bo'lar,
O'lim ko'zni ochar, biroq kech bo'lar.

Yesa, to'ysa fe'l'i bo'ladi yomon,
Ko'rib-bilib og'u yeyar u zamon.

Alamdan ezilar, rohat siqadi,
Yaqinin topar, tez oyoq yig'adi.

O'kinchda uradi boshiga qo'lin,
Dediki: yo'qoldim adolat yo'lin.

Nega kerak edi bu oltin, kumush,
Nega bermadim men chig' oyga¹ ulush?

Nega ortga surdim savob ishini,
Nega xafa qildim beayb kishini.

Agar ezgu ishlar olardi amal,
Naf balki tegar edi bu mahal.

O'kinchga nima naf bo'ladi bu kun,
O'lim tutti, kesdi umimni butun.

¹ Chig'oy — kambag'al, yo'qsil, beva-bechora.
Ulush — hissa, ulush, tegish.

Nima deydi eshit pishiq ko'z odam,
Kishiga qayishgan, shirin so'z odam.

Nafas olguchiga eshikdir o'lim,
Yuruvchi yurai-u deyolmas "lom-mim"

Nimadir tiruklig, nimadir o'lim,
Qayerdan kelurman, qayerga yo'lim?

Nega men tug'ildim, o'lishgami yo,
Nega kulgidan so'ng yig'i, ey Xudo!

Olamda o'limdan ne bor bemaza,
Qani edi kishi sira o'lmasa.

Bunga moslab aytdi shoir so'zini,
Ma'nosi ochadi kishi ko'zini:

"Olamda nima bor o'limdan yomon,
O'limni o'ylasa, chirillaydi jon.
O'lim bir dengizdir: uchi, yo'q tubi,
Tubi yo'q quduq bu o'lim begumon".

O'limin bilmagan g'ofil esa ko'p,
Naf etmas agarchi tavba qildi xo'p.

Halovat ichida g'ofil o'tgan kas,
O'lim tutsa qandoq oladi nafas.

Ko'zi suq, to'yungan olam moliga,
O'lim kelsa boqquin uning holiga.

Yaqin tortsa kimni mol-davlat komi,
Qora yer qatida kesilar dami.

Sevinchlar ichida mudom kulguchi,
Yig'iga hozir bo'l, ayo o'lguchi!

Nima der, eshitjin, uquvli, domo,
Bu so'zga tayansang nafi beado:

"Kishi o'rın istar esa ziyoda,
Yomonlik qilmasin ikki dunyoda.
Yomonlik qilmagin, e fe'li ravon,
Fe'l-u so'zni soz tut har bir asnoda".

Oyto'ldi o'kinib uzoq yig'ladi,
O'kinchi bu yerda dilin dog'ladi.

Chig'oylarg'a¹ berdi ko'p oltin-kumush,
Yaqinlarga qo'ydi merosdan ulush.

Ko'zin ko'kk'a tikdi, dedi, ey Egam,
Egani bilarmi bo'lak bu olam?

Yaratding, yashatding avaylab meni,
Sening fazling edi – bilarman uni.

O'zingga sig'indim ko'ngildan o'zim,
Ajal keldi, endi kesildi so'zim.

Qutular yerim yo'q sira o'limdan,
Xudo rahmatimi olar qo'limdan.

Tubanlikda qildim talay yomonlik,
Marhamat ichida bergin omonlik.

Esiz, o'tdi begor bori tiruklig
Esiz o'tdi begor davron-u begilk.

So'zin kesdi, biroz ezilar turib,
Ko'zidan yosh oqar o'g'ilni ko'rib.

¹ Chig'oy – kambag'al, yo'qsil, bechora

Oyo'ldining o'g'li – O'gdulmishga o'git berishimi aytadi

Yolg'izzgina o'g'li bu Oyo'ldining,
Kichik edi yoshi o'sha o'g'lining.

Oti O'gdulmish-u asli ko'p toza,
Yuzi ko'rqli edi, fe'li ozoda.

O'g'ilini u chorlar o'ziga yaqin,
Turib quchti, ko'zda chaqildi chaqin.

Dedi: o'g'lim, endi ketarman, mana,
Senga qolgay o'mim, bari mol, ana.

Sen eding men uchun ko'z nuri misol,
Ketarman, jon o'g'lim, eson, ezgu qol.

Yana yaxshii degan bu turk sardori
O'g'il-qiz ko'rur ko'z nuri singari.

O'g'il-qiz g'amidir tubi yo'q dengiz,
O'g'il-qiz g'amidan sariq bo'ldi yuz.

Kishida bo'larkan o'g'il-qizlari
Unga silkigay qo'l orom kezllari.

O'g'il-qizni deya ota yer etin,
O'g'il-qiz atarmi otasin otin.

Bu Oyo'ldi aytar: eshit, ey bolam,
So'zimni umutma, qulqot tut bu dam

Ota edim, o'g'lim, men o'zim senga
Otim edi Oyo'ldi, qaragin menga.

Tirkligi to'ldi bu Oyo'ldining,
O'kinchda o'lar, ko'r, holi yo'q uning.

Shirindir tiruklig, og'u bu o'lim,
O'kinsam, qochishga qani bir yo'lim?!

Ovundum olamga ko'ngilni berib,
Vafo qilmadi u, ketar yuz burib.

O'ziga bo'lib ko'p asir, mahliyo,
Ko'ngil berdim, u-chi qaramas qiyo.

Jafo qildi dunyo, qaridim o'zim,
U avvar seni ham, e qora ko'zim.

Kerakli ishimni uzoqroq qo'yib,
Keraksizni qildim firibga to'yib.

Shamol, yel kechardek tiruklig kechar,
Befoyda hayotim tugur, nom o'char.

Pul-u mol bilan ham bitarmi ishim,
Qo'limdan tutuvchi qani bir kishim?!

G'ofil bo'lмаганлар, eshit, nima der,
O'lim sabog'iga ko'z och, qulqot ber:

Dono, aqli ketdi, o'limni ko'rib,
Zakovat egasi lol qoldi turib.

Qara, qanday o'tkir o'lim timog'i,
Naqadar ayanchli kishin urmog'i.

Bezakli saroying yo'q etar o'lim,
Yig'ilgan har neni yo'qotar o'lim.

Bunga mos soz aytar shoiri zamон,
O'qigin, yoddingda tutib yur har on:

Olamda ne bo'lsa una hiyla bor,
Behiyla bo'lsa-da chorasi tayyor.

Har ishning munosib bo'lar chorasi
Faqt bu o'llinga chora kimda bor?

O'gdulmishning Oyto'lida savoli

Eshiddi o'g'il, ko'r, otasin so'zin,
Til ochti, otaga o'girdi yuzin.

Dedi: otajonim, so'zim bor senga,
Uni men so'rayin, javob ber menga.

Bu dunyo ichida kechirding hayot,
Chiqarding hunar-u bilim birla ot.

So'radling, eshitding, ko'rolding talay,
Taniidng qora-oq nedir har qalay.

Faqat yo'q o'llinga birota chora,
Bu xil natijadan jigarlar pora.

Topilmasa bo'lak chora yo iloj,
Xazina eshigini o'zing katta och.

Xazina yo narsa seni astrasa,
Topiladi yana Xudo xohlasa.

Nima deydi eshit ko'zi to'q kishi,
Tuz-u noni kengu saxiyar boshi.

Kishiga ulash mol, yedir ham ichir,
To tovar¹ semimas sen uni kechir.

Eson bo'lsa, yigit topiladi mol,
Tirik qushga doni yetar bemałol!

¹ Tovar — qadimgi turkiy so'zlardan biri, narsa, mol, buyum ma'nosini anglatadi.

Oyto'larning javobi

Javobda Oyto'lidi, dedi: ey o'g'il,
So'zimga ko'ngil ber, unga amal qil.

O'llinga naf etmas oltin-u kumush,
O'llimni tiyolmas na bilim, na ish.

O'llimni tiyganda bu'dunyo moli,
Mungli tugarmidi amaldor holi.

Hakimlarga hikmat nafi bo'lmađi,
Donolarni bilim xalos qilmadi.

O'llinga naf etsa edi bir malham,
Tabib zoti o'lmas edi bitta ham.

O'llim qilsa edi agar yuz qilib,
Mo'tabar rasullar qoldardi turib.

Tug'ilgan tiriklar kelar o'lgani,
O'llingga tug'ilgan tirik kim, qani?

Bu dunyo qo'nalg'a; keluvchi ko'char,
Yoki u — bir ajdar: yer-u ochiqar.

O'g'dulmishning Oyto'lida savoli

Eshiddi, O'gdulmish so'ng aytar: otam,
O'llimni shu qadar bilarkan odam —

Nega g'ofil qolding tiruklig ketib,
Nega koyinarsan fig'onlar etib.

Nega terding, axir, oz qolar moling,
Ullashsang, yengilmi bo'lardi holing.

Yashasa-yu g'ofil bo'lса gar odam,
O'kinsin o'ziga dod eib bu dam.

Bugun o'kinishdan nima g'am, chora,
Boshin yerga urib tursa ming bor?!

Oyo'ldining O'gdulmishga javobi

Bu Oyo'ldi dedi: ey o'g'ilim, eshit,
Meni ko'r, unutma, o'zingga ish et
G'ofilllik chalg'itdi, o'kindim o'zim,
Ko'zing och, aldanma, e ko'rkli yuzim.

Tug'ilgan tug'ilgar o'limi uchun,
O'zi bormas, ajal kesadi kuchin.

O'limga asirdir tug'ilgan bari,
Bir odim qo'yilmas vaqtidan mari.

Bunga o'xshar endi shoirning so'zi,
Tugal puxta bo'lar shoirning o'zi:

Har neki yaralgan — kuni belgili,
Nafasdin olishning soni belgili.

Yil, oy, kun kechardek tiriklik kechar,
Kechar kun qo'yarmi seni belgili.
Oyo'ldi dediki: menga boq, o'g'il,
Ne holda ketarman kuzat, qara, bil.

Faqat tashvishim-u dilimda tugun:
Qolarsan bu yoshda bir o'zing bu kun.

Nechuk kechar holing: shu og'riq boshda,
Tashvishim yo'q mening bulardan boshqa.

Ota ishi singsa o'g'liga agar,
Uning qiling fida bo'lar jilvagar.

Bugun o'kinishdan nima o'zi,
Yorug'bo'lar ota-onaning yuzi.

Agar unga bo'lса nazorat yomon,
Yaramas bo'lар u, ishon, begumon.

Ota bo'lsin, desa bolam gar dono,
Nazoratda tutsin uni doimo.

Nima der eshitgin o'g'illi kishi,
Boshidan kechirgan, yetilgan yoshi.

Erla bo'lса kimming o'g'il yo qizi,
Mung-u aziyatda yig'lagay o'zi.

Kichiklikda bebosh qilib qo'yса gar,
Bolada gunoh yo'q, gunohkor — padar.

O'g'il-qizning esa xulqi yaramas,
Javobgar otadir, bo'laklar emas.

Bola o'rganarkan hunar rosmana,
Ulg'aygach sevinar ota-yu ona.

Bolangni avayla, ota bo'lguchi,
Topilmasintoki keyin kulguchi.

Bilim-u humaring o'rgat bu mahal,
Toki bo'lsin bari qilig'i go'zal.

O'gdulmishning Oyto'ldiga javobi

Bu O'gdulmish aytar; ey otajonim,
G'am-u qayg'ung ila kuyadi jonioim.

O'zingdan keyin, o, tirk turmayin,
Sening g'amlaringni sira ko'rmayin.

Sening g'amlaringni mehribon Egam
Menga bersin toki ko'rmay aslo g'am.

Agar bermas esa, yetishsa ajal,
Na chora bo'lar, bu — taqdiri azal.

Hayot hukmiga bir bezak — yig'ilar,
Hayot hukmi keldi, yig'mi chiqar.

Dunyoga erishgan ne-ne pahlavon,
Oh-u vohda ketdi o'lim kelgan on.

Bilar eding dunyo jafochilligin,
G'ofil yurding uzoq sen o'zing lekin.

Barcha dunyo bo'lsa bitta yerga jam,
Senga zo'rg'a tegar ikki en bo'z ham.

Tirklik uchun gar o'kinsang o'zing,
O'kin, mudom yig'la, quiritma ko'zing.

Yana qayta kelmas kechirgan kuning,
Ne qilma, baribir, yaqindir tuning.

Men uchun esami agar ushbu ish,
Oh urma, ne kerak bu begor yumush.

Yaratilgan eding, yaralgan o'lur,
Yaralgan o'lur-u yaratgan qolur.

Otaday mehribon yo'q-ku odamda,
Xudo mehri ammo ulug' olamda.

Seni u yarattdi, qut berdi o'zi,
Menga ham nasiba uning rizq-ro'zi.

Gadoga muhabbat o'zidan kelar,
Kichikka ulug'lik o'zidan bo'lар.

Bunga o'xshar endi donolar so'zi,
Donolar so'zidir nodonlar ko'zi:

Dononing so'ziga o'rın bo'lsa dil,

Buzuqlik davosi deya shumi bil.

Yaratganning o'zi azizzdir aziz,

Aziz bo'lsa kimki topar undan iz.

Ezilganga tayanch, kichikka orzu,
Yomon-u yaxshiga qulovuzdir¹ u.

Eshitti, Oyto'ldi o'g'il so'zini,
Ko'tardi qo'l, tikib ko'kka ko'zini.

Xudoga shukr etdi u talay-talay,
O'g'il esli-hushli o'sar har qalay.

Dediki: o'g'il'dan ko'ngil bo'ldi to'q,
Xudo fazli ila bunga shubha yo'q.

Chin aytilgan o'zi, qara, ushbu so'z
Ma'nosi uqlisa yorug' bo'lar ko'z:

Xudo kimga bersa, farosat, biling²,
Bari orzularga uzatar alig³.

¹ Qulovuz — yo'l ko'rsatuvchi, rahnamo, murshid.

² Biling — bilim.

³ Alig — qo'l.

Kishi fe'li qo'shsa kishiga chiroy,
Yorishgandek bo'lar qora tunda oy.

Bari ezzulikka moya ezgu fe'l,
Shu sabab yumushga qut bog'lagay bel.

Bu Oyto'ldi qo'lin ko'tardi yana,
Dilidan ko'p duo o'tardi yana.

"Butun olam bo'lди sen sabab, Egam,
Tirik yuruvchining nasibasi ham.

Meni sen yaratting, taqdir shunaqa:
Gunohkor qulgingman, o'zing yorlaqa.

O'zing asrab, o'zing ko'tarding baland,
Olam moli bo'lди tilakka monand.

Bari orzu, ne'mat yetishdi begam,
Sevinchim sig'ishmas ichimga, egam!

Menga yetdi hukming, ketarman, mana,
Yagona o'g'il ham qoladi, ana.

Ota edim, endi bu ota o'lar,
Uni asra o'zing, e mangu padar!

Sevinchga yaqin tut, balodan hazar,
Uzilmasin undan ilohiy nazar.

Yomondan uzoq tut, yaqin ezguga,
Sira muhitoj etma yeg-u kiyguga".

Ko'ngildan chiqardi ezgu duoni,
Ey ezgu duo, sen daf et baloni.

Nima deydi, eshit, kishi ezgusi,
Kishi ezzusining bo'lar belgisi:

Xudo inoyatin olsa qay odam,
Musharrafdir unga har ikki olam.

Agar qulga bo'lса Xuddadan yo'lak,
Unga qo'l beradi bor orzu, tilak.

Xudo fazli kimga bo'larkan nasib,
Bari ne'mat, orzu kelar munosib.

Bunga moslab aytди uquvli kishi,
Uquvli kishining yurishar iши:

Sening fazling ila, panohi olam,
Tilak, orzu olar yaralgan odam.

Qay odam ishonsa yaratganiga,
Eshigini yopar ballo, qayg'u, g'am".

Oyto'ldining O'gdulmishga javobi

Oyto'ldi: bilib ol, deyar, jon bolam,
O'limni unutmqa, pishiq bo'l, bu dam.

Ishonma, tiruklig shamoldek kechar,
Oql bo'l, bu davlat juda tez ko'char...

Seni asragaydir faqat bir — Xudo,
Tilasa, yopishmas senga hech balo.

Mana, ayilarman o'zim ushbu kun,
Alam yoshlarin to'k, o'kirgin, o'kim.

O'limimdan keyin nima qilmog'ing —
Sanayman, ochib tut ikov qulog'ing.

Oyo'ldining O'gdulmishga o'git berishini aytadi

Ko'ngil, tilni sof et, Xudoga sig'in,
Bu dunyo ko'p aldab qo'yadi tag'in.

Butun yaxshi-yomon Xudo hukmi bil,
O'ziga ishon-u loat unga qil.

Neki lozim esa o'zidan tila,
O'zidan bo'lak yo'q, senga kuch, bil-a.

Butun buyrug'in qadr etib hamisha,
Qadrga qadrdir Xudodan pesha.

Fe'l-atvorni soz tut, unutma o'zing
Ko'ngil til kichik tut, semirtma so'zing.

O'zung o'tga otma bu dunyo uchun,
Kishi molin olma, ko'rsatma kuching.

Mana men: yashadim, qaridim, biroq,
Nelar qildi olam, o'zing ol saboq.

Mol-u mulk to'la-yu yeyolmadi jon,
O'kinchda kechar kun, zarar — bepoyon.

Senga qoldi molim, menga yuk ular,
Tutolsang, yiroqdir g'am-u qayg'ular.

Qo'lingdan kelarmi tutib qol, darig',
Toki qilsa, mayli, yuzingni yorug'.

Qo'lingdan kelmasa bu molni tutish
Yuzing nasibidir, ko'r anduh, so'lish.

Yashagin fe'lingni mukammal etib,
O'sha chog' kelar qut, alamlar ketib.

Nima der, eshitgin, fe'li to'g'ri er,
Har ikki olamni fe'li to'g'ri yer.

Agar kim tilasa farog' atliz kun,
Qidirsin to'g'rilik libosin butun.

O'zing beg bo'layin desang bobaqo,
Tuz-u to'g'rilikda bu ish mutlaqo.

Ulug' xalq boshini ushlasang agar
O'zingga adolat yo'lini o'ngar.

Ravon, rost, bo'larkan fe'li kimsani,
Ham u, ham bu dunyoda tug'adi kuni.

— Bolam, dedi yana Oyto'ldi, — eshit,
Bu so'zni hamisha o'zingga ish et.

Faqat ezzulklik qil, yomondan yira —
Senga qut keliaqak, yomoniлик yirar.

Yomon ishni tutma — zarar keltirar,
Yomonlik ilondir — chaqaq, o'ldirar.

May ichma, tubandan tutu ko'rma esh —
O'zing ezgu, ishing bitar peshma-pesh.

Shu ikki qiliqdandan azizz baxt qochar,
Kishiga gadolik yo'lini ochar.

Yana ikki kasga so'zing so'zlama,
Yoyollar yashirgan so'z-u sir hama.

Chaqimchi kishini yaqin tutmagin —
U elda yoyadi butun bilganin.

Sinalgan kishiga tayan shu joyda,
Senga tekkay undan tumtan ming foyda.

Eshit bor so'zin-u ishonmagan tez
Ko'ngil sirin ochma, yashir hamma kez.

Latif bo'1, hasaddan yiroq tut o'zing,
Bu ikki qiliqdan nasibadir — mung.

Ayolni bo'sh qo'yma, eshikka qara,
Ba'zan ayol sabab yuz bo'lar qora.

Uyga yot, ko'chaga — bormasin ayol,
Sina do'st-og'ayni — barin bemalol.

Fe'lingni tut ezzu, moling farovon,
Fe'ling ezzu bo'lsa, kelar mol shu on.

Bunga o'xshar endi: bu so'zni eshit
Bu so'zdan ulush ol, o'zingga ish et.

"Tirik beg kishiga kerak ezzu fol,
Kim ezzu fol esa topaverar mol.

Yomonga kerakmasmi dunyo, qara,
Topishga topar-u mol unga uvol!"

Uyatsiz kishidan yiroq tur mudom,
Nomusliga yetsin bu olqish, duom.

Ishingda shoshilma, qilib peshma-pesh,
Shoshilmas kishiga umid-orzu esh.

Hamisha yo'riqni me'yordida tut,
Yo'riq o'rtachami, sevinch, qutni kut.

Tiling saqlagin-u ko'zing saqlagin,
Bo'g'iz saqlagin — ne yesang oqlagin.

Xiyonat elidan doim chetda tur,
Avom isyonidan doim yuzni bur.

Tilingda yurmasin beglarning so'zi,
Donolik bo'lsa gar, mayliga, qo'zi.

O'zingga, birovga sog'inma ziyon,
Tamom ezbilik qil har on, har zam'on.

Ne yergaki kirsang, chiqishingni ko'r,
Chiqishni bilmasa, balo yetar zo'r!

G'azabingni bosgin, doim bo'l og'ir,
Shoshilmas kishiga sevinch qo'l berur.

Ne deydi, eshitjin, shoshilmas kishi,
Uning soz bo'ladi buzulgan ishi.

Kishi sabr tufayli tilagin topar,
Qanoat tufayli u oqqush tutar.

Kelar esa azob, mashaqqat senga,
Keyin yetishadi rohat ham, to'nga!

Agar davlat oshib, ko'tarsa ovoz,
O'zingni bosolsang, bo'lar ezgu, soz.

Og'ir bo'l, og'irlik jasurlar ishi,
Falakka topar yo'l har og'ir kishi.

O'limni unutma, hozir bo'l biroq,
O'zingni unutma — kechar kunga boq.

Tilingdan chiqarma bu yolg'on so'zing
Bu yolg'on tufayli qorayar yuzing.

Yor-u do'stga doim yaqinlik ula.
Ulug'-u kichikka boqa bil kula.

¹ To'nga — sher, yo'lbars. Alp Er To'nga nomidagi oxirgi so'z ham shu ma'noni ifodalaydi.

Qo'lingni ochiq tut, kishiga oshir
Kishi aybi ko'rsang, sen ochma, yashir.

Toatga yaqin bo'1, Xudoga sig'in
Gunohdan uzoq tur, yo'ling qil tayin.

Ziyod bo'lса davlat kerilma, qara,
Doim ezzulkik qil kishilar ora.

Bu dunyoga bo'lma sira mahliyo,
U bo'lса-da qancha, bo'lar tez ado.

Ishonma tiruklig go'yo tush kechar,
Quvonma bu qutga — u qushdek uchar.

Uvol qilma umring, ezzulkik qilib
Shodon yur, olamdan keraging olib.

May ichma, fasodga aralashma hech
Zino qilma zinhor, fosiqlikni kech.

Bu ikki qiliqdан aziz qut qochar,
Kishiga gadolik yo'llini ochar.

Ne der tinglagin sen, sinagan kishi,
Sinagan kishilar bo'lar ish boshi.

May ichma, zinodan hazar qil, hazar,
Senga u gadolik to'nini yopar.

Bu maydan topar yo'l gunohga yurak,
Zino it bo'lib, ko'r, qutingni qopar.

So'zin kesti Oyto'lди dedi: o'g'il,
Unitma, keragi senga mana shul.

Ishongin, so'zimni chin aytdim, tugal,
Tutolsang, sevinch ham qolar har mahal.

Senga so'zladim men qumarу¹ — o'git —
Unitmay ko'ngilda tuta bil, yigit.

Oyto'lди Eligga qumaru — vasiyatnomा yozib qoldirganimi aytadi

Xudo nomi ila etibon og'oz,
Qo'liga oldi u qalam-u qog'oz,

Xudo nomi ila so'zin boshladi,
Yaratgan, yashatgan, kechirgan, — dedi.

Olam-u odamni yaratdi Egam,
Nasiba ulashdi bariga begam.

Tilagan tilagi bo'ladi tugal,
Yaralgan neki bor o'zi etdi hal.

Joriy bo'lди bari ne bo'lса tilak,
Unga kerak emas madad yo ko'mak.

O'limga yaralgan bu sonsiz tirik,
Faqt o zi o'imas, budir bilgulk.

Sevimli rasulga beado salom,
Tegizsin Xudoyim uzun, bardavom.

Yana eshlariqa yetib salomim,
Musharrat bu baxtga etsin Xudoyim!

Uzog'-u bardavom yasha, ey elig,
Nasibang butun-u qading bo'lsin tik.

Oyto'lди nom edi, bu fe'lum to'la,
To'lalik ozaydi bugun bir yo'la.

¹ **Qumaru** — meros, vasiyat ma'nosini bildiradi; shaxs oti o'mida ham keladi.

Yubordi elchisin bu o'lim endi,
Qutular yerim yo'q, ko'zim ham tindi.

Inoyating menga hech bo'Imadi kam,
Topinolmay ammo ketarman, otam.

Javob o'mniga deb bitibman bitig,
O'qib rozi bo'lgin, e baxtli elig.

Bu dunyo ishida esh edik, illo,
Ishim chin ko ngildan etoldim ado.

E'tibor-u hurmat hisobsiz menga,
Ular haqi pand-u o'gitim senga.

Nima deydi, eshit, sodiq bir kishi,
Kishiga muhabbat sodiqning ishi:

Sadoqatli inson so'zi bir jilov,
O'git pand bo'ladi balolarga g'ov.

Sadoqatli bo'lar kishilar chini,
Ullarning so'zin tut, ulug'lar seni.

Qumar¹ so'ziga amal qil, bolam,
Amal qilsang unga ketar g'am, alam.

O'lim keldi yaqin, o'kindim o'zim,
Nima naf beradi o'kinchim, so'zim.

Kerak bo'lar endi ibodat, toat,
Ujardan bo'lagi o'kinchdir faqat.

Qolib ketdi endi bor oltin-kumush,
Ujardan yetishdi nadomat ulush.

O'kinchda o'larman, o'kinch nafi yo'q.
O'zimdan ko'raman, ko'ngil emas to'q.

Bu kun men ketarman, bu — oxirgi yo'l,
Keyin senga navbat, bunga amin bo'l.

O'lim kelmasidan, elig, ko'zni och,
Olamga ezgulik urug'ini soch.

Esonliq chog'iда eling ko'nglin ol,
Tovar-mol borida ulash bemaol.

Kuch-u zo'rlik emas, degin adolat,
Dil-u tilda shod et elingni faqat.

Nima deydi, eshit, so'zi to'g'ri er,
So'zi to'g'ri doim ko'ngildagin der:

"Ajal kelmasidan bo'lunga tayyor,
Tirklikda etg'in toatni bisyor.

O'lim kelsa, tutsa o'kinch nafi yo'q —
Qora yer qatida yig'la zor-u zor".

Mendan keyin, elig, pishiq bo'l juda,
Yo'qotma bir onni sira behuda.

Olam aldagaydir bu davlat bila,
Bori ish ichida solihlik tila.

Siyosatni odil yurit, ey elig,
O'ng-u so'liga to'lar faqat ezgulik.

Bu dunyo deb o'tga o'zing urmagin,
Havas boshini yanch, qarab turmagin.

Bu dunyo moliga bo'lib qolma qui,
Seni qo'ymas ekan, uni qo'ymagil.

¹ **Qumaru** — vasiyat, uning meros, yodgorlik degan ma'nolari ham bor. Ayni paytda asarda bu so'z kishi nomi sifatida ham ishtiroy eigan.

G'ururlanmagin ko'p, ko'kis kermagin,
Vafo etmas olam, ko'ngil bermagin.

Yaqinlaring esa kishi a'losi,
Yomondan yiroq tur, tegar balosi.

Kishi suqiga sen bermagin ishing,
Vafosiz kishiga yedirma oshing.

Toatdan tinma-yu, gunohdan tiyil,
Toatdan bo'lak naf yaramaydi, bil,

O'limni unutma, hozirlikni ko'r,
U pistirmasidan chiqar, baloxo'r.

Qayerga beginsang topadi o'lim,
Yugurma, baribir, tutadi o'lim.

O'lim haqligini unutmazinhor,
Peshonada oxir o'lim muhri bor.

Qani kim qutuldi o'limdan qochib,
Qani qolgan onon zamoni kechib?!

Juda yaxshi degan bilimli moslab
Ne-ne zamonani ko'rib, qiyoslab.

Musofir-u karvon misoli odam,
Qo'nogda abadly qolurmi odam?!

Ota orqasidan tug'ilar o'g'il,
Ona qorni bo'ldi unga bir manzil.

Onadan tug'ilib, ataldi oti,
Ulov bo'ldi unga zamona oti.

Sahargi xo'rag-u tungi har xo'rak
O'lim sari seni yetaklar, demak.

Olam bir rabotdir, olam bir rabot.
Rabotda qay odam qolur umrbod.

Peshonada mudom bo'lar ikki yo'l,
Birovi o'ng bo'lar, biri bo'ldi so'l.

Yo'lling o'ngcha kelsa, yurishdi ishing,
Agar so'lcha kelsa, urib yor boshing.

Ey elig, ekinzor misoli olam,
Ekin ekib olar nasibin odam.

Neki eksa yerga shu unar yana,
Nima bersa ortga shu qaytar, ana.

Kishi molin olma, yana to'kma qon,
Bu ikki gunohdan ulir chiqsa jon.

Bu tushdek tiruklig o'tar belgisiz,
Qu'l-u beg ortiga qayta kelgisiz.

O'tar kun bo'ladи senga misli tush,
O'kinchni kim o'ylar uchar boshda xush.

Nima der, eshitgin ko'z ochgan odam,
G'ofillik so'ngida so'z ochgan odam:

Yana yaxshi degan shoirlar umi,
Bu she'r ma'nosini uqvuchi qani?
Tushingdek kechadi tiruklig, hayot,
Qani bir nishona, qani belgi, ot.

Kuningni kechirgin tilak-orzuda,
Tirklik tugar-u, qolar ohu dod.

G'ofil bo'lma qolgan kuningga tag'in,
Tirklik o'limga shu qadar yaqin.

Baxil bo'lma, saqlan, ey ulug' xoqon,
Saxiy nomi qoldi, ko'p uzun zamон.

Sipoh-u mol-tovarga ko'ngil qo'ymagil,
Naf emaydi ular, buni yaxshi bil.

Yaramas kishiga fidо etma jon,
O'zing o'rtamagin, chekib ko'p fig'on.

Sendan oldin o'tgan ko'p beg-u xoqon,
O'lib ketdilar-ku guvoh — shu davron.

Bu o'lim senga ham bir kun chog'lamar,
O'lim qarshisida nafas bog'lamar.

Nima der dunyoning aybini bilar,
Zakovatdan olib o'gitlar qilar.

Sho'r, achchiq suv misol bu olam moli,
Ichishga ichar-u qoniqmas dili.

Ko'lankaga yana bu dunyo o'xshar,
Quvsang-ku qochadi, qochsang yopishar.
Sarobdir, qo'yaver, bu dunyo ishi,
Tutayin deganda yo'qotar kishi.

Ey elig, eta ber ezzu ish faqat,
Begi ezzu bo'lса, ezzu — raiyat.

Talay och bo'rilar tutar saroyni,
Ey elig, avayla sen ushbu joyni.

Eli — qo'y misoli, beg — qo'ychivoni,
Sevishi kerakdir qo'yin posboni.

Og'ir bo'l har ishda, tiyib g'azabin,
G'azab begini buzar, buzar asabin.

Dag'al so'zing aslo bilmасin birov,
Dag'allik kuydirar misli o't-olov.

O'y yurit, og'ir-u muloyimroq bo'l,
Faqat ezzulkka tegiz o'zing qo'l.

Ro'para keladi uzun yo'l safar,
Oqillar bu yo'lga oziq hozirlar.

Saroy, o'nda qurma, ey elning quti,
Senga uy hozirdir — qora yer qati.

Chiroylı, hashamдор saroying qolib,
Qora yer qa'rida yotarsan ulib.

Ne kerak bu qadar oltin-u kumush,
Senga tegar ikki gazli bo'z ulush.

Shoir ham yozadi ushbu so'zga mos,
Shoimning bu so'zi so'zlarga asos:

"G'ofil odamgina faqat mol terar,
O'yи yetmas: bular nima naf berar.
Boyisa, tilagin u topsa tugal,
Tiriklik tugaydi, o'zi jon berar"

Rohatga ovinnma, quvonma, e beg,
Ovunching, quvonching o'char olovdek.

Bu dunyo uchun sen fido etma jon,
Foniy erur dunyo, bevafo — zamон.

Hozir-ku o'ranib shohi-ipakka,
Ko'milasan lekin oxir tuproqqa.

Mahbubalar bo'lди joning rohati,
Borar joying ammo qora yer qati.

Horish bilmas yo'rg'a toyingdan tushib,
Egarsiz ot¹ kelar mungga mung qo'shib.

Xotirangda bo'lsin bularning bari,
O'kinch keltirmasim keyin yer qa'ri.

Olamda yetishsa senga gar amal,
Bu besh ishga yaqin turma hech mahal:

Haromga qo'shilma, yana qilma kuch,
Kishi qonin to'kma, sira qilma o'ch.

May ichma, fasoddan yiroq tur, yiroq,
Bular beg ishiga soladi nifoq.

O'zing mangu beglik tilassang uzoq,
Adolat et elga, shu yo'l yaxshiroq.

Elib, bu kun elda e'tiboring bor,
Elatengni astra, oqil bo'l, hushyor.

Ullug' yukni olding bo'yinga, elig,
G'ofil bo'ima, saqlan, e fe'l'i nozik.

Tan-u ion havasnning quli bo'lar, bil,
Quli bo'ima, undan forig' o'zni qil.

Kechirgan tiriglik misoli bo'ron,
Yo'qolgan tiriklik berar qo'l qachon?

Sovurmagin endi bu qolgan kuning,
O'zingni umutgin, umutgin munging.

Vafo qilgudekmas bu dunyo senga,
Vafo qildimi u, qaragin menga?

Nima der, eshitgin, donishmand kishi,
Oqil-u bilag'on, kishilar boshii.

Olam — rabot, o'zni bir karvon sana,
Turar unda qancha shu karvon, sana.

Mulk topish yeridir olam, u — saroy,
Ne topsang keyinga surib yurgin, hoy!

Olamdan ko'charsan, yuking — omonat,
Keraksizni qo'ygin, keragin jo'nat.

Mana men borarman, o'zim — chin o'mak,
Axir, sendan ezu nom qolish kerak.

Nima der, eshitgin, o'luvchi kishi,
O'lurda o'git-pand bermoqdir ishi:

"Tirikka pand berar o'luvchi tili:
Ko'ngilga joylagin uni bir yo'li.
Deyar: ey tirk, sen qolma g'aflatda,
Mana mendan ketdi tiruklig yili".

Abadiy hokimlik tilasang, agar,
Qilinmas ishlar bor, yana qilinar.

Sira g'ofil bo'ima, sog' bo'l doimo,
Yuz urmasin toki qutulmas balo.

Ne ish bo'lsa, qilma ikki fursatda:
Havas-u g'azabing chog'i, albatta.

Bularga etolsang o'zing rioya,
Olam turar, amal ko'rmagay soya.

Bor ezu kishini aziz tut, ko'tar,
Yomonlarni tutma, elingdan ko'tar.

¹ Egarsiz ot — tobut nazarda tutilgan.

Adolatli nizom yuritsang agar,
Kuning ezgu bo'lib, qut bog'lar kamar.

Nima der, eshit, ey bilimi ulug'
Bu so'zdan o'zingga ulush ol to'liq.

Siyosatni odil yurit doimo,
Olamga oxiri o'lim intho.

Ezgu siyosat tut, el boshhlar xoqon,
Yomon siyosatga bosh egmas jahon.
Yomon siyosatli bo'lsa gar elig,
O'zidan yomon ot qolar belgilig.

Kim ezgu siyosat yuritsa agar,
Nomini olamga yoyar muqarrar.
O'zingdan adashhma, eding asli kim?
Tubingni unutma, donishmand hakim.

Yomon fe'llidan qoch, ey qo'li uzun,
Yomon fe'lli qilar fig'omni fuzun.
Uzun bo'ldi qo'ling, sen elga yaqin,
Behuda yo'qotma kumingni tag'in.

O'tar dunyo o'tdi, ko'rinnaydi iz,
Keluvchi o'lim ham tutar endi yuz.
Meni ko'r-u, olgin ibrat — namuna,
O'kimma keyin, sen tiriksan, mana!

Kishi o'lsa undan qoladi meros,
O'zimdan qolari shu so'zim, xolos.
Sevarim sen eding, ey elig menga,
Nafi bor merosni ilindim senga.

Nafi bor meros bu kishilarga — so'z,
Meros so'zni tutsang nafi bo'ldi yuz.

Bitib qo'yganim shu edi, so'z chini,
Unutma bu so'zni, unutma meni.

Ko'p uzoq yashadim, men tirk yurdim,
O'lim bo'ldi oxir, oqibat ko'rdim.

Shubhasiz o'lim ham kunida kelar,
Tirk — joniilarning jonimi olar.

Undovchi¹ yo'liga hozirlilik zarur,
Uzun yo'l yurishga kerakdir shuur.

O'limdan omon yo'q, ayo oqsaqol,
O'limga hozir bo'l, keragini ol.

Nima der eshitigin o'lib yotgan er,
O'limin o'lishdan oldin aytgan er.

Fursatida kelar o'lim kamari,
O'lim hozirligi shuurdan nari.

Mana men deb oltin kamar bog'lagan,
O'lim tutgach bo'ldi uzuq kamari.

Xoqonim, ne yumush buyurding menga,
Uni uddalash-chun yukundim senga.

Hayot bersa tavfiq bari ezguga,
Qo'li yetar keyin yegu, kiyuguga.

Omon bo'l-u yana uzoq, tinch yasha,
Quwonch-u ovunchda oshingni osha.

¹ Undovchi — Azroil.

Ko'ngilning tubidan chiqar bu so'zim,
Salomat, eson qol, e ko'rklı yuzim.

Mana men o'larmen, ey elning quti,
Qolib ketar o'g'lim, bag'riming o'ti.

O'ziga topshirdim uni yolvora,
Istasa astragay yonar o't ora.

Senga iltimosim, panohingga ol,
O'zin qo'yma, bo'lar yomonlar misol.

Olamda boriga sabab bo'lar Rab,
Butun ezgu, esiz uchun u sabab.

O'g'il-qiz sababi ota-yu ona,
Fe'li sal buzilsa, soz esa yana.

O'zim jon beraman bukun, ey xoqon,
Qolar bag'rim o'ti — kichik bir o'g'lon.

Yumushim hafi sal senda bo'lsa gar,
Sabab bo'lib ezgu yo'lga sen o'ngar.

Qarab turma, o'rgat bilim-u hunar,
Shu sabab yoningda bosh bo'lar magar.

Mos esa tutumi, yo'riqlari soz,
Olarini olsin yumushiga mos.

Behuda, bo'sh qo'yma, qarab tur faqat,
Nazorda tursa, o'g'il topar baxt.

Kichiklikda bilsa neni o'g'il-qiz,
Qarib o'lmaguncha umutmas hargiz.

Nima der eshitgin qari bir kishi
Sinagan, kuzatgan, yurishgan ishi:

Kichiklikdan bilim o'rgat o'g'ilga,
Qo'li bo'lar baland o'shanda elga.

O'g'il-qizga dashnom goho berib tur,
O'g'il-qizga bu ham bilim o'rgatur.

Tugatlidi nomani, bog'ladi sekin,
O'g'iliga uzardi nomani keyin.

Dedlik, bu xatni yo'qotma, bolam,
Eligma yetkazgin vasiyatnomam.

Xatimni o'qisin, so'ng etsin amal,
Hozirlik ko'rolsin to kelmay ajal.

Chuquur nafas oldi boqib o'g'ilga,
Dedi: sen buni uq, olib ko'nigliga.

Yana o'g'lin oldi bag'riga quchib,
O'pib yig'ladi ko'z yoshini sochib.

Dedi: o'g'lim endi, sen ko'rding meni,
Ne holda borarman umutma buni.

Senga ham, shubhasiz, bu kun keladi,
G'ofil bo'lma, oxir har zot o'ladi.

Kerakli so'zimni yetkazdim senga,
So'zimni uqib ol, duo qil menga.

Eliy yo'qlasa gar e'zozlab seni,
Yo'riq tuz, yumush qil, sinama uni.

Behuda, yurmagain begor hech mahal,
To'g'ri bo'l, og'ir bo'l, fe'ling qil go'zal.

Kechasi kech yot-u yana era tur,
Kech yotib tez turgan qutli er bo'lur.

Xudo buyrug'ini og'ir tut, og'ir,
Eligg'a xizmat et, isitgin bag 'ir.

Yomonga yondoshma, yiroq tur tez-a,
Faqat ezzgulik qil, yo'riq yo'l tuz-a.

So'zingni avayla, omonlikda yur,
O'zingni ko'p asra, esonlikda tur.
Fig'on chekdi yana o'kinchlar yedi.

Dedi, ey vafosiz, ishonchsiz dunyo,
Nega qilding endi menga sen jafo.

Ne'matlar ichida yayragan jonim,
Qora yerga kirar, ey pahlavonim.

Onadan tug'ilgan esam qanaqa —
Yalang'och-u mungda borgum shunaqa.

Nima der o'limi aniq bo'lgan er,
O'limdan yuragi qonga to'lgan er:

"Qorindan chiqarding, yerga kiraman,
Ilon-u chayonga jonim beraman.

Esiz tirikligim, esiz tiruklig,
O'kinch, yig'i ila go'rga kiraman".

Qara, yaxshi degan elin boshlar er,
Bilim, zako bilan ishin ishlar er.

Ne eguz ish edi o'lim bo'lmasa,
Ne ko'rlik ish edi kishi o'lmasa.

Rohatga yetaklar meni bu o'lim,
Shu o'lim kesadi mening tomirim.

Kishimas, kishilik esizdir, ishon,
Odam esiz emas, esiz sharaf-shon.

O'limga ajab yo'q, tug'ilgan o'lar
Tug'ilgan o'lar ham qora yet to 'lar.

O'limning qiliq'i qadimi, ayyor,
Uning kelmog'iga tayyor tur, tayyor.

Eligning O'gdulmishga o'git berishini aytadi

Elig Oyto'ldining tutib motamin,
Oyto'ldi o'g'lini chaqirdi keyin.

Dedi: chekmagin sen bu qadar alam,
Sevinch kelar keyin, burun kelsa g'am.

Bu alam emasdир faqat bir senga,
Musibat yetishdi, ey o'g'lim, menga,

O'zingni ovutgin, g'am yo'lin yo'qot,
Yaqin tur, o'zingni yumushlarg'a ot.

Otang o'lgan esa otaman senga,
Otalik qilayin, o'g'il bo'l menga.

O'gdulmishning eligga javobi

O'gdulmish yer o'pib dedi: ey xoqon,
Eling omon bo'lzin, yasha ko'p zamон.

Yunushchi qulingman, sodig'ing sening,
Fido bo'lzin jonim, eligga mening.

Fido qilgan edi otang senga jon,
Etay endi men ham o'zimni qurbon.

Chiqardi otasi xatimi o'g'il,
Eligga tutqazdi u — kichik ko'ngil.

Elig oldi, ochdi, o'qidi xatin,
Uqib oldi unda bor nashhatin.

Dedi: mehribonim, ey ravon yo'riq,
Eshigim bo'sh qo'yding, ko'ngilni qunug'.

Tirik chog'ing to'la o'tading haqim,
O'larda ham nahot yeding sen g'amim.

Haqing o'tolmadlim men sening aslo,
Sening haqlarlingni o'tasin Xudo.

Bu kun men-ku sendan rizoman, rizo,
Buning evazini beradi Xudo.

So'zin kesdi elig, g'amda qoldi u,
Turib chiqdi asta dilida qayg'u.

Kelib uyga kirdi ko'ngil to'la g'am,
U kun tutdi do'sti uchun ko'p motam.

O'g'il esa ochdi otaga aza,
Moli yo'qqa berdi mol-u hol toza.

Kechirdi yana u ota qayg'usin,
Yaqin tutdi o'zga kishi ezzusin.

Ko'ngilga jo etdi ota pandini,
Quti ortdi, har kun yorishdi kuni.

Nima der eshitgin oqil bir kishi,
Mudom el ishiddan boxabar kishi:

"Otang pandini sen mahkam tut, mahkam,
Kuning shirin bo'lar, ortar quting ham
Otangni, onangni sevintir mudom,
Yumushing nafi hech bo'Imas ado, kam".

Elig ham ishiga kirishdi, jadal
Adolat tufayli muammosi hal.

Boyidi elati, farovon eli,
Eligni duolar etar el tili.

Elig yolg'iz edi bir kuni o'zi,
Kitobdan uzoqqa tikildi ko'zi.

Dillida hayrat-u, ko'ngil bezovta,
So'rarga kishi yo'q xuddi shu tobda.

Bu Oyto'l din eslab, kuchayar dardi,
Dedi ming afsus, ey odamning mardi.

Eshikka ko'rk edi, menga ezgu esh,
Eliga naf berar undan chiqqan ish.

Quruq qoldi o'mi, buzuldi ishim,
Nuqsonni tuzatar qani bir kishim?!

Yana esladi, ko'r, der O'gdulmishin,
Unitib bo'larmi u ezgu kishin.

O'limi oldidan do'stim Oyto'l di,
O'g'lin aytgan edi, u unut bo'ldi.

Ota o'lgan esa, bor-ku ko'z nuri,
Birisin tutayin, garchi yo'q biri.

Bu O'gdulmishga tez kishi yubordi,
Darakchi zum o'tmay yoniga bordi.

O'gdulmishning Kuntug'di
ximatiga kirishini aytadi

O'gdulmish keldi-yu ro'para turib,
Eligg'a ko'rindi sevinchli bo'llib.

Elging O'gdulmishga savoli

Elig ko'rigan oni chaqirdi uni,
Dedi: falak soldi ne ko'yga seni?

Kunlarining kechadi ne tarz, ne holat,
Durustmi yuribsan yo egri faqat?

Nima qildi davron otangdan keyin,
Shodmisan yo boshing chiqmas qayg'udin.

O'gdulmishning eligga javobi

O'tindi O'gdulmish: shu elning quти
Ko'p uzoq yashasin, yoyilsin otı.

Elig xizmatidan tash bo'liddim, yiroq.
Falak yuz o'girgan, uyadi qovoq.

Ko'p bo'lidi eligning yuzin ko'rmadim,
Alam qayg'u bilan yurib, kulmadim.

Bu kun istab elig meni chorladi,
Menga qaytdi davlat, umid porladi.

Elig yorlig'ini eshitgach o'zim,
Kunim ezgu bo'lidi, yorishdi ko'zim.

Savol berdi elig unga muttasil,
O'tindi O'gdulmish, so'zga ochdi til.

O'gdulmishning kuntug'di elig xizmatiga kirishini aytadi

Elgi dedi, bundan keyin, ey o'g'il,
Menga xizmat etgin, cho'ktirma ko'ngil.

Menda ancha edi otang mehnati,
O'tay olmadim men, bo'yinda haqi.

O'tashim kerakdir bu haqni senga,
To kelmasin ko'plar ta'nasi menga.

Eshitgin Uch O'rda¹ begi ne degan,
Farosatni qo'lllab u shundoq degan.

Kishi xizmat etsa senga belgilik,
Unitmagin, bo'lma misoli o'lik.

Kishilikni qo'yma, ey asli kishi,
Kishilik qilib yur, bu mardning ishi.

Birov xizmat etsa bir, o'n yo mingdir,
Evazi uchun sen ko'p yumush singdir.

Kishi mehnatini bilmagan kishi,
Bo'lar go'yo hayvon, ey elchi boshi.

Kel, atanma hayvon, kishilikni qil,
Kishiga kishi bo'l, kishilikni bil.

Kishilik tufayli kishi topar nom,
Kishilik tufayli topar ehtirom.

¹ Uch O'rda — joy nomi.

O'gdulmishning eligga javobi

Yer o' pdi O'gdulmish, dediki, xoqon
Ko'zi tushdi menga, bu qutdan nishon.

Yumushchi qulgingman, beginsan ulug',
Ulug' beg qo'yarmi qulini qurug'.

Xohi tut aziz-u xohi tut gado,
Faqat senga qilay bu jonim fido.

Chiqishga yo'naldi u ta'zim etib,
Biroz yurib, bordi uyiga yetib.

Shu kundan yumushg'a kamar bog'ladi,
Og'ishmay har ishga o'zin chog'ladi.

Yumush etdi tun-kun, u charchamadi,
O'sha yerda yordi, xo'rargin yedi.

Yumushi eligga bo'ldi ko'p manzur,
Yaqin keldi ko'p qut, qo'l berdi huzur.

Nima der eshitgin yumush qilguchi,
Yumush ila davlat otin minguchi.

E beglar sevinchin tilagan kishi,
Ular tilagiga mos bo'lsin ishi.

Qui etsa begiga nom'a qu'l bir ish,
O'zini koyisin, bu unga tashvish.

Begi istagini etmasa baoj,
Tirikligi bo'lar behuda, bejo,

O'gdulmishni elig yaqin tutdi ko'p,
Talay ish yarog'in tushuntirdi xo'p.

Yana bir kun turib o'kindi xoqon,
Dedi, afsus, ketdi chinakam inson.

Saroyda ko'p ishchi, yumushchi soni,
Mening ishimga mos etuchi qani?!

Faqat bir Oyto'ldi edi biluvchi,
Qani endi menin ishim qiluvchi.

Nima der, eshit, bu sinagan kishi,
Yaxshi-yu yomonni anglagan kishi:

Istasa yetar bor orzuga kishi,
Topilmaydi lekin ezzular boshi.

Olanda ko'p o'zin sanovchi odam,
Kishi deb ishonса bo'larlari kam.

Ularning keragi, yarovchisi yo'q,
Ishingga naf berib yuruvchisi yo'q.

Nima der, eshitgin, so'zamol, chechan,
So'zini ma'noga to'ldirib degan:

"Yuruvchi talay-ku, yarovchisi yo'q,
Yarovchi topilsa, yuruvchisi yo'q.

Yumushchi-yu qullar yig'ildi talay,
Sobitlikda ammo turuvchisi yo'q".

Elig dedi, yana masalda kelar,
"Urug'ligi bo'lsa urug'i qolar".

Oyto'ldining nima atay o'g'lini,
Ota o'lsa o'g'il olar o'mini.

Ota o'ldi, qoldi bo'sh uning joyi,
O'g'il kelsa unga, bo'lar chiroyi.

Uni tarbiyalay, u bo 'lsin kishi,
To bo 'lsin kishiga kishilik ishi.

Bo 'ladigan bola ko 'rmanan uni,
Faqt yoshligidir uning nuqsoni.

Juda yaxshi degan kishi nomdori,
Kishilar sarasi, el baxtiyori:

Begi cho'zsa agar qay a 'yonga qo'1,
Ulug'lik sari u topar bo 'ldi yo'1.

Kimni yaqin tutsa beglar o'ziga,
Tilaklari keldi uning ko'ziga.

Kulib boqsa beglar kishiga turib,
Oqib kelar eli unga yuz urib.

Elig dedi, yigit ko 'rinadi soz,
Yetuk kishi bo 'lar topolsa e'zoz.

Otasi haqini o'tagan bo 'lay,
Sadoqat yo 'lida kishilik qillay.

Ko 'p edi Oyto 'ldi himmati menga,
To imkon qaytaray evazin unga.

Kishilik degani bo 'lar ezgulik,
Bu ezgu degani yegu, kiygulik.

Ezguni unutmas hech yaxshi odam,
Ezgu tutar ezgu yaxshini har dam.

Nima der, eshitgin, qarilar so 'zi,
Qarilar so 'zin tut, unutma, qo 'zi:

Ezgulik qila ber, ey ezgu odam,
Qatimas bo 'ladi ezgu sira ham.

Ezgulik qarimas, butun qanoti,
Uzun bo 'lar umri, buzulmas oti.

Og 'irladi elig, bu O'gdulmishin,
Sinab, yukladi so 'ng unga bor ishin.

Ulug 'ladi uni, siyladi xoqon,
Nizom izga tushdi, soz o 'ldi zamон.

Soz bo 'ldi siyosat, nizom bari ham,
Tilaklari to 'ldi qolmay biri ham.

Nuksi bo 'ldi san'at, so 'zi bo 'ldi so 'z.
Qiymalganda elig unga bo 'ldi ko 'z.

Elig dedi endi tilagan ishim,
Tugal bo 'lar axir: ichim-u tashim.

Har ishning bo 'ladi, oson, og 'iri,
Og 'irlikni olgan yengar oxiri.

Mana, topdim oxir tilakdek kishi,
Komilroq bo 'lar u yetilsa yoshi.

Zabardast fil yoki bo 'lar har bola,
Kichik yoshidanoq berar nishona.

Bunga o 'xshar endi she 'rga nazar sol,
Ma 'nosini o 'qi, keragini ol:

"Bo 'lar narsalarning bo 'lar belgisi,
Kichig-u ulug 'da shu yang bo 'ig 'usi.
Anvoysi ne 'matni o 'sar chog 'i ko 'r,
Har yerda bu so 'zim amal olg 'usi".

O'gdulmish bajardi ishg'a yuz urib,
Kechasi ham keldi ishi, so 'zidan.

Yaroqsizni yiroq tutdi o'zidan,
Faqt foyda keldi ishi, so'zidan.

Tashvishlari arib shod o'ldi xoqon,
Yuki yengil o'lgach shodon olomon.

Yana biri — soflik, ochiqlik erur,
Har ikki olamda u shodlik berur.

Ochiqlig-u, hayo, ezu xulq agar
Qo'shilsa, bo'ladi qut ham jilvagar.

Eligning O'gdulmishga savoli:

Elig chorladi bir kun O'gdulmishin,
So'radi o'zidan neki bilmishin.

Eshit, dedi elig, — so'zimni, o'g'il,
Necha so'z so'rayman, menga tut ko'ngil.

Aytib bergen menga, nima befoya? —
Sanab ber: yana naf'berari qayda?

O'gdulmishning elingga javobi

Javob berdi yigit, dedi ey elig,
Bilimning o'r dasi, sara, belgilig.

Kerak bo'ladigan ikki olamda
Ezgu qiliq, go'zal xulqdir odamda.

Keyingisi rostlik, uchinchchi hayo,
Bu uchdan qut hozir turar doimo.

Fe'li go'zal bo'lsa, butun el sevar,
Fe'li sozga doim baland joy tegar.

Tiyadi yaramas har ishdan hayo,
Hayosizlik asli yomon dard, balo.

Eligning O'gdulmishga savoli:

Yana dedi elig: eshitim bu so'z
Foydasiz nimadir kishiga yovuz?

O'gdulmishning elingga javobi

O'gdulmish dediki, eshit, ey xoqon,
Bilishim tengicha deyin ushbu on.

Kishiga benaflar beradi zarar,
Ular ham uch turli bilsang, ey padar.

O'jar bo'lsa yana fe'lli ko'p yomon,
Bulardan yomonroq to'qisa yolg'on.

Yana biri baxil, kishi pastkashi,
Bu fe'lli kishilar bo'lар past kishi.

Kimning bo'lsa fe'lli haddidan yomon,
Omad kelsa hamki yetishar armon.

Taratса shonin kim yolg'on til bilan,
Topisha olmaydi rostgo'y el bilan.

Ochko'zlikdan tuban nima bor yana,
Narsani terar-ku, yeyolmas, ana!

Bu haqda nima bor, eshit, kitobda,
E mungli, bechora, joni azobda:

Tera bilding oltin, yeya bilmadding,
Oltin — yov, nega sen ado qilmading!

E dunyoni terib, yeyolmas odam,
Mol-dunyo seni yer, hozir bo'l shu dam.

Kishi shunday esa, ketadi quti,
Kishi shunday esa, yitadi otı.

Eligning O'gdulmishga savoli

Elig dedi: yana eshitdim buni,
Yana bir savol bor, tushuntir uni:

Onadanmi dono tug'illar kishi,
Yoki o'rganarmi yetilsa yoshi?

O'gdulmishning eligga javobi

Bu O'gdulmish aytar: ey elning quyi,
Bilim-u uquvdir bu san'at oti.

Bilimsiz tug'illar, bilinar nizom,
Bilim bilgach olar e'zoz, ehtirom.

Onadan-ku odam nodon tug'ilari,
Bilat, o'rganar, so'ng u to'rga chiqar.

Uquvni-chi bo'lmas o'r ganib hech ham,
Qo'shib yaratadi mijozga Egam.

Uquvdan bo'lak bir san'at — fazilat
O'qish o'rganishdan olinar albat.

Sevindi eshitib elig bu so'zin,
Dedi: go'yo orzu etardim o'zin.

Otasin yo'qotdim mana bu o'g'il
Ota o'min oldi bilib ezgu yo'l.

Hayotga shukr etdi, dediki tamom,
Elga kerak tinchlik, ezgulik in'om

O'gdulmish ko'rinar yaqin, mehribon,
Yetuk bajaradi bor ishni chunon.

Ezgulik qilayin unga ushbu tob,
Ul ezguga bo'lsin bu ezgu javob.

Nima der eshitgin, kishi tetigi,
Kishilar sarasi, dono, yetugi:

"Kishilik qilganga kishilik qilgin,
Kishilik tengicha javobni bilgin,

Vafoga vafodir kishilik haqi,
Vafo qil, to'g'ri bo'l, ulug'lik qilgin".

Kundan kun qadr etdi, ko'r, elig uni,
Bor elga yoyildi ovozi, uni.

Buyuk bo'ldi elda belgi-nishoni,
Ezgu duo bilan avj oldi shoni.

Ulug' bo'ldi esh-tush ora belgilik,
A'yonlar safida u bo'ldi buyuk.

Kichik tutdi ko'nigil, til, fe'lin ravon,
Adolat ichida zamon farovon.

Fe'lın tutdi ochiq, shirin tilini,
Rom etdi ich-u tash eli dili.

Jo'ra, do'st, yaqinlar u topdi qancha,
Kishiga ularning nafi bor ancha.

A ne ezgu bo'ladi fe'li muloyim,
Yonida tog' bordek yuradi doim.

Jo'ra, o'rtogni ko'p qilsa odam,
Uning ishi pishiq, qoya u mahkam.

Ochiq ko'ngil qutqa qanday yarashar,
Chirov ortar yana u bo'lsa kamtar.

Yana yaxshi degan bu oqil kishi,
Eshitgan kishining soz bo'lар ishi.

Yaqin kelsa omad kishiga agar,
Kichik tutsim o'zin, ko'ngilni kamtar.

Kelar esa davlat kishiga kulib,
Tutib tursin uni simiqlik qilib.

Ko'chatga o'xshaydi bu qutning o'zi,
Ko'ngil kamtarligi — uning ildizi.

Ne ezgu bo'ladi fe'li soz kishi,
Ne ko'rkli bo'ladi uning har ishi.

Yaramas bo'ladi bari kerilgan,
Uning ishi ketar har kun yuz tuban.

Omad barchaga ham yarashar, ko'proq —
Uquvliga kelsa mos tushar binroq.

Bunga mos keluvchi shu baytni o'qi,
O'qigin uqib ol, e ko'nglim to'qi.

"Bilimsizga davlat yarashsa kelib,
Bilimliga ortiq yarashsur bilib.

Bilimsiz bilan u yarashsa agar,
Dono bilan turar chirolyi bo'lib."

Omad bilan ulug' bo'lsa gar nodon,
Donoga kelsa u yarashar chunon.

Nodon topsa agar davlat, saodat,
Davlat unda qilmas uzoqroq toqat.

Bu so'zning isboti mana bu bo'lар,
Uni anglasa kim ko'ngil ham to'lar:

"Kelar qut kishiga, og'irlar uni,
Nurga to'lar olam u kelgan kuni.

Loyiq bo'Imaganga kelsami gar qut,
Halovatda kechmas kuni-yu tuni".

O'gdulmishni elig sinadi, qara,
Ishonch hosil qildi: u yetuk, sara.

E'tiborda tutdi berib ko'p dunyo,
Bee'tibor tutib ko'rди u goho.

E'tibor kelar chog' ko'ksin kermadi,
E'tibor pasaysa boshin burmadi.

Eligga u bo'ldi eng yaqin kishi,
Unga topshirildi xazina ishi.

Omonatni oldi u sohib zako,
Omonat olarga bu jonim fido.

Nizom asosiga qurdi ishlarin,
Elig tutdi uni tobora yaqin.

Bor ishlarni a'lo qilib u ado,
Hisob-kitobini etar jo-bajo.

Begin asradi ham o'zin saqladi,
Xato qilmay aslo, tuzin oqladi.

Nima der eshitgin yetilgan yoshi,
Ko'zi pishgan-u ko'p yetuk, chin kishi.

Kumush-oltin asli oliv narsa der,
Kumushdan ham aziz o'zin tutgan er.

Dono bilim berar, donishmand, ko'rgin:
Dili pokizani ko'zingga surgin.

Zako yaxshi degan, qara yana ham,
Sodiqa fido jon etsa hamki kam.

To'g'ri deb atashar, qanday bo'lar u?,
Omonatga sodiq bo'ladi mangu!

Lashkarda qar biri tugal er bo'lar?
Xulqi go'zal esa o'shal er bo'lar.

Kishilardan kim loyiq taqdirga?
Saxiy-maqtovga ham baxil tahqirga!

Yigitlar ichida tugal kim bo'lar?
Go'zal bo'lsa hulqi ko'ngillar to'lar!

Ular ichra kimlar nimaga ravo?
Saxiyga ulush ber, baxilga jazo!

Mungli desa bo'lar odam o'g'lini, —
Burun toshga tegsa, osh topgan kuni

Biri chopar, timmas, olamni kezar;
Biri jon fidolar, dengizda suzar.

Mehmatin singdirsa kishi belgilig,
Unutma u ishni, bo'lm a sen o'llik.

Qoya qo'poradi, tog' qazar birov,
Biri yer qulochlar, kezadi yayov.

Biri dovon oshar, dengizlar kechar,
Biri yer qazar, suv quduqlab ichar.

Biri lashkar ichra qilich, bolta yer,
Biri jon fidolar, yotib jon berar.

Biri o'g'ri, qotil, yana yo'lto'sar,
Biri bosmachi-yu zolim, boshkesar.

Bu yumush boisi kiyim-u tomoq,
Terar mol, yeyolmas bechora biroq.

Bular-ku bilimsiz kishi ishidir,
Bilimsizni mol de, dema kishidir.

O'ziga ishongan donishmand odam,
Tugar payti tugal yeydi oshni ham.

Uqvili kishining eshit so'zlarin,
Yurib qilgan o'zi har ish tadbirin.

Kerak yot, kerak sen olam kez, yugur.
Nima bo'lsa qismat, senga u tegur.

Ko'ngil, tilni sof tut, bilag'on dono,
O'shanda kamimas nasibang aslo.

Agar boylik istar esang olamda,
Kishilik bilandir u ham odamda.

Yana yaxshirog'in tilasang agar,
Adolatga bog'liq bo'lar sarbasar.

Yana yaxshi degan olam olgan er,
Adolat tufayli rizo qolgan er:

Bu olamda boylik tilasang o'zing,
Adolatl bo'lzin ishing ham so'zing.

Bo'lak dunyo istar esang mabodo,
Adolat ichida yashagin o'zing.

Kishi bo'lsa agaradolatshior,
Uning kun-tunida Quyosh, Oyi bor.

Adolat, kishilik ila qilsa ish,
Kuni yorishadi, soz bo'lar yumush.

Yanada yorishdi O'gdulmish oyi,
O'git sabab tiniq edi chiroyi.

Uni ko'p sinadi elig muttasil,
Bor ishin sanadi: sara, soz, asil.

Uning kamoliga berib qo'ydi tan,
Butun qilmishiga qoyil daf'atan.

Uni ko'rди, bildi, sinadi tugal,
Kam-u ko'sti yo'qday to'la, mukammal.

Nima deydi, eshit, bilimli dono,
E nodon, bo'yin ber, egil doimo.

Sinagin, surishir xodimni mudom,
Xodimni simassang, qut topar davom.

Begiga yaroqli ko'rinsa xodim,
Unga xayr yo'li ham bo'lar bardavom.

Tilakcha bo'lар ish, qut olar ko'ngil,
Bek nomi elida o'sar muttasil.

Buni Yag'mo¹ begi ko'p yaxshi aytgan,
Uning aqli har bir yumushga yetgan.

Ayo beg, ishing ish bituvchiga ber,
Yaroqli, to'ri yo'l qiluvchiga ber.

Agar bo'lса beginning ishi yaramas,
Uni o'zi qildi, birovlar emas.

Agar qut berishni tilasa Xudo,
Qilar chin, yaroqli yumushchi ato.

Gar istasa yerga uni urmoqni
Ato qilar pastakash, bir qurumsoqni.

U johil-ku ketar, amno bus-butun —
Ishlari buzilar, o'ralalar tutun.

O'gdulmish xizmatin ko'rib birma-bir,
Elig qildi uni o'ziga vazir.

Butun elga qildi qo'lini uzun,
E'zozladi uning, yo'riq, til, so'zin.

Amal berdi, tamg'a, ot, ziynat, libos,
E'zozladi uni xoqonlarga xos.

Saroyda kichikdan ulug' gacha to,
Salom-sovg'a berdi etib jon fid.

Xodimlar ko'rindi yoniga kelib,
E'zozladi bari ta'zimlar qilib.

Yigit siyosati bo'lди bunga mos.
Kichik-katta bari ko'rishdi e'zoz.

¹ Yag'mo — qabila nomiga asoslangan joy nomi

Zug'um-u balodan yiroq xaloyiq,
Elida qolmadi xulqi noloyiq.

Adolat tufayli eli barqaror,
O'zining ko'nglida farah, quti bor.

Sevuvchi ko'paydi, yomonlar cho'g'i –
Kamaydi, yiqlidi ularning tug'i.

Eliq qalbi to'ldi sevinchlar ila,
Tiriglik tatidi ovinchlar ila.

Bu yanglig' farog 'at donodan kelar,
Bilimli, donishmand, a'lordan kelar.

Nega maqtamayin uquvli kishin
Nega tahqir etmay yomonlar ishin.

Zakovat egasi nuqul naf berar,
Yomonlar izidan kishi ne terar?

Uquvli kishiga berar qut chiroy,
Bilimdon kishining yuzi – to'lin oy.

Nima deydi, eshit, Ila¹ beg so'zi,
So'zining ma'nisi – bilimsiz ko'zi:

Bilimsizga davlat yoki kelsa qut,
Xaloyiq buzular, bo'lar elga yut.

Uquvliga agar bu bo'lsa nasib,
Osoyish olar el, bo'lagin unut.

Bilimsizga davlat yarashsa kelib,
Bilimliga ortiq yarashshur bilib.

¹ Ila — joy nomi.

Bilimsizga davlat keladi, lekin
Bilimliga kelsa, qolar tin olib.

Bilimli boshini ko'targan zamон,
O'char o't misoli bo'ladi nodon.

Eliq qutga yetdi, yorishdi kuni,
Xudo hamdin aytdi, ulug'lab uni.

Ko'zin ko'kka tikdi, dedi: ey elig,
Egam sen, beruvchi zako ham bilig.

Bilim berding avval, yana erk menga,
Ravon yo'lda tutgin – o'tinchim senga.

O'zing bor, tayanch-u ezzulik uchun,
El-u yurt g'amin yegulik uchun.

Bechoralar oldi talay mol-tovar,
O'ziga ishonchdan tasallı topar.

Yashadi shu yanglig', yorishdi kun, oy,
Bari el – xaloyiq tugal bo'ldi boy.

Kishi yaxshisi, ko'r, bu yanglig' bo'lar,
Ming afsuski, shunday kishi ham o'lar.

Begi shunday esa xaloyiq baxti,
Eli shunday begining mangudir taxti.

Taassuf, bu yanglig' kishi ham o'lur,
O'zi-ku o'lar, ot abadiy qolur.

Eligning O'gdulmishga savoli

Eliq yolg'iz edi bir kuni o'zi,
Yigimi chorladi, bor zarur so'zi.

Otangdan merossan, bolam, sen menga,
Otang mehnati ko'p singmadi senga.

Otang o'ldi, qolding, juda yosh, bolam,
Senga ko'rsatay yo'l o'zim ushbu dam.

Otang o'rgatolmay senga ko'p bilig,
Nadomaida ketdi o'zi belgilig.

Lekin qaydan axir shunchalik hunar,
Fazilat bo'libdi senda jilvagar.

O'gdulishning javobi eligga

Javobda O'gdulmish dedi: e dono,
Ko'p-uzoq umr ko'r o'zing, avalo.

Xudo kimga qilsa inoyat agar,
Tilakka tegadi, tole — jilvagar.

Bunga menzab ketar bu turkiy maqol,
Uni aytar edi qari oqsaqol:

Xudo fazli ila ulug'dir kishi,
Xudo fazli bilan yurishar ishi.

Xudo bergenini rad etadi kim?
O'zidan boshqada kuch bormi, hakim?!

Xudodan bo'ladi bari kuch, yo'lak,
Xudo bersa amal oladi tilak.

Bularga qo'shilsa ota olqishi
Farovon kechadi kishi yoz-qishi.

Otam bergen edi ko'p ezzu duo,
Duo birla bo'ldi bari muddao.

Sabab qildi seni bu qodir Egam,
Fazilat, bilimga erishdim bu dam.

Elig qo'llin cho'zdi, yorishdi ko'zim,
Go'yo qut qo'liga qo'l urdim o'zim.

Kulib boqsa begi agar qay zamon,
Tiliklar jam o'llib oqar shu tomon.

Kishi ko'ngli bog'dir, begining so'zi
Uni sug' oruvchi suv bo'lar o'zi.

Suv oqsa bog' ichra kamaymay sira,
Chechak, gul ochilar rango-rang, sara.

Shirin so'zli bo'lsa begi yorlig'i,
Qishi yoz bo'ladi kishi borlig'i.

Agar bo'lmasami yorlig' ezzu til,
Ochilgan chechak, gul qurib qolar, bil.

Xudo fazlin ista, bo'llib ehtiyyot,
Xudo fazli bo'lsa, farovon hayot.

Bunga o'xshatibdi shoir so'zini,
Donolar biladi ishin ko'zini.

Xudo fazli bo'lsa, qut topadi qul,
Bilimi ko'payib, o'ng'arilar yo'l.

Bilim birla mudom yorishgay kuni,
Shunda fazilat ham berar unga qo'l.

Yana dedi elig: ayo O'gdulmish,
Bilim bilguchilar ne xilda bilmish?

Kishi o'rganibmi bo'ladi dono,
Dono bo'llib asli tug'ilarmi yo?

Javobga O'gdulmish chiqarib sasin,
Dedi, mayli, aytay bu so'z asosin.

Yaratishda bersa Xudo aql-u dil,
Tugal moya olar bilimdon o'g'il.

Ko'radi, kuzatib yana biladi,
Tilak o'rgatadi, qo'li qiladi.

Bilimga qo'l cho'zib bo'ladi dono,
Eliga naf berar o'zi doimo.

Es-u hush yo'q ekan tug'ilgan mahal,
Tilaklari topmas uning hech amal.

Yana bir sabab shu: bola qancha yosh
Bo'lib topsa agar bilimga bardosh —

Hayot o'rgatadi, oladi ta'llim,
Uquv tug'ma bo'lар, ammo ey hakim.

Bilim, hunar, ezzu rafstor-u qiliq
O'rganilar avval, so'ng tuzar yo'riq.

Bilim-u humarni kishi sarbasar
Kuzatib mahorat topar, qozonar.

Bunga mengzar endi bu turkiy maqol,
O'qigil uni sen, uqib nafin ol:

Bilimi o'rgansa bo'ladi kishi,
Uquv-idrok esa Xudoning ishi.

Uquv deganini Xudo beradi,
Mijozaiga qo'shib uni qoradi.

Xudodan atodir uqush, belgilig,
Uquvdan bo'ladi kishiga ulug'.

Kishining ulug'i uquvli kishi,
Uquv erur asli fazilat boshi.

Uquvsiz kishilar kishimi bo'lар,
Uning so'zlarin kim nazarga llar?

Elging O'gdulmishga savoli

Yana deydi elig, eshidim buni,
Yana bir savolga javob ber, qani:

Uquvning bilimdan nima farqi bor,
Bulami tushuntir, ey dono, hushyor.

Uning o'zi nima, joyi qayerda,
Ne yerdan keladi, ketar ne yerga?

Javob berdi O'gdulmish, aytar: elig,
Olanda e'zoz narsa bu — biling¹.

Uquv o'mi asli bosh miya bo'lur.
Moyasiga ko'ra u shu joyda turur.

Kishandir kishiga uquv har zamон,
Yomonlik yo'lamas unga hech qachon.

Agar nazarini tushirsa Xudo,
Bilim-la kishanlar kishin doimo.

Uquvli tirikdir, uquvsiz — o'lifik,
Kel ey, nodon, olgin uquvdan ulig².

Kishi go'yo uydir, uyki zim-ziyо,
Uquv mash'aladir, beradi ziyo.

¹ Bilig — bilim.

² Ulug — ulush, hissa, bahra.

Uquvdan keladi bari ezzulglik,
Bilimdan buyuklik bo'lar belgililik.

Ikovi bilandir bu inson ulug',
Ikovi ulug'lar kishini to'liq.

A Bilim bo'lakladik kishin yilqidin'
Bilimdan buyukroq nima bor tag'in?

Uquv o'xshatibdi, qara, bunga mos,
Uquv ishga tushsa, nafi beqiyos:

"Yilqidan ayirdi bilim kishini,
Bilim bilan inson qilar ishini,

Kelu yilqi bo'lma, bilim ol, uquv,
Bilimdan bilishar asli kishini".

Eligning O'gdulmishga savoli

Sekin dedi elig: Yana bir so'zim
So'rayin, javob ber, e ko'rklı yuzim.

Menga ayon bo'ldi uquv surati,
Nechuk bo'lar ekin uning siyrtati.

Yuzi, ko'riki, qiliq, xo'yil qanaqa,
Yuzi, ko'zi, yoshi, bo'yil qanaqa?

O'gdulmishning eliga javobi

Javob berdi O'gdulmish, uquv har qalay
Qilig'i go'zal-u, quvonchi talay.

¹ "Yilqi" so'zi "Qutadg'u bilig"da "hayvon" ma'nosida keladi.

Yuzi ko'p chiroyli, qilig'i ma'qul,
Bori ezzulgarda ochib berar yo'l.

Muloyim, yoqimli fe'l-toyi butkul,
Bari tirk jonga u yumshoq ko'ngil.

Qayerga qo'l cho'zsa, o'sha yer obod,
U qachon so'z aysa, dil bo'ladi shod.

Unga oshiq doim kichig-u ulug',
Sitorasi issiq, mehrga to'liq.

Ko'zlar yonadi, boqishlari tez,
Qay ishga qo'l ursa, bitirar shu kez.

Hal etib qo'yadi yomon ishni ham,
Eng pishiqli tugunga berolgay barham.

O'ng-u chap, old-orga, pisand emas hech,
U qilgan ish bo'lmas erta yoki kech.

Qochganga yetar-u uchganni tutar,
Tuzalar buzuqlar, sinig'i bitar.

Uquvsiz o'kingin, dedi: ey uquv,
Semingsiz yashamoq alam, g'am, qo'rquv...

Menga tegnadi bir o'zingdan ulug',
Semingsiz ko'ngillar tirkmas, o'llk.

Uquv bir chiroqdir, ko'zi yo'qqa ko'z,
O'lig tangajon-u, soqov tilga so'z.

Uquvli uquvga dedi: ey eshim,
Ne ezgu eshimsan, bitirar ishim.

Qilig'i o'ng uning, so'li yo'q sira,
Butun, chin, ozoda, toza, bokira.

Uquv kimda desang shudir belgisi,
Bu belgi ila u uquv bilgusi.

Uquvli muloyim, rost tili, so'zi,
Yashaydi butunlik ichida o'zi.

Uquvning qilig'i, borlig'i chiroy,
To'g'rilik ichida o'tar kun-u oy.

Yorug'-u muloyim, bosig'-u vazmin,
Avval ko'rib, keyin kirishar sekin.

Qilig'i qari-yu, o'zi yosh mudom,
Uni sog'inadi xos-u qora, om.

Bunga mengzar kalom, o'qigin, ana,
Boqib ko'rsa, ma'no ochilar yana:

Qilig'i qari-yu, uquv o'zi yosh,
Unga yetmoq uchun kerak kuch, bardosh,

Qarisi yoqimli, kichigi go'zal,
Yarashadi qo'y sang oyog'iga bosh.

Bu so'zlar eshitidi, sevindi elig,
Dediki, e hushyor, so'zi ko'p tetik,

Xudo berdi senga tugal ezgulik,
Xuddodan atosen menga belgilig.

Ko'targan yukimiz salmog'i og'ir,
Bu yukni ko'targan topar qut oxir.

Yukimni ko'tarding, seni yuk bosar,
Menga rohat, senga qayg'umi magar?!

Xudo senga tavfiq, menga bersa kuch,
Haqningi berayin, mayli, birga uch.

Bilarman bu yanglig' toating menga,
Muruvvat tufayli, qoyilman senga.

Yumushchi sodig'i tugal ul bo'lur,
Begi istasa ne, u shuni qilur.

Nima der, eshitgin, yumushchi tili,
Begin qutga eltar sodiq, chin quyi.

Beg odam topadi tugal halovat,
Xodimi ko'rsatsa sadoqat faqat.

Yumushchisi sabab — beg boshi baland,
Xodimlari bo'lса tilakka monand.

Bosh og'rig'i, yukin ko'tarsa quli,
Begiga ochilar osoyish yo'li.

Agar bo'lса begda sodiq xodimi,
Xudodan ato u, qutlug' odimi.

Ne-ne beglar o'tar foniq olamdan,
Nishona topolmay sodiq odamdan.

Olam ahli, shukur, eligdan rozi,
Yetar unga har kun duo ovozi.

Unga qildi havas tanish, begona,
Yuzin ziyorati — tilak yagona.

Yil, oy, kuni o'tar huzur, safoda,
Adolat ziyyoda bo'lib dunyoda.

Eligning O'gdulmishga savoli

Elig O'gdulmishni chorladи bir payt.
Dedi: bir savol bor, javobini ayt:

Bu yetti andomni tan-u jon ko 'rar,
Ularning har biri ulushin so 'tar.

Ko 'ngil bor, yana ko 'z ne muddaosi,
Ularning bu jonga nedir safosi?

Bu O'gdulmish aytar, elig, banogoh
Ko 'ngil orzu qilsa, joni chekar oh.

Sevimlining yuzi ko 'rar ko 'zga nur,
Ko 'ngil orzu, joni topadi huzur.

Yana so 'rди elig: e ko 'ngli yoruq,
Sevimli nishoni bo 'lar ne tariq?

Sevarman deb barcha da 'volar qilur,
Bu da 'voga ma 'ni ne xilda bo 'lur?

O'gdulmishning eligga javobi

Javobida yigit dedi, xo 'p, bo 'lur,
Sevug yuzzga boqsa, sevishin bilur.

Ne narsami bo 'lsa to 'siq ko 'zga bor,
Ko 'ngilga to 'siq yo 'q, buni bil, hushyor.

Sevar-sevmasini bilolgay odam,
Ko 'ngilga qarasa kifoya shu dam.

Seviklining belgi beradi yuzi,
Ma 'lum bo 'lar tushsa ko 'ziga ko 'zi.

Bunga o 'xshagaydir shoirning so 'zi,
Uqib tingla uni o 'zing, ey qo 'zi.

Sevikli kishining yuzi belgili,
Tilin ochsa ma 'no, so 'zi belgili.

Sevar-sevmasini bilayin desa,
Senga boqsa, qara, ko 'zi belgili.

Eligning O'gdulmishga savoli

Elig aytdi: uqdim, eshitim so 'zing,
Yana bir savolga javob ber o 'zing:

Kerakli so 'z ayt deb turibman senga,
Ma 'nili javob ber sen endi menga.

O'gdulmishning eligga javobi

Bu O'gdulmish aytdi, ey elning quti,
Bilimdan buyukdir bu beglar ot.

Bilim o 'rdasidir bu beglar o 'zi,
Bilimsiz bo 'lar qul, nima qul so 'zi?

So 'ramoq oson-u qiyindir javob.
Elig so 'zi mosdir unga ushbu tob.

O'ng'ay tutdi elig, tersi-chi menga.
Meni yerga urma, e botir, to 'nga!¹

Eligning O'gdulmishga javobi

Elig der: so 'rovchi munglimi bo 'lar,
O 'zi bilmaganni birovdan tilar.

Agar shunday esa, suyunay bu dam,
Savolimga javob olib dambadam.

¹To 'nga — yo 'Ibars, ko 'ch. mard, bahodir.

O'gdulmishning eligga javobi

Javob berdi, elig, topamiz chora,
Eshitmak qulayroq javobdan ko'ra.

So'zin so'zlaguvchi koyitar jonioin,
Some semiritirar ruhi ravonin.

Nima der eshitgin, sinagan dono:
So'zingni ozaytir, ko'p eshit-yo ammo.

Bo'lар tinglash ila donishmand kishi,
Talay so'z tufayli ketar er boshi.

Eshitish tufayli quoqqa huzur,
So'zi gar ko'paysa, qayoqda huzur.

So'zin so'zlamasa sof oltin sana,
Tilidan chiqarsa u mis rosmana.

Eligning O'gdulmishga savoli

Elig aytdi: endi odil so'zladning,
Sen endi o'zingga qutning sozladning.

O'gdulmishning eligga javobi

O'gdulmish dediki, ey elning quti,
A'lo ko'r ganim shu — bu qullik oti.

Quli jon fidolar tilasa xoqon,
Agar aqli yetsa qulning u zamom.

Eshitgin, izohlay o'zim ne bilsam,
Kechirgin, xoqonim, xato gar qilsam.

Beklikka loyiq beg qanday bo lishini so'raydi

Elig aytdi sendan kerakli so'zim,
Bular edi endi so'rayin o'zim.

Tabiat yaratdi odam naslini,
Ulug'-kichik, yomon yana aslini.

Bilimli bilimsiz, qashshoq bor-u boy,
Uquvli uquvsiz, nochor-u gadboy.

Ne lozim beg uchun — ochilsa yo'lli,
To oshsa shuhrati, ishida qo'lli.

Obod bo'lsa mudom, o'lkasi, eli,
Eli duosida kechsa kun, yili.

Kumushga to'ldirsau xazinani,
Bo'yin egsa doim yovi-dushmani.

Bari lashkar etsa qo'lini uzun,
Adolat bardavom esa tun-u kun.

Tanilsa olamda, yozilsa oti,
Kengaysa davlati, ko'paysa quti.

Shodlikda yashasha eli ham o'zi,
Eliga bosh o'lsa to ochiq ko'zi.

O'gdulmishning eligga javobi

O'gdulmish til ochdi javobga: elig
Qiyin so'z so'radi javob bergulik.

El-u yurt ishini bu beglar bilur,
Qonun, xulq-u axloq ulardan kelur.

Eli uchun asli tug'ilar ular,
Ko'rib ish biladi ma'qul, ezzular.

Hayot kimga bersa bu beglik ishin,
Mos etar ko'nglimi: ham aqli hushin.

Birovni beg etmoq tilasa hayot,
Avvalo beradi unga par, qanot

Hukumat ishidir bu beglar ishi,
Hukumatni bildi, bu beglik kishi.

Bek esa bilmeli, uquvli, dono,
Dononing dushmani ko'p bo'lar ammo.

Nima der eshitgin ko'pni bilgan er,
Boshidan kechirgan ko'p ish qilgan er.

Beg ziyrak bo'lishi, kerak ko'p zako,
To yetmasin unga qutulmas balo.

Fe'li ezgu bo'lsin, yana sertadbir,
Tutumi yomaqlu yo'rig'i — a'lo.

Odamzod nasli-ku aslicha ulug'
Bilim bilan bo'lар ulug'lik to'liq.

O'gdulmishning eligga javobi

Bu O'gdulmish aytar javob: e xoqon,
E qo'li balandim, yasha tinch-omon.

Hukumatga avval tubi pok kerak.
Botir, dono, mergan, yana alp yurak.

Otasi beg esa o'g'il bo'ldi beg,
Tug'ilur bo'lib beg otalaridek.

Bilimlar kerakdir, kerak zakovat,
Ochiqlik kerakdir, kerak saxovat.

Bilim ila beglar elin boshlashar,
Uquv bilan el-yurt ishin izlashar.

Beg oti bilimga bog'liq bo'ladi.
"Bilim" "lom" i ketsa, — "beg" i qoladi¹.

¹ Bu yerda arab alifbosidagi harflarga tayananadigan so'z o'yini bor. Unga ko'ra, "bilik" so'zi arab yozuvidagi "b", "lom", "yo" hamda "kof" harflari bilan ifodalanadi. So'zdagi "lom" harfi olib tashlansa, uni "beg" tarzida o'qish imkoniy paydo bo'ladi. Bu bilan shoir beg, albatta, bilimi bo'lishi kerak, degan g'oyani singdirishga harakat qilgan.

Bek esa bilimli, uquvli, dono,
Dononing dushmani ko'p bo'lar ammo.

Nima der eshitgin ko'pni bilgan er,
Boshidan kechirgan ko'p ish qilgan er.

Beg ziyrak bo'lishi, kerak ko'p zako,
To yetmasin unga qutulmas balo.

Fe'li ezgu bo'lsin, yana sertadbir,
Tutumi yomaqlu yo'rig'i — a'lo.

Odamzod nasli-ku aslicha ulug'
Bilim bilan bo'lар ulug'lik to'liq.

Urug' ezgu bo'lsa, er ezgu bo'lar,
Er ezzumi, to'rdan u joyin olar.

Muqaddas erur bu hukumat ishi.
Yana ziyrak o'lsa qatorda eshi.

Budun boshlig'i gar mergan-u dadil,
El-u yurt ishiga munosibi bil.

Nima deydi, eshit, O'tukon¹ bosni,
Zakovat bilandir uning har ishi:

Budun boshi bo'lsa sara chin, dono,
Bir esa tili-yu dili doimo.

Bilimli, zakoli, yetuk, muqsi yo'q,
Qo'li ochiq bo'lsa, ko'zi, ko'ngli to'q.

Ezgulkik yo'lda u bo'lsa komil,
Fe'l-u atvori soz, o'zi ko'p fozil.

¹ O'tukon — joy nomi. Qadimgi turkiylar unga muqaddas tog' sifatida sig'inishgan.

Ulug' begka bo'lar eli sazovor,
Urug'-avlodni ham qut-u baxtga yor.

Bilim ila boshlari kishi ish boshin,
Idrokin yuritsa, o'nglagay ishin.

Bilimla pok o'lar yomon yo'lidan,
Bilimsizning nima kelar qo'lidan?

Ey elig, gar etsa bu beglar xato,
Ular qolar ojiz, kerakdir davo.

Bu dardg'a davodir zakovat, bilim,
Uquv bilan emla uni, xushfe'l'm!

Begi bo'lsa epchil, bilimli, dono,
Bular ila qilsa bo'lар em, davo.

Begi bo'lsa zakiy, idroki to'liq, pu'm,
Har ikki olamda joyi ham ulug'.

Ikov olam quti esa muyassar,
Uning boshi ko'kka yetar sarbasar.

Bunga mengzar endi shoir degan so'z,
Shoirning degani — bilimsizga ko'z:

Farog'atli qani, menga ayt turib
Quti bor deyishshar kimlarni ko'rib?

Yesa, bersa molin, yashasa shodon,
Olar olqish o'zi to'rda o'tirib'.

Kishi tutsa fe'llin ravon rostini,
Sevinchda kechadi o'shal beg kuni.

Xudo kimga bersa munosib qiliq,
Ham ushbu qiliqqa munosib yo'riq,

O'shanda yetadi bu ne'mat, dunyo,
Istasa yesin-u ulashsin u yo.

Hayot bersa kimga go'zal fazilat,
Yetuk bo'lar uning ishlari faqat.

Fe'li ravon esa, hunari tuman,
Toki shular sabab — yo'qolsa tuman¹.

Ne ezu erur bu qiliq² egzusi,
Shudir mard kishining yegu kiygusi.

Fe'li buzuq esa kishining agar,
Zamon o'qi etar alam muyassar.

Agar begda bo'lsa yaramas qiliq,
Yurishmas ishi-yu bo'lар yuz sariq.

Agar andishali, fe'li pokiza,
Mo'tadil bo'ladi har asli toza.

Ko'ngil qo'rqa, unda Xudo biladi,
Ko'ngil qo'rqa, ishin bilib qiladi.

Agar andishasiz, esa kir ko'ngil,
Ishlari serayb-u nopol bo'lар, bil.

Bekka yarashadi qaror va chidam,
Bular bog'ich erur beglikka ko'rikam.

Idrokli esa beg, ishlari to,
Bilib qilsa mudom tugal, bexato.

Ishin soz etolgay uquvli odam,
Yiroq tursin ishdan johil-u beg'am.

<sup>1) "tuman" so'zi baytda ikki ma'noda qo'llangan: 1) o'n ming; ko'p;
2) tuman, qorong'ilik.</sup>

^{2) "qiliq" so'zini Yusuf Xos Hojib "fe'l-atvor" ma'nosida ham qo'llaydi.}

Ko'ngilsiz kishiga ne naf ko'zda nur,
Agar idroki yo'q, u qanday o'sur?

Nima der, eshitgin, e elning boshi,
Dili oq, sinalgan, donishmand kishi:

"Uquvli, zakoli esa qay odam
Kishi deb atagin, ulug la har dam.

Yovuzin ezgu tut, kichigin ulug',
Uquv, zako, bilim esa unda jam".

Zako, aql-u idrok ezgu na qadar,
Aql-u idrok berar donoga samar.

Shoshilmoq asli yov, barchaga yovuz,
Agar begda bo'lsa, uning yuzi — bo'z¹.

Shoshilish, tengillik, fe'l tezi, ishon,
Nodon kishilarga xos bo'lgan nishon.

Shoshib ish qilinsa, ko'ngil chiqmas sal,
Shoshib ovqat yesa, qilar u kasal.

Barcha ish uchun sen bosiqqlikda tur;
Faqt toat uchun mayli chop, yugur.

Ko'zi to'q, uyatlri bo'lsa gar o'zi,
Ochiq bo'lsa yuzi, ko'ngil ham so'zi.

To'yishni bilarmi ko'zi suq kishi?
Ko'zi suqqa yetmas bu dunyo oshi.

Ochofat esa kim, yo'q chora, emi,
Uni emlay olmas dunyo hakimi.

Yesa, ichsa oxir bori och to'yar,
Ko'zi och bu ishin o'libmi qo'yar.

Ko'zi suq mol ila bo'lmaydi boy,
Olamni olar-u, baribir, gadoy.

Bek esa zakoli, yetuk, barkamol,
Zakolining ishi bo'lar bezavol.

Uyat-andishali, xulqi xush odam,
Yomon ishga qo'ymas, axir, bir qadam.
Tabiat bersa gar uyat — ko'z suvi¹,
Unga kelar davlat tugal — yuz suvi².

Uyatdan tashlanar noloyiq yumush,
Uyatdan boshlanar bari ezgu ish.

Kishiga chiroydir uyat-andisha,
U astrar nojo' ya ishdan hamisha.
Tili chin, kerak, bo'lsa ko'ngli ulug',
Naf tegsa uning eliga to'liq.

Agar bo'lsa beglar xiyonat ko'ngil,
Eliga naf bo'lmas, undan, ey o'g'il.
Ko'ngil, til, raftori soz bo'lmasa gar,
Chorasi topilmas, eldan qut qochar.

Umid bog'lamagin kim qaytsa so'zdan,
Tirikligin zoye — rang ketaryuzzdan.

¹ Ko'z suvi — uyat, andisha, or-nomus.

² Yuz.suvi — obro', e'tibor, qadr-qimmat.

¹ Yuzi bo'z — insonnинг go'zalligi yoki xunukligi, ma'qul yoki nomal qulligi qadimgi turkiy adabiyotda yuzning rangi vositasida ham aks etirilgan. Jumladan, qizil, qizg'ish ranglar go'zallik, salomatlik, insoniy fazillatlarga egalikni angatsa, "yuzda qoni yo'qlik", "yuzning sariqligi", uning "yer rangi" ga yoki "bo'z"ga o'xshatilishiда mazkur fazillatning ziddi tushunilgan.

Bek hushyor-u ziyrak bo 'lsin doimo,
G'ofil bo 'lsa beglar ketar ming balo.

El osoyishiga berar kafolat,
Hushyor-u ziyraklik yana adolat.

Begi hushyor bo 'lsa, el tinch doimo,
Yovini yanchadi yog 'dirib balo.

Qaysi beg yuritsa odil siyosat,
Yonug 'lik topar el, yashnar u faqat.

Beklik asosida shu ikkisi bor,
Shu ikki bilan u turar barqaror.

Nima der eshitgin yovlashgan zo'r er,
Hushyorlik bilan u yovini urar.

Agar istasang sen ziyrak, hushyor el,
O'zing elda hushyor, ziyrak bo 'la bil.

Ogohlilikdan ortar beglarning eli,
Beklikni buzadi g'ofillik yo'li.

Hushyorlik ila sen yov bo 'ynini yanch,
Adolat qil elga, keyin yana tinch.

El ikki sababdan buzilar, to'zar,
Qo'li egrि bo 'lar, yo'lidan ozar.

Biri zo'ravonlik, g'ofillik biri,
Shulardan buzilar boshliq tadbiri.

Yoving bo 'ynin yanchmoq tilasang agar,
Qulqoni ochiq tut tunda ham sahar.

Yovin yengadi beg hushyorlik chog'i,
G'ofillikdan to 'zar bu beglik bog'i.

G'ofil bo 'lsa beglar ishi bitmagay,
G'ofil beg bilsinki, qutqa yetmagay.

G'ofillar boshini sog' erlar kesar,
G'ofil bo 'maguncha yovin kim bosar.

Begi sog' esa, el ko'rarmi balo,
Agar ko rsa-da u topar tez davo.

Zolim boshqarolmas el-u ulusni,
Zolim boshqa olmas el-u ulusni.

Nima der eshitgin bilimi so'zin,
Tutolmaydi zolim elin ko 'p uzun.

Yonar o't misol zulm yoqar, kuydirar.
Adolat suv erur — ne'mat undirar.

Elimda bo 'lay bosh desang to abad,
Odil bo 'l, elingni avayla faqat.

El ortar adl ila, benazir olam,
Kuch-u zulm buzadi, bezillar olam.

Buzildi talay joy zolim o 'chidan,
O'lar zolim ammo oxir ochidan.

O'zi to 'g'ri bo 'lsa, yana chin, odil,
Bu beglik buzilmas, turar muttasiil.

Olamda yomoni, ey elning quti,
Bu — "yolg'onchi beg" deb yoyilsa oti.

So'zi chin esa beg, fe 'li — soz, butun,
Ko 'ngil qo'ysa eli ishonib butun.

Yomon — yolg'on aytsa, vafosiz bo 'lar,
Vafosiz eliga yomon ish qilar.

Nima der, eshitgin, vafoli kishi.
Vafodir kishiga kishilik boshi.

“Tili yomon erring jafo qilqidir,
Jafo kimda esa o’sha yilqidir.
Yolg’ onchi kishidan tilama vafo,
Bu so’z ko ‘p qadimgi, talay yilgidir”.

Yurakli esa er, yana alp, botir,
Yurakli bo’ladi yengishga qodir.

Qo’mondon degani yurakli kerak,
Yuraksizlar olsa to undan yurak.

Yurakli bosh o’lsa yuraksizga gar,
Yuraksiz kuch olar — yurakli bo’lar.

Mening so’zlarimga bu so’zlar daili,
Unga sen nigoh sol, ma’nosini bil.

“Ko’paklarga arslon bosha agar,
Shu arslon ko’paklar sonida bo’lar”.

Ko’paklar arslonga bosh bo’lsa agar,
Shu arslon ko’paklar sonida bo’lar”.

Salobatli esa o’zi keng ko’ngil,
Kichik fe’l-u ochiq, yana soddadil.

Vig’ilib keladi unga el, olam,
Tilagini topar ulardan odam.

Nima der, eshit, yov molin olgan er:
“Urib ol, ey alp er, yana mardga ber.

Saxiy bo’l, bag’ishla, ichir ham yedir,
Saxiyilar odati shu xil, ha, shudir”.

Oziqli zo’r yenga jahon kamimas,
Uchar qushga rizqi — doni kamimas.

Qilich, bolta, o’q — yoy yana kuch, yurak,
Bor ekan olanda botirlik kerak.

Ne tarz mol yig’adi jahongir, dono,
Bu ishlarni askar etadi ado.

El olmoqqa askar talay, to ‘p kerak.
Bu askar tutishga oziq ko ‘p kerak.

Mol olmoq uchun el esa farovon,
Buning-chun adolat kerak har zamон.

Bularning birovi tugal bo’lmasa
Bek askar tutishda qiyinalar rosa.

Agar beg besh ishni yiroqroq tutar,
Oti ezgu bo’lar, uni shon kutar.

Biris — shoshilmox, biri — ko’zi och,
Biri jaholatdir, yaqinlashma, qoch.

To’ritinci yovuzlik — buzuq fe’lilik,
Oxigisi — yolg’on, qo ‘pol tillilik.

Bu besh ishdan beglar yiroq tursa to,
Nomi bulg’annmasa, bo’lmasa xato.

Bulardan yomoni tuban fe’l erur,
Shoir so’zi, bilsang, dil boyitadi:

“Buzuq fe’l kishiga og’ir yuk, yigit,
Fe’li buzuq odam misoli bir it”.

Yovi qilmas ishni fe'li qiladi,
U yovdir, yovidan nedir tafoyut".

Ko'p elni boshqaray desang, ey xoqon,
Uch ishni bajjo et yetilgan zamон:

Agar bitta qo'lling qilich ushlasa,
Biri mol ulashib ko'ngil xushlasa,

Tili bo'lsa uning shakardan shinin,
Ulug' ham, kichik ham beradi bo'yin.

Elig, begka kerak qator narsalar,
Ular toki doim e'zoz ko'rsalar.

Ochiq yuz, shirinso'z, mayinlik kerak,
Fe'l-atvorda moslik, tayinlik kerak.

Dili yumshoq esa ham ochiq qo'li,
Birovlarga yana kuyinsa dili.

Hunarlarni bilsa talay va tugal,
Yaroqsizlar ishin eta bersa hal.

Kishilar sarasi, el ichra fozil,
Yigitlar sarasi, benuqson, komil.

Keyin unga olam eli qui bo'lar,
Jahon topar beglar, tilagin olar.

Tugug yuz, dag'al so'z, yaramas qiliq,
Kishini etar yer, buzilar yo'riq.

Tubanlik, shoshilmoq, yengil-yelpilik
Tubanlar fe'lidir, yiroq turgulik.

Tubanlar beg uchun yov erur taniq,
Yaqin kelsa tuban — azoblar aniq.

Qora qul bo'ladi, begi esa oq,
Ular boshqa-boshqa yaratildi, boq.

Sara beg bo'layin desang sen ulug',
Fazilat, hunarga yaqin bo'l to'liq.

Agar beglar etsa fe'lini qora,
Tubandan tubanroq bo'lar xalq ora.

Yuzi ko'rkli esa, yoqimli, go'zal,
Bo'yi o'rtta esa chiroy har mahal.

Ko'ruchchi yuzini sevishsa ko'rib,
Eli xalqi boqsa sevinsa turib.

Yoviga beshafqat, jasur bo'lsa u,
Chiroyi berolsa ko'rar ko'zga su.

Bo'yi uzun esa bilim maqtamas,
Juda kaltani ham u turzuk demas.

Axir shunday esa bo'y o'rtta kerak,
Bo'yi o'rtta esa bo'lар ezguroq.

Nima der, eshitgin, sinagan kishi,
Boshidan kechirib yashagan kishi:

"Bo'yi qisqa esa — jaholat ishi,
Jaholati kishi to'palon boshi,

Bo'yi o'rtta esa, fe'l shunga mos,
Ishing o'rtta tutgin, e dono kishi".

May ichmasa beglar, fasod qilmayin,
Bu ikki qiliqdan qochar qut tayin.

Ichimlik ichishsa olam boshlari,
Eliga yog'illar alam toshlari.

Jahongirni etsa o'yin mahliyo,
Buziladi eli, o'zi — bir gado.

Soot — paytidan gar o'tar beg ishi,
Uchib ketdi go'yo saodat qushii.

Nima der, eshitgin, ta'lum berguchi,
Bilimsizni maydan so'kib tiyuguchi:

"May ichma, e mayxo'r, e bo'g'iz quili,
May ichsang ochilar gadolik yo'lli".

Tuban esa mayxo'r, moli bo'ldi yel,
Begi mayxo'r esa ne yang bo'ldi el!

Ichimlik yov erur, ichimi kumush,
Qilig'i tutish-u fe'lli — jang, urush.

Kishi ichsa telba, hushi oz bo'lur,
Bu telba ishi, ko'r, qochon soz bo'lur.

Nima deydi, eshit, domishmand tili,
Bu so'zni sol ishga, e bo'g'iz quili:

"Necha bitar ishlar may ichsa qolar,
Necha nojo'yasi ichilgach bo'lar.

May ichsa, berilsa begi o'yinga,
Chala qolar el-yurt ishi keyinga.

Necha yaramas ish may ichsa bo'lar,
Necha ezgu ishlar ichilsa qolar.

Fasod qayda bo'lsa qochar qut tez-a,
Fasdochchi yurar beg elini buza.

Pok erur bu qut-baxt, u poklik ko'rар,
Pokiza bu davlat, u soqlik so'rар.

Begi ichguchimi — fasodchi, yomon,
Uning eli bo'ldi tugal ichag'on.

Tuban pastligini begi tuzatar,
Begi tuban esa uni kim etar?

Nopokni tiniq suv yuvib pok etar,
Agar suv kir esa nechuk pok etar?!

Kishi og'riganda tabib em bilar,
Tabib og'risa kim emini qilar?!

Pokiza esa gar begida qiliq,
Eli beg yo'lidan tuzar yo'lyo'riq.

Begi qanday esa siyosat surib,
Eli shunday bo'lur begini ko'rib.

Bu so'z dalli bo'ldi endi bir yo'la,
So'ziga boqib ko'r, ma'niga to'la:

"Qayerga cho'zilsa bu beglar qo'li
O'sha beg yo'rig'i elining yo'li,

Begi ezgu bo'lsa, yo'rig'i yetuk,
Yana ezgu bo'lar tobesi, quili".

Kerilish keraksiz, keraksiz g'urur,
Odil yo'ldan g'urur tulga ozdirur.

Kichik tutsa ko'nglin, kamtar esa gar,
Ulug'likka yetar begi sarbasar.

Nima deydi eshit, ko'p fozil yigit,
Elining sarasi, ko'p oqil yigit:

"Hayot etsa agar beg kishimi mast,
Shubhasiz bo'ladi tole unga past.

G'urur bilan ko'kla o'solmas kishi,
Agar kamtar esa buzilmas ishi.

G'urur bir balodir, u yo'ini to'sar,
Kishi kamtar esa ko'karar, o'sar.

Begi bosiq esa, yana keng ko'ngil,
Bu yanglig' bo'lmasa umid kalta qil.

Begi kamtar bo'lsa, ham dili ochiq,
Kechirolsa kimsa etarkan yoziq¹.

Ko'ngillar iliydi, oshar hurmati,
Bu yanglig' kishining sodiq xizmati.

Elin boshlaganga bu himmat kerak,
Bu himmat-u yana muruvvat kerak.

Bi himmat ichida taralsa nomi,
Beg uchun yarashar ovi maromi.

Muruvvati yo'qlar misoli o'lik,
O'tar u olamdan benaf belgilik.

Bu himmat yonidaadolat kerak,
Adolatga puxta kafolat kerak.

Adolat ila beg tuzadi nizom,
Keyin o'matadi tugal intizom.

So'zim isbotiga bu baytdir nishon,
Nishon qayda bo'lsa, u — hujjat, ishon:

"Bu beglar saroyin siyosat bezar,
Siyosat bilan beg elini tuzar.

Yomonga siyosat yuritmoq kerak,
Eling bulg'og'ini siyosat suzar".

Bu elni tutishning asil moyasi,
Shu ikki moyada asli, poyasi:

Biri — eli uchunadolat qilish,
Biri — askaringga in'om et kumush.

Adolatda eli sevinsa yurib,
Kumush olsa lashkar, quvonar ko'rib.

Bu toifa olsa begidan sevinch,
Eli yashmagaydir, begi ko'ngli tinch.

Begi etmasa gar o'z elini yod,
Ujami talasa kelib o'zga, yot.

Xaloyiq tarqalar, buzilar eli,
Qulab tushar beglik, sinadi beli.

Agar beg lashkar etolmasa shod,
Qilichlar qinida qolar umribod.

Qilich birla beglar qo'lli sarbaland,
Qilichsiz g'ofil beg faqat yeydi pand.

Qilich, bolta bo'ldi bu el soqchisi,
Qilich-la bo'lar beg eli boshchisi.

Nima deydi, eshit, olam tutguchi,
Qilich, bolta bilan yovin yutguchi:

"Ey ellar oluvchi, uni saqlagan,
Kishi g'aflat ichra zaharlar yegan.

Qilich, bolta soqchi esa, bu — huzur,
Qilich soqchi esa begi tinch bo'lur.

1 Yoziq — gunoh.

Qilich tebranarkan yovi tebramas,
Qilich qinga kirsa begi tinch emas.

Qilich sohibini rozi tut, shodon,
Shodon bo'l o'zing ham keyin har qachon".

E baxtli elig, — dedi u keyin,
Nomi ulug'dir-ku, el ishi qiyin.

Eliga bosh bo'lish buyruk ish, og'ir,
Bosh og'niq keladi bu ishdan oxir.

Sevinchi oz erur, talay tashvishi,
Uning maqtovi kam, to'la qarg'ishi.

Qayerga qarasa vahima, dahshat,
Yumushi to'la-ku, sevinch oz faqat.

Dushmani talay, ko'p, kamdir oshmosi,
Sevinchi sanoqli, to'la g'avg'osi.

Ishonchsiz bo'ladi har yerda ko'ngil,
Ko'ngil ishonmasa bu bir balo, bil.

Ko'ra ber, har ishda bo'lар bir xatar,
Xatarli ish chog'i rohateng ketar.

Nima der, eshitgin, qari oqsoqol,
Qarilar so'zi — dur yo inju misol.

Xoqon bo'yni — qilcha, o'kakcha¹ — boshi,
Bularga ishonmasa bu fozil kishi.

Elig bosh og'rig'i ulug'dan ulug',
Kuniga xatarli uning ming ishi.

Shu yanglig' deyishar bu beg ishini,
Birovi rohat yer, biri — boshini.

Rohatni tilasang o'zing doimo,
Qator ishlarni sen etmagin ado:

Ogil tut ko'ngil, til, Xudoga sig'in,
Bajo et egamning butun buyrug'in.

Ne kelsa Xudodan rozi bo'l tugal,
Rizolik etadi qulligingni hal.

Butun elga bo'lgin sodiq, mehribon,
Tugal ezzgulik et o'zing har qachon.

El-u yurt nafsin de, zarar kelmasin,
Yomon-u yaramas omon yurmasin.

O'shanda bu dunyo bo'lар farovon,
Tirklik kechadi sen uchun shodon.

Bugun jon uzilsa umid tut ulug',
Hayot ezzgularga ezzgulik to'liq.

Shudir bilganim, ey ulug' xoqonim,
Beg uchun keragi shu odat, bilim.

Agar kim esa shu fazilat monand,
Uni beg atab qil sha'nini baland.

Tugal beg bo'ladi bu xil el boshi,
Muruvvat ko'rishar talay ko'p kishi.

Nima der, eshitgin, bilimdon, dono,
Bilimdon bilimi — go'zal bebaboh:

Bilimdon esa beg, zakoli, fozil,
Nomi ketsa elga dono deb, oql.

¹ O'kak — burj, yulduzlar burji, to'dasi.

Saxiy-u, zakoli, sarishta, dono, Sodiq bo'lsa elga o'zi doimo.

Ko'zi to'q, nomusli yana keng ko'ngil,
Kechirimli esa, odati — odil.

Fazillatli bo'lsa el ichra baland,
Siyosati bo'lsa adolatga band.

Bu yanglig' beg olsa qay elni borib,
Qut olar o'sha el, kasali arib.

Tug'ar kuni, eli farog'at olar,
Ming afsus, bu yanglig' kishi ham o'lar.

Mana, bilganim shu, ey ulug' xoqon,
Borini o'tindim senga bu zam'on".

ELIGNING O'GDULMISHGA SAVOLI

Elig dedi: Uqdim, ma'qul so'zladning,
Bilim-la gapirding, sira ozmadding.

Yana bir savolni men aytay senga,
Uni ham yoritib ber endi menga.

Begi bo'lsa bu xil fozil-u yetuk,
Vaziri ne yanglig' bo'lar, ey tetik?

To oltin-kumushdan to'lib xazina,
El-u yurt ulushi ko'paysa yana.

Eliga yetishsa beg adolati,
Ortar unga lashkar chin muhabbat.

Rohat topsa xalqi zolim yo'qolib,
Yoyilsa beg oti sharaflar olib.

O'gdulmish beglarga vazir bo'lguchi qanday
kishi bo'lishi kerakligini aytadi

Bu O'gdulmish aytar: "Ey ulug' xoqon,
Vazir beg uchun qul erur har qachon.

Beshubba kerakdir begiga vazir,
Vazir yaxshi bo'lsa, beg ishi — hozir.

Vazirdir ko'targan bu beglar yurkin,
Udir puxta etgan begi beglgin.

Vazirlikka sara, yetuk er kerak,
Toki bo'lsa oqil, yana dovyurak.

Baland bo'lsa ilmi, uquvi — chuqur,
Bajio etsa ishin u yuz yoritur.

Oqil, ziyrak esa, puxta va odil,
To odil yo'l tutsa o'zi oy-u yil.

Ulug' ish, u ishga sara er yayar,
Ishonchli, yetug-u a'lo bo'lsalar.

Uquvli kerakdir, donolik kerak,
Muloyim, dadil ham zakolik kerak.

Uquvli, urug'i asil, chin urug',
O'sar qayda esa u qolmas quruq.

Nomusli, imonli, yana nuqsi yo'q,
Elat — yurti bo'lsa tugal ko'ngli to'q.

Nomusli kishidir kishi sarasi,
Beva-bechoraning udir chorasi.

Nomusli har ishda chin, hushyor bo'lar,
Yaroqsiz ish etmas, me'yorni bilar.

Begidan keyingi eng qo'li uzun,
Vazir bo'ldi bilar eli ish-so'zin.

Nasabsiz kishilar urug'siz bo'lar,
Urug'siz bu ishga yaroqsiz bo'lar.

Vafoli bo'ladi nasabli kishi,
Jafoli bo'ladi nasabsiz kishi.

Nima deydi, eshit, ko'p oqil kishi,
Adolati bo'lди kishilar boshi:

“Nasabli fe'lidir yetuk va'a'lo,
Vafosi tufayli aziz doimo.

Agar-chi shakar, qand, ilk bersa ham
Nopok bevafodir, qilig'i – jafo”.

Uyatli, yetuk ham ko'ngil, ko'zi to'q,
Uyatsiz kishining kerakligi yo'q.

Ko'zi molga to'yib, u suqlanmasa,
Ko'zi och to'yolmas olamni yesa.

Kishining sarasi nomusli kishi,
Nomusli kishidir kishilar boshi.

Nomus kimda esa bergen bor ishing,
Pastkashdan yiroq tur, berma yumushing.

Uyatsiz kishi past, kishi baxili,
Durust so'zlamagay uyatsiz tili.

Nima der, eshitgin, nomusli, odil,
O'gitlar beradi senga sidqidil:

“Uyatsiz kishidan yiroq tur, yiroq,
Uyatsizda qattiq bo'ladi qaroq.

Uyatsiz yuzidir eti yo'q suyak,
Uyatsiz kasaldir tuzalmas beshak.”

Uyat ila odam yuzi suylanur,
Uyat bo'lsa keyin ko'zi suylanur.

Yuzi bo'lsa silliq yana xushchiroy,
Naf olsa ishidan g'ani-yu gadoy.

Ishi to'g'ri, unga mos esa fe'li,
Mudom bahra olar vazirdan eli.

Odil bo'Imasa gar u ishchi boshi,
Yurishmaydi sira beginning ishi.

Odillik, butunlik kerak ishchiga,
To kirmasa gumon begi ichiga.

Yuzi ko'rkli kishi ishi soz bo'lar,
Ishi ko'rkli esa eli naf olar.

Agar kimda go'zal esa tash yuzi,
Tashidek go'zaldir ichining o'zi.

Nima der, eshitgin, sinagan kishi,
Sinab, yaxshi-yomon ko'p ko'rgan kishi:

“Kishi ko'rinishi fe'lining eshi,
Yuzi, qilig'ida erur teng kishi,

Tashini ko'rib bil uning ichini,
Tashidek ichidir, ichidek tashi”.

Soqol olsa vazir bo'lar xushchiroy,
Chiroyi xush esa ochiq hamma joy.

Dono bo'lsa, o'ktam, hissobdon, tetig,
Bilim bilan bilsa u turli bitig.¹

Vazir ishi hisob-kitobda bo'lar,
Hisob bilmasa-chi, chala ish qilar.

Hisobdan biladi kishi ish, amal,
Hisobda qilishar oy-u yilni hal.

Hisobni qadimda deyishgan saqish,
Qarasang, aslida saqish bu — sog' ish.

Tetik bo'lmasa, ish o'ngarmas kishi,
Tetiglik bilandir kishilar ishi.

Bitig bilan odam bitar bilganin,
Yozarkan biladi neler qilganin.

Tetiglik nishoni erur bu bitig,
Bitig bilguchilar bo'lar zo'r, tetig.

Bitig bilmas esa kishi o'g'loni,
Nechuk bilinardi yil, oy, kun soni.

Dono yozib qo'ymas esa birma-bir,
Hisob uchun qolgay edi ne tadbir.

Yaratmasdan oldin Xudo olamni,
Yuritdi lavh uzra qodir qalamni.

Farishta bitadi odam qilmishin,
So'r ammo keyin uning bu ishin.

Ko'ngli ochiq bo'lsa ham shirin tili,
Budir kishilarni sevdirish yo'li.

Ochiq dil esa u, shod etar kishin,
Shodonlar ovutlar doimo eshin.

Ochiq dil, yoqimtoy nima deydi bil,
Ne ezu kishiga bu ochiq ko'ngli:

"Suyukli bo'ladi ochiq dil kishi,
Dili toshning qarg'ish qozonmoq ishi.

Ulug'lik oladi kishi kamtari,
Ulug'likka yetmas dag'al aksari".

Vazirlikka tamom butun er kerak,
Savodxon, bilimli, yana keng yurak.

Qilig'i yoqimli, tili, ko'ngli bir,
Uyat-andishali, dili begidir.

Ko'zi to'q-u abjir, biluvchi ishin,
Ayirgan yaroqli, yaroqsiz kishin.

Andisha-o'yli ham bo'lsa sodiq, chin,
Ochiq ko'ngil bilan o'tasa burchin.

Kimda bo'lsa tugal bu hunar, bilim,
Vazirlikni bersa bo'lar, xoqonim.

Bu xil kishi bo'lsa begiga vazir,
Begiga, eliga farog'at hozir.

Tilaktek soz o'lar eligning ishi
Elida topilmas bechora kishi.

Vazir bo'lsa elga yaroqsiz, yovuz,
Eli shoddligiga yetar tajovuz.

¹ Bitig — yozuv.

Vazir ezgu esa, eli naf olar,
Eli na fidan beg rohatga to 'lar.

Nima der, eshitgin, bilimdon kishi,
Bilimdan yuragi charog'on kishi.

"Begi to 'g'ri tutsa yuragi, tilin,
Tutar ishchilar to 'g'rilik yo 'lin.

Zolim bo 'lsa beglar hayoti esiz,
Uning ishchilar buzar ezgu iz.

Begi ezgu esa, uning ishchisi,
Zavolsiz naf berar bor yumushchisi.

Yomon bo 'limaguncha bu beglar hamon,
Yaqin kela olmas unga bir yomon.

Yomon qayda bo 'lsa yomonga jo 'ra,
Ey ezgu, sen endi jo 'rangni so 'ra.

Yomon yaxshi bilan ko 'rishmas bo 'lur,
Tuzuk egri bilan kurashmas bo 'lur.

Qora tun, yorug' kun turishar yiroq,
Yashil suvga qizil o 't bo 'lmas qo 'noq.

Notanishni desang, o 'zing bilayin,
Taniishni so 'ra, bilinar keyin.

Bari yashar o 'z to 'p, uyuri bilan,
Odil bo 'l, qo 'shilma sen egri bilan.

Bu so 'z isboti shu — so 'zimni o 'qi,
Bu baytni o 'qisang, u — ko 'ngil to 'qi:

"Yuruvchi, uchuvchi bu to 'p joni vor,
Tengini tutar esh o 'ziga zinhor,

Yomon bilan yaxshi qorishmas, qochar,
Bor olamga mansub shunday qonun bor".

Vazir begka doim kengashchi bo 'lar,
Kengashchi vazinga teng ishchi bo 'lar.

Yomonga qo 'shilma, yomon ezgusi —
Baribir yomondir, u g 'am bergusi.

Agar begka yaqin har ezgu kishi,
Oti ezgu bo 'lar, yurar el ishi.

Agar begka yaqin bir yomon kishi,
Yomon bo 'lar oti, el-u yurt ishi.

Ey elig, topilsa shu xilda vazir,
Rohat oldi desa el-u yurt arzir.

Undan olar begi tilagin tugal,
Muvofig bo 'ladi bari ishi hal.

Boyrir yurti, keyin yashharar eli,
Xazina ko 'payar, shod o 'tar yili.

Bo 'lar oti mangu qarimas bo 'lib,
O 'mi ezgu bo 'lur quirimas bo 'lib.

Bu dunyoga yetgan yetar unga ham,
Mangu qutqa ega bo 'lar o 'sha dam.

Eligning O 'gdulmishga savoli

Elig dedi: Uqdim, bu so 'z betugun,
Juda ezgu so 'zlar deyildi bugun.

Menga aytgin endi, bu lashkar boshi
Qanday kishi bo 'lsin, ne tarzda ishi?

U lashkarni boshlab ishlasa ishin,
Xatosiz, soz etsa barcha yumushin.

Menga ayt, bu ishga yarat qay odam,
To lashkarni tuzsa, yovin etsa kam”.

O'gdulmish eligga qo'mondon —
sipohsolor qanday bo'lishi
kerakligini aytadi

Bu O'gdulmish dedi: Eshit, ey xoqon,
Yoving chiqmasin hech qo'lingdan omon.

Qo'shinga sara bosh kerak doimo,
O'chib ketsa yovning uyqulari to.

Bunga puxta-pishiq, yigitlar kerak,
Boshidan kechirgan, dadil, sheryurak.

Bulashkarboshlik ulug'ish, og'ir,
Ro'para bo'lар u yoviga axir!

Bu ishga kerak mard, sara, zo'r kishi,
Zarar etmasa to g'ofillik ishi.

Saxiy, mergan esa, u barchaga teng,
Qilling'i kelishgan, fe'li, qo'li keng.

Saxiy bo'lsa lashkar yetaklar kishi,
Sara bo'lар shunda uning bor eshi.

Saxovat ko'rishsa agar lashhkari,
Birodar, og'ayni, do'st bo'lар bari.

O'ziga bir ot, to'n, qurol qo'yса bas,
Olamga tanilib otin yoysa bas.

O'g'il-qiz, uyim deb olam yig'masa
Va yer-suv, bog'im deb kumush termasa.

Tilagin tilasa qilichdan faqat,
Ne olsa utschib olsa shon, rohat.

Yedirsa, ichirsa, u bersa kiyim,
G'ulom-cho'ri, otlar berib bir uyum.
Yoniqa yig'llar botir, purvigor,
Qoyada yotishar jon etib nisor.

Bilimdon-u ziyyrag-u, zo'rlik kerak,
Pishiq puxta yana jasurlik kerak.

Urushda keraksiz yuraksiz kishi,
Yuraksiz kishilar ayollar eshi.

Yuraksiz kishilar qo'shin buzadi,
Qo'shin-chi, zo'r alp er kishin buzadi.

Urushda yuraklik, chidamlik kerak,
Yovi ot solarkan chidashlik kerak.

O'lim-ku keladi aniq, baribir,
Lekin payti kelmay o'larmi botir.

Nima der, eshitgin, ozig'li zo'r er,
O'lim unutilsa, yovi yengilar:

"Kuni bitmay o'lmas kishi tug'ilib,
Yorildimi yurak yovingni ko'rib,
Yovingga olovdek yopishgjin, urush,
Ajalsiz chiqmas jon o'zgacha bo'lib".

Nomusli kerak, er nomusli uchun —
Yoviga otilar, u qo'ymas o'chin.

Nomus ila odam yovini sochar,
Urushda eng avval benomus qochar.

Nomus uchun qo'rqqoz'o'r alplik qilur,
O'kinch olgan odam o'zin o'ladir.

Yurakli deguchi nomusli bo'lar,
Nomusli o'lsa ham jang ichra o'lar.

Qiliq'i o'ng esa, yana keng ko'ngil,
Sevimli bo'ladi butun elga, bil.

Kishi ko'nglin olar odil, sof odam,
Tili tez, johillar, qochishar u dam.

Ulug' tutsa ko'nglin qo'shin boshlar er,
Shubhasiz yovidan tayoq boshi yer.

Bu ko'ngli g'ururlig' ofillik qilar,
G'ofil er yo sinar, yo bevaqt o'lar.

Salobatli, botir yana xushchiroy,
Nomi mashhur bo'lsa misli ko'kda oy.

Yomonlarga dag'al esa beomon,
Tirklik topishsa tuzuktar shodon.

Siyosat yuritsin qo'shining boshi,
Oziq olar undan bu qo'shin ishi.

Siyosat yuritsa, qo'shin bosh topar,
Qo'shin boshli esa kishi ish topar.

Qo'shin tashlanarkan o'zi holiga,
Buzillar, asliga bo'olmas ega.

Yomonlarga g'azab, siyosat kerak,
Tuzuklarga tugal, sof hurmat kerak.

Ezgulgarka tegar tugal ezgulkik,
Sevinchda yurishsin, tegmay g'amli yuk.

Saralarmi istar butun xalq turib,
Kishi ezgulkikka qil bo'lar ko'rib.

Nima der, eshitgin, e fe'lifuzun,
Bu baytni o'qi, so'ng huzur qil uzun.

"Sen ezgulkik etsang olam qil bo'lur,
Olam ezgulkikka to'lta, mo'l bo'lur,
Kishilik etishga kishi bo'l mudom,
Kishi bo'lmoq uchun shu xil yo'l bo'lur".

Qo'shin boshligi iga kerak ko'p qiliq,
To yovi yuz bursa tuzolsa yo'riq:

Urushda zo'r arslon yuragi kerak,
Kurashda-chi qoplon bilagi kerak.

To'ng'izdek hujumkor, bo'ridek kuchi,
Ayiq hiylasi-yu, qo'tosning o'chi.

Yana alday olsa qizil tulkidek,
Tuya erkagiday qilla olsa kek.

Zag'izg'on misoli hushyor, sog'o'zi,
Qoya quzg'unidek ko'rolsa ko'zi.

Himmati bo'lsa bir zo'r arsloncha bor,
Kechasi ukiday ko'z ochiq, bedor.

Bu fe'llari bilan u sardor bo'lар,
U sardor bo'lар ham yaroqdor bo'lар.

Bu sardor, yaroqdor degan shu bo'lар,
Yovini ko'rishda o'chini olar.

Tuzi, noni yana oshi keng kerak,
Oti, to'n, quroli unga teng kerak.

Tuz-u nonni yesa qo'yar er otin,
Yemoq-ichmoq erur tubi hayotin.

Nima der, eshitgin ^{lla¹} otlig'i,
Tuz-u nonni keng tut, kishi qutlug'i:
"Sharaf-shon tilasang tuz-u non yedir,
Triliklik tilasang to imkon yedir.

Saxiy, sermuruvvat, kishiga yaqin,
Tuz-u non haqi deb o'tar er haqin.

Ulug'lik tilasang non-u osh ula,
Uzun yosh tilasang bo'lur osh ila.

Qo'shin boshligh'iga kerak ko'p qiliq,
Ishin sozlasa to, u tuzsa yo'riq.

So'zi chin kerak ham pokiza dili,
Agar yolg'on esa ishonmas eli.

Bo'lagi, saxiylik kerak, bersa mol,
Baxilga borarmi kishi bermalol.

Uchinchli yurakli kerak, ko'ksi zo'r,
Yuraksiz yov ko'rsa, cho'zilib yotur.

Yana biri: bo'lsa u hiyla bilar,
Chorasoz botirdan arslon ham o'lar.

Qo'shini ishiga u bo'lsa mohir,
Qo'shin qo'zg'atishga otashin, sohir.

Ana shunday esa qo'shin boshligh'i,
Yovi yengiladi yiqilib tug'i.

Bu xil boshligh agar qo'shin boshlasa,
Baland bo'lар qo'li qadam tashlasa.

Yuz ursa yoviga bu qo'shin boshi,
Bedor yursa mudom yetib bardoshi.

Sen emas, urushda saralar kerak,
Qurol aslahadan choralar kerak.

Ko'p askar, qo'shin bo'sh, keraksiz bo'lar,
Boshi bo'lmasa u yuraksiz bo'lar.

Sinagan alp uchun nima yov soni?
O'n ming yov uchun bas uning bir joni.

Yovin yenggan alp er so'zin uqtirar,
Menga to'rt ming askar qo'shin bas, deyar.

Ko'p askar yoyilsa ichi buzilar
Uni tursa bo'lmas, yaramas bo'lar.

Nomi chiqqan alp er yana so'zlagan,
Qo'shingga sara er, qurol ber, degan.

Yovin urg'an askar nima der, eshit,
Eshit-u bu so'zni o'zingga ish et:

"Qo'shin ko'p kerakmas, sara kuch tila,
Sara kuch yurishsa quroli ila,
Oz ezgu yaxshи ko'p yomondan ko'ra,
Talayda buzuqlik ko'p bo'lar, bil-a".

Yoviga otilsa qo'shin boshlari er,
Yaqin bo'linsin unga yovin ushlari er.

¹ Ma — joy nomi.

Qo'riqchi, ayg'oqchi tutilsin sara,
Qulqqo'zni sog' tut, uzoqqa qara.

Qo'riqchi, ayg'oqchi ketsa gar yiroq,
Yoviga duch kelib kurashsa shu choq.

Qo'shin tuzsa soqchi yigitlar tuzib,
Keyin qolmasa u yo olg'a o'zib.

Qo'shinga joy etsa tuzib qorovul,
Botir bo'lqa soqchi, bedor tursa ul.

Pishiq bilsa yo'riq qo'shin boshlar er,
Uzoq turmasa hech yowin ushlar er.

Asirga ololsa yovi lashkarin,
Uzoqqa qo'ymasa u o'z askarin.

Qulqq ding-u sezgir esa u juda,
Sipohi kermasa yiroq, behuda.

Qo'riqchini olib yursa ilgari,
Qo'shinni tushirsa mos o'rın sari.

Qo'shinni astrasa, "til" oldirmasa,
Qo'shin ko'p-u ozin yovi sezmasa.

Tetik turib avval "til" olish kerak,
Bu "til" dan yov ishin tez bilish kerak.

Asir gapi ila yuritsa ishin,
Yovi bo'yin uzib, kesolsa boshin –
Bu sog'lik bo'lar ham pishiqlik bo'lar,
Urushda pishiqlar g'oliblik olar.

Tetik beg so'zin ko'r, undan naf kelar,
Zo'r arslon minuvchi qilichli bo'lar:

"Yov urish-tutishga bor ikki yo'llim,
Bu ikki yo'llimdan yov olar o'llim.

Eng avval yov uchun kerak hiyla, ol¹,
Bu hiyla bilan qil yoving yuzin ol.

Yana puxtakor-u pishiqlik bo'lur,
Pishiq bo'lqa kishi, g'oliblik olur.

Tetik esa kishi, yovidan dadil,
Soladi yoviga qora kunni, bil.

Yoving ko'p esa-yu qo'shin esa oz,
Urushga yov oldin kirishgani soz.

Yarashmoq yarog'i bor esa yarash,
Yo'q esa yaroqlan, bel olish, kurash.

Tirish, bosib olgin qorong'i kecha,
Kechasi bilar kim qo'shining necha?!

Iloj topmasang sen, yovingni olib,
Yubor elchi, yurgin o'zing el bo'lib.

Tilingda el bo'l-u avayla o'zing,
Urushga shoshilma, kesilsin so'zing.

Topilmasa iloj, yoving etsa qasd,
Urishmoq tilasa, sira kelma past.

Ishini uzatma, qo'shin tort, urish,
Kishilarni maqta, urish, ot surish.

Urushni uzatsang yoving o'ng'anar,
Ko'raversa ortiq, ko'zi o'rganar.

¹ Ol – hiyla, aldot.

Nima der, eshitgin yovin urgan er,
Boshidan kechirgan, ko'zi ko'r gan er.

"Ko'rimmas yowlarning xabari yiroq,
Ko'rishsa, bosilar ko'ruvchi qaroq.
Yovingga olov bo'l, siring olmasin,
Kechiksang, bosar yov, bo'l ildam oyoq".

Pistirma ichra qo'y qo'shin bo'lagin,
Yayov o'qchi oldda yugursin tag'in.

Urush ko'rgan, oq soch, bahodir yetuk —
Oldin yursa lashkar bo'ladi tetik.

Sochi oq yigitlar tuzoqchi bo'lar,
Tuzoqchi bo'lar ham yaroqchi bo'lar.

Kichik yoshli askar bo'ladi-ku tez,
Yovi yuz o'girsa bezillar shu kez.

Ishonchlini oldin, keyin qo'y yana,
So'l-u o'ngda tursin sodiq rosmana.

Yovi kelsa hamla qila bersa gar,
Daf etsa yigit uni sarbasar.

Eng avval uzoqdan otolsa o'qin,
Keyin nayza ursin, yov egsa bo'yin.

Aralashsa bolta, qilich sol, olish,
Tish-u tirmog'ing ur, oyoq tut, solish.

Chiran, orqa berma yuraksiz bo'lib,
Yoving sanch, yo'q esa urush, yot o'lib.

Nima der, eshitgin, chiniqqan, zo'r er,
Og'ir bo'l, og'ir er yovini urar:

"Kelin-qiz sevinchi nikoh tunlari,
Zo'r alp er quvonchi urush kunlari.

Zo'r alp er qo'yadi uchar bedovin,
Asir, qul etadi yaramas yovin.

Botir jangchi solar yoviga balo,
Yovi bo'lar undan g'amga mubtalo.

Yovin ko'rsa alp er zo'r arslon bo'jur,
Ot o'ymat, jon olar yo'jangda o'jur.

Yovin ko'rsa botir qaramas jonga,
Urushsa bo'yalar yashil yer qonga.

Egar-jabduq, oti bo'lar qip-qizil,
Qizil, qizg'ish yuzi bo'lar yam-yashil.

Yoving ot solarkan bexabar, bexos,
Bardosh ber, bo'shashma, alanglasa, bos.

Burilsa ketidan tezda solgin ot,
Ta'qib et izidan, qarab turma bot.

Agar qochsa yetgin orqasidan tez,
Ammo asir berib qo'yma biror kez.

Yovni yenggan mardlar qorishib, kirib,
G'olib bo'lgan faqat yovini urib.

Yoving ketsa, ildam quvma ko'p uzoq,
Yig'ib qaytsami kuch, qocholmas oyoq.

G'ofil bo'lsa, odam yurib ham o'lar,
G'ofil bo'lmasa er, tilagin olar.

Bu xil joyda asra o'zingni, o'g'il,
Ehtiyyot bo'lmassang, o'llim aniq, bil.

Menga shunday dedi sinagan kishi,
Sinagan kishilar so'zi so'z boshi:

“Yov uzoq qocharkan: to’xtashing kerak,
Ta’qib qilgan odam yegan ko’p kaltak.

Yoving bir tarqatsang terilmas qayta,
O’tni suv o’chirsa, tirilmas qayta.

Azob cheksa kishi o’limin tilar,
O’limin tilagan o’ldirar, o’lar”.

Kim ish qilsa unga tezda in’om ber,
To shundan yuzini qizil qilsin er.

Botimi ko’p maqtash, taqdirlash kerak,
Toki ural tursa kishida yurak.

Yomon olqish olsa, sara, soz bo’lar,
Yigit maqtov olsa, ko’ngillar to’lar.

Mard maqtalsa, qo’lda arslonni tutar,
Ot maqtalsa, uchar, chogangang yetar.

Yaradorlar bo’lsa, emlat sen ko’rib,
Asir tushganlarni yulib ol kirib.

Agar o’lgan esa qadr etib ko’tar,
Haqin ber o’g’il-qiz bor esa agar.

Lashkaring bu ishdan sevimchli bo’lar,
Lang chog’i yetishsa sevig jon berar.

Iliq so’z, ochiq yuz bilan sovg’alar,
Kishiga ezzulik urug’in solar.

Bo’sh, ozod kishilar bunga qul bo’lar,
Bu qul jon fidolar, sevinching tilar.

Bunga o’xshar endi bu so’z, ey dono,
Boqib ko’rgin unga, deyilgan raso:

“Kular yuz, iliq so’z, ular mol-tovar,
Bo’sh, ozod kishilar bu uchga og’ar.

Oltin-kumush bilan sen olma qulni,
Bu uchni fid et — ular quylig’ar.

Lashkar boshchilar o’shanday kerak,
Shu xil bo’lsa boshliq bo’lar ezzuroq.

Sen oltin-kumushni ulasang agar,
Buning tengi ular jonini berar.

Bu uchga qul bo’lar yumushchi bexos,
Buni tutsa beglar ishiga asos.

Bu yanglig’ bosqliqni topar esa beg,
Ishi olg’ a bosar, orzu tilakdek.

Bu yanglig’ bo’lsa gar lashkar boschlari er,
Ishlari yurishar, quvonchga tegar.

Yaroqli vazirlar o’shanday kerak,
Lashkarning boshligi i naq shunday kerak.

Beklar keyin unga ishonsa bo’lur,
Tilagan tilagin beg undan olur.

O’gdulmish der yana: Ey elning quti,
Iikki ish buyukdir, ulug’lik — oti.

Vazir bilan lashkar boshi — yalowdor,
Biri qalam tutar, birda qilich bor.

El bog’i, bog’ichin shu ikkov turzar,
Bu ikki biriksa, uni kim uzar.

Juda sara bo'lsa bu ishda kishi,
Agar gap qaytarsa, uzildi boshi.

Naf etsa-ku nafi talay, bepoyon,
Bo'yin bermasa-chi bir olam ziyon.

Begi bo'lsa ezzu, kishi sarasi,
Elda sara bo'lar u ikkalasi.

Bulardan yetishar elga so'ng rohat,
Ulardan topadi beg orom faqat.

Nima der, eshitgin, el boshlar dono,
Dono so'zi oshdek huzur doimo:

"Qilich bilan olar, ko'r, el olguchi,
Qalamda boshqarar yo'lga solguchi.

Qilich olar elni tezda, bir bora,
Qalam bo'lmasa lek qiyin idora.

Qilich bitan olsa qay elni kuchda,
Uni tutib bo'lmas usoq yil o'chda.

Qalam bilan kelsa qaysi kent, ulush,
Tilagidan tegar o'shanda ulush".

Shular edi menga ma'lum, ayoni,
Ey elig, shu edi uning bayoni.

Eligning O'gdulmishga savoli

Elig dedi: Undan bo'ldim xabardor,
Yana bir savolga javob ber, dongdor.

Menga so'zla endi boqib ezzuroq,
Ulug' Hojib, ayt-chi, ne yanglig' kerak?

Hojiblar ustidan to bo'lsa ulug',
Fido etsa jonnii u sodiq to'liq.

Quvonsa ham begi, ham yurti, eli,
Unga duo etsa elining tili.

Elig dedi: gapir endi shu so'zim,
Buni ham aytib ber, yoritgin ko'zim.

O'GDULMISH ELIGGA ULUG' HOJIBLIKKA QANDAY KISHI (MOS BO'LISHI) KERAKLIGINI AYTADI

O'gdulmish boshhladi, ochdi tilini,
Mingga yetsin dedi elig yilini.

Ulug' hojib ortiq butun, chin kerak,
Bu chinlik bilan sof, butun din kerak.

Tubi, asli ezzu-yu fe'li serchiroy,
Nafi bo'lsa elga tug'ilsa kun-oy.

Tubi ezu bo'lsa u ezzu bo'lar,
Ezgu kishi elga ezgulik berar.

Kishi ezzusidan kelar ezgulik,
Yegu, ichgu, mingu yana kiygulik.

Fe'li go'zal bo'lsa tinglaydi so'zin,
So'zni olar erlar, bilar ish ko'zin.

Ko'zi to'q kerak ham uyatl, halim,
Tetiglik kerak ham bo'lsa serbilim.

Pora olmas ishda ko'zi to'q kishi,
Hojib pora olsa uyatdir ishi.

Pora buzib tashlar bitguchi ishing,
Poradir barbodlar etguchi ishing.

Andishali bo'lsa ham bosiq o'zi,
Ezgulik keltirar ishi ham so'zi.

Andishali pastlik etmas hech qachon,
Yaqin kelmas unga yaramas, yomon.

Zarif erga davlat singimlig bo'lар,
Zarif bo'lsa qutga tegimlig bo'lар.

Tetik bo'lsa molga kuyimmas bo'lар,
Zarif bo'lsa qutga tegimlig bo'lар.

Tetik bo'lsa molga kuyimmas bo'lur,
Bilim bo'lsa ishda yangilmas bo'lur.

Yana yaxshi degan bilimli ulug',
Bilimliga tegar ezgulik to'liq.

Bilim talab etar beglarning ishi,
Hech qayga yaramas bilimsiz kishi.

Kimga tegmas ekan bilimdan ulug,
Tirik desa, bo'lmas, uni bil ulik.

Bilim bilan odam o'sar, shon olar,
Yuqoriga chiqar, ishi avj bo'lар.

Bilimsiz kishi bir quruq rasm, surat,
Dono kishi o'mi ko'kdadir faqat.

Uquvli kerak ishda, ziyrak hamma kez,
Uquv bilan balo kesiladi tez.

Uquv bo'lsa, nafi misli cho'lда surv,
Butun ezzulikka moya shu uquv.

Uquvsiz kishi bir mevasiz yog'och,
Mevasiz yog'ochni nima qilsin och.

Uquvliga tegar ikkala olam,
Uquvli atalar bo'lsa nekqadam.

Uquvli, bilimli — haqiqiy kishi,
Kishilar sarasi, elating boshi.

Yuzi ko'rqli bo'lsa, sersavlat, silliq
Lochin-mard, shuhratti, so'zi belgilig.

Sevimli qilladi yuz manzurligi,
Kirarda-chiqarda uning zo'rлиgi.

Salobatlari erring bo'lар hashmati,
Bu hashmat bilandir kishi hurmati.

Andishali, yetuk, bo'lsa ishi pok,
Ishi pokning bo'lар bor qilmishi pok.

Andishali, bosiq bo'lsa gar kishi,
Erinnaydi, undan bitar el ishi.

Andishali o'ylar kishi qayg'usin,
Andishali axir, kishi ezzusi.

Hojib yuz tutadi hammaga o'zi,
Shuning-chun kerakdir ko'rqliroq yuzi.

Go'zal yuzni ko'rsa ko'zi suvlانur,
Ko'nгillar ochilur, jon olar huzur.

Bunga o'xshatibdi dono mukammal,
Dono so'zin tutgan, e fe'l'i go'zal:

“Ezgu narsa, axir, kishi ko’rki — yuz,
Bu yuz ko’rkidan suv ichar ikki ko’z.
Ko’rkliga qut bergen, etgin o’zga fol,
Ishing ezgu bo’lar, bo’lak so’zni o’z”.

Ko’ngilli kerak ham hushi tez kerak,
Bosiq bo’lsa fe’li yana eguroq.

Ko’ngilli kishi so’z unutmast bo’lar,
Ko’ngilsiz kishi-chi so’z tutmas bo’lar.

Ko’ngil bo’lmasa er bilolmas ishni,
Aqli to’lmaguncha qilolmas ishni.

Ko’ngilsiz bir quruq surat bo’ladi,
Odam ishni ko’ngil bilan qiladi.

Aql-u hushli bo’lsa, bosiq, keng dili,
Qashshoq, tul, yetimga keng, ochiq qo’li.

Tetik bo’lsa yana urf-odat bilar,
Olam go’zalligi tetikdan kelar.

O’zni kichik tutsa, dilni kamtarin,
Tili yumshoq bo’lsa, shakardan shirin.

Yorug’ tutsa yuz-ko’z, kishiga kulib,
Fe’lini ezgu tutsa kishilik qilib.

Nima der, eshitgin yoqimtoy kishi,
Ko’ngil, til kichik tut, e manman boshi:

Ko’ngil kamtar esa qut kelar har dam,
Kular yuz, iliq so’z bilan dil isir,

Isinsa odamzod bo’lar qul, asir.

Bosiq bo’lsa yana tutolsa o’zni,
Ko’zini tiyolsa, asrasa so’zni.

Qulog’i sog’ esa, bilim aqli keng,
Yo’rig’i soz esa, tili, ko’ngli teng.

Hunari ko’p esa, yozolsa kitob,
Bor ishda qo’llasa hunar va odob.

San’at, hunar, bilim bo’lsa tugal-tuz,
Ulug’ Hojib shundan qizil qilsa yuz.

Xizmatdar ichida eng nozik xizmat,
Hojiblik ishidir anglasang faqat.

Talay narsa kerak kim esa Hojib,
Kishi boshlasa to, o’zi yo’l ochib.

Bunga o’xshar endi shoirming so’zi,
Bu shoir so’zidir bilimsiz ko’zi:

“Hojiblikka o’n xil sifat — nang kerak,
Ko’z o’tkir, quoq sog’, ko’ngil keng kerak.

Yuzi ko’rkam, bo’y, til, uquvu, bilim,
Fe’l-atvor bularga tugal teng kerak”.

Ko’p uzoq yashasin eligning o’zi,
Ulug’ hojib beginning chink ko’rar ko’zi.

Qonun-u odattar nozik ish juda,
Ulug’ hojib uni etmas behuda.

Bunga o’xshar endi dononing so’zi,
Eshitsin diliiga jo etsin o’zi.

Ulug’ dan ulug’dir hojiblar ishi,
Uni uddelaydi faqat sof kishi.

Hojiblar beglar ishin tutsa kim,
Ulug'-u kichik-la ishlar, e hakim.

Xazinachi bo'lsin yoki bir kotib,
To'n tikuvchi yoki biorita kosib.

Musofirmi, elchi bordi-keldi qil.
Ularga munosib yo'riqlarni bil.

Ularning joyi-yu ozuqas in ko'r,
Nima kami bo'lsa so'ra, surishürt.

Yo'l og'zida ersa kishilarga bosh,
Qonun-qoidada bo'lmasin bebosh.

Chig'oy, tul, yetimlar kelsa bosh egib,
Qani, ovlayolsa diliн shod etib.

Agar nohaq esa uning qay biri,
Ko'rilmog'i kerak chora-tadbiri.

Noloyiqni ko'rib agar tergasa,
Toki boshqalanga zarar tegmasa.

Bu xilda ko'rilsa tuman turli ish,
Ulug' hojib sabab topar osoyish.

Qator ishda hojib bersa ko'mak,
Maromni buzadi biror tirmizak.

Hojibga ko'p ishlar bo'g'liq bo'ladi,
Uлarni eshitgin, ko'ngil tiladi:

Biri beg so'zini tutolsa mahkam,
Bo'lagi havasni eta olsa kam.

Uchinchchi, tutolsa o'zin doimo,
Eta bermasa u tilini go'yo.

Yana olmasa hech kishidan pora,
Yaqin qilsa ko'pmi topib bir chora.

Yomon ikki xislat bo'lsa kimda gar,
Unga topshirma ish o'zing sarbasar:

Biri — yolg'on esa u so'zlar kalom,
Biri egrilikka qo'shsa bosh mudom.

Bular jam bo'larkan qaysi kishida,
Baraka bo'larmi uning ishida?!

Yana uchta bo'lar xodimning ishi,
Agar asralmasa yorilar boshi.

Birinchi eshitgan so'zin tutsa sir,
Ba'zida o'zini tutolsa basir¹.

Uchinchchi, tutolsa o'zin chapani,
Sevinchda kechadi uning har kuni.

Nima deydi, eshit, shoirming o'zi,
Senga naf beradi, shoirming so'zi.

Begi so'zin aymas boshin o'yagan,
Bek so'zin yoyuvchi tubandir, tuban.

Xaloyiqqa yoysa beginning ishin,
Bu xil ish uchun beg sindirar tishin.

Agar yoysa beglar so'zin qay kishi,
Hayoti tugaydi kesilar boshi.

Qaysi til ocharkan sirin qay zamон,
Bo'ladi egasin yurak-bag'ri qon.

¹ Basir — ko'r, ko'rib ko'maslukka olish.

Yana bir donishmand menga so'zлади:
“О'зин тута олнас бoshin yer”, — dedi.

Hojib yursa doim asrab o'zini,
Qarashda ko'zi-yu tilda so'zini.

Bemavrid sira kirmasa,
So'ramasdan oldin javob bermasa.

Nima deydi, eshit, zakoning tilli,
Undan yorishshadi eshitgan dili.

Paytin topib ko'rsat maliklarga yuz,
Kerak so'zni so'zla, keraksizin uz.
Har nening bo'ladi soati-vaqtı,
Fursati yetishsa ko'rар ikki ko'z.

Bu yanglig' kerakdir bilim-u humar,
Hojib degan shunda o'sar ham unar.
Bu edi, ey elig, men bilgan yumush,
Barin aytdim endi, oson bo'ldi ish.

Elig dedi: bildim, eshitti so'zing,
Yana bir savolga javob ber o'zing.
Qandoq qo'riqlanar, ayt-chi, darvoza,
Uning boshlig'iga ne xil andoza?

O'g'dulmish eligga darvozabonlar
boshi qanday bo'lishi
kerakligini aytadi

Javob berdi O'gdulmish, aytidi: Elig,
Esan-tinch yashagin uzoq, belgililik.
Bu xil kasb egasi ochiq dil bo'lib,
Horishni bilmasa o'zi ish qilib.

Shu yerdə yorishsha uning har tuni,
Shu yerdə o'ta bersa har bir kuni.

Qonun-qoidalar bo'lib joyida,
Qilig'-u odati soz esa juda.

Qo'li ochiq bo'lsa, saxovati mo'l,
Xodimga sovg'asi bo'lsa mo'l-u-ko'l.

Kechasi soqchilar yotishdan burun,
Vazifani bersa: kimga ne o'rin.

Yot-u begonani so'rashi kerak,
Bedor sergagini chorlashi kerak.

Darvoza yopilsa, tinch bo'lar saroy,
Nazoratda bo'lsin atrof, hamma joy.

Yana erta tursa, boshlasa ishin,
Hozir qilsa navbat oluvchi kishin.

Elig qabuliga yetishsa mahal,
Toki bo'lmasa hech kishi zor, mahtal.

O'zi ichkarida uzoq qolmasa,
Birov o'mini hech birov olmasa.

Ko'rinsa navkari guruhilila,
Bo'lmasa ma'quldir biror masala.

Qiyin holda bo'lsa agar qay kishi,
Ko'mak bermoq esa xodimning ishi.

Poyoniga yetib tugassa qabul,
Zoriqkan kishiga ko'mak bersa ul.

Olib bersa toki ko'p oltin, kumush,
Biroviga unwon, biriga yumush.

Ularning qay biri sodiq fuqaro?
Qay biri diliida yovuz muddao?

Yaroqli qay biri, qay biri yomon,
Bo'lari yo aksi qaysi shu zamoni?

Barin yetkazolsa eligga tugal,
Ayirib, saralab ishin etsa hal.

Chiqib ezgu yorliq xodimlari shod,
Bo'lishsa, dillari yana ham obod.

Kirish joyi timch-u ozoda, go'zal,
Yarashiqli bo'lса mudom, har mahal.

Ko'ra olsa yot-u musofir kishin,
Ko'makchi bo'lolsa bitirib ishin.

Non-u ovqat olib kelishsa agar,
Yaroqsizin olib qo'ysa sarbasar.

Shira-sharbatini qilib ehtiyoj,
Unga tegmasa hech begona-yu yot.

Saroyga kirarkan non-u dasturxon,
Nazorda tutsa uni har qachon.

Bariga barobar yetishsa oshi,
Toki tashqarida qolmay hech kishi.

Ikki narsa begka keltiradi shon,
Bo'sag'ada tug'-u to'ida dasturxon.

Yana ikki narsa saroy ko'iki, bil,
Beg otin ulug'lar, ochar qutga yo'i:

Biri hojib bo'lса shu yanglig' kishi,
Yana biri qobil saroying boshi.

Yana yashmagaydir ulardan saroy,
Ulug'lik ichida topar beg chiroy.

Idishchi¹, to'shakchi² yana oshchiga³,

Ko'zni tashlab tursa bari ishchiga.

O'q-yoychi⁴, qushchi⁵ ham suvsar tutuvchi⁶ ,
O'zi bilan bo'lса mudom kutuvchi.

Turib borsa uyg'a, xodim-qo'ldoshin —
O'zi bilan eltsa, yedirsа oshin.

Yedirsа, ichirsa, to'ydirsа qorin,
Quruq qo'ymay bersa o'zida borin.

O'ziga bir ot, to'n, qurol olsa bas,
Bo'lажin ulashsa, biroz qolsa bas.

Yumushga kelsa gar begona kishi,
Simasa to bo'lmas keyin tashvishi.

Yumushga kelguncha ko'rsa xo'p uni,
Oziq-ovqat, o'mi, oti ham to'ni.

Yana so'rab tursa siphoh holidan,
Ochi ham to'qidan, kiyim, molidan.

Zoriqqani bormi, qo'li qisqalar,
Zoriga yaratса, huzur qilsalar.

Kim esa saroya bir bor kelmasa,
Eshitsa, so'rasha, ne bo'ldi desa.

Agar betob esa so'ratish kerak,
Behudalik etsa tez tiyish kerak.

Bu barchasi begka bo'lar sadoqat,
Uning shodligi deb qilingan faqat.

¹ Idishchi — sharobdor, soqiy.

² To'shakchi — to'shakchi, yotoq boshlig'i.

³ Oshchi — oshpaz.

⁴ O'q-yoychi — o'q-yoy yasuvchi ham uni otuvchi.

⁵ Qushchi — qush o'rgatuvchi.

⁶ Suvsar tutuvchi — suv hayvonlarini tutuvchi.

Nima der, eshitgin, yumush qilgan er,
Yumushi turfayli e'zoz olgan er:

"Yumushchi begiga esa vafodor,
Vafoni o'ziga qilosha shior.

Yumushiga sodiq vafodor quli,
Bu beglik moyasin tilar bir yo'li.
O'z nafin tilamas u sodiq bo'lib,
Begiga tilar naf ezmilik qilib.
Bag'insiz, nafi yo'q o'g'ildan ko'ra,
Sadoqatli xodim yaqin ming bora!
Agar ozg'on¹ nafl esa men quli,
Chechak zarar esa kesay bir yo'li.

Befoya, nafi yo'q yaqinlarni qo'y,
Nafi borni do'st tut, nafi bilan to'y,
Tilida muloyim, shirin tutsa so'z
Ko'ngli keng esa-yu, yorug' tutsa yuz.
Tugug yuz, dag'al so'z kishinsovutar,
Asorati ketmas, ko'ngilda yotar.

Bunga o'xshar endi bu bayt rosmana,
So'zi ma'ni bilan uqilgay yana:
"So'zda so'ksa odam, achitsa tilin,
Suyakkta u tig'dir, ko'ngliga — yolin,
Tayoq izi bitar, xotirdan o'char,
Til yarasi ortar lekin yil sayin".

Hozirlik ko'rsa beg agar urushga,
Yo ovga-yu chavgon, yo el ko'rishga,
Mudom asray olsa u yerda begin,
O'rinsiz bir ofat toki yetmasin.

¹ Ozg'on — o'simlik turlaridan bini.

Sodir bo'lsa begda xato mabodo,
Bo'l'a berat ot, ov yo jang asnoda.

Ishonchizroq esa, yo'qotgin dарhol,
Shubhali esa gar, e'tiborga ol.

Ishonchli, butun, chin, sodiq har kishi,
Yaqin yursa begka sarajom ishi.

Qo'mondoni tuzsa soqchi qatorin,
Tetik-sog'ni yig'ib jo'natsa keyin.

Kichik qur ulug'lar ora kirmasa,
Uzoqdagi soqchi sari bormasa.

Saroyda ne esa o'tirish-turish,
Safar chog'i vojib shu xilda yurish.

Saroy egasining sadoqat ishi,
Shu xilda esa bas, e saxiy kishi.

Shu yanglig' kerakdir saroy boshlar er,
Begi nonini yeb, ishim ishlar er.

Shulardan iborat so'rالgan savol,
Sara er tila-yu bilim ishga sol.

Eligning O'gdulmishga savoli

Elig dedi: Uqdim buni shubhasiz,
Yana bir savol bor menga bog'li so'z.

Bilasanki olam tatar beg, xoqon,
Yiroq elga elchi yuborar har on.

Menga ayt-chi bilim ila aqida,
Uzoq elga borar elchi haqida.

O'gdulmish eligga elchi qilib yuborishga
qanday kishi kerakligini aytadi

Javobda O'gdulmish dedi: Ey xoqon,
Bu ishda bilimi qo'lla har qachon.

Butun, er sarasi bu ishga kerak,
Bilimli, uquvli, yetuk, keng yurak.

Odamzod zotida eng saylangani,
Kishilar yaxshisi — elchi bo'lgani.

U bilan bitadi tuman-turli ish,
U bilan bo'ladi butun ko'rqli ish.

U bo'lsa uquvli, bosiq, xotirjam,
Bilimli, chechan-u sertadbir har dam.

Yana bilsa so'zning ichin ham tashin,
Toki soz etolsa buzilgan ishin.

Nima deydi, eshit, ulug' jahongir,
Bilimli beg odam, ishida mohir:

Baridan sara deb uquvlini bil,
Kishiga yetakchi bilmlini bil.

Qay ishda muqimroq esa zakovat,
Kuzatsam, o'sha ish o'sishda faqat.

Qay ishga donolar tegizishsa qo'lli,
O'sha ish olar avj, tekislandi yo'lli.

Uquv ishga solsa, bilim boshlasa,
Talay ish qilinar kishi ishlasa.

Sadoqatli bo'lsa, ko'zi, ko'ngli to'q,
Butun, chin, fe'lida sira aybi yo'q.

Sadoqatli xodim beg nafin tilar,
Beg nafin tilagan begin chin sevar.

Begga naf berar deb sodiqlarni bil,
Sodiqlarni topsang, yaqin dilga bil.

Sadoqatli xodim bag'ir sonidek,
Bag'irdan-da yaqin yurak qonidek.

Ko'zi suq o'zidan bexabar qolar,
Bu suq elchilikka loyiqmi bo'lar.

Ko'zi to'q hamisha boy sanaladi,
Og'ir bo'lsa odam ishda unadi.

Suq er tamagirdir, tama — bir balo,
Tamagir kishining oti past, gado.

Nima der, eshitgin, ko'zi to'q kishi,
Ko'zi to'q bo'ladi saxiyilar boshi:

Gadoy qilsa kimni ko'zi suqligi,
Boyitolmas uni olam to'qligi.

Tama qilgan odam qui bo'ladi, qui,
Ozodligi uning o'lim ila, bil.

Yana yaxshi degan bilipli dono,
Ko'zi suqqa o'git bergen doimo.

Tugal boy bo'layin desang purviqor,
Ko'ngil boyligin tut, e kuchli, zinhor.

Necha qui esa-da, ko'zi to'q — xoqon,
Shu holi a'lo suq begidan chunon.

Agar beg suq esa gadoy u, gadoy,
Agar qui ko'zi to'q, u — beg, ko'ngli boy.

Uyat-andishali, bosig¹-u halim,
Halimlik ichida bilsa ko'p bilim.

Uyati bo'limasa u tuban bo'lur,
Uyati bor odam butunlik qilur.

Sobit bo'lsa kishi yoritar ko'zin,
Fe'l² yaxshi bo'lsa sevdilar o'zin.

Tetiklikda bilim ola bilsa ul,
Butun ishga topar bilim birla yo'l.

Butun baytni o'qi, nima der, eshit,
Bilim ila boshlab o'zingga ish et:

"Uquv ila ishla, bilim birla bil,
Qadam uzmagay qut shunda oy-u yil.
Tetiklik ila er tilakka yetar,
Bilim bil, uquv uq, keyin ishni qil"³

Tetiklikda bilis odam ko'p bitig,
Bitig bilis yana bo'lар er tetig.

U yozsa, o'qisa, eshiisa so'zin,
Donolar safiga qo'shar u o'zin.

Hunar ila san'at u tugal bilsa,
Shu san'at hunardan yorug' yuz qilsa.

Kitoblar o'qir ham bilar ersa so'z,
Uqar esa, she'r ham qo'shar esa o'z⁴.

Nujum⁵ bilsa, tib⁶ ham yo'ra bilsa tush,
Uning ta'biridek bo'lsa hamma ish.

Bilar esa hisob¹ yana handasa²,
Sondan ildiz olsa³, masohat⁴ olsa.

Yana nard-u⁵ shatranj⁶ bilar esa soz,
Hariflari undan o'lar esa soz.

U chavgonga zo'r-u ota bilsa yoy.
Yana qushchi, ovchi, tag'in xushchiroy.

Tuman tilni bilsa bu elchi tili,
Tuman harfni bilsa, yozolsa qo'li.

Shu xil kerak barcha hunarni bilar,
Bu xil elchi mudom tilakka tegar.

Agar elchi esa dono-yu ziyrak,
Begi naf oladi, u topar ko'mak.

Yovuz bo'lsa elchi, yomonlar quli,
Tugaydi begida, bori yuz suvi⁷.

Bu elchi degani juda soz kerak,
Tuman-turli ishga urolsa yurak.

Neki bir hunarni unga sotsalar,
Bilib olsa, arzir og'ir tutsalar.

Qay odam agarda so'zin so'zlasa,
Uqa bilsa undan neni ko'zlasa.

¹ Hisob — hisob-kitob, matematika.

² Handasa — geometriya.

³ Sondan ildiz olsa — matematikada ildiz ostida hisoblash usuli

⁴ Masohat — yer yuzasini, sathni hisoblash.

⁵ Nard — nard.

⁶ Shatranj — shaxmat.

⁷ Yuz suvi — obro', ya'ni obiro'yning o'zbekcha (aniqrog'i, qadimgi turkiy tildagi) shakli.

¹ So'z qo'shamoq — mista tuzmoq, she'r yozmoq ma'nosida.
² Nujum — yulduzlarini o'rganuvchi fan ma'nosida, astrologiya.
³ Tib — tib fani, medisina.

Agar elchi bilsa hunarin to'liq,
Begi bo'ldi buyuk, nom — elda ulug'.

Nima der, eshitgin, dono ko'k ayiq¹,
Bu so'z uqmasa er, uning aqli yo'q"

Hunar kinda bo'lsa, oshar shuhrati,
Hunari yo'q esa, qariydi oti.

Kishi hunar ila sharaf-shon quchar,
Hunari ko'p esa, u o'rlab uchar.

Qo'lin cho'za yigit hunarga tegib,
Ulug' tog' boshindini ololgay egib.

So'z uqqan esa ham u hozir javob,
Javob qilsa so'zga ayni o'sha tob.

May ichmasa, aslo o'zin tutguchi,
O'zin tutguchi er bo'lar qut kuchi.

Bilimli may ichsa bilimsiz bo'lar,
Bilimsiz icharkan, yovuz ish qilar.

Ichimlik bilimga, uquvingga yov,
May oti urushdir, gina beayov.

Dono bo'lsa hamki uquvli kishi,
Boshin mayga suqsa, buzildi ishi.

Ne-ne andishali, esa fe'li soz,
May ichsa tubanlik qiladi bexos.

E siz, andisha-yu or, uyat zako,
Nopoklarda mayga ketar, ey dono.

May ichma, may ichsa borar er quti,
Nodon, telba bo'lar may ichsa oti.

May ichkari kirsa chiqarar so'zing
Chiqar so'zing keyin o'yadi ko'zing.

Nima der, eshitgin, bu bayt aytguchi:
O'qigin, ochilar tashi ham ichi:

"Agar ichsa, kayfni oshirar boda,
Ko'ngil sinin ochar keyin ziyyoda."

Bilimli may ichsa bilimsiz bo'lar,
Bilimsiz-chi ichsa qolar piyoda".

Tili bo'lsa shirin yana ko'ngli keng,
Shirin so'z-u aqli yana shunga teng.

Kirishimli bo'lar tiliga chechan,
Ma'qul bo'ldi mudom shirin so'z eran.

Kerak xotirada tutsa har so'zin,
Nima so'z eshitса, tutolsa o'zin.

Yuzi ko'p chiroyli, bo'yи ham raso,
Baquvrat, sogoli qiriq doimo.

O'zi mard esa-yu, buyuk xizmati,
Bu ikkov bilandir kishi qimmati.

So'zi bo'lsa yumshoq, shakardan shirin,
Shirin so'z ochadi erir kishilar sirin.

Elchi ishi, ko'rjin, necha so'z bo'lar,
So'zi yaxshi bo'lsa tilagin olar.

Shu xil bo'lsa ishi — eligning qutii,
Unga mos bo'ladi bu elchi oti.

¹ Ko'k ayiq — turkiy xalqlarda yuqori darajadagi amallardan birining nomi.

Bo'lar unga bersa elchilik haqin,
Yiroq esa yotni, qo'shning — yadın.

Eligning O'gdulmishga savoli

Elig aytdi: Uqdim, eshitdim buni,
Yana bir savolni tushuntir, qani?

Seningdan ochilsin bu so'zning taxi,
Meningdin o'talsin senga so'z haqi.

Xat yozuvchi kotib ne xilda kerak,
Bitilgan xatga to ishonsa yurak.

O'gdulmish eligga xat yozuvchi kotib
qanday (bo'lishi kerakligini) aytadi

Bu O'gdulmish aytar: Ey ulug' xoqon,
Bu ishga kerakdir munosib inson.

Necha dono bo'lsa bu beglar o'zi,
Kotib ham lozimdir — bitilsin so'zi.

Kotiblarga desin yashirin so'zin,
Kotib ham begitsin ko'p-u yo ozin.

Kotib tutmasa gar sirin pinhoniy,
Kuyadi siri fosh bo'lar er joni.

Necha sirli bo'lsa bu beglar ishi,
Ochiq bilsa ma'qul bu ikki kishi:¹ o'z

Birisidir, birisi — vazir,
Bu ikki kishiga so'z och, yarashir.

Shu ikki kishiga so'z ochish kerak,
So'z ochgach, nozini ko tarish kerak.

Bu ikki kishida bo'lar barcha so'z,
Bular tutmasa so'z quvonarmi ko'z.

Juda yaxshi degan O'tukon¹ begi:
"So'zing asrasin do'st, sen aytsang neki".

E beglar ishonchi, so'zingni yashir,
So'zing saqlamasang, o'lim yondashir.

Bu og'zing misoli o'ra sonidir,
So'zing-chi, sochilgan urug' donidir.

Olamga yoyildi terib ko'r uni,
Olam bilsa-chi, eh, o'rab ko'r uni.

Og'izdan goho o't, goho suv chiqar,
Yashatar birisi, birisi — yiqar.

Yonar o't misoli keraksiz so'zing,
Og'izdan chiqarma — kuyarsan o'zing.

Oqar suv misoli shirin, ezgu so'z,
Qayerga u oqsa chechak ochdi ko'z.

E mard deb atalgan, bilimli, dono,
Ko'ngil sirin asra o'zing doimo.

Nima der, eshitgin bu baytni o'qi,
Ko'ngil sirin asra, e ko'nglim to'qi.

Ko'ngil sirin asra, chiqarma tilga,
Chiqarsang cho'zilgay o'kinchi yilga.

¹O'tukon — joy nomi.

Qizil til qora bosh yovi beayov,
Yovin kim tutadi, gapir, betushov!

Kotib bo'lsa dono, fasohatliroq,
Xati — xush, so'zi soz esa yaxshiroq.

Chiroyli bo'lsa xat ko'ngil ochilar,
O'qish mayli ortar, ko'ngil ovimar.

Go'zal xat biriksa balog'at bilan,
Yozigan bo'ladi kamolat bilan.

Nima der, eshitgin, Ila¹ o'ng qo'li,
Xabarning ma'quli — yozma usuli.

Bari ezgu so'zlar yozuvda bo'lар,
Yozuv sabab — so'zlar xotirda qolar.

Bitilmay qolarkan bu maktub, yozuv,
Bilib bo'limas edi ne hikmat, uquv.

Bitib qo'ymasaydi dono qalam'i,
Qorong'i qolardi moziy olami.

Yozuv bo'lmasaydi kishilar ora,
Quruq so'zga kim ham ishonar, qara.

Goh uzoq diyorga xabarlash lozim,
Yozuvdsiz nima ham qilar mulozim.

Yozuv — maktub, axir, shuning-chun kerak,
Yozuvdan topadi bu beglar tilak.
Bu davlat ishiga yaroqli kishi,
Bular uch toifa, ey xalqning boshi.

Birisi bilimli, u sohib kamol,
Birisi kotibdir chechan, so'zamol.

Uchinchi — botirlar, asil, sheryurak,
Bo'ri — yovga qarshi botirlar kerak.

Zakovat sohibi, dono bo'lsa gar,
Qiyin ish chog'ida mudom qo'l kelar.

Butun el ishini soz etar yozuv,
Mashaqqat ishini oz etar yozuv.

Qilich ishga tushsa, ko'p ishga qodir,
G'anim bo'yinni u kesishga mohir.

Jam o'lsa qayerda bu uch turli er,
Odam qut topar-u, tilak — orzu yer.

Agarchi bor erur bo'lak to'dalar,
Bu uchdan ayiri bo'lolmas ular.

Qilichda tutilar tutilsa gar el,
Qalamga egilar egilsa gar el.

Bilimdan yuradi qoida, qonun
Zakovat kelar qo'l ko'p ishga har kun.

Qilich qon tomizza, begi el olar,
Qalam qorasidan, ko'r, oltin kelar.

Shu ikkov olamga asos bo'lajak,
Zamon bo'lsin ishga moziy — kelajak.

Shu ikkov erur chin, chiroyli azal,
Dono beg, sen unga doim et amal.

Bunga o'xshar endi mana dono gap,
Eshitgin buni sen, ey ezzu adab:

¹ Ila — joy nomi.

"Fozildir bilimdon esa gar kishi
Qilich qayramoq ham yigitning ishi

Qilichga egar bosh sara, ezgu el,
Qalamdan gurullar elat yoz-qishi".

Kotiblik yarashgay — ko'zi kimda to'q,
Samimiy bo'lса u, tama dardi yo'q.

Ko'zi to'qlar aslo tama qilmagay,
Birovlar molidan umid bilmagay.

Tamagir — qul erur olam moliga
Sen ehson et uning qarab holiga.

Tamagir qui erur, garchi o'zi beg,
Tuban yo q olamda go'yo o'shadek.

Suq esa gar kotib, ishini buzar,
Niyatni ocholmas, tama-la yozar.

Kumush, oltin uchun bo'lib mahliyo,
Xo'jasи boshiga hozirlar balo.

Fe'li xush esa-da, ichmasa boda,
Yaramas qiliqdan esa ozoda.

Kotib ichsa, xato o'tar qo'lidan,
Xatolar chiqrarar fikr yo'lidan.

Sadoqatli xodim ishin tez olar,
Tilagan chog'ingda yoningda bo'lar.

Kotib bir kun emas, kerak doimo,
"Hozirman", desa u ko'rib bir imo.

Kishilar aro eng asil, sarasi,
Eurlar, bilib qo'y, shu ikkalasi.

Birisi kotibdir, bexato xati,
Biri elchi erur — shirin suhbat.

Yaqinmi, uzoqda yo yotlar ora,
Adovat yuz ursa shulardan ko'r-a!

Shu ikki kishidan tushar tushsa ish,
Ulardan buzilar oxir har yumush.

Birisi yozuvda xato qilsa gar,
Birisi tuzatsa juda yarashar.

Bu yanglig' bo'lishi kerakdir kotib,
Bu yanglig' kotibga ish ber ishonib.

Bu yanglig' kishiga ishonsa bo'lар,
Kishilik tilasang ulardan kelar.

Bu edi, ey elig, mening bilmishim,
Bayon etdim endi, tugadi ishim.

Eligning O'gdulmishga savoli

Elig aytdi: "Uqdim buni men to'la,
Yana bitta savol beray bir yo'la.

Xazinachi ne tarz bo'lishi kerak,
To undan bu ko'ngil to 'lishi kerak.

Ola bilsa qo'lga u oltin-kumush,
Soz o'lsa qo'lida devilgan yumush".

O'gdulmish elingga xazinachi qanday kishi bo'lishi kerakligini aytadi

Odil bo'lsa odam kuni ezzudir,
Kuni ezzgu bo'lsa qutti mangudir.

Bu O'gdulmish aytar: Ey elning qutti,
Sevimli bu oltin-kumush — jon o'ti.

Juda chin, pokiza er kerak bunga,
Ko'ngil chin ishonса, keyin ber unga.

Nima deydi, eshit, savdogar boshi,
Olamni kezib mol qozongan kishi:

"Suyuk bo'ldi bu jon, yana ham suyuk,
Kumush-oltin erur yana-da buyuk.

Eshilmash ko'ngilni eshar bu kumush,
Egilmas bo'yimi egar bu kumush.

Kumush ko'rib odam ko'ngil bermasa,
Yarashar uni chin farishta desa.

Kishi ko'rди oltin — o'zi yumshadi,
Dag'al so'zli erving so'zi yumshadi".

Ko'zi to'q esa-yu qilig'i butun,
Osha borsa qutti uning kun-u tun.

Ko'zi to'q kishilar moling bo'ylamas,
Butun, chin kishilar o'zin o'yamas.

Kichiklikda ko'rgan esa pul-kumush,
Uning suqligi hech etolmas xurush.

O'zi qo'rqr esa imondan agar,
Teginmas haqiqat yo'liga asar.

Talay naf beradi, axir, adolat,
Bu nafi tufayli mangu halovat.

Nima der eshitgin, ko'ngilchan so'zi,
Bu so'z ishga tugun, ey olam sozi:

"Ko'ngil, tilni odil qiliq tut — butun,
Senga kelgusidir bu davlat butun.

Odil bo'lgan erga saodat kelar,
Salomat yashagin sevinchda bu kun".

Ko'ngilchan esa-yu tetik ming bora,
Tetiklik bilan u topar ming chora.

Zakovatli esa yana oq ko'ngil,
Uyatsiz kishidan yiroq tur, o'g'il.

Uyatdir tiyuvchi yatoqsiz ishing,
Uyat sozlagaydir fe'li bad kishing.

May ichmasa yana o'zin tutuvchi.
O'zin tutuvchi er — qutin topuvchi.

May ichsxa saxiylik qilar u molin,
Kishiga ularshar bilolmay holin.

Xasis xazinachi bo'lar ezzuroq,
Xasislikda molin kerak asramoq.

Sodiq xazinachi zo'r chiroy bo'lar,
Bu xil xazinachi begin boy qilar.

Sodiq kishi bo'lar odam sarasi,
Sodiqlarni beg tut, kishi sarasi.

Farosati bo'lsa unutmash bo'lar,
Hisob — soz, xatosi hech o'umas bo'lar.

Unutar uquvi oqsagan kishi,
Buziladi unda xazina ishi.

Tetik bo'lib etsa u turli hisob,
Tetik bo'lmaguncha ish olarmi tob.

Kotib esa mohir, talay xat¹ bilar,
Hisobni yozuvda u ado qilar.

Kotiblar kuzatsa kirish ham chiqish,
Yozuvda bitilsa tuman turli ish.

Yil, oy — vaqt bitilsa, kuni belgilig,
Ochiq-oydin esa soni belgilig.

Hisob hisobligi yozuv birladir,
Bitib qo'ysa, hisob qo'lin beradir.

Nima der, eshitgin, ko'ngilchan kishi,
Hisobda bilinlar odamlar ishi.

Yozuvsiz xotirga ololmas ko'ngil,
Ko'ngilga ishonma, bitib qo'y, o'g'il.

Bitilsa qolar so'z, yo'q esa yitar,
G'ofil bo'lsa ishchi hisobda ketar.

Tuman yozuv bilsa o'zi yakbora,
Doim hushyor o'lib etolsa chora.

Hisobda adashsa, agar ishchilar,
Hisob bermog'ida o'lar bosnchilar.

Xazina hisobin u bilsa tugal,
Dil-u xotirida eta bilsa hal.

Elig hisobiga yetarkan ulush,
Hisob-handasani kerakdir bilish.

Juda nozik, axir, hisob-handasa,
Bo'lar u bilan yer ko'k hisoblasa.

Nima der, eshitgin, dono qo'pga bosh,
Dono so'zin topsang, yegin misli osh:

"Axir juda chuqrur handasa ishi,
U bilan aylanlar hakimlar boshi."

Jaladek bosadi falakni tugal,
Jala tomchisiday har amal ishi".

Bilimli, uquvli esa, fe'li mos,
Uquvli kishilar ishi bari soz.

Bilimli kishilar bo'lар chin, odil,
Odil qayda bo'lsa yorishadi dil.

Zako bo'lmasa er o'zing tutmagay,
Bilim bo'lmasa er ishin etmagay.

Saroy ichra bo'lar xazina ishi,
O'zin asramog'i kerak bu kishi.

Odil tutsa ko'ngil, fe'lini — butun,
Unga tegmas o't yolini, tutun.

Ko'z-u tilni pishiq avaylasa bas,
Zako ila bossa orzu-yu havas.

Ko'zi ko'rsa keyin ko'ngil orzular,
Ko'ngil orzulasa uni kim tiyar.

¹ **Talay xat** — bu yerda yozuv turli xalqlarda qo'llanadigan yozuv tizimlarini ko'zda tutadi. O'sha payda qadimgi turk, uyg'ur, arab, xitoy va boshqa yozuvlar amalda ham qo'llanar edi.

Yetti andom uzra beg erur ko'ngil,
Begi boshlasa, tez yuguradi qul.

Juda yaxshi degan bilimli so'zin,
Yigitlar asrasin ko'ngil ham ko'zin:

"Tana — yeti andom ko'ngilga boqar,
Ko'ngil deb kishiga mashaqqat oqar.
Notugal suratdir ko'ngilsiz kishi,
Ko'ngilsiz donishmand otini yoqar".

Saxiylik ma'qul-ku, saxiy o'lmasin,
Lek o'zga moli-la saxiy bo'lmasin.

Oldi-sotdilarga mohir bo'lsa gaf,
Eta bilgay ishin soz-u jilvagar.

Butun mol-tovarni bilishi kerak.
Navo-narxni anglab olishi kerak.

Bahoni bilsa u, o'sal qolmasa,
Oldi-sotdillarda ziyon qilmasa.

Olimga-berimga solib tursa ko'z,
Ulug'-u kichikkha shirin tutsa so'z.

Nima so'rab olsa yana bersa tez,
Unga beradilar, nima so'rsa tez.

Sotuvga mohir-u fe'li soz, ravon,
Unga topiladi moli har qachon.

Agar begi bersa lashkarga in'om,
Yetkazsa ularmi to'la, bardavom.

Qisib qolsa, lashkar yomon o'ksinar,
Ular ko'ngli sinsa, ko'ngil kir yig'ar.

Nima der, eshitgin saxiylar boshi,
Ko ngilga jo etgin, e nochor kishi:

"Sevuvchini sevmas qilayin desa,
So'ragan molin, bas, unga bermasa.

Agar bermas esang, tiling aytmasin,
Tiling aytdimi, bas, keyin qaytmasin.

So'zin qiyسا beglar, ishonch yo'qolar,
Ishonch qaytsa, mol ham sekin yo'q bo'lар.

Tetik er kerakdir, keraksiz ozoq¹.
Ozoq bo'lsa ishchi, bo'lар ish uzoq.

Bu beglarga xizmat qiluvchi butun,
Hojaт sabab hozir oyoqda bu kun.

Agar aytса ishchi qo'li torligin,
Ayamasa begi unga yorlig'in.

Xazimachi bermas esa gar ko'mak,
Zoriqsan umidi sinadi, beshak.

Kerak payti topsa kishi oz havas,
Ulug' filga tengdir kichikkina xas.

Nima der eshitgin, bu ko'kish soqol,
Zoriqsan zoriga yara, oqsoqol:

"Tilaganda topsa molini odam,
Shirin jonnı fidо etsa hamki kam.
Kerak chog'i bir xas filga teng bo'lар,
Shu tarzda yaralgan bu yorug 'olam".

¹ Ozoq — yo'ldan ozgan

Xoqon topsa agar shu yanglig' kishi,
Uyatlì, bilimli, sarishta ishi —

Topolsa shu xilda xazinachini,
Ishonsa bo'ladi xazinasini.

Elgning O'gdulmishga savoli

Elig aytdi: Bildim, yoritding meni,
Yana bir so'zim bor, so'rayin uni.

Oyog¹-u¹ idishlar, bu osh boschchisi,
Ne yanglig' bo'ladi bu osh ishchisi.

Shubhasiz yesa beg uning oshini,
Ishonsa, avaylab shu tarz boshini.

Juda xavf bo'ladi yeyilgan taom,
Shubhali qo'lidan yesang, ezgu nom!

Buni ham ochiqroq ayt endi menga,
Bilayin, uqayin, ishonay unga.

O'gdulmish eliggaga osh boschchi —
xon solor (dasturxonchi)
qanday bo'lishi kerakligini aytadi

O'gdulmish javobda dedi: Ey xoqon,
Bu ishga butun er kerak har qachon.

Topolsa odil-u sara, chin kishin,
Sinab bersa unga osh-u suv ishin.

Bu ishga tamom chin, butunni tila,
Sodiq, serharakat, uyati to'la.

Sodiq xizmat ahli, butun, chin kishi,
Begiga baxshida vujud, jon, boshi.

Begiga bo'ladi bo'g'izdan xatar,
Ishin oshchi qilsa uni kim tutar?!

Begi endi mudom avaylab o'zin,
Ochiq tutsin yegu-ichguda ko'zin.

Elin boschlari erga bo'lalar ming yog¹,
Yog¹ ining yozilgan bo'lalar tuzog¹.

Butun, chin, sinalgan esa u kishi,
Xatarsiz yeyilur bu beglar oshi.

Ko'zi pishgan esa, yumushchi talay,
O'zi chaqqon, ildam esa har qalay.

Yumushi ko'p esa, joni dan kechib,
Ne desa, ishonish bo'ladi vojib.

Nima der, eshitgin, kishi sarasi,
Bilim-u donishi tugal barchasi.

Nimaga singisa kishi mehnati,
Yuqori ko'rinar uning qimmati.

Tirklik qay ishga sarf o'lsa agar,
Suyukli bo'lalar u shinin jon qadar.

Tirklik esizmas, bu mehnat esiz,
Zoye ketgan umr-u oqibat esiz.

¹ Oyog^{*} — idish, idish-tovoq.

¹ Yog'i — yog'iy, dushman, g'anim.

Tiriklik o'tadi, bu aniq, tayin,
Ishi yelga ketsa achinar keyin.

Ko'zi to'q esa soz, yana ko'ngli boy,
Ozoda bo'lса u, yuzi ko'rki — oy.

Uyat-andishali, diyonat bilar,
Bu yanglig' kishidan butunlik kelar.

Toza bo'lar beglar ta'bining o'zi,
Toza bo'lmasa osh yeyilmas, qo'zi.

Bu oshpaz ozoda idishlar qo'yib,
Uzatsa, oshi ham yeyilar suyib,

Ko'zi suq ko'ngilni ne xilda uzar,
Qo'lin oshg'a urar, u oshni buzar.

Ko'zi suq kishining qilig'i tuban,
Qilig'i tubanlik balo, yomon fan.

Necha bo'lmasin er butun, chin, odil,
Ulardan butunroq o'zing, shuni bil.

Butun tut ularni, pishiq qil ishing,
O'zingni avayla, avayla boshing.

Bunga o'xshar endi bu so'z ravishi,
Bu so'zni unutma, ey ezgu kishi:

"Boringni butun tut, avayla o'zing,
O'zingga sodiq bir seming o'z-o'zing,
Talay pok, aziddan bu joning aziz,
Aziz jomni asra, uzatma so'zing".

Yuzi ko'rki ko'rklig, kerak fe'li soz,
Qomati kelishgan, til-u ko'ngli mos.

Chiroyli — ko'rinar ko'zingga a'lo,
Bo'g'izga balodir tozamas g'izo.

Tozalikni sevar doim bir-u bor,
Pokiza xodimdir ulug', serviqor.

Tozalikni barcha xaloyiq tilar,
Toza bo'lса osh-suv ko'ngil ham to'lar.

Yiroq tursin oshdan tozamas kishi,
Pokiza bo'larmi ularning osh!?

Odillik kerak ham, butun, chin qiliq,
Odil bo'lmasa er, tuzilmas yo'riq.

Agar egri bo'lса bu osh boschchisi,
Tamom egri bo'lar uning ishchisi.

Yig'ilsa yaramas, bu osh o'g'risi,
Qachon ko'rklı bo'lar begi tergisi!

Kishiga yaratshar munosib qiliq,
Toki shu tufayli u tuzsa yo'riq.

Nima deydi eshit halim fe'lli er,
Fe'lli ezgu kishi bor olamni yer:

Odil qayda bo'lса, qut keladi, bil,
Kuni ham qoraymas yurarkan odil.

Xiyonat ne yerga qo'yarkan oyoq,
Yaqjin, nafi borlar qochishar yiroq.

Xiyonatl kishi qachon ursa qo'l,
Dengizni simirar, qurir bari ko'l.

'Tergi' — dasturxon.

Sodiqlar kerak ham begini deyar,
Jonini kuydirib, faqat naf berar.

Bilimdon, uquvli, sodiq hamma kez,
Kerak bo'lsa, oshin qila bilsa tez.

Keragicha yurib ish etsa o'zi,
Kirarda-chiqarda pokiza ko'zi.

Uquv ishga solsa, avaylab o'zin,
Bilim ishga solsa, tiyolsa ko'zin.

Vafo qilsa begka, tilab ezzu ot,
Vafo ila elda qolar mangu ot.

Uquvli kishilar ezzu ot tilar,
Bilimli kishilar ishonchli bo'lar.

Uquvli kishidan kishilik kelur,
Bilimli kishilar kishisi bo'lur.

Nima der, eshitgin uquvli kishi,
Uquvli kishidir kishilar boshi:

"Uquvli, vafoli-kishi tuzuni",
Bag'ishlar kishiga mudom o'zini,
Nopog-u jafokor, qilig'i tuban,
Va'da berar, ammo qiyar so'zini".

Shuni ayttim endi, ey elchi kishi,
Bu yanglig' kerakdir ziyofer boshi.

Kirib avval o'zi ishin boshlasa,
Keyin beg bemalol oshini yesa.

¹ Tuzun — sara, yaxshi, to'g'ri. Bu so'z hozir "dala-tuz" so'zi tarkibida ham uchraydi.

Bu edi, ey elig, mening bilganim,
Sinab endi senga ma'qul deganim.

Elining O'gdulmishga savoli

Elig dedi: Uqdim, eshittim buni,
Tag'in bir savol bor, tushuntir uni.

Menga ayt-chi endi sharobdor bosni,
Ne yanglig' kerakdir yarasasi ishi.

Ishonsa to begi dili ham qonib,
Olib ichsa mayni to'la ishonib.

O'gdulmish eligga sharobdorlar boshlig'i qanday bo'lishi kerakligini aytadi

Javob berdi O'gdulmish, aytar: elig
Bunga ham lozimdir uquv-u bilig.

Mohir Egdish¹ esa, sinalgan, yaqin,
O'zin bosgan esa, to'g'irlab yo'llin.

Butun, chin, sodiq ham ko'z-u ko'ngli to'q,
Odil bo'lsa, fe'li misli otgan o'q.

Shu yanglig' esa gar idish tutguchi,
Yaragay bu ishga, yetishar kuchi.

Tuman-turli o'mni idishchi tatar,
Guvorish², yo ma'jun³, yo churni⁴ qotar.

¹ Egdish — qabila nomi. Soqiylar boshlig 'ining ko'proq shu qabila (urug')ga mansub bo'lgan taxmin qilinadi.

² Guvorish — ovqatni hazm qilishda qo'llaniladigan dori.

³ Ma'jun — asal yoki shakar qiyomi bilan aralashitirib tayyorlangan dorillardan bini.

⁴ Churni — surgi dori.

Tuman-turli o'tlar o'shanda bo'lar,
Yeyishga, ichishga, yalahsga bo'lar.

Quruq, ho'l meva yo ichimlik biror,
O'shanda bo'ladi, shirin, mazador.

Begiga bo'ladi bo'g'izdan xatar,
U "lazzat" ni oshchi, idishchi tutar.

Bu oshchi, idishchi butun bo'llmasa,
Azob bo'lidi begka ichib yo yesa.

Nima der, eshitgin, bilimli, dono,
Bo'g'iz saqla, yegin sekin doimo.

Tomoqni asrasang naf oladi bosh,
Tanaga singadi yeysilsa oz osh.

Talay ko'rdim kishi hayoti uwol,
Bo'g'izdan bexabar topishdi zavol.

Bo'g'izdan kirar dard kishiga mudom,
Bo'g'izdan bo'lar em o'ziga tamom.

Zakoli kerak ham bilimdon, dono,
Zakoli kishidan kishilik bajo.

Yomonga qo'shilmas zakoli kishi,
Butun, chin bo'ladi bilimdon ishi.

Agar qiyshiq esa, kuyadi o'tin,
Adolatsiz odam bo'lar kaltabin.

Odil bo'lish chog'i, ey ulug' xoqon,
Odillik shioring bo'lsin har qachon.

Idishchi boshiga bosiqqlik kerak,
Odil tutsa mudom marom, ish, yurak.

Odillikda etsa ishin har qachon,
Yiroq bo'lsa undan yaramas, yomon.

Qo'li bilan ochsa ichimlik ko'rib,
O'zi yopsa tag'in u tamg'a urib.

Aralash bo'lajak bori dorivor,
Qo'lidan joy olsa bo'lib beg'ubor.

Bor ovqat, meva yo sharbat-u gulob,
O'zi hozirlasa u tutsa sharob.

Ochilib-sochilib, samimiyo bo'lib,
Ado etsa burchin sevinchga to'lib.

O'shanda singadi begiga oshi,
Naficha bo'ladi uning yumushi.

Nimalarga singsa kishi mehnati,
O'shanda bo'ladi joni lazzati.

Bunga o'xshatibdi fe'li muloyim,
Fe'li muloyimlar so'zi naq bilim:

Nega singsa agar kishi emgaki¹,
Sevimli bo'lar u go'yo jon ko'ki,
Kishi mehnat etsa tiruklig tikib,
Dil bog'lar o'shang, u bo'lmas yuki.

Shu yanglig' topilsa idishchi boshi,
O'shang berilsin idishchi ishi.

Bulardan bo'lagi, bu — shogirdlari,
Soqolsiz, chiroyl bo'llishsin bat.

¹ Engak — mehnat, ish.

Bu ishga muloyim, a'lolar kerak,
To ko'riki, ishidan yorishsin yurak.

Ochiq yuzli o'g'lon, to'llin oy yuzi,
Bo'yil dol, qora soch, kelishgan o'zi.

Beli bo'lsa xipcha, yana yag'ri keng,
Badani oq esa, qizil rangli — meng¹.

Yashil, ko'k, sariq, ol ipak to'n kiyib,
Taomni ko'tarsa yarashar yurib.

Soqolsiz esa u yana ozoda,
Xas-u qildan ozod esa may — boda.

Idish qilli bo'lsa yaroqsiz bo'lur,
Qill osh-suvga tushsa totiqsiz bo'lur.

Shuning-chunmi degan bilim berguchi,
Soqolsiz kerak, deb idish tutguchi.

Idishchi pok esa, chiroyli — yuzi,
O'shanda singadi boda, e qo'zi.

Nima tutsa ko'rkli bu qilig'i soz,
Yarashar, jon oziq olar unga mos.

Nima der, eshitgin, bu bayt o'qigan,
Eshitgin, mana u nima to'qigan:

Yuzi ko'iki-ko'rklig, kerak fe li soz,
Nima tutsa hamki bo'lар unga mos,
Qorin ochsa agar uning yuzi — osh,
Qonib ichsang qancha bo'lар yana oz!

Idishchi bosni, ko'r, o'shandoq kerak,
Idish tutguchilar bu mundoq kerak.

Ko'ngil bersa keyin begi chin butib¹,
Yaqin tutsa bo'lgay butun, chin tutib.

Ey elig, ko'p ishga sarani tila,
Sodiq, chin, ko'zi to'q, uyati to'la.

Biri elchi bo'lар, kotibdir biri,
Biris, ko'r, oshchi, sharobdar biri.

Juda saralagin ular har birin,
Yomonlik ro'y bersa, o'kimma keyin.

Agar elchi, kotib yomon bo'lsalar,
Ularning balosi eliga zarar.

Idishchi yo oshchi bo'lса yaramas,
Rohating buzilar, sevinch qaramas.

Sarala, ey elig, qator bu kishing,
Ayirgin, sinagin, keyin ber ishing.

Bu O'gdulmish aytar: Ey elat quti,
Buyuk bo'ldi beglar ishidek otin.

Buyuk ishda tengsiz bosh og'riq bo'lur,
Uni ko'tarmasang bu beglik qolur.

Nima der, eshitgin, kengashchi, dono,
Dur-u inju to'kar kengashda go'yo:

Rohat dema, ey beg, mashaqqat ko'tar,
Rohat-u mashaqqat aralash yetar.

¹ Meng — yuz.

¹ Butib — ishonib, ishonch hosil qilib.

Chekib jon el etsa, elati boyir,
Elat boyisa, beg tilagi bo'lur.

Ko'pam suyummagin, rohatli odam,
Rohatga barobar yetishadi g'am.

Bu oshchi, idishching qanchalar senga,
Butun, chin esa-da, e boluir — to'nga¹ —

Ulardan sodiqroq o'zingga o'zing,
Bo'lak topmagaysan, kes endi so zing.

Dono so'zin eshit oxirgacha to,
Unutma, yozib ol, keyin et ado:

"Shirin jon ustida emindan emin,
Topilmagay aslo o'zingdan keyin."

Ehtiyyot etib tut, avayla uni,
Ketib bo'lsa keyin tilama emin".

Lozimlarni dedim, ey elning qutti,
Ne tarzda bo'lishin, uning em-o'ti.

Bu xil kishi bilan beglar ham ulug',
Yovini yo'qotar, shon olar to'liq.

Buni so'zladim men senga belgilik,
Bo'lak bir savol bor yana bilgulik.

Elig tinglar esa uni aytayin,
Yo'q esa bu so'zdan o'zim qaytayin.

Eligning O'gdulmishga savoli

Javobda: Ey hakim, — dedi bu xoqon,
Nimadir o'sha so'z, degin shu zamон.

O'zingdan eshitmoq kerak barcha so'z,
Uquvga daryosan, bilimga — dengiz.

O'gdulmishning eligga javobi

Javobda O'gdulmish dedi: Bu xoqon,
Eliga beradi bilim har qachon.

Eliga deganim — yumushlar yo'li,
Ne yanglig² bo'lishi kerakdir quli.

Begi bilsa agar dil olish yo'in,
Toki topsa ko'nglin u sodiq qulin.

Bu beg haqi bo'lsa quli ustida,
Quil haqi yo'qmi bu yo'li ustida.

Agar beg haqin quil bilsa turib,
Begi bilsa yana quil haqin ko'rib.

Xodim yumush etsa mol-dunyo uchun,
Tilagin topmasa yo'qotar kuchin.

Eligning O'gdulmishga savoli

Elig dedi: So'zla, menga ayt ochiq,
Xodim haqi nima, tushuntir to'liq.

¹To'nga — mard, pahlavon.

O'GDULMISH ELIGGA XIZMATCHILARNING BEK ZIMMALARIDAGI HAQI QANDAY (BO'LISHI) KERAKLIGINI AYTADI

Bu O'gdulmish aytdi: beg zimmasida,
Xodimlar haqi bor ish hissasida.

Eng avval osh-u suv tegmog'i kerak,
Yumushga keragin bermog'i kerak.

Yumush qilmoq: axir, og'ir ish bo'lari,
Buni begi seza, bahosin bilar.

Tan-u jon fidolar yumush qiluvchi,
Tilar beg sevinchin bu qul bo'luvchi.

Sovuq, issiq, och-to'q demay, piyoda,
Qilich-bolta yeydi o'zi ziyyoda.

Old-orqa, o'ng-u chap bo'lari u turib,
Begi rohat o'zi mashaqqat ko'rib.

Yoviga soladi qiyomat-qoyim,
Begga hayot tilar, o'ziga — o'lim.

Beginning sevinchin shu yanglig' tilab,
O'zini azoblar tun-u kun ulab.

Bu yumush uchun beg o'tasa haqin,
Uni ezgu tutsa, bilsa ko'p yaqin.

Nima der eshitgin Uch o'rda¹ xoni,
Elining sarasi, kishining chini:

"Ayo beg bo'luvchi eliga to'liq,
Xodimni ulug' tut, e'zozla to'liq.

Begi qo'lli xodim ila ko'p uzar,
Xizmatchi bilan el-ulus, kent tuzar.

Begi bo'lsa qancha tub-asli ulug',
Yumushchi tufayli yuksalar to'liq².

Ey elig, kishilik — muruvvat bo'lur,
Muruvvat kishiga tariqat bo'lur.

Muruvvat tariqat, axir, belgilig,
Kishi ishin bilsa, qaytarsa ulig¹.

Yumushchi saroyda umidvor turar,
Umid bermasa beg muruvvat borar.

Ko'ra bersa beglar: yumushchi qancha,
Nafi yo'g'i qancha, nafi bor qancha²!

Nafi borga loyiq tortiqlar kerak,
Xizmatiga taqdir loyiqlar kerak.

Inson axir hayvon tengimas, ey beg,
Buni bilsa ishi bo'lari ko'nglidek.

To'ydiradi kishi awval yilqini²,
Keyin ishga solar odamzod uni.

Shirin so'zni tilda beg etsa im'om,
Xizmatkorning joni fidodir tamom.

Xizmatkor suyadi, sodiq, chin bo'lar,
O'zini koyitar, begin tinch qilar.

Tetik bunga moslab so'z aytadi mo'¹,
Odam bilim bilan uzaytirdi qo'l:

¹ Ulug — ulush, hissa.

² Yilqi — bu so'z XI asrda "hayvon" ma'nosida qo'llangan.

Naf olsa odamzod o'zin qul qilar,
Azizga qul bo'lar, o'zi g'am olar.

Yumushiga qarab xazinangni och,
Yalanglar kiyinsin, to'yib olsin och.

Ne xil bo'lar elig elining quti,
Yo'qolmasa elda gadolik oti.

Nima der, eshitgin, qarilar so'zi,
Qarilar so'zidir — yigitlar ko'zi:

"Kishi xizmat etsa kishi yuziga,
Kishilik qiladi, asli o'ziga.

Kishi mehnatini mensimas inson,
Kishi deyilmagay, atalar hayvon".

Xodim ikki guruh deyilsa ma'qul:
Biri — ozod, biri — hojat ahli — qu'l.

Quli mudom erksiz yumushchi bo'lar,
Yumush bajo etmay u tanbeh olar.

Ozod esa ishlar o'zin qul qilib,
Ozod etg'in uni yumushin bilib.

Bo'sh-ozod kishilar ezzulklik quli,
Bularga ochiq tut ezzulklik yo'lin.

Bo'shni tutma qullar bilan yonma-yon,
Ular o'zligini unutmra bir on.

Bu beglar dargohi naflar eshigi,
Naf eshigin tutmoq — rohat beshigi.

Xodimi boyisa begi shon olar,
Oti duo bilan mangu, chin qolar.

Ey elig, xizmatchi bilan beg go'yo
Sotuvchi — xaridor bo'lar doimo.

Sotuvchi unga mol berar har kuni,
Oluuchi oborar bor elga uni.

Yil, oy-kun o'tar-u foyda qiladi,
Yuzma-yuz taqsimlab ulush oladi.

Demak, o'xshar unga yumushchi kishi,
Begi bilan doim hisobli ishi.

Begi mol beradi kulib doimo,
Xodim ish qiladi etib jon fido.

Qilich urar xodim, ko'rinnmas joni,
Xodim sabab aytar begining shoni.

Yovi bo'yinin yanchar, xazina olar,
Tilak, orzu-ne'mat ko'payar, kelar.

Bular naf bo'ladi, beshak, ey begin,
Naf berganni astrash kerak, ey begin.

Nima deydi, eshit, savdogar boshi,
O'z nafni tilab el kezgan kishi:

Foydali qul bo'lsa — o'g'ildan yaqin,
Foydasiz o'g'lini yov deb bil tag'in.

Butun qimirlagan nafin deb yurar,
Naf olmasa ovchi uyda o'ltirar.

Bu askar begiga qanot, pat tengi,
Qanotsiz quşti uchmas, e beglar begi.

Sipohiy-la beglar kuchi ko'rinar,
Sipohiy-la beglar tugunlar yo'rar.

Bahodir-u mardni beg yig'sa qachon,
Olamaro bo'lar u sohibqiron.

Agar begda san'at — hunar mujassam,
O'y-orzu ushalar tilasa ne ham.

Jahongirga kerak, talay ko'p hunar,
Bu hunar bilan u olamlar olar.

Tuban bo'lma, hunar o'rgangin, o'g'il,
Hunarning ravishi misli oqqush, bil.

Bu oqqush quti bil hunarlar qutin,
Kel, oqqush atagin bu hunar otin.

Nima der, eshitgin, boshi oppoq er,
Dunyoni qaritgan uzun yoshti er:

"Bilim-hunar o'rgan, og 'ir tut uni,
Og 'ir tutar oxir hunar ham seri,
Bilim bil, uquv uq, yurma behuda,
Kezi kelsa yorir bu xil er kuni".

Tilagim shu erur, menga kelguchi,
Boyisa, men sabab ko'paysa kuchi.

Bular berar edi keyinroq foyda,
Ezgulik kifoya duo bor joyda.

Bari shu xazina, shu oltin-kumush,
Teribman to askarga yetsin ulush.

Kishiga berarman tilab ezgu ot,
Duo ortsin, otim bor etsin hayot.

Tilagim: kim etsa yumush jon koyib,
Keyin qolsa mendan shod o'lib, boyib.
O'zim-ku ko'charman, qolar bu elat —
Duo bilan etsa xotir bas faqat.

O'gdulmishning eligga javobi

Bu O'gdulmish aytar: Ey ulug' xoqon,
Bu ishda ayondir bilim bepoyon.

O'luvchi kishiga nima bor tag'in,
Ezgu nom yashasa o'zidan keyin.

Bu dunyo tilagan ulashsin kumush,
Oxirat uchun ham ulash ulush.

Bor oltin-kumushni ulash, ey xoqon,
Butun xalqqa yetar qo'lling har qachon.

Nima deydi, eshit, dono kishiga,
Asos qo'ydi o'zi beglik ishiga:

Elining O'gdulmishga savoli

Bu so'zdan elig ham sevindi rosa,
Dedi: ey uquvli, urug'i toza,

Kishilik moyasin mohiyati shul,
Shudir chin, vafoli kishilarga yo'l.

Elat erkin oldim mening bir o'zim,
Uzun bo'ldi qo'llim, yo'rinq, til so'zim.

Quvonmasman ammo bu beglik olib,
Rohatimni tilab, tiruklig olib.

Beklar mol ulashib, mol tutsa talay,
Istagan chog'ida yov elin tutgay.

Xazina emas, bil, sipohiy kerak,
Xaloyiq to 'q esa bo 'lar egurak.

Sipoh bo 'lsa beglar eli kamimas,
Askari bo 'lmas beg boshliq ham emas.

Askar bo 'lsa begdan minnatdor, rozi
Qaysi elni desa yetar ovozi.

Qo 'li ochiq bo 'lsa olam beglati,
Nasibasi bo 'lar har joyning to 'ri.

Askar olsa begdan munosib yorliq,
Qaysi elni desa oladi aniq.

Qo 'li ochiq bo 'lsa, ochun beglari,
Ikov dunyoda tegar joy to 'ri.

Nima deydi, uqqin, bilimli tilin,
Baxillik bilan er yeyolmas elin.

Qachon yov bo 'larkan, yovidan qochar,
Baxilni demagay, saxiyini quchar.

Baxildan qochadi bor hunarli er,
Saxiyga talpinar, tilak – orzu yer.

Baxillig-u beglik azal bo 'ldi yov,
Baxilning yovi ham bo 'lar beayov.

El olmoqning ayon ikki tadbiri,
Biri – toza oltin, qilichdir biri.

Saxiylik bilan tut eling, belgilig,
Saxiylig bilan beg buyuk, ey elig.

Zo 'r alp er ko 'tarsa yashindek temir,
Oziqli botirda teshilar tomir.

Kumush-oltin ila uzun beg qo 'li,
Elin boshqaradi qilichsiz tili.

Ular ila el tuz o 'zing belgilig,
Ular ila beglar buyuk, ey elig.

Sof oltin yozadи xafaqon kishin,
Sof oltin tuzatar buzilgan ishin.

Qilich qayda bo 'lsa kumush chaqarar,
Kumush qayda bo 'lsa qilich chiqrir.

Ayo beg, kumush soch, yig'ilsin yigit,
Kumushing sochilar, qiliching tez et.

Qilichli yigitlar kumushga fido,
Yig 'ilgan sof oltin qilichnga ato.

Baxil dunyo terar, xazina olar,
Botir qilichidan lek moli qolar.

Olam qonunidan erur shu ulush,
"Baxilga – haqarat, saxiya – olqish".
Yigit so 'z tugatdi, so 'ng o 'pdi yerni,
Eligni duolar, hamd etdi birmi.

Eligning O'gdulmishga javobi

Bu so 'zni eshitdi sevindi elig,
Duo qildi Rabga, ko 'taidi alig'.

¹ Alig – qo 'li.

Dedi: ey bag'irdosh, ishongan Egam,
Chorasiz chog'imda sig'ingan Egam.

O'zingdan bo'lak yo'q, tayanch, kuch menga
Quvonchim o'zingsan, umidim — senga.

Ne ezzgulik qoldi menga qilmading,
Nima orzu qoldi menga bermadding.

O'zingga sig'indim, duo va so'zim,
E mangu mungi yo'q, mungli bu — o'zim.

Tayanchim o'zingsan ko'mak ber, qo'lla,
Meni to'g'ri yo'lga sen o'zing yo'lla.

Bari ezzgulkning yana ko'rikami,
Bu O'gdulmish edi kishi o'ktami.

Buni qilding o'zing sen menga ato,
Buning shukri bo'lsin mendan ming duo.

Jonini fidolar mening ishimga,
Duo orttirar u kechar yoshimga.

Menga kuch ber endi, o'tayin haqin,
Sevinchida bo'lsin ko'ngli ko'p yaqin.

* * *

Yana ey O'gdulmish, — dedi bu xoqon,
Donolar ulug'lар seni har qachon.

Uquv deganlarga uquvsan tugal,
Kishilik tilasa, o'zing mukammal.

Ishonchli, bag'irdosh, butun belgilig
Kishilik bilan sen ko'tarding alig.

Qaragin, e'tirof topar yumushing,
Sen bajo etmagan qolmadi ishing.

Kerak endi mendan javob bir ulush,
Loyiq javob olsin o'zing qilgan ish.

Naqadar sevindi ozurda ko'ngil.
Sevinchlarining ortsin sening ham, o'g'il.

So'zin kesdi elig, u o'yilar turib,
Yer o'pdi, xodimi e'zozlar qilib.

Sarovdan chiqar u sevinchli bo'lib,
Otin mindi, keldi uyiga yelib.

Og'ishmadi tun-kun, yumushlari taxt,
Yumushi kelib qo'l, eshik ochdi baxt.

Farosat-la ochdi u bilim ko'zin,
Zamon yaxshi bo'ldi, qo'li ko'p uzun.

Nima deydi, eshit, quti belgilik,
Quti ila elda oti belgilik:

Kim ila yarashsa bu davlat keilib,
Boshi ko'kka yetar qanoat qilib.

Kela bersa davlat, jam bo'lsa bu mol,
Kishi ko'ngli o'sar, yuzi bo'lar ol¹.

Qari kishi bergen eng zo'r bahodir,
Buni yaxshi tingla, ey mard, bahodir.

¹ Ол — qadimgi turkiy adabiyotda insонning tinch, xotiriam, baxtiyor yashashi "qizil yuz", aksincha, qiyinchilik, azob va uqubbatli hayot kechirayotgan shaxs tasvirini "sariq yuz" ifoda dari qo'llangan. Bu yerdagи "ol" yuzdagi "qizil" rangning sinonimini sifatiда qo'llangan.

"Kimda davlat bo'lsa uzayar qo'li,
Butun chappasi — o'ng, munavar — yo'li,
Olam faylasufin moli bo'lmasa,
Necha chechan bo'lsin, tiyilar tili".

Bu yanglig' bo'ladi olam yo'rig'i,
Vafosiz mol-dunyo — olam dovrug'i.

Yowuzga yuz ursa yuzi suvlanar,
Kichikka ko'z ochsa buyuklik olar.

Kingga yaqin kelsa bu davlat agar,
Ich-u tashini u butunlay bezar.

U kelsa, ushlar butun orzular,
Dunyoga tarar dong, oti yoyilar.

Olib ketar ammo u ketar ko'yij,
Baland boshni qilar yer tomon quyi.

Ey aql-u idrokli, uqvlili, hushyor,
Olamni sevishning alamlari bor.

Ne kerak qorong'i, omonat o'rin,
Mangu sof o'ringa yetishgin burun.

Olam bir kechhalik, uz undan ko'ngil,
Baland o'rda joyni tila, orzu qil.

Nima deydi, eshit, ey ko'ngli suzug,
Butun ish ichida, ey ko'ngli tuzuk:

"Sara olam ista, saodati mo'1,
Chin olamni ista, saodatl bo'1,

Kechar dunyoni qo'y, tila uqbuni,
Olamni deyar sen, u demas seni.

Bu dunyo jafochi, jafo qil unga,
Jafo qil, keyin u keladi senga.

E yo'lidan ozgan, boshi aylanur,
Ko'ngil berma, olam — tubi yo'q chuqr.

Chuqurga kiruvchi quyi cho'kadi,
Balandga chiqolmay ko'p o'kinadi.

O'zingni baland tut, chuqurdan qutul,
Toatda yorishsin itoatga yo'1.

Yomon yo'lni kessang — muroding hosil,
So'zing mangu qolar, tiya olsang ^{til}¹.

Elig dilni poklar o'shandan beri,
Faqtat ezgu bo'ldi eli tadbir.

Bugun rohat oldi: semirdi oriq,
Sevari ko'paydi, yov yuzi sariq.

Quvonch-u sevinchda kechar har kuni,
Olamga yoyildi ot, ovoz — uni.

Shu xilda o'tar kun, yashadi uzoq,
Bo'ri to'qli birla ahil, ittifoq.

Eligning O'gdulmishga savoli

Elig bir kun chorlab bu O'gdulmishni,
So'radi holini, u qilar ishni:

O'gdulmish, degin-chi, ne xil kechar kun,
Chig'oymi¹ ko'p elda, yo boylar bugun.

¹ Chig'oy — kambag'al, hech narsasi yo'q, yo'qsil.

El ichida qanday yomon, yovuz bor,
Elat holin aytgin beparda, oshkor.

Bu elning tilida ne so'z yuradi,
So'kish ko'pmi yo duo turadi.

Nuqsonlarim ko'pmi fazilatim yo,
Qani ayt, qilayin toki men davo.

O'gdulmishning eligga javobi

Javobda O'gdulmish dedi: "ey xoqon,
Tilak keldi, tutdi qo'llim bu zamон.

Elig davlatidan bezandi ochun¹,
Alam qisqa bo'lди, sevinchlar — uzun.

Boyigan xalq bo'lди sevinchga vosil,
Shahar, qishloq obod, muroddar — hosil.

Rohat bilan o'tar elat kunlari,
Sevinch bilan kechar butun tunlari.

Tilida bari so'z faqat madh-sano,
Tin oluvchi timmay etadi duo.

Adolat go'yo suv, zulm — o't, balo,
Zilol suv oqizding, o't o'chdi go'yo.

Odil ish yuritding, yashardi olam,
El ichra topilmas zolim bitta ham.

Ey elig, uch ishdan bo'lар zulm hosil,
Begi g'ofil bo'lsa, ishratga moyil.

Biri — bo'lsa zaif elin boshlar er,
Uchinchli — suq esa, eli bag'rin yer.

Senda hech ko'rinnmas bu uchdan biri,
Nechuk tegar elga zo'ravon — bo'ri.

Ey ezzu siyosat, zarif, pok begin,
Senda bor tugallik, fazilat, bilim.

O'zing namunasan butun ezzuga,
Eling yo'g'i bitti yegu kiyguga.

Bir-u borga shukr et, toat qil, sig'in,
Rohat-farog' atga o'rangozin keyin.

Agar sodir bo'lsa nima ayb; xato,
Kuzatib turaman tirk esam to",
* * *

Duo qildi ortiq, sevindi elig,
O'tindi u Rabga, ko'tardi alig¹.

Deyar: ey bag'irsinq² — egamsan, ulug'
Aziz qilding elda bu qulni to'liq.

Ato bo'lidi menga faqat ezzulk,
Buning shukri bo'lidi bo'yin uzra yuk.

Bu shukringni qachon men etay ado,
Buni sen o'tagin, o'zing qil bajo.

Eligning O'gdulmishga savoli

Yana aytdi elig: "Ey O'gdulmishim,
Xudo fazli edi dilling olmishim.

¹ Alig ko'tarmoq — duo uchun qo'l ko'tarmoq, qo'lini duo uchun ochmoq.

² Bag'irsinq — mehribon.

Butun ezelikka sabab sen o'zing,
Zulm-u yo adolat etsa bu so'zing.

Butun ezelikni beradi Xudo,
Bulardan buyugi — menga sen ato.

Agarchi urinar yolg'iz beg kishi,
Xodim ko'mak bermay avj olmas ishi.

Beg ichni ko'radi, tashdag'i ko'zi —
Sadoqatli xodim ko zi ham o'zi.

Ko'zimsan, tilimsan, qo'limsan menga,
Otim shundan ezgu, gar aytSAM senga.

Nima der eshitgin xoqonning tilli,
Jahoni boshqargan, talay yurt-eli:

"Sodiq xodim topsa begi gar tilab,
Uni utsin oltin-kumushga qalab.

To'g'ri, chin kishini topsa beg butun,
O'zi rohat olar, topadi qutin.

Xodimning sarasi sodiq bo'ladi,
Sodiqlarni izlab kim topoladi?!

Olamda bo'lmasa sara, chin inson,
Olam butun bo'lmas edи hech qachon".

Ey O'gdulmish, esiz, otangdan meros —
Bo'lib qolding menga yolg'iz sen, xolos.

Yana bo'lsa edi o'zingday inson,
Madadkor bo'lardi senga har qachon.

Bu yolg'izligingga dilim g'ash biroz,
Eshing bo'lса yana bo'lар edi soz.

Senga tegmas edi bu qadar yumush,
Menga ham tegardi duodan ulush.

Qom-u qarindoshlar ichini bilgin,
Shu xil odam bormi, sen darak qilgin".

O'gdulmishning eligga javobi

Javobda O'gdulmish dedi: ey xoqon,
Qo'l ishga yugurar, o'zing bo'l omon.

Elig rohat olsin orzu-havasda,
Tilaklari amal qilsin payvasta.

Menga qiyin deya Hazrati xoqon,
Bezovta bo'lmasin sira bu zamон.

Menga kelsa emgak, rohat ham kelar,
Azoblar ketidan rohat yuz urar,

Faqat el ishiga naf berar kishi —
Orzung bo'lса erish, ey elning boshi,

Nima deydi, eshit, el boshlar dono,
Donolikda elin boshlab doimo.

Ko'makchi ko'p bo'lса elingda, bil-a,
Eli yashnar begi yotib yer kula.

Ko'makchi tetik ko'p bo'lса el ora,
Begi rohat olar, topar ish chora.

Yo'q emas, bu yanglig' kishi qarindosh —
Urug'lар ichra bor, dono ko'pga bosh.

Faziliati talay, donishmand, oqil,
Qay ishga kirishsa, natija — sarxil.

F'e'l-atvori to'g'ri, oti — O'zgurmish,
Faqt ezzulikdir qo'li yetgan ish.

Lekin u o'girdi olamdan yuzni,
Turib tog'ga ketdi u poklab o'zni.

Toat-ibodaqga bandadir muttasil,
Toat bilan etar gunohin yengil.

O'zimdan balandoq ish-u hunari,
El ichra yetugi, kishi sarvari.

Men bilan bo'lsaydi o'sha qarindosh,
Butun ishga bo'lar bilimlari bosh.

Elig ko'ngli to'lар, yaralar bitib,
Sevinchda yashagay olamni tutib.

Eligning O'gdulmishga javobi savoli

Elig dedi: orzu, tilagim shuki,
Uni topsam, yengil bo'lsa dil yuki.

Bu ish chorasin ayt, nima bo'lsa ham,
Menga yaqin qilgin uni sen, bo'tam.

Nechuk chorlagaymiz uni biz tomon,
Xabarchi bo'lar kim unga shu zamон.

Bior xat kerakmi yo so'zing ma'qul,
Nima lozim esa sen o'shani qil.

O'gdulmishning eligga javobi

Javobda O'gdulmish dedi: bu elig
Javobni ham o'zi dedi belgilig.

Qarindoshim borligin men etdim bayon,
Kelar-kelmasi lek emasdir ayon.

Agar kelsa, elig shod-u baxtiyor,
Yo'q esa, u farmon bo'lar-ku begor?!

Ozor cheksa unda hazrati elig,
Bir kun ayb taqilar menga belgilig.

Eligning O'gdulmishga javobi

Elig dedi: aytdim, so'zimni senga,
O'zing ham bilishing o'tinding menga.

Chaqir, kelsa kelar, agar kelmasa,
Nechuk xafa bo'lay so'zim olmasa?!

O'zing maqtading-ku hunar-san'atin,
Bu xil fazli uchun tutaman oting.

Bilimli, uquvli, — deding, soz, ezgu,
Shuning uchun ko'ngil etadi orzu.

Bilimli, uquvli — haqiqiy inson,
Undan bo'laklari misoli hayvon.

Bilimli, uquvli bilsa ish,
Bilimli, uquvli qilar qilsa ish.

Bunga o'xshar endi bu baytlar chunon,
Eshitgin uni sen, e nomdor polvon:

"Bilimdan yozilar bor tugun, chigal,
Bilim bil, uquv uq o'zing har mahal.
Bilimni sol ishga, o'rgan har kuni,
Toki bo'lsa, ilming to'la mukammal".

Faqat menga bermas nafin qardoshing,
Tatiydi u kelsa sening ham oshing.

Qarindosh esa ko'p munosib, biroq
Qarindosh bo'lmasa, tutin esh u choq.

Juda yaxshi degan, ko'r, elchi boshi,
Odam kuchlisidir — qardoshli kishi.

Qarindoshli kishi shuhrati baland,
Do'st-yorli kishining hurmati baland.

Qarindosh yo'q esa, esh o'lar sirdosh,
Eshing ezgu bo'lsa, u ham qarindosh.

O'gdulmishning eligga javobi

O'gdulmish dedi: Ey el ichra sara,
Chindan istar esang, topayin chora.

Elig ma'qul ko'rsa, borayin o'zim,
Qarindoshni chorlay, ochayin so'zim.

Tuman-turli so'zni gapirsra tilim,
Solay ishga uquv, farosat, bilim.

Elig nomidan bir olayin bitig,
Elig yorlig'in to bilsin u tetig.

Ishonsin, bu ishni g'alat bilmasin,
Yorlig'ing eshitib begor qilmasin.

Men-ku so'z aytarman tilda tilakcha,
Lek elig farmoni — xating bo'lakcha.

Dono nima deydi, eshitgin buni,
Bu beg xati ovlar kishi ko'nglini.

Yana yaxshi aytar dononing o'zi,
"Tugilgan ko'ngilni yozar beg so'zi".

Iliq so'zlar aytса begi tilida,
Unutmaydi uni kishi diliда.

Agar beg tilimi shirin-u chuchuk,
Uni sevar eli: ulug'-u kichik.

Eligning O'gdulmishga javobi

Elig dedi: Agar shu bo'lsa chora,
Bitig bitay, mayli, biroz kut, sara!

Borar bo'lsang agar hozir bo'l, tetig,
Men esa bitayin unga bir bitig.

Kuntug'di elig O'zg'urmishga maktub yozib yo'llaganini aytadi

Dovot, qog'oz oldi, elig yozdi xat,
Ishin tez bittrar shu xatlar faqat.

Xudo nomi ila so'zin boshhladi:
Yaratgan, yashhatgan, kechirgan, — dedi

Dedi yozdim, avvalo ulug'dir Xudo,
Uning nomi kuchdir, kasalga davo.

Talay maqtov-u ming bora madh, sano,
Deyarman Xudoga, unga yo'q fano.

Tiladi, yaratdi qimirlar jomni,
Aziz rutbalarда ko'rib insonni.

Eng avval salom-la boshladim bitig,
Esonlik ichida yozildi, tetig.

Tan-u jon omonni, nechuk tinchligi,
Og'ir botmadimi zamona yuki.

Ovozang eshitdim, ham aql-u hushing,
Zamon ichra yo'qdir sening teng-tushing.

Xudo ato etmish senga ezzgulik,
Bilim, uquv, idrok berib belgilik.

Bu yanglig' fe'lingni eshitdim o'zim,
Seni orzuladim, e ko'rkli yuzim.

O'gdulmish — yaqining jo'natdim bu dam,
So'zim yetkazadi u fe'lli ko'rkam.

Yaqin-u yovuqdan kechibsan o'zing,
Ulush, kend, budundan buribsan yuzing.

Tog' ichra ketibsan ibodat uchun,
Axir bu ibodat ishi ko'p uzun.

Nima qilgan edi qarindosh senga,
Nega yuz o'girding? Ochiq ayt menga.
Agar o'tgan esa senga bir sitam,
Beri kel, menga ayt, nechuk tegdi g'am?

Senga men berayin kuch-uadolat,
Sevinchda yashagin yonimda faqat.

Qarindosh qarindosh uchun naf bo'lар,
Bu xil nafdan odam sevinchga to'lар.

Borib kelsa loyiq qarindosh bilan,
Aralashmoq ezu do'st-eshlar bilan.

Qay ishda yarashiq bo'lsa gar yaqin,
U ishda manfaat ko'payar tag'in.

Nima degan, eshit, shoir bir joyda,
"Ikovlon yarashsa bu mangu foyda,

Bu bo'z yer, yashil suv yarashgach birga,
Ming alvon chechaklar to'shalar yerga.
Qo'shilib yurarkan yaqin, do'st-u esh,
Ular bas kelolgay dushman — yov-qirga".

Toat uchun qulay — qishloq yo shahar,
Xilvatda o'rinnli bo'lар ne qadar.

Toat uchun odam avval ilm olar,
Bilimsiz toatning nafi ne bo'lari!

Bilasanni qachon kishi atanur,
Biri — o'rgatuvchi, biri — o'rganur!

Bo'laklari mol-yilqi soni,
Tilasang buni de, tilasang uni.

ELIGNING O'ZG'URMISHGA PANDI

O'zing qay birisan, menga ayt ocha,
Ikovdan biri bo'l, uchidan qoch-a!

Bilim olgan esang tushungil tugal,
Amalga joriy et uni bu mahal.

Ibodatga yetsin desang gar qo'lim,
Eng avvalo olgin munosib bilim.

Nima deydi, eshit bilimdon, dono,
Bilim ila toat etar domo:

“Bilim bilan ma’lum bo’lar biru bor,
Bilim berk eshikka seni etar yor.

Bilim bilan toat beradi savob,
Bilimsiz toatga topilmash javob.

Bilimsizning toat ishidan ko’ra,
Bilimli uyqusi afzal ming bora.

Shahar, qishloq uzra toat bor to’la,
Bu xilvat-u chetda u yarim, jo’ra,

U yerda qilaring sening bir namoz,
Ro’za balki bordir yo’lingda oz-moz.

Bundan bo’lak yana qanday toat bor,
Tiling ila ayt-u o’zing et oshkor?!

Senga urilibdi zohidlik otti,
Bu ot bo’ldi axir toating yuti.

Shunga mag’rur esang gar, jo’ra o’zing,
Toating begordir, kes endi so’zing.

Toat qilgan odam uni yashirsa,
Birov bilmasa-yu, yana oshirsa.

Munosib etar-u toat-ibodat,
El-u yurt ko’zidan sir tutar faqat.

Nima deydi, eshit, mana ushbu so’z,
Ey ezgu, unga tut o’zing endi ko’z:

“Ulug’lar tutadi siniq ko’ngilni,
Toat uchun kam der o’zi yuz yilni,
Toatni piňhon qil, kishi bilmashin,
Bu so’z zarur edi, men ochdim tini”.

Shahar, qishloq ichra toat qil beshak —
Butun ezzulikka ochilsin eshik.

Elingga naf elgjin, mungiga yara,
Qarindosh dilin ol ko’ngliga qara.

Yetim, tul, beva, ko’r yoki shol, cho’loq
Holidan xabardor bo’lgan hamma chog’.

Halol dunyo qozon, yupunga ula,
Kishi qo’jin tutgin, ko’rsatgin yo’l-a!

Mana shu sanog ‘im zo’r toat bo’lar,
Bu toat ila so’ng zo’r rohat bo’lar.

Bularning barini qo’yib bir o’zing,
Namoz, ro’za bilan o’tar kunduzing.

Namoz, ro’za bari o’z nafing erur,
O’z nafin tilagan bag iрsiz bo’lur.

Juda yaxshi degan kishi afzali,
Kishiga qayishgan, fe’li go’zali:

Kishi ezzusi shu — o’z nafin qo’yib,
Bo’laklar nafini desa ko’p kuyib.

Kuyinchak bo’lib u, dili ochilib
Muruvvatlar etsa adolat qilib,

Tirik imson o’g’li nafis ko’p bo’lar,
Nafi yo’q kishi tinch yasholmay o’lar.

Kishiga naf berar kishi ezzusi,
Kishi ezzusidir eli ko’zgusi.

Juda yaxshi degan fe’li-dili keng,
Buni ishga solgin, ey sen — qo’li keng:

"Toatin talay deb quvonna aslo,
Biru bor toatin elgan — zo'r, a'lo,
O'ziga toat qil, shudir bandalik,
Toat etdim deya unutma zako".

Ey O'zg'urmish, endi undayin seni,
O'z nafin tilar deb sanama meni.

Kelar ersang nafi foydasi senga,
Agar kelmasang ham zarar yo'q menga.

Chorlayman el nafi deya avvalo,
Atay buzma uni o'zing mabodo.

Boqib ko'r deyilgan so'zimga chunon,
Ishonsang, keyin kel o'zing biz tomon.

Men ila birga bo'l, bera qol yordam,
Beva-bechoraga ko'mak ber bu dam.

O'zingga lazzat ol, menga — ezgu ot,
Ikkov olamda ham soz o'lsin hayot.

Menga ezzulkilik ber, o'zing ezgu bo'l,
Kishi ezzulgardan tuzar ezgu yo'il.

Menga ezzulkilik et, ey er sarvari,
Senga ham qaytadi ezzulkilik bari.

Nima deydi, eshit, tojik donishmand,
Tojik donolarning shuhratি baland:

Begi ezgu bo'lsa eliga butun,
Bari el topadi soadat-qutin,

O'zingdan ko'ra beg bo'larkan ezgu,
Beging ezgu esa, el nafi mangu.

Piyodanining nafi o'ziga bo'lar,
Ular ezgu bo'lsa el-yurt naf olar.

Kishi deb atarlar, qani chin kishi,
Kishiga naf yetsa, soz bo'lsa ishi.

Butun odam o'g'li sevar ezzuni,
Chin ezgu qani, men ulug'lay uni.

Shu ezgu: eliga berar naf faqat,
Bu nafi ila el lopolsa rohat.

Davo bo'lar elga qayishgan kishi,
Qayishhqoq bo'l o'zing, ey elat boshi.

Mana, ushbu maktub yozildi bu dam,
So'zimni tugatdim, tin oldi qalam.

Yana bo'lsa endi ne aytar so'zim,
Qarindoshing aytar senga, oy yuzim.

Xatini o'radi, muhrin tuzatib,
Bu O'gdulmish oldi qo'llin uzatib.

Elig dedi, bor-u, huzurida gar,
Yaroqli so z o'lsa degin sar-basar.

Uringil, o'zini bu yonga chaqir,
Usiz qaytma quruq bu yon, bahodir.

Bilimdon nima der, eshitgin o'zing,
Tetik elchi yubor, kamaytir so'zing.

Nechuk uqtirayin senga endi so'z,
Bari senga ayon, ayo qora ko'z.

Nima lozim esa desin senda til,
Chorasni ne esa o'zing shuni qil.

Bu O'gdulmish chiqar "xo'p bo'lar" deya,
U ezu fe'l ila olgan tarbiya.

Otin mindi, keldi uyiga yurib,
Yoqasin bo'shatdi xonaga kirib.

Quyosh yerga boshin qo'yardi bu on,
Qora parda ichra kirardi jahon.

Yuzin yopdi osmon, tushirib sochin,
Olanni o'radi ma'shuq sochi chin.

Yuvindi, keyin u o'qidi namoz,
To'shak uzra yotib cho'zildi biroz.

Cho'chib turdi, boshin selkin ko'tardi.
Qora zangi bu dam jo'nab ketardi¹.

Quyosh ham qaddini ko'tardi bu on,
Go'zal yuz kulardek yorishdi jahon.

O'gdulmishning O'zg'urmishning huzuriga borishini aytadi

Egarladi tezda otini tutib,
Qarindosh tomonga jo'nadi turib.

Yaqin yetganida u yerga borib,
Piyoda yo'l oldi ohista yurib.

Eshgini qoqli, chaqirdi o'ktam,
Unga qarshi chiqdi O'zg'urmish shu dam.
Quchog 'ini ochdi yaqinini ko'rib,
Esonlashdi ular yuz-u ko'z o'pib.

Qo'lin oldi, uyga u boshladti tez,
O'rın berdi to'rdan quvonib shu kez.

Qarindoshni ko'rib ko'ngil bo'ldi shod,
Yaratganga shukr ayladi bot-bot.

Ne ko'rkli bo'lar, ko'r, kishi ayrlilib,
Salomat topishsa tilagin olib.

Ne ko'rkli bo'lar, ko'r, jigar ayrlilib,
Yana izlab kelsa yaqinlik qilib.

Ne ko'rkli bo'ldi uzoq qarindosh,
Qarindoshni izlab, urib kelsa bosh.

Ne ko'rkli bo'ladi, qaragin, jigar
Jigarlilikni tutsa, olam — munavvar.

Ne ko'rkli bo'lar, ko'r, bulardan tag'in,
Qarindosh ko'ngliga bo'lolsa yaqin.

Nima deydi, eshit, qayishgan qardosh,
Yaqinlik ulagin adash, ko'ngildosh:

"Butun g'oyib, yaqin ko'rsatsa ko'zin,
Alam qisqa bo'ldi, sevinchlar — uzun,
Ne ko'rkli bo'lar, ko'r, kishi ayrlilib,
Salomat ko'rishsa tag'in o'z-o'zin"

O'zg'urmishning O'gdulmishga savoli

Qarindoshni bir-bir surishirgan on,
"Yaxshi, — dedi yigit, — bari tinch, omon".

O'zg'urmish der yana: Bu yerga — menga,
Nega kelding aytgin, ne bo'ldi senga?

¹ Qora zangi — tunning istoriyiy ifodasi.

Eshitdim seni men elig birla deb,
Eliga naf berar bilig birla deb.

Nega kelding undan ko'ngilni uzib,
Azaliy odating maromin buzib?

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

Javobda O'gdulmish dedi: Men o'zim
Seni orzuladim, e ko'rqli yuzim.

Turib keldim endi ko'rayin deya,
Alam-qayg'u bog'in yo'rayin deya.

Seni ko'rmoq edi dilimda orzu,
Qulay payt topildi bugun, ey ezgu.

Uzoq bo'ldi, axir, seni ko'rmadim,
Tilar edim, ammo yo'llin topmadim.

Topildi mavridi, mana men o'zim
Yuzing ko'rdim, shukrin etadi so'zim.

Eson bo'lqa agar odamzod o'zi,
Tilakka tegarkan, to ochiq ko'zi.

Nima deydi, eshit, istagan kishi,
O'tar on qiymatin sinagan kishi:

Tirk bo'lqa odam topar tilagin,
Tilagicha sarflab boril keragin.

Tirk bo'lqa odam tilagin olar,
Tilak uchun moya tiruklig bo'lar.

Tirk bo'lqa odam tilab topishar,
Eson esa g'oyib yana qovushar.

Tiriklik tilagin, tilama tilak,
Tilak topmoq uchun tiruklig tirkak.

Oxir qo'llin berdi tilagim menga,
Esonlik ichida yetishdim senga.

Yana bir so'zim bor, eshit ushbu chog'
Uni aytayin, men gar ossang quloq.

O'zg'urmish O'gdulmish bilan munozara qilishini aytadi

O'zg'urmish javobda dedi: Men so'zing —
Eshitdim, so'zimni eshit sen o'zing.

Yaqinlik haqi deb u qodir Bayot¹,
Senga ajri deya berar mukofot.

Yana bir so'zingni degin-chi, qani,
Keyin qo'yma, ochiq aytaver uni.

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

Javobda O'gdulmish dedi shunday so'z:
Seni ko'rgan ondan yorishadi ko'z.

Kishi yo'l bosarkan tilakcha to'liq,
Unga qayg'u yetmas, bilimi ulug'.

Nima der, eshitgin, sinalgan so'zi,
Uning ma'nisin uq, e ko'ngli yozi².

¹ Bayot — Allohnning qadimgi turkiy tilidagi ifodasi.

² Yozi — yovon, dala, teklislik.

“Qay ishda bo ‘larkan kishida tilak,
Oyoq qo ‘ysang unga ochilar yo ‘lak,
Tilak birla yursa yiroq yer yaqin,
Qachon ko ‘rsa yuzin bo ‘lar jon halak.”

O’gdulmish der yana: Ushbu chog‘ o’zim,
Senga qayg‘ uraman, bo ‘lak yo ‘q so ‘zim.

Shahar, qishloq qoldi, yirading bu on
Yoningda qani bir yaqin tirik jon?!

Og‘ir yuk ko ‘tarding, mashaqqat — eshing,
Yalang, och yurarsan, qiyindir ishing.

Qarindosh degani senga qayg‘ urar,
Yaqin bo ‘lsa yiroq ortar qayg‘ ular.

Yolg‘izlik-ku — odam nasliga balo,
Yolg‘izlikda dard ham kamaymas aslo,

Bu qayg‘ u topishdan halovat oldi,
Shu alam iztirob yo ‘l sari soldi.

Nega jonga azob berasan o‘zing,
Menga aygin ochiq, bilayin so‘zing.

O‘zg‘urmishning O‘gdulmishga javobi

Iavobda O‘zg‘urmish dedi: Ushbu tob
So‘zingni eshitdim, endi dey javob.

Bu so‘zlarни aytding bo ‘lib mehribon,
Yaqinlik belgisi shudir har qachon.

Yaqin g‘amin yaqin yemasa agar,
Qachon yeydi uning g‘amin bo ‘laklar.

O‘zim qarindoshdan tamom aylilib,
Nechun turgay edim bu yerga kelib?

Bilardim: dinim ham emas mukammal,
O‘yladim bu yerdä etarmen tugai.

Keyin keldim ushbu manzilga tomon,
Zohid bo ‘lib qoldim endi bu zamnon.

Olanning ishiga qo ‘shilgan kishi,
Yumushga qo ‘yilsa qolar din ishi.

El ishiga eshik yopmaguncha to,
Toat ibodati etilmas ado.

Havo-nafs bo ‘ymini sindirsra tugai,
Toatdan halovat kelar u mahal.

Nima deydi, eshit, imoni kishi,
Ishonch qozonolmas havassning ishi:

“Havo, nafs ikovi kishi uchun yov,
Yumush-chi kishini u burzar darrov.

Havasga erk bersa yengadi butkul,
Tan-u ion semirsa kishi bo ‘lar qu!

Havoni yengishga uquv bo ‘ldi mos,
Tan-u ion semirsa bilim birla bos”.

Shuning uchun shahar, qishloqni qo ‘yib,
Bu yerga yetishdim shirin jon koylb.

Kishilardan uzoq yashasam-da gar,
Demadim quruq so ‘z, g‘iybat, birodar.

Jigar-u yaqindan yiroq bo ‘lganim,
Ular ko ‘rmasinlar zarar deganim.

Kishi ko'ngli nozik, qiyin unga yo'1,
Olish imkonni ham emas sira mo'1.

Borimdan naf elga yetishmasa gar,
Yana ko'mmagaylar yo'g'imdan zarar.

Zarar-foyda, ezgu, yomonning bari,
O'ziddan bo'lар, ko'r, uning taqdiri.

Bu arshdan toki shu qaro yer qadar,
Barisi Xudoga tobe sanbasar.

Kishilar ora gar esami ayon,
O'zingga ma'lum: u yashar ne zamон.

Nima berar ammo toat-ibodat?
Toat qullik erur, berur saodat.

Qul otin beribdi yaratgan egam,
To toat etishsin tog'-u toshda ham.

Qabul bo'ldi, bo'lmas balki toating,
Buni o'zi bilar, qani toqating?!

Bu yolg'izligimdan menga yo'q ziyon,
Yiroq bo'lар ammo balo — tan-u jon.

Nima deydi, eshit, bu bayt aytguchi,
Tashiga qarama, ma'nidor — ichi:

"Yurib yolg'iz, eshsiz bu inson o'zi,
O'yila tutilar tili ham so'zi,
Ibodat qilolsa yagona, tugal,
Ne zarar berogay birovga o'zi".

E qardosh, undaysan kishilar sari,
Ne xil bo'lар ammo qo'shilmoq siri?!

Mana o'zing kelib tushgandan buyon,
Ibodatga tegmas qo'llim ham, ayon.

Faqat senga axir qo'shilib magar,
Mana, ko'r, yetadi ne qadar zarar!

Agar endi kirsam kishilar ora,
Ibodatga qo'llim tegarmi, ko'r-a!

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

O'gdulmish: eshitdim, — dedi, bu so'zing,
O'zing ham eshitgin, o'girma yuzing.

Sen aytgan bari so'z go'yoki foyda,
Lekin unda chinlik, haqiqat qayda?

Kishilarga to naf berolsin kishi,
Oti tirk bo'lsin, maqtovli — ishi.

Tirklik nishoni, nedir belgisi,
Kishiga bo'lnasa uning ezzusi?!

Xotin olmoq kerak, bo'lsin o'g'il-qiz,
Bolasiz desalar, bu uyat, esiz!

Nima deydi, eshit, kishi sarasi,
Urug' qoldirishning — farzand chorasi.

Bolasiz o'lurda o'kindi tilda,
Ey endi keluvchi, farzandli bo'l-da!

Kishi o'g'li qolsa otadan keyin,
Uni tirk deya bilgin sen tayin.

O'g'ilsiz gar o'lса, kesilgay urug'
Nomi ham o'chadi, o'mи qup-qurug'.

O'zg'urmishning O'gdulmishga javobi

O'zg'urmish der yana: bari so'zing chin,
Lekin bundan bo'lak so'zlar bor tag'im.

Soz o'lса o'g'il-qiz fe'l-u matlabi,
Bo'ladi go'yoki sen aytgan kabi.

Agar yomon bo'lса ultar seni,
Ko'zing yumilsa tez unutar seni.

Oting uzra qo'yар so'kish-qarg'ishin,
Begona ham so'kar, ko'tarar boshin.

Shunday bilim berdi dono sarvari,
Ko'zingdan ketarmi bolang tadbiri.

Bunga o'xshar endi bilimdon so'zi,
Nazar solsang, unda har ishning ko'zi:

"O'zing kuydirarsan o'g'il-qizni deb,
Qani dili yongan bola bizni deb,

Seni tashvish olar, u qolar tirk,
Yurarsan sen alam, u-chi orzu yeb!"

Kema mindi deb bil xotin olguchi,
Dengiz ichra kirar kema minguchi,

O'g'il-qiz tug'ilса kemasi sinar,
Kema sinsa suvda tirk kim qolar?!

O'g'il-qiz-ku ota uchun chin orzu,
Biroq ota-onा yemishi — og'u.

O'g'il-qiz yomoni otadan keyin
Atamas onasi, otasi otin.

Bu yanglig' ayoldan qachon bor vafo?
Qilig'i yovuzdir, har ishi — jafo!

O'gil-qiz otasi g'am chekar faqat,
Balolatqa topar fil kabi toqat.

Tutish kerak ulfat, jo'ra ham deding,
Lek ular yukini demagan eding.

Yana yaxshi degan dono so'zi, bil,
Kishi ko'ngli nozik, saqlamoq mushkil.

Ko'ngil deganlari misoli shisha,
Sinib qolmasin u, asra hamisha.

Ko'ngil nozikligi bu so'zga nishon,
U issiq,sovuuqqa bog'liq har qachon.

Jo'ra ko'ngli sinsa bo'lar ichki yov,
Bari yov bo'larkan — keki beayov.

Yovdan hayot totli bo'lmas hoynahoy,
Yoving bo'lar bo'lса emas bu chiroj!

Yoving qancha kichik, dona bo'lса ham,
Uni sen ulug' bil, e ko'ngli o'ktam.

Chivin filga dushman emas behuda,
Agar chaqsa filni cho'chitar juda.

Nima der, eshitgin, yovi bor kishi,
Yov ila jang etib tugagan yoshi:

“Yog’iylar kichik deb beparvo qolma,
Nega qo’rqayin deb sen shov-shuv solma,
Yoving bo’lsa aslo g’ofil bo’lماqin,
Yovga yev, yaxshiga yaxshi bo’l, tolma”.

O’gdulmishning O’zg’urmishga javobi

Javobga O’gdulmish sekin ochdi til,
“So’zimni eshit, — der, — ochiq tut ko’ngil.

Kim yaqin tutarkan, jo’ra, ezgu esh,
Eshi ezgu bo’lsa, qilar ezgu ish.

Agar nafl bo’lsa kishiga qo’shil,
Kishiga naf bermoq kishi ishi bil,

O’zi yolg’iz yurgan kishi qivchog’i¹,
Kishiga naf bermas bo’lar har chog’i.

Kishiga naf bermas — misoli o’lik,
Naf ber, o’lik bo’lma, e mard belgilig.

Kimning talay bo’lsa do’st-u qardoshi,
Oti yoyilladi, qillinar ishi.

Alam, qayg’u kelsa, u bo’lar fido,
Sevinch kelsa etar yaqinlik ado.

Xislatin el ichra yoyadi har on,
Til ochmaydi agar ko’rsa bir nuqson.

Yovi turg’izadi mardni oyoqqqa,
Yaxshi-yommonni u yoyer har yoqqa.

Yovi bo’lماquncha mard erlarning to,
Elda oti bo’lmas, sharafi aslo.

Kimning bo’lsa xislat, fazilati xo’p,
Uning yovi bo’lar hisobsiz u ko’p.

Kim xislat egasi, asli toza, chin,
Sanab bo’lmas uning yovi hisobin.

Zo’r eming yovi ham bo’lar belgilig,
Yovuzga o’lim yo’q, yovuz er — o’lik!

Qay erga yog’ilsa yovi muttasil,
U eming xislati ortiq deya bil.

Yov ila kurashgan er oti o’sar,
Yovi yo’qning oti bilinmas, to’zar.

Nima deydi, eshit, shijoatli er,
Shijoatli doim tilak-orzu yer:

“Bir er bo’l sin nega ming er dushmani,
Ming er so’zlamasa uni har kuni,
Bo’ni itga orqa o’girib boqmas,
Ketidan kelsa ham ming itning uni”

Deding: aslo kishi payin qirqmadim,
Yo tilda g’iybat so’z aytil qo’rqmadim”.

Nechuk so’zlagaysan kishi bo’lmasa,
Joying, axir, el-yurt aro o’lmasa.

Mard er shu bo’ladi, o’zi el ora
Tilin asrab, to’rdan joy olsa, ko’r-a!

Dag’alga muloyim bo’lsa, shubhasiz,
Yomon so’zlasalar, shirin tutsa so’z.

¹ Qivchoq — yomon fe’lli.

Kishilar yukini olsa qo'lidan,
Jafo qilmay yursa, vafo yo'lidan.

Ko'ngildan chiqarsa, ko'r, o'ch-keklarin,
Tiliga chiqarsa ko'ngilda borin.

Nima deydi, eshit, kishi ezzusi,
Ezgulik tufayli aniq belgisi:

Kishilarga tilda so'zlama dag'al,
Dag'al so'zga ko'ngil og'rir har mahal.

Seni kim so'ksami, sen saralar soni.
U tuban bo'lar, sen — saralar soni.

Jafo qiluvchiga qila ber vafo,
Vafoni mard qilar, nomardlar — jafo!

Oyoq uzsa sendan yaqin, qon, qardosh,
Sen o'zing yaxshilik ula, ey sirdosh.

Olim qilsa ishda xato mabodo,
Kechirgin — din yo'lli etar taqazo.

Qulni kechir agar ozsa yo'lidan,
Gumoh kechishlik ham saxo yo'lidan.

Saxovat yo'rig'i shudir aslida,
Chidam-la tusholsa o'lum qasdigia.

O'zing uyda yolg'iz qolib bu mahal,
Ne ezgulik topding, ey fe'li go'zal?

Rohat, orzu-ne'mat ko'zda ko'rmading,
Kumush, gawhar, oltin yo mis so'rmading.

Saroy, o'rda, yer-suv sen ila emas,
Or, zlynat, o'gil-qiz son ila emas.

Kishilar uchun yo'q senda kuch-qudrat,
Yig'ib olsang o'zni — ezgulik faqat.

Neki yiqqan esang ko'p yildan beri,
Zohid nomin olding, ey er sarvari.

Mard — ko'pnii tark etib, ozni istasa,
Keyin arzir zohid qurin izlasa.

Hozir-chi har nodon zohid bo'ladi,
Sabru qanoatni pardu qilladi.

Sobit ul bo'lurki, orzuni olib,
Sabot bilan ketsa yuzini burib.

Molini ulashsa beva, gadoga,
Ko'ngilni bog'lasa qodir Xudoga.

Kelar esa dunyo, bermasa ko'ngil.
Borar esa, qoshin tugmas esa ul.

Orzular yetishib yuksalsa qo'li,
Baland bo'lsa doim ko'ngil ham tili.

Bunga mos kelibdi ushbu so'z go'zal,
Eshit, ey go'zal xulq, unga et amal:

Mardlarning mardi shu bo'lar doimo,
Olamni olsa ham kerilmas aslo.

Kishi mardi yana shundan bo'ladi,
Ming orzu olsa ham bo'lar yer go'yo'.

O'zg'urmishning O'gdulmishga javobi

O'zg'urmish javobda: chin ayt, — dedi, hoy,
Tilaging nimadir, e chiroyi oy.

Nima so'zlasam ham so'zimni kesib,
Javobin qilasan dalil ko'rgizib.

Ochiq aytg'on, tilak nima ey jo'ra,
Neni istar esang ochiq ayt, so'ra!

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

Bu O'gdulmish aytar: shu senga so'zim,
Tilak ila keldim yoningga o'zim.

Bu Kuntug'di elig eshiddi seni,
O'ziga keraklab yubordi meni.

Juda orzu qildi seni ko'rishg'a,
Meni elchi qildi o'zi bu ishg'a.

Og'ir bo'lsa ham bir borishing kerak,
Eligg'a yetishib, ko'rishing kerak.

Elig ham ko'p ezgu, chin sulton erur,
Eliga mehribon, sevиг jon erur.

Elig yuzin ko'rgan qutlug' bo'ladi,
Ikki olam qutin to'liq oladi.

Nima deydi: eshit, bu el, kent boshi,
Olam ishlarini anglagan kishi:

Odil siyosat beg — qutdir belgilig,
Quti bilan berar barchaga ulig.

Qayerda yoyilsa odil beg ot'i,
Borish kerak unga: yuqadi quti.

Uning asosi chin poydevor monand,
Asosi buzulsa uy bo'lmas baland.

Yuzin ko'rsa odil begining har kishi,
Tilagin topar ham yurishar ishi.

Mana, men ham bo'ldim ushbu kun odam,
Sabab bo'lди asli elig bunga ham.

Xudo bergen edi uquv-u billig,
Butun ezzilikka erishdi alig.

Xudo tavfiq etdi ezzuga butum,
Toki bo'lса dedi eliga ustun.

Seni ham so'roqlar elig ushbu kun,
Qo'ling qo'lga bersang, yozilgay tugun.

Seni chorlash uchun men o'zim hozir,
Noumid jo'natma, meni, bahodir.

Xatin ham jo'natdi senga u xoqon,
Nima yozgan, o'qib bilgin ushbu on.

Bititigni chiqarib tutar O'gdulmish,
Qo'lga olib o'qiy boshlar O'zg'urmish.

O'zg'urmishning O'gdulmishga savoli

Bititigni o'qigach, qolib jum uzoq,
Yetuk so'z bitilgan, — dedi ushbu chog'.

Keling, — debdi elig, — meni u tomon,
Butun ezzulkni sanabdi chunon.

Buyuk ish erur, ko'r, bu ishlar menga,
Nima qilay, aytgin, kengash ber bunga.

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

Bu O'gdulmish aytar: Janobi elig
Tilda yod etar noming belgilig.

Tili tebranarmi — oting tillida,
Seni ko'rish uchun niyat dillida.

Kimni sevsra agar ko'ngil orzulab,
Dil-u tilda yurar shu nomni ulab.

Oshiq qilgan odam ne deydi, o'qi:
"Seviklining yuzi — ko'ngil to'qligi.

Ko'ngil kimni sevsra, ko'rak ko'zda — ul,
Ko'ngil qayga boqsa, uchar yuzda ul,
Ko'ngilda ne esa orzu-yu tilak,
Og'iz ochsa, chiqar tilu so'zda ul".

O'zg'urmishning O'gdulmishga javobi

Javobga O'zg'urmish til ochdi hozir:
"Kengash ber, — dedi u, — ne qilay, botir?

Mehribon qardoshim o'zingsan, yaqin,
Kengash ber, o'tagin, yaqinlik haqin.

O'zingdan so'rayin bu ishga kengash,
Bilim bilan o'zing kengashga tenglash.

Qarindosh, bo'la qol, yaqin, jo'ra ham,
Qarindosh-u jo'ra, yaqin yo hakam.

Bugun chin qayishgan o'zingsan menga,
Ne qilay, o'git ber, ishondim senga.

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

O'gdulmish javobga ko'p qotib boshi:
So'rama buni, der, e qutli kishi.

Choparman bu damda eligdan senga,
Kengash, — deya nechun so'z ochding menga.

Boraylik deyishdan bo'lak yo'q so'zim,
Nechuk "borma" deyman, e qora ko'zim?!

Axir birga bo'lsak, naf ancha bu choq,
O'z nafini vijdon xushlamas biroq.

Nima deydi eshit, bilimli chigil¹,
Bilimsiz, eshitgin, bo'yin ber, egil:

O'z nafing tilarga so'z ochma zinhor,
Senga nafi bo'lmas uning, ey nomdor.

Kengash qilgin o'zing shunday kishiga,
Ki nafni tortmasin o'z yumushiga.

¹ **Chigil** — turkiy urug'lardan birining nomi. Bu yerla shu urug'ga mansub donishmand kishi nazarda tutilgan.

O'z nafin tilovchi foydasi uchun,
Gohida etar sarf joni-yu, kuchini.

Har ishni-ku avval kengashmoq kerak,
Ko'ngil chopsa keyin bo'lar ezguroq.

O'zingga bag 'irsoq¹ sening o'z-o'zing,
O'zgacha demagin, kesildi so'zing.

Nima ishni qilsang, o'zingga kengash,
O'zimdan bu ishga tilama kengash.

Senga keldim, axir, uzun yo'l yurib,
Kengash shukki, borgin men bilan turib.

Kishilar aro bor nafu ezzgulik,
Bu yerda topilmas, tayin, belgilig.

Shahar, qishloq ichra ezzgulik necha,
Senga so'zladim men borini ocha.

Bilasan, so'zimni etarkan oshkor,
Ezzgulik tiladim, guyoh — bir-u bor.

Kishidan qocharsan, ne qildi kishi,
Kishiga qo'shil, et kishilar ishi.

Musulmon ishin et, mungiga yara,
Jannatdan joy berar, Xudoyim, qara!

Ko'ngil, tilni soz et, sig'in Xudoga,
Qayerda esang yet shu muddaoga.

Kishisiz yashama kishilar ora,
Kishi aybin emas, o'z aybing ko'r-a!

Dono nima deydi, bu so'zni eshit,
Uqib ol, keyin sen o'zinga ish et:

"Ezzgulik uchun ber har qayerda qo'1,
Tubi aslin dema, o'zing ezgu bo'1.
Kishi ezzgusi, ko'r, unutmas o'zin,
Qayerda bo'lsa ham qilar ezgu yo'1".

Kishi ezgu bo'lsa ham ezgu qilinch¹
Qachonki tilasa, topar ming sevinch.

Ezgu har yerda ham ezgu bo'ladi,
Ezzgulik uchun chin evaz oladi.

Sen ezgu ravish tut, atanma yomon,
O'shanda kelar qut, bo'larsan omon.

O'zg'urmish O'gdulmishga dunyo
ayblarini aytadi

O'zg'urmish javobda dedi: men o'zim,
So'zingni eshitdim, men ham dey so'zim.

Bu dunyo ko'ngilingni olibdi tugal,
Senga hatto aybi ko'rinar afzal.

Ajab emas, axir, bor shu xil masal,
Nima narsa yoqsa, u bo'lar afzal.

Senga yoqqanidan bu dunyo to'liq,
Ko'zingga ko'ringay alomat, bo'liq.

Nima deydi, eshit, yoqtirgan kishi,
Oshiqqa qusur ham fazilat boshi.

¹ Qilinch — qiliq, fe'l-atvor.

¹ Bag'irsoq — bag'ri kuyadigan, mehribon.

Bilaylik, sevgining shudir nishoni,
Fazilat tuyulsa uning nuqsoni.

Olamni sevishning nishonidir shul,
Fazilat ko'rinsa bor aybi, ma'qul.

Bu qadar maqtaysan dunyoni menga,
Uning ayblarini ochayin senga.

Xudo jazo berar kim etsa xato,
Dunyoni rabotday yaratgan Xudo.

Rabotni ne uchun qilarsan tilak,
Tilak jannat bo'lар, saodat — yo'lak.

Odam jannat ichra yeb qo'ygach domni,
Lozim bildi unga ushbu makonni.

Xudoga nomanzur shayton qilmishi,
Yanada yomonroq o'mak olmishi.

Tilagan qulini siylasa Xudo,
Unga dunyo emas, yo'l berar a'lo.

Shuning-chun yaxshimas bu dunyo quti —
Xudodan yiratar, udir din yutti.

Xudo — men degan u g'alati kishi,
Qani, yo'q u bilan olamning ishi.

Odamzot boyisa ortar havosi,
Kichiklik bilandir dil muddaosi.

Xudo men deguvchi kishi nodoni
It tengj o'ladi, so'rab dunyoni.

Yalang'och tug'ilgan borar shu holda,
Shunday ekan dunyo ne kerak qo'ida.

Nega gerdayasan, ayo o'luvchi,
O'zing ikki kunlik mehmon bo'luvchi.

Bilasan, tiruklig o'limga borar,
O'lm yo'lda poylar, hozirlik ko'rar.

Avval eshil ochdi bu yorug' olam,
O'lm eshgi ham kummoqda bu dam.

O'zing ikki kunlik mehmonlik deya,
Bu qadar kuyimma, Jon-eting yeya,

Juda aziz, axir, tiriklik kuni,
Bekor ishga sarflab bo'lmagay uni.

Tiriklik har ezgu yumushga asos,
Bekor berma uni, ayo fe'l'i mos.

Olam moli uch tur bo'lар nom-banom,
Yo halol, yo shubha, yo bo'ldi harom.

Olam fonyi axir, u tez aylanar,
Nima bergen esa yana tez olar.

O'lim ayirmaydi bu beg deb yo qu!,
Unga teng yaxshi ham yomon ham butkul.

Tiriklik berar, ko'r, yana yer uni,
Bu ish takror o'lар biroq har kuni.

Ko'ra bersa dunyo ko'lanka soni,
Quvilsa qochar, so'ng izlagay seni.

Nazar sol, ushbu so'z bo'lар bunga mos,
Buning ma'nisin uq, ayo ko'ngli soz:

"Bu dunyo qochar kim izlasa uni,
O'zing qoch, kelar u axtarib seni.

Yana dinga o'chlik bu dunyo moli,
Olam yeydi dinni, bilib ol buni".

Bu dunyo bezanib o'zin ko'r gizar,
Yasangan kelindek bo'lib ko'z surar.

Ko'ngil bersang agar shu keksa yuzi¹,
Yoqang tuitar, ammo tugamas so'zi.

Qiliq'i jafodir uning, hoynahoy,
Begi bilan turmas tugal uch-to it oy.

Ko'ngil berib qo'ysa unga qaysi zot,
Bekor bo'ldi, esiz u uchun hayot.

Bu dunyoni sevsang, sendan yumar ko'z,
Halovat istasang o'giradi yuz.

Halolga hisob bor, haromga — azob,
Shubhali bo'lса-chi, saqlagin odob.

Sevinchda semirar, etar parvarish,
Keyin ozdiradi, beradi tashvish.

Quvonchni ko'ra ber — oxiri alam,
Sevinch oxirida yetishadi g'am.

Uchi ne'mat esa, tubi mehnat-ey,
Boshi mehnat esa, tubi ne'mat-ey!

Nima deydi, eshit, donishmand, hushyor.
"Yiroq bo'l, bu dunyo beradi ozor".

Sening boyliging, ko'r, gadaylik erur,
Senga kim zor esa, shu boylik erur.

Seni so'ksalar ham bosiq tut iching,
Qora yer qatida olinar o'ching.

To'ziblar ketadi sening terganing,
Sochilib ketadi nizom bergenning.

Boruvcchi erur ul, ketar birma-bir,
Keluvchi erur ul, yana qaytadir.

Juda o'zgaruvchan erur bu davron,
Qachon ketar yana keler qaysi on.

Ketuvchiga ko'ngil berarmi dono,
Keluvchiga tayyor turar doimo.

O'llimni ko'ruchchi ovunch olmagay,
O'llimni biluvchi sevinch bilmagay.

Yo'lovchi yo'l uzra imorat solmas,
Ko'chuvchi uyida buyumi qolmas.

Bu dunyo sen uchun qo'noq yo rabot,
Rabotda kim uzoq qoldi, hayhot!

Nega ezgu emas bu dunyo moli?
U sabab bo'lakdir kishining holi.

Badal qildi dunyo molin avlyyo,
Zohid ham etar tark: "shumi", —
deb dunyo.

¹ Shu keksa yuzi — olamni qari inson, xususan, yoshi ulug' kampir tarzida tasavvur qiliş qadimiy mifologiyaga, qadimiy og'zaki ijod namunalariga xos xususiyatlardan biridir. Yusuf Xos Hojib ham mana shu an'anavy obrazlardan umumli foydalangan.

Ko'rimmas narsa u, tuzoqchi soni,
Bu dunyo narsasi — sochilgan doni.

G'ofildir bu odam, yana suq ko'zi,
Nechuk to'rga kirmas bu odam o'zi.

Nima deydi, eshit, shoirlar boshi,
Bu dunyo ishida pishiqroq kishi:

"Tuzoqchi ko'rimmas, ko'rsatar molin,
Go'yo ko'rsatarday kelin jamolin,
Ko'zi suq, ochofat kishi sen o'zing,
Domin tortsa tamom, keyin ko'r holin".

Bori olam birga yig'ilsa butkul,
Halovat, baxt bilan yashasha ming yil,

Nima nafi, axir qora yer quyi,
Kishiga bo'ladi so'nggi yer — uyi.

Kechirgan tiriklik senga bo'lar tush,
Nima qilgan esang yana kelar tush.

O'sha kun o'kinsang, nafi yo'qdir, oh,
Neki qilgan esang yil, oy, kun guyoh.

Uch ne'matdir asli dunyo lazzati,
Ularning bo'lar yuz, ming halovati:

Yemak, ichmak erur ularning biri,
Birisi ayollar, ey erilar eri.

Uchinchchi tinch-omon tiruklig erur,
Bu uchdan shugina keraklik erur.

Bu uchning totig'i senga kifoya,
Uch kishiga sen borma bilonihoya:

Yemak-ichmak kayfi o'zgacha, qardosh,
Ammo uning hazmi bo'lmagay odosh.

Bu lazzat aslida bo'g'izga bo'lur,
Nafi bo'lса undan bu qorning to'lur.

Agar osh singmasa, buzilar mijoz,
Mijoz buzuldimi, tunga top iloi.

Yana bir tayin — ayol o'ngida,
Sovuq suv zahmati uning so'ngida.
O'g'il-qiz ulardan bo'lak har qachon,
O'g'il-qiz zahmati kechmagay oson.

Nima deydi, eshit, bu bayt aytguchin:
"Ayol ham o'g'il-qiz uzar er kuchin".

Ayol bilan suhbat shirin va totig',
Sovuq suv zahmati yoqmas, u qattiq.
Rohat qayda esa berohat bilan,
Shirin qayda esa so'ngida achiq".

Tiriklik rohati shu bo'lsa agar,
Azobdan iborat dunyo sar-basar.

Yoqimli, shirindir, tiruklig kumin,
Achchiq qilar uni yoqimsiz o'lim.

Shu uchovi erur jahon totig'i,
Javobni eshit, ey fe'li ortig'i:
Bu dunyo yov erur, nafsing ham yog'i,
Ularning yoyiqdir doim tuzog'i.

Bulardan yomon yov — shu nafsing erur,
Bu nafsing joningga mashaqqat berur.

Juda yaxshi degan bu haqda dono,
Dono so'zin tinglash kerak doimo:

“Худо nomin айтсанг кетар har balo,
Ketar chog’i qara, qolar bu dunyo.
Tan-u jonni qanday tiyish yo ‘li bor
O’lim kelib yoqa olmaguncha to?!”

Yana yaxshi degan bilmeli dono,
Donolar so’zidir me’yor doimo:
“Meni nafs etib qul mudom yeldirar,
Goho yig’latar u, goho bo’ldi to ‘q.

Uni deya bo’ldi ikki ko’zim suq,
Goho och bo’lar u, goho bo’ldi to ‘q.

Bir orzuni topsam bo’lagi qolur,
Tag ‘in birmi topsam, so’ng tilak bo’lur.

Ularmi bosolmay turibman tutib,
Bosa ber, ey egam, yaqinlik etib”.

Yomon fe’l bo’lar nafs — bu tan-u bu Jon,
Semiz tutsans bo’lar yomondan yomon.

Semirsami ular ozar ham to ‘zar,
Egasin yiqitar, tiriklik tugur.

Semirsami ular egasin qopar,
Uni yerga yiqib, o’zi tez qochar.

Bu nafsing misoli ovchi it tag ‘in,
Semirsiba bilmagay egasi haqin.

Qorin to’ysa ovga yugurmas, yotar,
Egasin tilagi tilida qotar.

Yoki nafsing kichik bolakay soni,
Qorin to’ysa chopar, tutib ol uni.

Tiriklik tugali tugal uch kundir,
Undan o’zga bari tush yoki tundir.

Biris kelajak, biri o’tgan tun,
Ertaga yetarmi tiriklik bu kun.

Undan o’zga esa agar tiriklik,
Tiriklik sanama, so’zim belgilik.

Bo’g’iz lazzatidir qorin to ‘ydirish,
Qorin to ‘ysa foyda sari bo’lgay ish.

Qorin to’ysa arpa yo holva bir xil,
Bari ortib qolar, to’lar unga yo’l.

Shakar, holva yegan bilar, lof urar,
To ‘yib yotsa tongda tag ‘in och turar.

Nima deydi eshit, aqli chig’oy¹,
Chig’oy bo’lsa hamki ko’zi, ko’ngli boy:

O’zing yeding doim shakardan ne’mat,
Kepak, tariq ichra men topdim toqat.
Ikov ham to ‘yib teng yotibmiz, qara,
Kechib bordi hayot kunlari faqat”.

Dunyonin termagin qanchalar o’zing,
Senga muntazirdir ikki gaz bo’zing,

Chig’oy, boy ikkisi o’limdan keyin,
Qora yer qatida teng bo’lar, tayin.

Yugurik shu dunyo etagin tutib,
Nega gerdayasan ko’kdan ham o’tib.

¹ Chig’oy – kambag’al, yo’qsil.

O'zing suqlanursan olam tergani,
O'lim suqlanur, ko'r, seni urgani.

Hayot istar oni o'zingdan bezar,
Yovuz bu o'lim, ko'r, tomiring kesar.

Aniqki, o'ladi tirik bo'luvchi,
Qachon kelurini qani biluvchi?!

Kichiklarga umid — bo'lsa der soqol,
Soqol unsa bo'lay deydi oqsoqol.

Sogolinq oqardi — yaqindir o'lim,
O'lim tadbir yo'q yo chora, yo'lim.

O'zing o'tga otma bu dunyo uchun,
Ko'rarda sarf etma kuchingni uzun.

Sho'rtang suv misoli bu dunyo moli,
Icha-icha qommas, nam o'lmas tili.

Quruq qumga o'xshar odamzot o'zi,
Dengiz kirsa to'lmas bu suqlik ko'zi.

Misoli sarobdir bu dunyo ishi,
Tutay deb qo'l cho'zsa yo'qotar kishi.

Sarobdir u asli, ko'zingda uchar,
Uni qancha quvsang, u shuncha qochar.

Bu nafsing aslida ko'rimmas bir yov,
Ko'rimmas yovingni yo'qot beayov.

Nafsingga yengilma, bermagin bo'yin,
Quvonchi alandir, tilagi — o'yin.

Qaytnmas bo'lib ketar o'tgan tiriklik,
Qolgani ham emas aniq, belgilik.

Nima deydi, eshit, botir, ziyrak er,
Noloyiqdan ohetda tiyrik, botir er:

"Bugun yo'q kechuvchi kechagi tuning,
Shu tarzda kechadi keluvchi kuning,
Kecha-u kelar kun orasi — lahma,
Hayot shuncha qisqa, o'chirgin uning".

Tiriklik oxiri bo'lar ne zamон,
Havo-nafsga berma osoyish, омон.

Bekor bo'ldi bunda tiriglik dedim,
O'tar kunlar uchun o'kinchlar yedim.

Shahar sari bu kun chorlading meni,
Asir etsa nafsim, tiyuvchi qani?

Bu nafs — yov aslida, yana bir yog'i,
Boylik erur, uning yoyiq tuzog'i.

Tilakcha ish etma, pishiq bo'l, tiran,
Tan-u jon ulushin bermagin, chiran.

Nima deydi, eshit, o'zin bosgan er,
Havo-nafsnai yengib dorga osgan er:

"Dono desa bo'lmas zinhor u kishin,
Nafsiiga ergashib qilsa bor ishin".

Raso desa bo'lmas u erni zinhor,
Havoqga qul esa, ey dili bedor.

Bilimsiz bo'ladi kishi belgilig,
Havo uchun etsa faqat ezgulik.

Uquvsiz kishilar o'lik, ey qardosh,
Havo-orzularga o'zin qilsa bosh.

Mana shunday erur aslida olam,
Borin aytdim, angla, ey ulug' odam.

Ikki oyoq berdi yana yurishga,
Biri u yon, biri bu yon turishga.

Ayo qul bo'luvchi, uquwli, xushyor,
G'ofil bo'lma, uning zarari-da bor.

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

Javobda O'gdulmish dedi: "bu mahal —
So'zingni tushundim, to'la, mukammal.

Meningcha, yana bor nozik muammo,
Bilim, uquv ila berunga ziyo.

Faqat shunda ko'rib bu dunyo holin,
Taxir qilma sira hayoting yo'lin.

Olam ahli bari ulush, kent qo'yib,
Tog'lar aro kirsma mashaqqat tuyib.

Olam vayron bo'lar, qolar qup-qurug',
Kesilar-ku odam zotidan urug'.

Yana barcha odam bu dunyo tilab,
Yugursa tunini kunduzga ulab.

Toati uzilsa, buzulsa ko'ngil,
Ne bo'lar oxiri u dunyoga yo'li?

Ikki uy yaratdi sohib karomat,
Birin nomi do'zax, bo'lagi — jannat.

Xudo berdi qulga ikki ko'z, qulqoq,
Ular bilan dunyo, oxiratga boq.

Tutish uchun berdi yana ikki qo'il,
Biri dunyo, biri oxiratga yo'il.

Xudoyim yaratdi shu ikki olam,
Birin topsang yugur, topgin uni ham.

Odam bolasini bu qodir Xudo,
Ochib-to'yadigan qilgan doimo.

Yana yaxshи degan, dono, dili keng.
Olamda shon olgan, saxiy, qo'lli keng:

"Egniga kiyim ham bo'g'izga yemi,
Kerak ey qarindosh, bu hayot emi".

Tirikka bulardan kechish yo'q, qardosh,
Ustiga to'n kerak, yemishiga — osh.

Halol dunyo topsa qo'liga olib,
Beva-bechoraga bersa u bo'lib.

Qani, bo'lmasaydi bo'g'iz tashvishi,
Kishini qilar yer bu bo'g'iz ishi.

Xudo hukmidan ko'r'o'zing doimo,
Karamiga umid tuta ber ammo.

Ulardan bo'adi tobelik, bilgin
Shu yo'ldan og'ishma, shu yo'lni qilgin.

Yana yaxshи degan bilimdon, dono,
Bilimsizga o'git, pand bergan a'lo:

"Umid-u xatardan qanotining qilgin,
Shu ikov bo'lajak yo'lakni bilgin.

Xudo yorlig'in tut, o'zing quillingin,
Saroyga uchib kir, rohatni olgin".

Umid-u xatar bir qanot soni bil,
Ular ila uchgan olar ko'kka yo'1.

Gunohim talay deb umid uzmagin,
Toatga ishonib ishing buzmagin.

Toat qil, bu qullik toatdir faqat,
Qul bo'igan har odam etsin itoat.

Xudo yorlig'ini quyi olmasa,
Toki shu tufayli ojiz qolmasa,

Toatga o'zingni gadoy bil, gadoy,
Toatga gadoy bil, gunohlarg'a boy.

Kishilar yovuzi o'zing bil, o'zing,
Magar ezgu bo'l'sa hamki bu so'zing.

Mana men o'tindim bilsam necha yo'1,
Bu so'z ishga tutgin, senga kelar qo'1.

Deganim nom'a'qul bo'lsami agar,
Javob ber, mard o'g'lon o'zing sar-basar.

Nafi bo'lmas, kimki cho'zadi so'zin,
So'zning nafi bo'lmas — bo'lsa u uzun.

O'zg'urmishning O'gdulmishga javobi

O'zg'urmish qo'lini boshiga urdi,
Boshini eggancha u xayol surdi.

Mashaqqat tegdi,— der, — qarindosh, senga,
Yaqinlik tufayli so'z aytding menga.

Nafimni sog'inib buni so'zladning,
Ishing unsin, mening g'amimi yeding.

Boqib ko'rdim endi, bu ishda zinhor,
Bir nafni ko'rmadim, tushun, e nomdor.

Ko'ngil chopmayotir, bu ishdan qochar,
Ko'ngil chopmas ishni qilsa bu xatar.

Bilim bergen ajib bilimi tugal,
Sevilgan-u sevgan, dili pok, go'zal:

"Qay ishni bajarmoq tilasang o'zing,
Ko'ngil bilan kengash avvalo so'zing,
Kishiga kengashgin, ayta ber tugal,
Ko'ngil xohlamasa yiroq tut o'zing".

O'zingga o'zingsan hammadan yaqin,
Ko'ngil chopmas ishga qo'l urma tag'in.
Qanday ish bo'Imasin, dil chopmas joyda,
Ey zoti ulug'im, chiqmagan foyda.

Sira xohlamadi bu ko'nglim toshib,
Bu so'zdan qaytaman men endi shoshib.
Senga bo'l'sin endi urrim sirasi,
Meni holimga qo'y, ey er sarasi.

Menda yo'q eligga nafli bir odat,
Na xulqim, raftorim, na shon-u shuhrat.

O'zim qochib keldim dunyodan bu yon,
Yana qanday qilib boray u tomon.

Ko'rishmoq istasang dilingni chog'lab,
Menga kelma, boray seni so'rog'lab.

Menga tegsin emgak, sen elga qara,
Elig xizmati-yu elingga yara.

Nima der, eshit, bu saxiy, mehribbon,
Ish uchun fidoyi joni har qachon:

"Ko'ngil tutsa kishi ko'zini ochib,
Tilak oson bo'lар, alamlar qochib.

Tilak bilan agar tashlasa odim,
Og'ir yo'l ichida qolmagay hech kim.

Tilak birla yursa kishi orzulab,
Og'ir yo'lda qolmas tilagin tilab.

Tilakka intilar haloyiq yurib,
Tilagin topar u, qolarmi horib?!"

Juda yaxshi degan sevilgan kishi,
Vafoda nom olgan oshiqqlar boshi:

"Yaqin bo'lsa ko'ngil yiroq yer yaqin,
Vafo bilan ammo yaqinlik tag'in.
Sharq-u G'anb orasi bir o'rlam yerdir,
Kim o'ylar vafo deb yaqinlik haqin".

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

Bu O'gdulmish aytar: E qizil yuzim,
Eshit endi sen ham mening bir so'zim.

Bu esa, qarindosh, sendagi tilak,
Seni zo'tlamayman, azob ne kerak?

So'zlarim tugadi, eson, yaxshi qol,
Eligga bitig ber, yuzim qilma ol.

Bitig bitdi elig qo'lida senga,
Javob berish lozim, ey dono, unga.

Javob ber, borayin o'zim uy tomon,
So'zing ayt, eligga o'zing bu zamон.

So'zing ayt-u bitigin yana bir bitig,
Elig sari qaytay, ey dono tetig.

O'zg'urmishning eligga xat yozib jo'natishimi aytadi

Bu O'zg'urmish aytar: Ey oqil, tetig,
Bitig desang, hozir bitayin bitig.

Dovot, qog'oz oldi, so'radi qalam,
Eligga xatini boshladi bu dam.

Xudo nomi bilan so'zin boshladi,
Yaratgan, yashatgan, kechirgan dedi.

Senga sonsiz olqish, o'qiy hamd-sano,
Mening duolarim senga doimo.

Bu bo'z yer, yashil ko'k, yaraldi Kun, Oy,
Qorong'i, yorug'lik, chig'oy hamda boy.

Yaraldi bu alam yana ko'p jonzot,
Biri ham och emas, topar rizq, hayot.

Ikki olamni ham tuzar bir-u bor,
Uning o'xshashin ham qidirma zinhor.

Ulug'lik, buyuklik unga sazodir,
O'zi erkli, o'zi har nega qodir.

Yaratdi sanoqsiz, sonsiz qullarin,
Tilaganga berdi qutning qo'llarin.

Qorong'u, oromsiz bu uyning ichi,
Quyosh-la yorishdi — Qodirning kuchi.

Yashil ko'k yaratdi, ko'tardi baland,
Kun, Oy, Yulduz soldi suratga monand.

Quyisi bu bo'z yer, yashil suv ila,
Balandi tezob yel yana o't bila.

Issiq, sovuq yana quruq ho'lini,
Elga naf yetar deb cho'zar qo'lini.

Yaralди u nenи aylasa tilak,
Kerak bo'lmas unga hech orqa yo'lak.

Tilasa ulug'lar toatsizni ham,
Tilasa yer bo'lar toatlri odam.

Tilagan tilagi bo'lar bo'l desa,
Qazosin yuritar ne esa kesa.

Tilay ming salomim payg'ambarimga,
To'g'ri yo'l ko'rsatgan ul rahbarimga.

Elikka duo-la yozdim bu bitig,
Salomim esonlik uzra, ey tetig.

Elig maktub ila sharaflar to'liq,
Ulami o'qidim, ko'z o'lidi yorug'.

Ezgu yorliq, tuman o'git, nasihat,
Ilia elig etdi menga marhamat.

Yana va'da qilmish talay ezmulkik,
Izzat-e'zoz, in'om, yegu-kiyguvik.

Shu orzuni deya ne qadar inson
Timnasdan kezadi bu yorug' jahon.

Xizmat qilmay olsam agarda in'om,
Agarchi bu ishdan kelmagay dashnom.

Ammo undan yetar bir qator zarar,
Bu xil zarar kelar men o'lsam agar.

Undan biri xizmat yo'qligi aslo,
Bo'lagi — el uchin qilmadim vafo.

Yana bilmasman-ku el urf-odatin,
El rasmin bilmagan qanday topar tin.

Bo'lagi — men bildim — bevafo dunyo,
Jafo qilar deya, men qildim jafo.

Xudoga sig'indim, tikdim jonni ham,
Bu din, imonimni asrasin egam.

Bo'g'izga, egnimga yetar mukammal,
Bundan bo'laklari yuk bo'lar tugal.

Bo'g'zimga yemish ham ustimga libos,
Shu egam tufayli tayyor, mos.

Senga dunyo berdi qismasdan sira,
Menga bermagaymi, ey fe li sara.

Yaratdi, o'stirdi shu damgacha to,
Yana ham o'stirar, ey begi yakto!

Bori yaxshi yomon, to'q-u ochni ham
Xudodan ko'raman, ey sohib karam.

Xudo eshigini tutdim, sig'indim,
Bor el kelar eshik shu ekan — bildim.

Sening eshingga, nazzingga borib
Nimani tilayin hayotim berib.

Ikkov ham Xudoning qulimiz brdek,
Bu qulllik ichida turamiz yerdek.

Odamning odamga toati begor,
Bu xil e'tiqoddan etish kerak or.

Kishi himmatiga ushbular kerak,
Xudo toatiga to ursa yurak.

Juda yaxshi degan, dili sara, pok,
Eshitgin, ey dono, ishlari bebob:

“Ochib, to'yuvchiga etmagin toat,
Toat yeri uchun etma ibodat,
Topin bir Xudoga mudom timmayin,
Eshikni ochiq tut unga har soat.”

Elig, avval qilgin, to'rt hojatim bor,
Shundan keyin bo'lay ishingga tayyor.

Ato etgin avval so'ngsiz tiruklig,
Yana bir — qarilik ko'rmas yigitlik.

Salomat tut keyin — bo'lmayin kasal,
Bir boylik berginki bo'lmay kambag'al.

Bu to'rt tilagimni o'zing ravvo qil,
Keyin xizmat etay senga bo'llib qul.

Bularni berolsang, ey elga boshim,
Senga qul bo'layin, egayin boshim.

Bularni berishga kuching yetmasa,
Qanday fazling bordir, so'z aytgin kesa.

Kiyimim yeterli, oziqlarim ham,
Tag'in kerak bo'lsa yetkazar egam.

Ulug'lik, tubanlik Xudodan bo'lar,
U sabab kishilar tug'ilari, o'lar.

Buni chin biluvchi, uquvchi kishi,
Boshqacha bo'lmagay, ey elchi boshi.

Meni bir Xudoym astraganidek
Asray olmagaysan, ayo asli beg.

Seni men asrashim kerak har kecha,
Meni ul asragay, so'z aytdim ocha.

O'zing tegmaguncha menga tegmas osh,
U-chi to'yadiradi, ammo yemas osh.

Vosita keraksiz, qiyntsalsam o'zim,
Tilim tebrannasdan biladi so'zim.

Baloni tiyolmas har yo'1 qilguvchi,
O'zi sabab- tegmas zolimlar kuchi.

Kechirmaysang agar qilsam bir xato,
Ming gunoh qilsam ham kechadi Xudo.

Nima deydi, eshit, gunohkor quli,
Ko'ngil sirrin ochdi, ko'r aytar tili:

“Ayo chin, mehribon, vafoli egam,
Sendan bo'lak ega topmadim hecham.

Qiymalgan joninga berasan tilak,
Yolg'iz, ko'maksizga sen o'zing yo'lak.

Dardimga shifosan, g'amimga — sevinch,
Mungimga tayanchim, zeriksam — ovinch.

Quvонchim, ovinchim, sevinchim to'liq
Sevinching ichida erur, ey ulug'.

Senga gunoh qildim sanoqsiz biram,
Lekin rahmatning etmading hech kam.

Gunohim kechirgin, senga yo'q zarar,
Meni qynama, bu — bermas naf biror.

Gunohim talay-ku, toat qilcha bor,
O'zing qo'lla endi, e Parvardigor.

Agar qiynar esang, munosib o'zim,
Kechirsang, kechir, jim itoat — so'zim.

Bilarsan: bilarmen seni bir, Egam,
Bilarmen: bilarsan sodiq qulni ham.

Tubanman, tubanlik ichra o'larman,
Butumsan, o'zinga bilmas omonatni jon.

Omonat erur bu suyuk jon ravon,
Undan o'zga bilmas omonatni jon.

Ey elig, bu dunyo o'tkinchi bo'lar,
Tirkilik kuniga tugor, olqinor.

Olamga ishonib yashash ne kerak?
Nadomatda qolib yashash ne kerak?

Ota ketdi, esh-tush, og'a ham imi,
Ona ketdi, o'g'il-qizlarining qani!

Ular o'tdi, o'zing hozircha tirik,
Galing kelsa sen ham ularga sherik.

O'linga yaralgan bu sonsiz jonzot,
Shubba qilma, bir kun o'lar odamzod.

G'ofil bo'lma elig, uxlama, ko'z och.
Sendan keyin qolsin, ezgu unug' soch!

Elga bergen esang kechirgan kuning,
Bekor berma endi kelajak tuning.

Kechar kun ichida keragini ol,
Ko'chiruvchi kelmay hozir bo'l darhol.

Bu holni ko'rarkan mening bu o'zim,
Ne xilda yaragay eliga so'zim.

Jafokor olamdan umidni uzdim,
Vafoli egamga toatni tuzdim.

Qo'ya bersin elig holimga meni,
Shu yerdan etayin duosin uni.

Nima nafni bergum senga men o'zim,
O'zingga o'zing naf bo'gin, ol so'zim.

Kishidan yuz burdim, sen ham bur yuzing,
Kishidan naf olmas yo men, yo sen o'zing.

Men endi qolgan bu umrimmi tikib
Xudo toatini qilay entikib.

Bori bas, keraksiz endi ortig'i,
Asli bir siqimdir dunyo borlig'i.

Shamol, yel kechardek tiriklik kechib,
Endi hushyor bo'lidan yuragim achib.

Kiyim bitti, bo'g'zim yana bo'lди to'q,
Dunyo yelga ketsin, endi nafи yo'q.

Nima deydi, eshit, ust, bo'g'zi butun,
"Borim tugal desa, er topar qutin".

Yana yaxshi degan toat qilgan er,
Toati ichida quti to'lган er:

"Yeyishgа olamда rizq-u ro'zim bor,
Ustimga kiyishga har narsa tayyor,
Tiriklik boricha yemish topaman,
Kerak bo'lса berar bu Parvardigor".

Nafim istar esa gar xoqon,
Mendan naflı bilim, uquv har qachon.

Agar el ishiga yaragay desa,
Yarat yerim yo'qdir, so'z aytay kesa.

Agarda bir o'zi yolg'iz bo'lса ham,
Ming odam ishini etadi jo'ram.

Agar ezgu tutmoq istasang meni,
O'zing ezgu bo'lgin, ey el xoqoni.

Ming ezgu etagin tutguncha o'zing,
Ezgu bo'lsin bir bor raftoring, so'zing.

Ne-ne ulug' kishi, ne sohib davron,
Elig atrofida kelar har qachon.

Elig menden topar ne xilda foyda,
Halovat ketadi nafи yo'q joyda.

Men endi o'tindim uzrimni senga,
Meni qо'ya bergin, qosh tugma menga.

Yana boshqa gapni bildi qardoshim,
Qolganin u aytar, ey elchi boshim.

So'zini tugatdi, bog'lанди bitig,
Bu berdi, qо'liga oldi u tetig.

Dedi: bitib qо'ydim tilagim, so'zim,
Tilda deganimni eshitding, qо'zim.

Eliggа yetkazgın so'zim holimi,
Meni qо'yisin, bundan yuvsin qо'lini.

Elchi so'z yetkazar, xabar keltirar,
Javobni eshitding, yetkaz, birodar.

Nima deydi, eshit, Uch o'rda xoni,
Butun el ichiga soyarkan buni:

"Elchi so'z buzmasa ko'rmagay ziyon,
Elchi so'zga sobit bo'lar har qachon".

Yana ko'rkli qilib dono so'zlagan,
Qiynama, elchi ne so'z aytsa degan.

Elchiga o'lim yo'q, bilib qо'y yana,
Eshitgan so'zin u desa rosmana.

Elchi degani bu tilmochday bo'lur,
Tilmoch rost gapisra o'lmasdan qolur.

Elchi so'z chog'ida qiymasa kalom,
Uni taqdirlagin, ber sovg'a-in'om.

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

O'gdulmish dedi: ne desang sen o'zing,
Fikringni eshitdim, tushundim so'zing.

Maktub javobida bitding sen bitig,
Menga ber, eltayin, ey dono tetig.

Lekin nazarimda, ey do'st sarvari,
Elig seni qo'ymas o'zdan tashqari.

Elig yana qayta jo'natar bir gal,
Chorlayverar seni, ey fe'li go'zal.

Elig yana qayta meni jo'natar,
Ko'ngli cho'kar o'zing bormasang agar.

O'zg'urmishning O'gdulmishga javobi

O'zg'urmish so'zлади: bunday dema sen,
Ko'ngil cho'kib ketar, qiynalaman men.

Zinhor bormagaymen men shahar tomon,
O'zingni ko'p qiyab kelmagin bu yon.

Topilmas tilakni tilasa — yomon,
Tiyiq so'zni aytsgang — pastlik har qachon.

Eshit, nima deydi, dono insomni,
Sinab bilgan butun yaxshi-yommoni:

"Berilmas narsaga bo'lma zo'ravon,
Bo'lmas tilaklarni qilma hech qachon."

Har yerga bormagin poyi piyoda,
Agar borsang tashvish yetar, ey inson".

O'zg'urmish o'tindi: kel endi, jo'ra,
Yana qaytib kelma, shu yo'lni so'ra.

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

O'zg'urmish qo'zg'aldi: "aytdim bor so'zim, —
Dedi u, — qaytayin endi men o'zim.

O'gdulmish bilganin u qardoshiga
To'kib soldi yana bir-bir qoshiga.

Otin mindi keyin, qaytdi O'gdulmish,
Uyga kelib tushdi, yo'qolmas tashvish.

Quyosh ham iniga ketdi sar-basar,
Osmon rangi bo'lди misoli suvsar.

Olam tortdi yuzga kumushdekk bo'yoq,
Ko'rar ko'z yumuldi, uxlar bor uyg'ooq.

To'shakka cho'zildi, ko'r, O'gdulmish-a,
Biroz uxab oldi, ko'tardi bosh-a.

Sharqdan ko'tarildi olovdek yolin,
Yuzin ochdi olam misoli kelin.

O'rlab keldi bu dam marjon shodasi,
Olam bo'lди oq dur rangi barchasi.

O'gdulmish yo'l oldi saroyga tomon,
Elig sari kirdi ruxsat tekkan on.

Eligning O'gdulmishga savoli

...Elig dedi: nechuk ekan O'zg'urmish,
Qani gapir, bo'tam, nechuk bo'ldi ish?

Nima gaplar bo'ldi, ne bo'ldi ishing,
Tilaging ne bo'ldi, kelarmi eshing?

Xatni berdi avval O'gdulmish turib,
Elig oldi, ochdi, o'qidi ko'rib.

Yuzi sal o'zgardi, qizardi kulib,
Chuqur nafas oldi u o'yga tolib.

Dedi: qardoshingning so'zi sal dag'al,
Lekin barcha so'zi to'g'ri, mukammal.

To 'g'ri dag' aldir kim aytsa ekan,
Men ipak jo' natdim, u berdi tilkan.

Ne tarz edi tilda aytgan so'zları,
Ayt-chi, nechuk edi so'zining qa'ri.

O'gdulmishning eligga javobi

Eligga o'tindi eshitgan so'zin.
Unda bo'lgan barcha suhbat ildizin.

Dedi: suhbat bordi turli asnoda,
U dedi, men aytdim bilim, zakoda.

Nima aytsam berdi javobga so'z,
Qattiqroq qistasam tamom yumdi ko'z.

Nima demay o'zi bu yon kelmadı,
Nima deb atamay dili bo'lmadi.

Uning so'zlarini aql eshitdi elig,
So'zi edi tugai, idrok, bilig.

Yana orzuladi, talpindi ko'ngil,
Ko'ngil talpindimi, kishiga mung-ul.

Ko'rsang, yaxshi degan mardarning boshi,
"Dildagin topmasa mung olar kishi."

Begdir bu ko'ngil, ko'r, odamzod — quli,
Begiga ergashmoq xodimning yo'lli.

Ko'ngilni bosib tut, tilasa tilak,
Tilak topmay topmas u tayanch, yo'lak.

Eligning O'gdulmishga javobi

Yana aytди elig: Ey O'gdulmish-a,
Qardoshing tamom, chin, yetuk emish-a!

Koshki eshitmasam edi so'zlarin,
Fe'l-atvor, bilimi haqida barim.

Eshitdim, ko'ngilga joyladim uni
Uringin, tilakka yetkazgin meni.

Tilagim o'z elim ichida bo'lib,
Topmasam yaxshimi uyatga qolib?

O'gdulmishning elingga javobi

O'gdulmish javobda dedi: ey elig,
Xalq aro sarasi, ey dono, tetig.

Qaytishda qardoshga so'zlagan edim,
Elig meni qayta jo'natgay dedim.

Qo'yib qo'ymas, axir, u eltgay seni,
Shu so'zlanmi aytdim e'zozlab uni.

Umidni uzdirdi — qaytib kelma, der,
Istagim yo'q, menga zo'rlik qilma, der.

Eligning O'gdulmishga javobi

Elig dedi: uqdim, eshitdim so'zing,
Bular hech gap emas, yana bor o'zing.

Nechuk bo'lар, axir, tilakni tilab,
Uni ololmasa kishi orzulab.

Ne erkli bo'ladi elida ulug',
Elda yuritmasa yorlig'in to'liq.

Ezgullik nishoni shudir belgilik,
Qo'l cho'zib tilagin ololsa elig.

Bu orzu bermagay menga hech omon,
Bu bard emlanmasa — o'lim begumon.

Nima deydi, eshit, bu baytni o'qi,
Uning ma'nisini uq, ey ko'nglim to'qi:

"Barcha dard, kasalga emi belgilig,
Davolovchi tabib — qami¹ belgilig.

Ko'ngil orzu bilan og'risa agar,
Davosi — aniq, ko'p-kami belgilig."

O'gdulmishning elingga javobi

O'gdulmish der: elda ey qutli taqdir,
Olamda ne borki, bo'lmasin tadbir.

Elig omon bo'lsin, chekmasin fig'on,
Elig uchun fidu tamadagi ion.

So'zimni tilimda etdim-ku bayon,
Endi naf bermas u, qilma pushaymon.

Yaxshi tingla, senga dono aytadir,
Keyin so'zla so'zni, ey mard, bahodir.

Tilga chiqarmasang so'z nafi talay,
O'kintirar tilga chiqsa har qalay.

So'zing so'zlamasang senga qul bo'lar,
Agar so'zlasang-chi seni qul qilar.

So'zni o'ylab chiqar, shoshilma chandon,
Shoshilinch so'z so'ngi — o'kinch, pushaymon.

O'zg'urmishni bu xil etmay tasavvur,
Qijnaldim, axir u donishmand erur.

Elig bir istasa, ko'nglim ming tilar,
Uning nafi, axir, menga ham kelar.

Tilagim: u bilan men birga bo'lsam,
Qo'Ini qo'lga berib yumushing qilsam.

Men uni qistasam yana to bora,
Shunchalik tirandi qarshi u sara.

¹ Qam — kohin, tabib.

Yana borgin desang, borayin o'zim,
Nima lozim bo 'lsa, aytayin so 'zim.

Elig esa yozsin yana bitta xat,
U xatni o'qisin, ishonsin albat.

Eligning O'gdulmishga javobi

Elig dedi: bir yo'l yozdim-ku maktub,
Maktub javobini berdi o'xshatib.

Yana qanday qilib bitayin bitig,
Bitig o'miga sen bitigsan yetuk.

O'gdulmishning eligga javobi

Javobda O'gdulmish der: Ey elga qut,
Shunday bo 'lsa hamki yana maktub bit.

Elchi sodiq, rostgo'y esa qancha ul,
Bitig bo'lmas ekan ishonmas ko'ngul.

Tanuvchi kishiga bitig — ishora,
Ishora aniqmi — bo'lak ne chora?!

Eligning O'gdulmishga javobi

Elig dedi: Orzung shu esa agar,
Bitig ham bitayin o'zim muqarrar.

Xudo nomi bilan so'zni boshhadgi,
Yaratgan, o'stirgan, kechirgan dedi.

Dedi: Ming sano ul qodir tangrija,
Uning hukmi yetar to 'g'ri egriga.

Toza, pok yasadi, der bir-u borni,
Yo'qni bor qilar u, yo'q qilar borni.

Uning birligiga yetkazgin idrok,
Toat qil, ko'ngil tut, tilni asra pok.

Barchasi bo'ladgi — u neni tilar,
Neni bo'l desa, bas, shu onda bo'lar.

Bori tebranganga beradi hayot,
Tirklik tengicha o'lim bor, hayhot!

Azizlik, tubanlik uning hukmi, bil,
Ullug'i kichikka ochar bo'lsa yo'li.

Tilagan tilagin biluvchisi yo'q,
Yuritar qazosin tikuvchisi yo'q.

Tuman ming salomim olsin payg'ambar,
Xudo qilsin uni ishimga rahbar.

Bori eshlariqa, sano, madh, salom,
Xudoym yetkazsin uni bardavom.

Avvaldan salomim, madhim ming bora,
Senga yo'lllagayman, ey uquvi sara.

Uni-ku yozaman, ammo bu bitig
Ishonchli narsamas, ey dono tetig.

Nima lozim bo 'lsa so'zlasin tiling,
Qaytishda bo'sh bo'lmay qaysin to qo'ling.

Kuntug'di elig O'zg'urmishga muktub yulborishini aytadi

Davot oldi yana qog'ozni elig,
Qalam oldi, qo lida biddi u bitig.

... Ko'ngil so'rab yozdim, yubordim bitig,
Hayting ne tarzda kechar ey, tetig?

Jo'natgandim sening qardoshingni men,
Tilagim shu edi: bizga kelsang sen.

Manzur bilmadling lek qadam urishni,
Bu yon kelmoqni ham uyum ko'rishni.

Maktubimga javob yozibsan o'zing,
Tilida keltirdi qardoshing so'zing,

Makttubing o'qidim, ochildi ma'nii,
So'zimni eshitgin, ey dono, qani.

Shakardan shirinroq so'z aytdim senga,
Og'udan achchiqroq qaytarding menga.

Yana bir bor eshit mening so'zlarim,
Ko'ngilga jo etg'in, e mard, botirim.

Muyassardir senga zohidlik ot'i,
Shundan senga makon tog'larning qati.

Shu tufayli oting yozildi, ko'r-a,
Buyuk belgi bo'ldi kishilar ora.

Toat-ibodating sababi oting,
Behuda sarf etib qo'yma hayoting.

El-yurt ko'zi tushsa toatga agar,
Bu toat asosi qular, buzular.

Xudo nihon tutar sevimli qulin,
Bu qu'llar aro xalq bilmagay tilin.

Bu qul o'z-o'zin ham bilmagay, qara,
Yovmi yo yaqinmi Xudoga sara.

Beri kel, qishloqda yana xalq aro —
Seni bilmasimlar ne oq, ne qaro.

Halol dunyo qozon, o'zni et fido,
Och, mahol tilagin eta ber ado.

Halol dunyo olsa kishi ezzusi,
Kelar ikki olam yegu-qayg'usi.

Bu so'zni eshit, ey menga kelmagan,
Qara, dono kishi nimalar degan:

"Kelar esa dunyo agar ezzuga,
Yarar ikki olam yegu-kiyugga.

Dunyo molin olib yeya bilmasa,
Azob deya bilgin uni manguga."

Kishilar ishiga naf ber, ey dono,
Kishiga naf bergen marddir doimo.

Musulmonga nafing tegsin, deb o'zim
Kuch bilan chorlarmen, shudir chin so'zim.

Beri kel, naqli bo'l, mungiga yara,
Nafi yo'q o'lik, kishilar ora.

O'z nafin tilagan odammi bo'lar.
Kishi ulki, doim, el nafin tilar.

Saxiylik u emas — ulashsa molin,
Saxiylik — baxsh etsa tan-jon kamolin.

Mehrli ishimas o'zin kezlassa,
Mehrli udurki, ko'jni izlasa.

Ezgu kishi derlar, bu ezgu qani,
Menga aytib bergen, dono, o'shani.

Kishi ezgu derlar, bu ezgu kimdir,
Ezgu — qayg'u tekkan kishiga emdir.

Ey ezgu, pokiza, bilimdon, dono,
Boqib ko'r, bu so'zga yetkazgin zako.

Bu aytgan so'zim chin, yo ko'r gin, yolg'on,
Chin ersa dam urma, o'zing kel bu yon.

Ozor berar dilga so'zni ko'p qilsa,
Zakoli kishilar so'z aytar qisqa.

Bu so'z kifoyadir, ortiq so'zlama,
Sergap kishilardan zako ko'zlama.

Yana qolgan bo'lsa ba'zi bir so'zim,
Qardoshing yetkazar, o'tindim o'zim".

Nuqta qo'ydi oxir u yozgan xatga,
Qalamni ham yuvdi, qo'ydi bir chetga.

Xatini tamg'alab uzadi, xoqon,
O'gdulmish ham oldi xatni u zamон.

Yana aytdi elig: "Ey O'gdulmish, bor,
Bitig' ber, yana ayt tilingda takror.

Uringin, to kelsin o'zi biz tomon,
Chorasi ne esa, topgin bu zamон."

Tilagi ne esa bu yerga kelib,
Chorasini toparmiz bir iloj qilib.

"Albatta" deb turdi, ko'r, O'gdulmish-a,
Yurib keldi uysa u ezgu esh-a.

Yetib keldi uysa, u cho'kdi og'ir,
Uzoq uysa toldi — yumushi og'ir.

Yuzin yerga qildii bu rumiy qizi¹,
Olam rangi bo'lди zangilar yuzi².

Osmon bo'lди misli qora qush rangi,
Olamni qopladи qora qush yungi³.

loyiga cho'zildi, o'ylandi uzoq,
Qardoshiga aytar so'zin ushbu chog⁴.

Mizg'ib oldi ozroq, uyg'ondi yana,
O'chib qolgan ko'mir misli bu tun-a.

Uyqu o'chdi, turdi o'midan sekin,
Qora tun ko'tara boshlar etagin.

Quyoh turdi yerdan, ko'tardi boshin,
Yorug' yuzli go'zal ko'rsatdi tishin⁴.

Otin tutdi, mindi bir o'g'lon ila,
Jo'nab ketdi keyin sevinchda kula.

Qarinoshshi sari yetdi tez zamон,
Otdan yushhib yurdi eshigi tomon.

¹ Rumiy qizi — ko'ch, oy.
² Zangilar yuzi — ya'ni qora tanli kishining yuziday qora rang kasb etdi.
³ Qora qush yungi — ya'ni qora rang, qorongo'llik.
⁴ Ko'rsatdi tishin — ya'ni olam yorishdi.

Yurib bordi asta, eshikni urdi,
O'zg'urmish chiqdi-yu yaqmin ko'rди.

Eshik ochib avval qardoshin ko'rди,
Qo'llin oldi, keyin holini so'rди.

O'zg'urmishning O'gdulmishga savoli

Dedi: qarindoshim orom bilmading,
Menimcha, bu yerga begor kelmading?!

Ochiq aytdim so'zni, eshidding uni,
Nega qynagaysan bu qadar meni?

Nima deydi, eshit, ta'limdi bilgan,
Yaxshi-yomonlarni u sinab kelgan:

"Kishini sinashga bir bor ko'rsa, bas,
Sevar-sevmasini tilda so'rsa, bas."

Mis bilan oltinni farqlay olmasa,
Olilib ozgina sir toshin susa bas."

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

Javobda O'gdulmish dedi: ey oshnam,
Menga achchiq qilma, chekma buncha g'am.

Xodimi ko'z ochsa ko'rар begini,
U ijo etadi aytsa begin ne.

Eliga yetkazdim bitiging, so'zing,
Barin aytdim, neki dedding sen o'zing.

So'zingga javoban berdi u bitig, —
Deya xatni berdi asta u tetig,

O'zg'urmishning O'gdulmishga javobi

O'zgurmish xat oldi, o'qidi turib,
Biroz o'yga toldi, ma'nisini ko'rib.

O'zicha o'ylandi: "Bu qanday bo'ldi,
Qardoshim izimga buncha tikildi?!"

O'gdulmishning O'zg'urmish bilan ikkigchi marta munozara qilishini aytadi

Bu O'gdulmish, unga beradi sado:
Bo'yinda borini men etay ado.

Eligning tilagi ezbilik senga,
Tilakning bir uchi tegishli unga.

Bilarsan: hozirgi toat-ibodat
Nafi qanchaligin bir o'zing faqat.

Yana kent, ulushda sanadim biroz,
Ularning nafi ham talay yoki oz.

Yomon emas asli bu dunyo quti
Kishiga naf etsa, taralib ot.

Olam molin qo'yib zohid bo'lasan,
Talay balki savob kelar asosan.

Yomon desa bo'lmas olam molini,
Yesa, bersa xalqqa, bilib holini.

Yana yaxshi degan saxiylar boshi,
O'qigil uni sen, ey ezzu kishi:

Bari ezzulkirning tovar¹ — elchisi,
Bori dard, kasalining tovar — emchisi.

Moli bo'lsa, odam oladi bilim,
Bari ezzulkirka tekizar qo'lin.

Moli bilan odam tilasa tilak,
U mol ezzulkirka bo'ladi yo'lak.

Tilaging haj ersa — kerak mol-tovar,
Azizlik tilasang yana u berar.

Moli bo'lmasa-chi, olib berishga,
Qo'li qisqa bo'lar har ezzu ishga².

Bu ezzuni nechun surasan keyin,
Bu pand-u o gitni manzur ko'rmayin.

Toatga ne xilda ishonса bo'lар,
Topindim deb qolsa azoblar olar.

Faqat toat ila topilmас naiot,
Norzik juda bu yo'l, netar xayyolot!

Necha ming toatkor sig'indim ko'p quл,
Joni chiqar chog'i yo'qotishdi yo'l.

Necha ming toatsiz, gunohkor odam,
Yo'lini o'ngardi tin kesilar dam.

Bilarman: Xudoym sevinchi to'liq
Ibdodat ichida bo'lар, ey ulug'.

Agarda bilmasa, toatning chini
Qaysi тоат екан, tushummas buni.

Agar shunday esa bori ibodat,
Tugal ado bo'lsa, shudir saodat.

Boqib ko'r, ne degan bo'lsam gar senga,
Bari to'g'rimasmi, tushuntir menga.

Shu xilda esami agar haqiqat,
Bilib ol, anal qil shularga faqat.

Havoga berılma, ochiq tut ko'ngil,
Kishiga qorishgin, shudir to'g'ri yo'l.

O'zg'urmishning O'g'dulmishга javobi

Iavobda O'zg'urmish dedi: e qardosh,
Meni g'amga qo'yding, og'u bo'ldi osh.

Deylikki, men olsam so'zingni agar,
Elig xizmatini boshlab sar-basar.

Xizmat uchun kerak avval qoida,
To ishi soz bo'lsin, so'zi — joyida.

Kirish-u chiqish bil, o'tirish-turish,
Qoida bilmasa, tashvish har yumush.

Nima deydi, eshit, yumushin bilar,
O'zi sinab ko'rib andisha qilar:

"Beklar ishun qilmoq tilasang o'zing,
Ko'ngil, tili ni sof tut, avayla so'zing.

¹ Tovar — bu so'z qadimgi turkiy tilda o'z qatlamga oид bo'lgan hamda "mol", "ashyo", "moddiy narsa" ma'nosida qo'llangan.

Qonun qoidasin bilib ol, magar,
Tiling uzun, yorug' bo'ladi yuzing".

Bu ikkisin olsa agar har sardor,
Rasm-u odatlarni bilmog'i darkor.

Odamlardan uzoq yurardim o'zim,
Qonun-qoidacha emas fe'l, so'zim.

O'shal beg oshirar shonin-u kuchin,
Yov bo'yin egadi, oladi o'chin.

Oqibati: topay unga qaydan erk,
Men uchun bu eshik mudom qoldi berk.

Agar biz bilmasak nizom-qoida,
Biror ish bo'larmi joyi joyida!

Nega zo'rlagaysan yoqamdan olib,
Elingga yumush qil, deya so'z solib.

O'gdulmishning O'zg'urmishga
javobi

Bu so'z ham tuzukmas, dedi O'zg'urmish,
O'zing o'ylab qara, ayo xulqi xush.

So'zimni eshit, — der, ayo qarindosh,
Qiyin ish emas bu esa elga bosh.

Sen-u menga aslo yarashmas, qara,
Rasm-u odat bilmay yursak xalq ora.

Rasm-u odatlarni bildim mukammal,
Men aytay, sen eshit, keyin qil amal.

Elini o'stirish ham boyitish, tutish
Beklar zimmasisiga yuklangan zo'r ish.

Kishi bilmasa: ko'r, kuzatar, bilar,
Bilib olgan odam, tilagin olar.

Bunga moslab aytar bilimdon odam,
Buni tutmas erving bilimlari kam:

Bunga moslab aytar bilimdon odam,
Buni tutmas erving bilimlari kam:

Eli saodati — beglarning ishi,
Rasm-u odat bilsa etar har kishi.

“Tug'ilgan chog'idan o'rganar odam,
Tili so'zni aytar soat yetgan dam.
Kishi o'rganishdan dono bo'ladi,
Bilim bilgan odam sira bo'llmas kam”.

Yana yaxshi degan buni jahondor,
Bilimli, uquvli, ko'p elga sardor.

O'zg'urmishning O'gdulmishga
javobi

Olamli olishsga uquvli kerak,
El-yurtmi tutishsga shijoat, yurak.

Bu O'zg'urmish aytar: tilaging sening
Bu esa, bo'lak hech so'zim yo'q mening.

Bu kun chorlagaysan u yoqqa meni,
Yumushlar ne xilda bo'lar, ayt, qani?

Ko'ngilga singarmi — so'zing tingleyin,
Nechuk o'rganarman — uni anglayin.

Ayta qol, necha xil odat, qoida,
Ularni sanab ber joyi-joyida.

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

Javob berdi: so'zing bari chin, tugal,
Butun so'zni deding, fe'ling mukammal.

Zakodan ko'p uzoq edi u yo'ling,
Endi chin yo'l uzra yo'naldi qo'ling.

Men aytayin endi, eshitgin o'zing,
Qaragin, kuzatgin, yorishsin ko'zing

Niyat o'rganishmi esa senda gar,
So'zimni eshitgin, etay muqarrar.

O'gdulmish O'zg'urmishga beglarga xizmat qilmoq urf-odatlatalini o'rnatadi

Ikki turli bo'lar yumushchi kishi,
Yumush bilan har kuni yuksalar ishi.

Biri — yoshligidan yumushda bo'lar,
Yana biri o'sib, ulg'ayib kelar.

Ikisisi ichida sarasi deb bil,
Kichiklikdan ishga qo'ysa gar ko'ngil.

Bu kun aytar bo'lsam fikrimni o'zim,
Kichiklardan boshibay aytayin so'zim.

So'zni o'rita tutsang bo'lar naf faqat,
Butunlikda odam topar saodat.

Pishiqlik tilasang, pishiq tut so'zing,
Butunlik tilasang butun bo'l o'zing.

Eshik ochay desa yumushga odam,
Xizmat qilsin garchi bola bo'lsa ham.

Odatlarni bilsa ham yo'l-u yo'riq,
Kirish chiqish, bilsa yaxshi xulq — qiliq.

Erta turib etsa yumushni ildam,
Ko'ngil-tilni simiq tutolsa har dam.

Yumush chog'i bo'lsa oyooq-qo'l yengil,
Qulqoq ko'zi o'tkir yana sezgir dil.

O'zidan ulug'ga tutib tursa ko'z,
Avaylasa tilu pishiq bo'lsa so'z.

Yoshlikdan ish etsa bu yanglig' kishi,
Begiga o'nglanar kerakli ishi.

Kirish-chiqish unga bo'ladi nasib,
Begiga arz uchun udir munosib.

Shunda yetar unga yarashiq amal,
Begi ham naf topar to'la va afzal.

Xodim tetik esa, qillig'i butun,
Har ishsga yayar u, tez topar qutin.

Mergan, dovqur esa bo'lar o'q-yochi,
Fe'li to'g'ri esa bo'lar tamg'achi*

Fe'li ravon esa, ham ko'rkli yuzi,
Soqiy amaliga mos bo'lar o'zi.

Xazinachi bilsa hisob va yozuv,
Zako, idroklimi – kotib bo'lар u.

Qay bir ishga bo'lsa kishi sazovor,
Munosib ish qilsa undan sevinch bor.

Nima deydi, eshit, yumush qilguchi,
Yumush bilan doim tilak olguchi:

"Turar bo'lsang begka yuzma-yuz o'zing,
Ehtiyyot bo'la tur, asragin ko'zing.

Fe'ling tuz, yo'riq top, so'zing asragin,
Ko'ngl, tilni rost tut, pishiq et so'zing."
Yumush bilan bo'lar turli-tuman ish,
Yumushda yaqinroq bo'lar ezuq esh.

Necha ezzulkini tilasang o'zing,
Yumush qil, yumushing yoritar yuzing.

Agar begka tursang o'zing yuzma-yuz,
Qulog'ingni sog'-u o'tkir tutgin ko'z.

Qo'lingni qovushtir, turgin oyoqda,
Chap qo'lini o'ng uzra tutgin bu chog'da.

Eshikdan kirishda o'ng oyoqni qo'y,
Tili madh erganda tingla, yaxshi o'y.

Arz aytardi qo'lini to'g'ri tut yakkash,
Ikki tiz bilan cho'k, bo'lgin seadab.

Qiyo boqma unda o'ng yo chap qarab,
O'zing iymanib tur, bo'lgin seadab.

Sendan so'z so'rasa oqiz so'z chinin,
Ruxsat bersa to'g'ri yorlig'in degin.

May ichma, yurmagan behuda, begor,
Yaramas, yovuzga yondoshma zinhor.

Eshitgan so'zingni eshitmagan bo'l,
Ko'rganing ko'rnasdek bo'llib boshla yo'i.

Bu yanglig' ishlasa, yarasqa kishi,
Quti kunda ortar, yarashar ishi.

Birovi el olar, bo'lар el boshi,
Birovning ot, ayg'ir uzradir ishi,

Biri – lashkarboshi, birovi – xojib,
Birisi sarkotib bo'lar so'z ochib.

Amal olib ishga yarasqa qay er,
Ulug'likka yetar, tugal orzu yer.

Birovga o'galik tegar – zo'r hayot,
Biri ko'k ayqlik uzra topgay ot*.

Birovi ishonch beg, biri chag'ri beg,
Birovi tigin beg – biri bo'ridek*.

Qayu yabg'u, yug'rush bo'lur eliga,
Qayu yomon nomni olar beliga.

Biroviga tegar xizmatkor quli,
Bundan boshqa ham ko'p taqdirlash yo'il.

Qay amal uzra ham yumush etsa er,
Ulug'likka yetar, yotib orzu yer.

Amali tengi ish etarkan birov,
Uning javobiga keladi maqtov.

Agar tebransami pastkash er tili,
Yaramas ish etar bu yerning quli.

Juda yaxshi degan bilmidon, dono:
“Noloyiq odamga ish berma aslo”.

Yana yaxshi degan bilim bu haqda,
“Bilimsizga qo’ling berma hech chog’da”.

“Zakosiz kishidan bilim ham tuzar,
Bilimsiz kishilar elin ham bazar.

Bilimsizga to’rdan tegsa gar o’rin,
Beqiga past nazar tashlar u burun.”

Ulug’likka tegsa zakosiz kishi,
Egasi boshin yer, ey elchi boshi.

Begi shunday bo’lsa: xizmatkor qulin
Xizmati tengida bersa amalin.

Xodimni kerakdir kuzatmoq, sinash,
Zakosi tengi so’ng lozimdir stylash.

Mehribon bo’lsa gar xodim beg uchun,
Unga yaratshar beg achitsa ichin.

Nima deydi, eshit, nizom berguchi,
Nizom birla beglik boshin burguchi:

Necha o’tmasin qul, qul oti quldir,
Ustidan begiga sig’ingan shuldir.

Necha qiliq qilsin beginning oti beg,
Zo’r quldan beg oti oyollar birdekk.

Ey begini qadrlab buyuk bo’lgan er,
Begingni buyuk bil, buyuk tutgin, der.

O’chakishma aslo, beging bilan to,
So’zin dema yaxshi ko’rsang ham hatto.

Ular qut erur, ko’r, uzun qo’l o’zi,
Yonar o’t erur u, yondirar ko’zi.

Zamona erur u, zamona ila
Yarashmoq kerak to yashagin kula.

Yana yaxshi degan sinab bilgan er,
Yumush bilan o’sgan, tilak olgan er:

“Qanday ezzu narsa donolar so’zi
Shohi-ipak misol har so’zning o’zi.

Kulgi qoplasa ham bu beglar ko’zin,
Unga sen sevinma, ishonma uzun,
Yumushga ishonib kermagin ko’krak,
G’azab kelsa, ular bosolmas o’zin”.

Kichik, ulug’ yoki mashhurni xodim,
Baribir, u xizmat qilmog’i lozim.

Urinsa u toki ishin buzmasa,
Yumushi yo’llida o’ngdan ozmasa.

Necha yaqin tutsa hamki beg seni,
O’zingni unutma, yaxshi bil shumi.

Necha yaqin tutsa bo’lgin ehtirot,
Diling berra, jazo senga bo’lsin yod.

Goho o’t bo’lur, ko’r, goho suv bo’lur,
Goho kuldirur, ko’r, goho yig’latur.

Uch narsanining aslo bo’lma qo’shnisi,
Yonar o’t, oqar suv uning belgisi.

Zo'r arslonga o'xshar bu beglar o'zi,
Maqalsa yumshagay raffori, so'zi.

Agar g'azab kelsa, jo'shar, bosh kesar,
Tomirni teshib, ko'r, so'rib qon ichar.

G'azab chog'i begka bormagin yaqin,
Agar borsang, balo yondoshar tayin.

So'raganda so'zla, chaqirganda kir,
Salomat yashagin, doim bo'l og'ir.

Nima deydi, eshit, o'zin tutgan er,
Arz-hol uchun qulay chog'in kutgan er:

"Kirib tur desalar — humrat har qanday,
Chiqib tur desalar — haqorat talay.
Ko'zingni asra-yu o'zingni tutgin,
O'zin tutuvchini boshga ko'taray".

Uch ishdan yiroq tur, o'ylagin doim,
Biri — qattiq bo'lma, fe'li muloyim.

Tag'in biri — yolg'on, biri suqlikdir,
Bu uch ish tubi ham tamom yo'qlikdir.

Aralash, saroya kirsang qay kuni,
Seni kim og'irlar, og'irla uni.

Gerdyma, qo'llingni sola kirmagin,
Qo'llingni qo'llitqqa qisib turmagin.

O'tirish chog'ida o'mningni bilgin,
Hech kimni past ko'rma, kishiliq qilgin.
Ovozing boricha kulmagine sira,
Tubanlik bo'lar bu kishilar ora.

Chordona qurma ham yonbosh yotmaganin,
Yomon fe'l ichidan ezzu kutmaganin.

Aslingni o'yla ham o'zing qo'lga ol,
O'zingni umutsang qut olar malol.

O'zingdan ulug'ning so'zin so'zlama,
So'zin yaxshi tinglab uni kezlama*.

So'zing to'g'ri gapir, yotishar yuzing,
Faqt ezgulikka ochilsin so'zing.

Ichib kirma saroy ichiga zinhor,
Ichganda — pastkashlik, mayda — zarar bor.

Uch narsadan chetga turgin muqarrar,
Undan asralmasang keltirar zarar:
Birisidir tutsa, nenidesa beg,
Uni saqlay olsin tani-jonidek.

Ikkinchiyoyymasa xalq ichra uni,
O'zin astrasa har soat, har kuni.

To'g'ri yursa yana saroyda o'zi,
Yaramas, yomonga boqmasa ko'zi.

Bu uchdan birisin qiluvchi kishi,
Ulug' bo'lsa hamki, kesilar boshi. —
Bo'lar ishni aytSAM senga, ey qo'zi,
Soati yetishmay bo'larmi o'zi?!

Senga tegsa agar yuqori o'rin,
Kishi kelsa tur-u bo'shat uy to'rin.
Savol ila boqsa ulug'lar senga,
Uzatma so'zingni, ey botir-to'nga!^

* To'nga — botir, jasur.

Eshitsa bilaring degil birma-bir,
So'zing kessa to'xta, so'rasha gapir.

Agar beg uyiga chorlasa seni,
Odob ila osh ye, o'rinalat shuni.

Hamisha cho'zilsin faqat o'ng qo'ling,
Xudo nomini ay, ochilar yo'ling.

Birov oldiga qo'l uzatma sira,
Bu ishdan kishilar bo'lar masxara.

Pichoq tutma, suyak kemirma, jo'ra,
Bo'laklar ravishin kuzatgin, qara.

Ayoldek yemagin, shoshilma, tag'in
Takalluf ichida xijil bo'lmagin.

Agar bo'lsa hamki qorqinang to'q,
Bek oshga undasa sira dema "yo'q".

Qay ishga kirishsang kambarasta bo'l,
Ko'ngil qo'ysa ishga yorug' bo'lar yo'l.

Juda yaxshi degan bilimdon kishi,
Dono so'zi oltin turar turmushi.

Ish boshi bo'lishga galing kelsa gar,
Bilim ila etgin uni jilvagar.

Bo'lib qolsang agar bir ishga ma'mur,
Saxiy bo'l, zarif bo'l, el olsin huzur.

Amal tegsa agar senga kattaroq,
Saxovat qilaver, siniq bo'l biroq.

Bo'lar ish bo'larkan, ey sohib davron,
To bo'limasa ko'zga tushmas hech qachon.

Agar tegsa hamki senga o'rin — to'r,
Kishi kirsas, albat, sen o'rnингдан tur.

Vazir bo'lsang qo'lni uzun qilgin ko'p,
Yovuz ish yuritma, bo'lgin ezzu, xo'p.

Agar bo'lsang o'zing sohib maslahat,
Ezzu, to'g'ri yo'lni ko'rsatgin faqat.

Tegsa ko'k ayiqqlik¹ lavozimi gat,
O'zni astra, shunda qut bog'lar kamar.

Lashkar yo elatga bosh bo'lsang o'zing,
To'g'ri bo'l, o'tkir tut qulog'ing, ko'zing.

Hojiblik yetishsa, olmagin pora,
Gadoy, tul, yetimlar so'ziga qara.

Xazinaga bo'lsang sen xazinachi,
Chin-u butun bo'lgin, bo'lma ginachi.

Kotib yo ishboshi bo'lsangmi o'zing,
Ko'ngil sirin asra, chiqarma so'zing.

Mana shular erur, nomdor yumushchi,
Bundan bo'lak bordir bir qator ishchi.

Bundan bo'lak tag'in talay ishchilar,
To'shakchi yo qushchi, yana oschchilar.

Bu yanglig' ishlardan tursang gar yiroq,
Rohat oz, tashvishi ming-mingdir biroq.

O'zingga tilasang uzun ehtirom,
O'zgani qadr etgin, ayo ezzu nom.

Ulug'ni ulug'la, keltir hurmatin,
Shunda sen olasan ulug'lik qutin.

¹ Ko'k ayiqqlik — qadimiy turkiy davlatchilik tarixidagi lavozimlardan biri.

Eshit, nima deydi qariya so'zi,
Qariya so'zida har ishning ko'zi:

"Ulug' ni hurmatlash qadim odat, ko'r,
Ulug' kelsa o'zing oyoqda tik tur.

Ulug' ga yetishsa kichik hurnati,
Ulug' ham kichikka e'zoz ko 'rsatur'.

Mana,— deya so'zin kesdi O'gdulmish,
Beklarga yaqinlar qiladigan ish.

Mening so'zlarimni yaxshi tinglading,
Ne xil yumush lozim tugal angladling.

Shu yanglig' yumushni bajarsa xodim,
Xizmati singadi, qut kelar doim.

Nafi ko'p yumushdan biri, shu, bilgin,
Bilgan esang, endi amalda qilgin.

O'zg'urmishning O'gdulmishga savoli

O'zg'urmishning ketib biroz tashvishi,
Buni eshitdim, der, ey ezgu kishi.

Yana bir savolim bor erur senga,
Uni ham aytilib ber ushbu dam menga.

Agar ishga borsam sen aytgan joyga,
Har kun kirmoq kerak, axir, saroyga.

Yo'rig'i ne xilda bo'ladi, bilay,
Sen aytgin borini, o'rganay, qilay.

Muloqot talabdir bu ahli saroy,
Loyiq bo'lmoq kerak unga hoynahoy.

Buni ham aytilib ber bu kunda o'zing,
Ne xilda qo'shilay, uqayin so'zing.

O'GDULMISH O'ZG'URMISHGA SAROV AHЛИ BILAN QANDAY MUOMALA QILISHNI AYTADI

O'gdulmish javobda dedi: bular ham
Kerakli kishilar erur, ey oshnam.

Bulami ham senga o'rgatay, mayli,
Ular fe'llin o'rgan shu so'z tufayli.

Tirklik o'shalar bilan, ey sara,
Birovin qardosh tut, birovin — jo'ra.

Saroy ahli bilan yarashmoq kerak,
Qo'shilish, kelishish, borishmoq kerak.

Saroy ahli bilan kim bo'lmasa soz,
Tiriglik tatimas, ko'rmagay e'zoz.

Nima deydi, eshit, yumush qilguchi,
Adolatda elda duo olguchi:

Yaqinlik tilasang o'zing beg ila,
Saroy ahli bilan yaqinlik tila.

Ulug'lik topayin desang hamisha,
Saroy ahli bilan soz, inoq yasha.

Qancha yaqin tutsa ham semi xoqon,
Saroy ahli bilan bo'lgin yonma-yon.

Tugal uch toifa saroyda kishi,
Bular bilan bo'lar tiriglik ishi:

Birinchisi sendan ulug'lar bo'lur,
Ulug'ga yukunsang senga qut kelur.

Ulug'la ularni, qadr etgin so'zin,
Ezgulik keltirar, oq tutar yuzin.

Dono degan endi bu so'zga monand,
Donolar so'zini tut doim baland:

"Kichikka ulug'lik ulug'dan bo'lar,
Uluqqa egilsa, kichik qut olar.

Ulug'lar so'zin tut, yumush qil, yugur,
Ulug' so'zin tut sang, tilak tez kelar".

Ulug'lar qut erur, tilasang qutin,
Ishin etgin, berar tilaging butun.

Yana biri senga teng-tushdir, qardosh,
Yiratsang yovdir u, yondosh sang — qardosh.

Eshing, tushing, jo'ra bo'ladi ular,
Ezgusi tengida etsin ezgular.

Yana biri sendan kichiklar butkul,
Achchiq-chuchuk bori shular bilan, bil.

Yumush qilsa mol ber, gunoh qilsa ur,
Behuda, bo'sh qo'yma, ishin so'rab tur.

Xor qilma, qattiq bo'l kichikka o'zing,
Gapda o'ynamagin, tiyib tut so'zing.

Oshma, og'aynni ko'paytir, qo'shil,
Yaqinlar ko'p bo'lsa, ma'qul deydi til.

Notanish kishini yov bilma, aslo,
Yovi bor kishida sevinch yo'q ammo.

Necha oz yov bo'lsin, talay zarati,
Yovda naf bor demas er ezgulari.

Nima deydi, eshit, donishmand bu on,
Necha marta ko'rigan yovidan ziyon:

"Yoving bir bo'lsa-da mingdir zarari,
Ming do'sting bo'lsa ham birga teng bari,
Kishi dushmanidan nafni ko'rmadi,
Agar ko'rigan esa u mard sarvari".

Qanday yo'lni tutsa senga qo'ldoshing,
Sen unday qilgin, to sevinsin eshing.

O'zingga tenglarni yaqin tut tag'in,
Tengdosh tengdosh uchun ko'rik bo'lар tayin.

Esizni esh tutma, yondoshma zinhor,
U yo'ldan ozdirar, undan zarar bor.

Otim bo'lsin desang el aro ezgu,
Yomonga qo'shilma, buning yo'lli — shu.

Bor narsani ko'rdim — o'z hidin bilar,
Kishi, yilqi, qurtmi yoki qush bo'lар.

Eshit, nima deydi, bu elchi boshin,
Yaxshi-yomon sinab kechirgan yoshin:

Chug'urchuqni ko'rdim, uchar qiyqira,
Jutfiga qaradim: ikkov ham qora.

Oqqush qo'shilmaydi qoraquushga, boq,
Qoraquush oqqushdan juda ham yiroq.

Uchar qush ham bilar eshin, ne uyur,
Kishisan, qo'shilgin, kishilar-la yur.

Ikki turli bo'lar yaqinlik ishi,
Bu ikov deya do'st tutinar kishi.

Birin esh tutarlar Xudo yo'lida,
Yomolik ko'rinnas bu esh xilida.

Yana biri bo'lar o'z nafin deya,
Bu xil do'stlukka tez tushadi soya.

Agar tangrillik esh tutinsang o'zing,
Yukin ol, og'ir bo'l, yorishsin yuzing.

Buning nafin hozir tilama, dono,
Uning nafin keyin beradi Xudo.

Agar do'st tutinsa dumyo moli deb,
Bu eshdan ko'ngil uz, ko'rnma o'zga ep.

Nima deydi, eshit, yaqin bo'lgan er,
Bu yo'lida zarar-naf — borin bilgan er:

Eshingni zarar-naf ichida sina,
Bu ishda adashma, pishiq bo'l, sen-a.

Do'st dilini bilmoq tilasang o'zing,
Yuzingni burishfir, dag'al qil so'zing.

Sevar-sevmasni bilayin desa,
Sevimli molin so'r, bilinar rosa.

Shu ikki holda gar chimirmasa qosh,
Fido bo'lsa arzir unga aziz bosh.

G'iybatchi kishiga qo'shilma, yira,
G'iybatchi tilida yonar o't ko'r-a!

G'iybatdan to'ladi olamga fasod,
G'iybatchi boshin kes, ey mard odamzod!

Tamagir bilan ham turmagin yaqin,
Shubhasiz, yov bo'lar senga u tag'in.

Tama dardi tutsa, tamagir agar,
Seni aka yoki ulka ham deyar.

Tamasi qonmasa o'girgay yuzin,
Sira ko'rnagandek tutadi o'zin.

Tanish-bilish yursa tamalar qilmay,
Ularga ishon g'am-qayg'uni bilmay.

Shodlik-g'amda tanish, og'ayni, jo'ra,
Kishiga naf berar, undan naf so'ra.

Yaqinlar ko'paysin desang gar o'zing,
Tuz-u non yedirgin, ochiq tut yuzing.

Bu ikki qiliqqa isiydi kishi,
Yaxshi-yomon damda qilinar ishi.

Bunga yaqin so'zni yozibdi kitob,
Bu so'zni ishga sol, ey sohib odob. —

Tuz-u non yedirgin ochiq yuz ila,
Muloyim qaragin shirin so'zila

Tuz-u non, shirin so'z kishin qul qilar.
Bular ma'nosin uq, yetuk ko'zila.

Yana ikki turli kishiga yog'i,
Yog'i bo'lsa yoziq uning tuzog'i.

Biri ilohiydir yovlaring aro,
Bu kofir yovligin eshdil doimo.

Yana bir bo'lar yov, zarar naf uchun.
Shu naf deb u qo'syma o'chin.

Kofir dushmanligi bo'lar beado, jumani
Bu ishdan chekinma, jonni et fidio.

Yovligi bo'lsa gar foyda-zarar deb,
Bularni ber, yarash, yurma qayg'u yeb.

Yovga naf bersang, u bo'ladi yaqin,
Yov zarar qilladi nafi-chi, tayin.

Uringin, yov bilan yarash, yaqin bo'l,
Salomat yashashga shudir ezgu yo'l.

Yovdam naf bo'lmagay, qo'yar tashvishga,
Qo'lling cho'zma aslo nafi yo'q ishsga.

Shunday ish qil, toki hech bo'lmasin yog'i,
Tayyor turar doim yovning tuzog'i.

Yaqin tutgin kishi sarasin tag'in,
Kimming do'sti yovuz — o'kinar tayin.

Do'st — yaqinim bo'lsin desang gar sara,
Ular ikki turli bo'lар, qara.

Biri — asli ezgu, sara el aro,
Uni topsang do'st tut, ey fe'li a'lo.

Yana biri — bilsa uyat, andisha,
Budir asli odam elda hamisha.

Yaqinlikni ushbu ikkovi-la tut,
O'zingga shulardan ezzulkni kut.

Yomon nom chiqargan kishidan yira,
Bu yanglig' kishining qilig'i — qora.

Qoraga yondashma, ayo fe'li oq,
Qora oqqa tezda yuqar, bunga boq.

Ne ezgu fikr etdi donishi buyuk,
Bilim bilan bo'lgan esida buyuk:

Yomonga yondoshma, ey ezgu odam,
Yomon bo'lар yomon tengi xulqing ham.

Yovuzga yondashma, ey yetulk, sara,
Yetulklik buzilar, nom bo'lар qora.

Yaroqsiz nomin kuydingin, yoq-a,
Yaroqsiz qilig'i — tutadi yoqa.

Talay ko'rdim: ezgu atalgan kishi,
Yomonga qo'shildi — buzildi ishi.

Ne egzuni ko'rdim yomon esh uchun,
Baloga ilindi, yo'qotdi kuchin.

Saroyning turk nomi asli "qarshi"dir,
Qarshidagi barcha zildir, qarshidir.

Qarshi ahli uchun hasad- zo'r ulush,
Hasad qayda bo'lsa berar jang, urush.

Sendan ulug' qilgay shirin jomni xor,
Seni o'tga otgay, qiladi bezor.

Hasad qilar teng-to'sh jo'ralarin ham,
Seni ko'risholmas, yetkazar alam.

Kichiklar-chi — yovuz, mutelik qilar,
Hasad ila mudom yomonlik tilar.

Shuning uchun qarshi qarshi bo'ladi,
Ikkov zidlashdimi — biri o'ladi.

Mahkam bo'lgin endi, ey dilga quyosh,
Hasad qilma, urgın, to'g'ri yo'lg'a bosh.

Hasad bir dard erur, davosi uzoq,
Yemishi bitta-ku, Jon so'rар biroq.

Xudo hukmi bo'ldi bir yaxshi yomon,
Hasad bersa tamom bo'lmas hech qachon.

Hasad deganları nima bu mahal,
Hasadning oxini — emi yo'q kasal.

Kuching yetganicha o'zing ezgu qil,
Senga ezgu qayturs, shubha qilmagil.

Kimga sevinch kelsa sen ham bo'lgin shod,
G'am-kulfet yetishsa sen ham chek faryod.

Oting ezgu bo'lar, suyadi omma,
Senga yetayin deb shoshilar hamma.

Yov ortirma o'zga, urin, qarindosh,
Yoningda ko'paytir do'st, oshna, qardosh.

Agar bo'lsa hamki birota yog'ing,
G'ofil bo'ima, hozir tutgin tuzog'ing.

Nima deydi, eshit, yovin bilgan er,
Yovi uzra qo'lni baland qilgan er.

"Yovga g'ofil bo'lma, yaqin turma, ket,
Yovni g'ofil qilgin, zavoliga yet."

Yovingni sinama, ulug' bil, ulug',
Tayoqli dushmanga temir qalqon et".

Bu es-tush yukin ol, ko'ngli simmasin,
So'zimni unutma, uni asra chin.

Do'sting yovlashdimi, qasd etar jonga,
Yo molga, mulkiga, yo uy-makonga.

Ichingni, tashningni yaqinlar bilar,
Bu ich-tash biluvchi ulushin olar.

Istasa molingga tekkezadi qo'l,
Yo jonging oromi uchun topar yo'!

O'zingni ne xilda asrasang o'zing,
Eshingni shu xilda arsa, kes so'zing.

Oshna tutmoq oson, qarashmoq qiyin,
Yovlashmoq ko'p oson, yarashmoq qiyin.

Yoving bo'lar esa jonga bo'1 mahkam,
Yovlashgan kishining qutulmog'i kam.

Ikki turli erga qo'shilma, sira,
Qo'shildingmi, fasod qo'zg'alar, ko'r-a!

Birisi chaqimchi, g'iybat har ishi,
Birisi — tamagir, ikki yuz kishni.

Yana mayni suygan kishin do'st bilma,
U vafo bilmaydi, diliñi g'ash qilma.

O'zin o'ylar do'stdan oshnalikni buz,
Naf ko'rsama yov u, umidingni uz!

Yaqinlik qilsin u desang ko'p, uzoq,
So'ratgin-u ammo so'rama hech chog'.

Sevinch bilan kechsin desang gar fursat,
Ishni o'ylab qilgin, etmagin hasad.

Yotni egib olay desang sen tugal,
Sof oltinni sarf et o'zing har mahal.

Yaqinmi yiratmoq tilasang o'zing,
Nima so 'rsa berma, dag'al tut so'zing.

Tiriklik uzuning tilasang agar,
Saxiy bo'l, non-u tuz bergin sar-basar.

Hammaga sevdirmoq tilasang o'zing,
Ko'ngil, tilni bir tut, shirin qil so zing.

Izzat topay desang hayotda uzoq,
Izzat qil o'zgani, ey fe'l'i portiq.

Chindan bo'lay desang tugal to'la boy,
Boriga rozi bo'l, boyasan yil-u oy.

Kishilar maqtovin tilasang o'zing,
Fe'l'ingni ezgu qil, ochiq tut yuzing.

Bu yanglig' bo'lар, ko'r, kishi egsusi,
Kishiga kishilik kishi belgisi.

Kishi aslin bilmoq tilasang o'zing,
Xulqiga ko'z tashla, ochilar so'zing.

Juda yaxshi degan bu bayt aytguchi,
So'zi ma'ni bilan belgi etguchi:

"Kishilarni bilmoq tilasang tugal,
Ko'ngil, til, fe'l-atvor belgi har mahal.
Fe'l'i ezgu bo'lsa, ko'ngil, til to'g'ri,
Tubi — asli uchun bu toshdir tamal."

Yomonga yondoshma, ayo ezgu nom,
Yuzing suvin olib ketadi tamom.

Nima deydi eshit, nizomli kishi,
Tubandan yiroq tur, saralar boshi: no loz

Tubanga qo'shilma, bo'l'magin johil,
To'polon sababi — tubanlar, o'g'il.

Johil kishilarga yurnagin yaqin,
Kezi kelsa buzar yaqinlik haqin.

Har kimga ochmagin dil sirin, so'zing,
Agar ohsang g'amda sarg'ayar yuzing.

Yaqinligim ortsin desang doimo,
Tamani yo'sqotib yasha, ey dono.

Agar desang barcha so'z ravo bo'l'sin,
So'raganda gapir faqat to'g'ri, chin.

Yuzum bo'l'sin desang hamisha yorug',
To'g'ri bo'l, odil bo'l — tinchiysan to'liq.

Uzoq qolsin desang noming ham so'zing,
Qo'lni qisqa qilgin — omonsan o'zing.

Obro'yim saqlansin desang hamisha,
Tilga yolg'on olma, qilgin andisha.

Qayda ko'tarilsa davlatning boshi,
Uning etagin tut, ey ezgu kishi.

O'chakishma davlat bilan, ey qardosh,
Yarashmasang davlat og'u qilar osh.

Quruq so'zni dema, gapirma ketdan,
Tuxmatni qidirma, qutulgin kekdan.

So'z-misli yel, bo'ron, dilni qoldirar,
Ko'ngil qolsa, kishi seni o'ladir.

O'zingdan ulug'ga ziddlik ko'zlama,
Javob lozim esa dag'al so'zlama

Ulug'ni izzat qil, keltir hummatin,
Ulug'lik keladi, yuqtirar qutin.

Teng-tish bilan birga kelish ham borish,
Qo'shilgin, qorilgin, olish ham berish.

Og'irla, seni u og'irlasa chin,
Past tursa past tutgin, bor unga yaqin.

Nima qilsa, shunday qilgin amalda,
Shirin, so'zin desa, shirin bo'l tilda.

Barcha ezzguga bo'l sen egzu kishi,
Yomonga yomon bo'l, etilsin ishi.

Juda yaxshii degan nizom bilgan er,
Nizom bilan elni qutli qilgan er.

"Seni siz desalar, uni "siz" degil,
Yana undan sozroq javob so'zlagil.

Qoya aks-sadosi misol bo'l doim,
Seni "sen" degay-u, qani "sen" degil!"

Shu yanglig' bo'ladi saroy odami,
Qo'shilmoq tilasang shu chora, emi.

Aytib berdim endi, eshitding o'zing,
Ko'ngilga joylab ol, uzatma so'zing.

O'zg'urmishning O'gdulmishiga savoli

Javobda O'zg'urmish dedi ushbu so'z,
Eshitdim men endi buni, ko'ngli soz.

Bundan bo'lak bordir yana bir so'zim,
Uni ham tushuntir, e ko'tkli yuzim.

Bugun men shaharga, qishloqqa kirib,
Qorishib, qo'shilib ketarmen yurib.

Yurish-turish kerak el bilan qay xl,
Buni ham tushuntir, bir-bir bayon qil.

O'GDULMISHNING O'ZG'URMISHGA JAVOBI

Javobda O'gdulmish dedi: eng avval
Chindan kerakli — shu, ey xulqi go'zal.

Kerakli so'z haqda eslatding menga,
Eshitging, aytayin buni men senga.

O'gdulmish O'zg'urmishga oddiy
xalq bilan aralashmoqni o'rgatadi

Oddiy xalqning butun qiliq-raftori,
Bilim, uquv, fe'lga yarasha bori.

Takallufni bilmas ular hech qachon,
Tartib-qoidaga bo'ysummas chandon.

Lekin ularsiz ham aslo bitmas ish,
Tilda yaxshi so'zla, ammo tutma esh.

Ular fe'li bo'lар ko'pincha qora,
Qora qilmay o'zni saqlanib tur-a.

Ular xulqi, bebos, qilig'i — xatar,
Ishi, kuchi bari shunga barobar.

Bilarlar yemakni, qorin tuyg'usi,
Bo'g'izdan bo'lak yo'q bular qayg'usi.

Nima der, eshitgin xalqning qilqini,
Sinab so'zlaguchi kishi farqini:

"Xalq qayg'usi faqat qorni g'amida,
Uning tashvishi shu bo'g'iz kamida,
Talay xalqlar o'ldi shu bo'g'iz uchun,
Ular yotar yerda — olov damida."

Qora qorni to'ysa, tili boshisirar,
Siqib tutmasa u ozod bosh so'rar.

Ularga aralash, qo'shil, qarindosh,
Berib tur ularga yemak-ichmak, osh.

Tilda yumshoq so'zla, ne tilasa ber,
Beruvchi oladi, uning nafin yer.

So'zni ko'p so'zlama, o'yla, tilni tiy,
Ko'p aytilgan so'zlar bo'lmas mantiqiy.

Nima der, eshitgin, o'zin tutgan er,
Tilin tugib tutgan, bilim bilgan er.

"Bor so'zni so'z sanab tebrannasin til,
Ko'rib, o'ylab so'zla, keragini bil.

Uquvlini ko'rdim oz — so'z so'zlati,
Talay so'zladim deb o'kindi ko'p yil."

Oliy tabaqalar bilan muomala qilishni o'rgatadi

Sipohiy, bulardan bo'lak — tashqari,
Yana bir guruh bor, ko'zim gavhari.

Biri — payg'ambarning avlodii bo'lар,
Ular qadrin bilgant saodat olar.

Ularни mudom sev, e'ozzla, qara,
Talay hadyalar ber, mungiga yara.

Ular ahli baytdir, habib¹ eshi chin,
Payg' ambar haqi deb sevin ey yaqin.
Ta'qib etma, maqsad, ne yurish — raftor,
Nojo'ya so'z aytsa so'rab qo'y bir bor.

Donishmand olimlar bilan aralashishni o'rgatadi

Tag'in bir toifa donishmand, dono,
Ular ilmi elga mash'al doimo.

E'zozla ularni to bor imkoning,
Bilimlarin o'rgan toki bor joning.
Senga aytar yomon-yaxshini ular,
Ulardir olamda sara, ezzular.

Xayolingda bo'lsin bilimlari ham,
Ular uchun etma shirin so'zni kam.

Bulardir haqiqat tayanch-tirgagi,
Bilimi shariat asos-o'zag'i.

Olimlar yo'q esa edi dunyoda,
Yemish ham kelurmi endi bunyoda..

Ular ilmi bo'lidi xaloyiqqa nur,
Yorisa bu nurdan kishi yo'l topur.

Tengicha ulush ber shirin so'z bilan,
Yedirgin, ichirgin yoniq ko'z bilan.
Tilingda koyima, bilib qo'y magar,
Ulamning dorisi bir qatra zahar.

¹ **Habib** — Payg' ambar (a.s.) hurmati uchun qo'llanadigan so'zlardan biri.

Tilingda koyima, yedir osh-u non,
Ularga ber obro', sharaf birla shon.

Eshit, ilmin ishlat, tilin poylama,
Yo xulqi, fe'lini yomon, past dema.

Ulardan keragi senga ilmi-ul,
Haqiqat sari to ayya bersa yo'1.

Bular qo'y survuda taka misoli,
U qo'ymi boshlissa, bo'lmas zavoli.

Bularga qarab tur, qo'lingda ko'tar,
Bu yorug' jahonda seni baxt kutar.

Yana bir toifa bo'lar o'zgacha,
Boqib ko'r, billimi, fe'li o'zgacha.

Azayimxonlar bilan aralashishni aytadi

Bulardan bo'lagi bu afsunchilar,
Yel-u jinli dardga bular emchilar.

Bularga ham, albat, qo'shilmoq kerak,
Yel-u jingga shifo, em etmoq kerak.

Ular nafi desang yetishsin hozir,
Yana ezu tutgin o'zin, bahodir,

Tabib afsunchining olarmi so'zin,
Afsunchi tabibga o'girar yuzin.

U bergen doridan davvo bo'ladi,
Bu bergen yozuvdan jinlar o'ladi.

Tabiblar bilan aralashishni o'rgatadi

Ulardan birisi tabiblar erur,
Butun dard, kasalga ular em berur.

Nihoyat kerakli senga bu kishi,
Usiz o'nglanmaydi tiriklik ishi.

Tirik odam, so'zsiz, bo'ladi kasal,
Tabib ko'rib qilar unga em-amal.

Kasallik o'lindan nishondir, nishon,
O'lim hayot aksi bo'lar har qachon.

Bularni ham ezu tutgin, ko'p yaqin,
Kerakli kishi u, o'tagin haqin.

Tush ta'bir qiluvchilar bilan aralashishni aytadi

Yana bir ilm, ko'r, tush ilmi bo'lar,
Tushingni yo'ruvchi yo'rib yo'l ochar.

Bu odam ko'radi kechalari tush —
Ta'bir qila bilsa nafi bo'larmish.

Tushin ezgu yo'rsa agar yo'rguchi,
Ezgulik olar u — tushin ko'rguchi.

Agar tushda ko'rsa yovuz-yomoni,
Sadaqani bersin avaylab jomni.

Bu tush bahonasi mehrbon Xudo,
Ne-ne ezzulikni etadi ato.

Tushi ezu bo'lsa, sevimsa ko'rib,
Yomon bo'lsa Rabga sig'insa turib.

Bechoraga bersa kumush, mol-tovar,
Xudo xohlab undan baloni yig'an.

Yo'rigicha bo'lар, tushing yaxshi yo'r,
Ayo tush ko'ruchchi, uni ezu ko'r.

Bu xil tushni yo'rib beruvchi ular,
Bilimli, iliqso'z, butun, ezzular.

Bularni aziz tut, holini so'ra,
Tilasang yaqin tut, tilasang jo'ra.

Yulduzchilar bilan aralashishni aytadi

Yana boshqalari yulduzchilardir,
Boqib ko'rsa, nozik erur bu tadbir.

Yil, oy-kun hisobi bularda bo'lur,
Kerakli erur bu hisob, ey unur.

Billayin desang sen, o'qi handasa,
Tugal ochiladi hisoblar rosa.

O'qi zarb-u qismat¹, tugal bil kasur²,
Bu yo'lda zardonir xato-yu qusur.

Ta'zif³, tansif⁴ ishin o'zing to'la bil,
Bularni bilgach so'ng addad jazri⁵ qil.

Zarb-u qismat — ko'paytirish va bo'lish amallari.

Kasur — karsr sonlar amaliyoti.

Tansif — bo'lish.

Adad jazri — ildiz ostidagi sonlarni topish amaliyoti.

Yana jam'u tafriq¹, masahatka² o't,
Yetti qat falakni yotar xascha tut.

Keyin, mayli, jabru muqobiliga³ boq,
Keyin Uqlidusning⁴ eshigini qoq.

Kerak dunyo ishi yo bo'l sin fano⁵,
Hisob ila farqlab ish etar dono.

Hisobi buzilsa dunyoning ishi
Tamom buziladi, e dono kishi.

Desangki sen o'zing biri ishni qilay,
Soat-paytini bil: yomomni, qulay.

Kun, oy qutlug'i bor, yana qutsizi,
So'ra, qutlug'in tut, ey elning ko'zi.

Juda yaxshii degan dono oqsoqol,
Bilimiga qara, yo'rig'ini ol.

Bilim ila odam ishin boshlasa,
Tilak topdi degin neki ishlasa.

Bari ishda avval bilim kelar qo'l
Bilim chetda qolsa, yopiladi yo'l.

Ulardan so'ra-yu, ishomma tugal,
Biluvchi Xudodir mudom mukammal.

Ularmi avayla, holiga qara,
Biri ham bo'lmasin hafa, dil yara.

¹ Jam'u tafriq — qo'shish va olib tashlash.
² Masahat — yuzani o'chash (geometriyada).
³ Jabru muqobil — algebra.
⁴ Uqlidus — Evklidning sharqdagi nomi. U geometriyaning otalaridan hisoblanadigan buyuk olim bo'lgan.
⁵ Fano — fano, uqbo so'zları oxirat ma'nosida ham qo'llanadi.

Shoirlar bilan muloqotni o'rgatadi

Yana keldi shoir — u so'z terguchi,
Koyish olqish ishin dordin berguchi.

Qilichdan tez axir ularning tili,
Nozik qil misoli xotira yo'li.

Nodir so'z ilinji senda bo'lsa gar,
Ularning so'zida bari jilvagar.

Ularning yunragi misoli dengiz
Ular so'zi inju: go'zal-u tengsiz.

Ular olqishidan olam qoldi lol,
So 'kishi ham eling kezar bemalol.

Ularni avayla, boshingga ko'tar,
Ularning tilidan forig' bo'l, jigar.

Agar olqish olmoq tilasang o'zing,
Ularni sevinfir — kesildi so'zing¹.

Nima istasa ber ularga tugal
Bo'larsan tilidan ozod har mahal

Tarig'chi — dehqonlar bilan muloqotni o'rgatadi

Tarig'chi yana bir toifa bo'lur,
Ular ham kerakli, ey o'sib-unur.

Ularga yaqin bo'l, og'ayni, qardosh
Oson hal bo'ladi yegu, ichgu, osh.

¹ so'z kesilmoq — gapni qisqa qilmoq.

Qimirlar jon uchun ular suv-havo,
Ular sabab oziq doim muhayyo.

Nafas, tin oluvchi, tirik bari zot.
Uiardan ko'radi farovon hayot

Senga ham, tabiiy, kerak u kishi,
To tugal bitadi bo'g'iz tashvishi.

Bularga aralash qo'shil, e qardosh
Toza bo'lur bo'g'iz, halol bo'lар osh.

Nima deydi, eshit, pishiq ish boshi,
Bari ishda hushyor yurolgan kishi.

Yo'llim desa bo'lsin toza, musaffo,
Bo'g'izni pokiza tutsin doimo.

O'zimni qilayin desa ehtiyoj,
Xalqum, tana hifzi beradi naijot,

Gadroy bo'lmayin-u desa bo'lay boy
Zinodin tiyilsin, o'zi hoynahoy

Olayin desa kim o'zi ehtirom,
Yiroq bo'lsa basdir fasod-u harom.

Fasoddir uzuvchi tubu ildizing
Fasod chin yo'qotar bor ezgu izing.

Saodat saroyin buzar fisq-fujur,
Fasod o'chgan o'tni baland yondurur.

Yana yaxshi degan fe'l muloyim,
Donolik unga esh bo'larkan doim:

Fasoddan uzoq tur, yo'lama yaqin,
Fasod qayda bo'lsa, zarari — tayin.

Fasod-u bu davlat yaqin bo'lmagay,
Bo'lsa ham oniydir, senga aytayin.

Tarig'chi degani bo'lar qo'li keng,
Xudo bergen uchun ular ko'ngli keng.

Nasiba topadi qimirlagan jon,
Yuruvchiga osh-u qanotliga don.

Bularga qo'shilgin, qorilgin o'zing,
Tilingni shirin-u ochiq tut yuzing.

Savdogarlar bilan muloqotni o'rgatadi

Bulardan bo'lagi bo'lar savdogar,
Sotish-u olishda tengi yo'q ular.

Triplik vajidan kezishar olam,
Niyati Xudoga munojot begam.

Ularga aralash, riyosasin qil,
Ne so'rasha ber-u tilagini bil.

Ularda bo'ladi olam ne'mati,
Odam orzusi-yu, go'zal, qimmati.

Tug'ardan Botarga¹ yurib boradi,
Nimani istasang, u axtaradi.

Neki nodir esa, olam tansig'i,
Ularda bo'ladi, ey dono, saxiy.

Sotuvchi bo'lmasa dunyoda agar
Ajib mo'yna to'nni ko'zingmi ko'rар!²

Xitoy karvonining passaysa changi¹
Soni yo'q tovarning² bo'larmi dong'i?

Sotuvchi yurmasa olamlar kezib,
Kim ham keltirardi injular tizib.

Sanasang bu haqda so'z o'lmasa ado,
Cho'zilsa so'z ichra pasayar ma'no.

Bu yanglig' bo'ladi sotuvchi tamom,
Ularga yaqin bo'l, shirin tut kalom.

Tirishgin, ularni mudom ezgu tut,
O'shanda ezgu nom taralishin kut.

Nomingni olamga yoyuvchi shular,
Yomon yaxshilarni biluvchi ular.

Senga ko'p yoki oz sovg'a qilsalar,
Javobin ulug' qil — toki bilsalar.

Zarar-foydai ichra bo'lishhar nozik,
Bilib ol: salomga mos bo'lар alik.

Nima deydi, eshit, olam kezgan er,
Boshidan kechirib, sinab ko'rgan er:

Nomin unutmasin desang bu jahon,
Musofiri aziz sana har qachon.

Haqiqiy ovoza tilasang agar,
Shu savdo kishisi etar muyassar.

Nom ulug'ligimi o'zingda tilak,
Musofiri karvomi ulug'lash kerak.

¹ Pasaysa changi — ya'ni, borib kelmasa.
² Tovar — narsa, mol.

¹ Tug'ar — Kun chiqar, Sharq; Botar — kun botar, G'arb.

Shu yanglig' e'tibor topishsa ular
Noming ham munosib — tilakcha bo'lar.

Chorvadorlar bilan munosabatni o'rgatadi

Bulardan bo'lagi bo'lar chorvador,
Butun chorvalarga u bo'lar sarkor.

Butun chin bo'lurlar, to'qay, bog'i yo'q,
Bo'lakkarga sira yuki, dog'i yo'q.

Yemish, kiyim, ayg'ir, tuyu, ot-u toy,
Bularda bo'ladi qatiq, toza moy.

Qimiz, sut yo suzma, yo qumron, qurut,
Gilam, parda, kiygiz ulardadir but.

Ko'p nafli bo'hadi senga bu guruh,
Bularmi aziz tut, ey oliv shukuh?

Aralash, qo'shilgin, yedir ham ichir,
Farog' alda keyin hayoting kechir.

Ne istasa ber-u keragingni ol,
Ular bilmas aslo nima hiyla, ol¹

Ulardan so'rama qoida, bilim,
Ravishlari kengroq, bu odat — qadim.

Muloqot chog'ida o'zing qo'lga ol,
Ular tutishadi o'zin bernalol.

Faqat so'za shirin, zarur masofa
Jaholatlari bo'lar bu xil toifa.

Yana yaxshi degan bilim beruvchi,
Budun ila yurgan, sinab biluvchi:

Bilimsizni zinhor yaqin tutmagin,
Kutilmagan xolat berar yuz tayin.

Yana yaxshi degan bilimli, dono
Bilimga suyanish chog'i doimo!

Bilimsizga borma yaqin hech qachon,
O'zin tutgan odam bo'ladi omon.

Bilimsiz kishidan yiroq tur, yiroq,
Bilimsiz qiliq'i yomondan yomon.

Bu yanglig' bo'ladi asil chorvador
So'zini eshitssang nafi ancha bor.

Bayon etdim endi senga belgilig
Ullarga amal qil, o'zing ol ulig¹.

Xunarmandlar bilan muloqotni o'rgatadi

Yana bir toifa hunarmand erur,
Ularning hunari talay naf berur.

Kerakli kishilar bular bebaho,
Yaqin tut ularni o'zing doimo.

Tenirchi, kosibu yana o'ymakor,
Bo'yoqchi, o'q-yochi, sirchi, duradgor.

Bu dunyo chiroyi ulardan to'tar,
Kishini hangu mang etadi ular.

¹ Ulig' — ulush, hissa.

Sanay bersa agar bu so'zlar uzar,
Dono kam gapirar, so'zini uzar¹.

Bularga qo'shilib kechirgin hayot,
Toki bor ekan bu olam, koinot.

Ishing qilsalar ber haqini tugal,
Yedirgin, ichirgin shod et har mahal.

Shoyista tutishsin noming xalq aro,
Toki nom qozonsa el aro a'lo.

Yana yaxshi degan so'zini dono,
El-u xalq ichida yurilb dolmo:

Tiriklik tilama, ot ezgu tila,
Ot ezgu kerakdir tiriklik ila.

O'zing-ku ko'charsan, bu oting qolar,
Oting ezgu bo'lqa, yarashiq bo'lar.

Kishi nomi agar atalsa yomon,
O'limi a'loraq bo'lar bu zam'on.

Tiriklik azizdir tila ezgu ot,
Yomondan yiroq bo'l, tila mangu ot.

**Kambag'allar bilan muloqotni
o'rgatadi**

Bulardan bo'lagi beva-bechora,
Yedir-u ichir, bo'l dardiga chora.

Duochi bo'lishar senga, e jigar,
Duo-ezgulikdir senga sabr asar.

Uillardan tilama o'zingga javob
Javobi Xudlodan tegar ko'p savob.

El ichra bo'ladi shu xil toifa
Muloqot chog'ida bo'lmasin xafa.

Yetib yur ularning dodiga mudom,
Ularning mehri ham bo'lар bardavom.

Senga yetar ikki olam savobi,
Sharaf shon bo'ladi uning javobi.

**Xotinning qanaqasini
olmoqni aytadi**

Agar xotin olmoq tilasang o'zing,
Sarasin tilagin, ochilsin ko'zing.

Agar ulug' esa kelib chiqishi,
Uyat-andishali, pokiza ishi.

Og'ir, bosiq esa, bejo yurmagan,
O'zingdan bo'lakning yuzin ko'rmagan.

Seni sevsin-u, bas, bo'lak demasin,
Yaroqsiz, nolisand qiliq qilmasin.

Uylansang, o'zingdan quyisi ma'qul,
Oliy zotga boqma, sen bo'lasan qul.

Nima der, eshitgan sinagan kishi,
Sinagan kishining pishiqdir ishi:

O'zingdan quyi ol, olsang xotimi,
Sevinchlarda o'tar bu davron kuni.

¹ Bu yerda adib "uzar" so'zini avval "uzayadi" keyin esa "uzadi" qisqartirardi ma'nolarida qo'llagan.

Yuz ko'rkin emas chin fe'l ko'rkin tila,
Fe'l ezgu bo'lsa yoritar seni.

Xotin olma, olsang loyiq o'zingga,
Fe'l-avtori go'zal bo'lsin ko'zingga.

Yuz ko'rkin emas chin fe'l ko'rkin tila,
Fe'l ezgu bo'lsa sara u, to la.

E ko'rqli tilovchi, uni olmagan,
Qizil yuzni o'zing sariq qilmagin.

Kimki xotin olsa to'rtdan tashqari
Xotin ololmaydi, ey er sarvari.

Bir guruh tilar boy xotin entikib,
Yana biri ko'rklig tilar ko'z tikib.

Yana bir urug'li, nasabli tilar,
Urug'lik otiga berilgan bo'lar.

Yana bir andisha-o'ylyisin tilar,
Uni topsa tezda o'zini ular.

Bularning afzalim aytayin senga,
O'ylanmoqchi esang qulqoq ber menga.

Boy xotin tilagan, ey ko'ngli sara,
Qu! bo'lib qolmagin, holingga qara.

Tilni uzun qilar bo'lib moliga,
Mol talab qilsa boq sen ahvoliga.

E ko'rqli tilagan, kishi ezzusi,
Xotin ko'rkin dema, ko'plar kulgusi.

Barchaga sevimli xotin go'zali,
Uni astrasin chin bir-u bor fazli.

Ey orzusi bo'lgan ko'p oliv nasaq,
Qadrin ni past etma nasaq qarat.

Urug'li, nasabli, ulug'lar tili
Uzun bo'lar, bo'ima xotinning qui.

Andisha-o'ylyisin deganim go'zal,
Uni olsang to'rti ham bo'ldi tugal.

Ezgu, ogil xotin topsang sen agar,
Boy bermasdan bo'lgin unga tuyassar.

Tilak boylik bo'lsa, mol keltilrar yuz,
U seni boyitar; qizil bo'lar yuz.

Fe'l ko'rqli bo'lsa, go'zal shu bo'lar,
Ayol ko'rki — raftor, bilganlar bilar.

Pok-u andishali, bo'lsa muharram,
Ui uch narsa tugal bo'ldi unda jam.

Andishali bo'lsin ayollar har dam,
Andishali bo'lsa bo'lar to'rti ham.

Shu xil bo'lsa agar ayol qilmishi,
Boy bermagin, o'ylan, ey botir kishi.

O'g'il-qiz tug'ilsa ularni
qanday tarbiyalashni aytadi

O'g'il-qiz tug'ilsa, ey ezgu nafas,
Uyda tarbiya qil, boshqa yerdamas.

Ustozni yaxshi qil o'zing, albatta,
O'g'il-qiz pok o'sar, yomondan chetda.

O'g'il-qizga o'rgat bilim ham odoh,
Baxtiyor bo'lar u, bo'lmagay xarob.

O'g'ilga xotin ol, qizni erga ber,
Qayg'u-g'amsiz yasha, ayo qutli er.

O'gilga topsin san'at — hunarda kamol,
Bu hunar bilan u tera berar mol.

O'g'ilni tergab tur; bo'sh qilma zinhor,
Benaf, bebosh bo'lar, yugurar begor.

Qizni ersiz tutma uyda ko'p mahal,
Attangda o'lartsan bo'lmasdan kasal.

Ey hamroh, og'ayni, so'z aytay kesa,
Tug'ilmasa soz yo tirk turmasa.

Tug'ilsa yaxshi joy — unga er quyi,
Uyi nozor bo'lsa — o'lklar to'yi.

Ayollarni uyda asra bermalol,
Tash-u ichi bir xil bo'lmagay ayol.

Yot-uya, tashqari chiqmasin xotin,
Buni ko'rsa yo'lidan urar u tayin.

Ko'z ko'masa orzu qilmagan ko'ngil,
Ko'z ko'rsa ko'ngil ham istar, ey o'g'il.

Ko'zing asra — ko'ngil orzu qilmagay,
Dil istamasa jon asir bo'lmagay.

Ayol-erni ajrat yegu ichkuda,
Air tashvishing bu hayot ichida.

Ayolni qo'yma to uydan chiqqali,
Agar chiqsa tugay to'g'rilik yo'lli.

Ayol asli go'shtdir, saqlagin uni,
Tuzuk saqlamasa aynir bir kuni.

Ayolni boshqa tut, ne so'rasa ber,
Eshik mahkam bo'lsin, yiroq — erkak-er.

Ayolda azaldan vafo yo'q o'zi,
Ko'ngli u yon borar, ne ko'rsa ko'zi.

Jafot bilan ungan, ko'kargan og'och,
Mevasi zahardir, unga bo'lma och.

Qizni ming orziqli, kishi erkagi,
Necha ming orziqli, kishi erkagi,

Necha qizil yuzli, yuzi suvli er,
Ayollar tufayli yuzi bo'ldi yer.

Necha nomdor erlar, ko'kragi kerik,
Ayollar tufayli ko'mildi tirik.

Ularmi ne xilda asramoq lozim,
Buni yaxshi astrar biru bor azim.

Qo'l ostidagi kimsalarни
ezgu tutmoqlikni aytadi

Yana ezgu tutgin qo'ling ostini,
Yedirjin, ichirjin, but qil ustini.

Kuchiga qarab qo'y yukingni biroq,
Ular uchun o'zi oladi so'roq.

Qo'shimcha mashaqqat tegizma aslo,
Ular uchun senga yetadi jazo.

Ular ham bandadir, bexabar qolma,
Ularga zulm etib azoblar olma.

Ular bo'ldi kichik, sen ulug' axir,
Ulug' bo'ldi kichik uzra keng bag'i.

Ulug' bo'lsang kichik tut endi ko'ngil,
Ulug' ga kichiklik yarashar, o'g'il.

Nima der, eshitgin, uquvli senga,
Bu so'z ishga tutgin, bilimi keng-a.

Agar uzun qilsang xalq uzra qo'lni,
Kichik tuttsang nafla ko'ngilni, tilni.

O'zingni unutma, buzmagin yo'riq,
Kelar qut, tuttsang shu salomat yo'lni.

Uy-joyni pok tutgin, ey toza dilli,
Senga kelar davlat, ey ochiq qo'li.

Tuz-non — dasturxonni yana kengroq tut,
Oting ezgu bo'lар kela bergay qut.

Kirimga yarasha chiqimni qara,
Kirim-chiqim bilsang berar samara.

Olimga, berimga abjir, yaxshi bo'l,
Qay paytida ertsang ham ochiq bo'lар yo'l.

Qo'ling qisqa bo'lib qolsa mabodo,
Birovlarga yulking solmagin aslo.

Sevaring iishingga qo'lin tutmagay,
Seni sevmaguchi kilib timmagay.

Arzimas tutadi oshna, qardoshing,
Ko'ngil yara bo'lар, xam bo'lар boshing.

Kishi ezzusiga qo'shilib yasha,
Kishi bo'l, doim et kishilik pesh.

Qishloqda turma, mol qoldirma o'zing,
Afsusda sarg'ayar bu qizil yuzing.

Ulug' yo'lga tutma, uy-joyni yaqin,
Balo yuz uradi, bilib qo'y tag'in.

Ziqna qo'shni tutma, ochofatni ham,
Do'nglikdan uzoq tut, ey fe'li ko'rkan.

Bu uch qo'shnilikning nafi yo'q aslo,
Qoplab bo'lmas o'ming yetsa u balo.

Uy olmoq tilasang qo'shnisisin so'ra,
Yer olmoq tilasang yer-suvin ko'ra.

Yomonga qo'shilma, ko'rmaysan zavol,
Fe'lni to'g'ri turgin, yo'rg'a ot misol.

Bori bilan chekylan, beg otin olgin,
Sevinchlarda yasha, g'arni yo'q qilgin.

O'limni unutmata borarsan o'zing,
Egangni unutmata ochilar ko'zing.

So'zing o'ylab so'zla — yasha qayg'usiz,
Bekor berma vaqni — chekmaysan afsus.

Gerdayma ko'p ortiq — olqish olasan,
Xasis bo'lma ortiq — so'kish olasan.

Nima deydi, eshit, nozik dil kishi,
Kishiga kishilik bo'lgan har ishi:

Desang: ezgu nomli bo'layin o'zim,
Saxiy bo'l, uringin shunga, ey qo'zim.

Ozodni qul qilay desang atayin,
Saxiy bo'l, ulash u egilar tayin.

Boshim ko'kka tegsin desang sen yurib,
Bilim bilan etgin bor ishni ko'rib.

Olamga yoyilmooq tilasa otting,
Mehmonni ezu tut — yugurar otting.

Rohat topay desang elda teng-u tush,
G'ofillikni qo'ygin, sen ey ezu xush.

Bori borga desang qilayin toat,
Nafsingga erk berma bir on, bir soat.

Ezgulikka yetay desang sen agar,
Nafsingni tiyib tur, bo'Ima tamagar.

Juda yaxshi degan tabarruk inson,
Bu so'z ishga tutgin, e fe'li yomon:

Bu nafsingga bermga orzu va o'yin,
Tilak topsa qilar egasin o'yin.
Ezgulik topsa u yomonlik qilar,
Yomon bo'lsang senga beradi bo'yin.

O'gdulmish dedi: Ey yaqin qarindosh,
Bu xil edi xalqning yo'rig'i yo'ldosh.

Aytib berdim endi, eshitting o'zing,
Buni uqqan bo'lsang, kesilsin so'zing.

O'zg'urmushning O'gdulmishga
savoli

Javobda O'zg'urmush der: Ey sertadbir,
Menga oydin bo'ldi bular birma-bir.

Yana bir so'zim bor, aytayin senga,
Uni ham ochiq ayt, bu damda menga.

Qo'shilsam o'zim bu kishilar ila,
Borish-kelish qilmoq kerakdir kula.

Meni oshga undab turishlari bor,
Men ham axir chorlab turaman ko'p bor.

Qanday bormoq kerak, qanday yeyay osh,
Chorlash rasmin ne xil etayin adosh.

Buni ham ochiq ayt, ey bilimi bor,
Bulardan ham bo'lay endi xabardor.

O'GDULMISH OVQATGA YA'NI
MEHMONDORCHILIKKA TAKLIF ETMOQ VA
OVQATGA YA'NI MEHMONDORCHILIKKA
BORMOOQ QODDASINI O'RGATADI

Javobda O'gdulmish dedi: bu ish ham,
Ey oshna, kerakli ish erur, desam.

Juda turli-tuman mulozim kishi,
Turli-tuman bo'lgay qo'noqlik oshi.

Nikoh taomidir uning birisi,
Dunyoga kelsa gar o'g'il yo qizi.

Chaqirgay seni yo qarindosh-urug',
Yaqin do'staringmi, kichik yo ulug'.

Yo marhum nomiga oshi azadir,
Yo unyon olar, vaj — un-ovoziadir.

Nima bo'Imasin bu ziyoft-yemak,
O'ylab ko'r borish yo bormaslik kerak

Chaqirsa og'ayni qarindoshlarin,
Borib namoyon et tuzuk humaring.

Agar taklif etsa seni yot, o'zga,
Oz-u ko'p tamaddi qilib tur ko'zga.

Chaqirishsa agar yaqin qo'shnilar,
Yoki do'sting esa ko'ngling ham to'lar.

Ullar uyiga bor, topib sen evin,
Sevintür ularni, o'zing ham sevin.

Agar osh qilishsa o'zingga atab,
O'sha yerga borgin yaqinlik o'tab.

Agar bo'lsa bundan bo'lak yig'in-osh,
Borib yurma, unda azob chekar bosh.

Notugal esa-chi, o'sha ziyoft.
Ko'ngil shodligiga yetadi ofat.

To'polon chiqarsa yo masti badnom,
Singib ketmaganday bo'lar bu taom.

Faqat bir to'yishga-ovqatga bo'la,
Tama etma, obro' ketar bir yo'la.

Nima deydi, eshit, o'zin tiyuchi,
Topib kuch, bo'g'izin tiyib qo'yguchi:

"Kishi pasti bo'lma, bo'g'iz moyili,
To'yish uchun bo'lma tomoqning quli.

Necha obro'li, zo't, dono, botir er,
Tiyilmadi, bo'g'zi uchun bo'ldi yer.

Birovlar qozonib shuhrat el aro,
Tiyilmadi nafsi — oxir yuz qaro.

Necha boyni ko'rdim, bo'g'iz tutquni,
Bo'g'iz xarob qildi oqibat uni.

Bo'g'iz qulli bo'lma, e nafsi buzuq,
Agar bo'lsa, chora topilmas tuzuk".

Necha turli oshga borar esang sen,
Odob bilan osh ye, bilar esang sen.

Adab, farosatni bilmas har kishi,
Adablini ko'rsa qotadi boshi.

Ulug'lar qo'llini cho'zmaguncha to,
Odoblism, olmagin qo'lingga g'izo.

Qo'ling o'ngin uzat, de Xudo otin,
Sezarsan o'shanda yemishing totin.

Birov qarshisiga uzanma sira,
Olib ye o'zingga bo'lsa ro'para.

Pichoq tutma unda, ko'tarma suyak,
Ochofatlik etma, bo'lib yengiltak.

Magar to'q esang-da, olib turgin osh,
Odamga qarab osh yeyishar, qardosh.

Nima olsang tishla, chayna maydalab,
Lekin puflamagin tovoqqa qarab.

Yemakni surmagin o'zingga yaqin,
Ozor bermasin bu qilig'ing tag 'in.

Yarashmas ish etma, o'zingga qara,
Yarashmas ish etar yuzingni qora.

Juda yaxshi degan adabli kishi,
Odobli kishining go'zal har ishi:

Ta'lim-tarbiyaning qoidasi bor.
O'rinli yumushning foyidasi bor.

Ta'lim-qoidani bilolmas kishi,
Gurunga qo'shilsa yurishmas ishi.
Taomni shodon ye, qo'lingga olib,
To begach sevinsin nazarin solib.

Sevinsin qo'yishsa hurmatingga osh,
Behuda so'z ila dillin etma tosh.

Juda yaxshi degan bu haqda hushyor,
Boqib ko'rsang unda rangin ma'no bor.

Kishi ko'ngli go'yo nozik bir shisha,
Simb qolmasin u, sen et andisha.

Yaqinlik tilasang bo'lgin ahli dil,
Ko'ngil simmog'idan uzqolasha bil.

Taom yemog'ingda bo'larkan me'yor,
Sihat-u solimlik bo'lar senga yor.

Ochofat kishining ozig'i — balo,
Ozig'i balomi, unga ne davoi?

Bo'g'izdan kirar dard, kecha qolgin voz,
Yeyishda me'yor tut, yegin, ichgin, oz.
Bu dard yopisharkan, qiyinalar odam,
Agar emlmasang: shoshirar u dam.

Juda yaxshi degan shifokor hakim,
Hakimlar so'zini yomon deydi kim:

Kasalliklar asti o'limga doya,
Kasallik kelibdi — o'limg hamsoya.

O'limg belgisi u, balo ham ofat,
U bir kulfat erur bilmas nihoya.

Kishi "men" deguvchi kishi doimo
Sovug'u issiqni qilolsin judo.

Eng avval bilib ol: nechuk mijozing,
Nima ko'p bo'lar-u nimadir ozing.

Ko'pmi issiq yoki sovuqlik kuzat,
Sovug'ing osharmi issiq yeb tuzat.

Bahor fasli bo'lsa, yigitlik oning.
Sovuq iste'mol qil — tezlashar qoning.

Yoshing qirqdan o'tib, kun-oy esa kuz,
Iliq narsa bilan mijozingni tuz.

Yoshing oltmish esa agar qish chog'i,
Qo'lingda tutilsin issiqlik bog'i.

Quruq sovuq ortsu taningda agar,
Ho'l issiq hozirla, u tezda ketar.

Ho'l sovuq qilsa gar o'zingga ziyon,
Quruq narsa foyda qiladi ayon.

Sovuq mijoz esang issiqlikni bil,
Issiq bo'lsa sovuq yemishlarni qil.

Mijozi neligin qilolmasa hal,
Bir o'rta me'yorga u qilsin amal.

Bu yanglig' tutilsa odamda mijoz,
Tirtiligi kechgay farovon-u soz.

Nima der, eshitgil, tabibning so'zi,
Buning ma'nisin uq, yasha, ey qo'zi:

Mijozingni aytay, ta'riffayin boq,
U qizil, satiq, ham qora, bo'ldi oq.
Ularning birisi biriga ofat,
Yaqinlashsa yovlar, ayrlilar shu choq.

Zakovati yetsa — ne tarzda mijoz,
Yarashiq ne esa uni yesa soz.

Odam farqi hayvon aro mana shul,
Mijoza mosini yesa, ey o'g'il.

Nima der, eshitjin, qari oqsoqol,
Bema'ni atanmay buni uqib ol.

Kishi qirqa kirib, mijoz bilmasa,
U yilqi sonidir, necha so'zlasa.

Sinab bilmasa-chi, bilimni odam,
Odam deb atama uni sira ham.

Boshidan kechirib yo'riq turzmasa,
Ma'qul bo'lар uni kim hayvon desa.

Zamon o'tib dono bo'lmasa inson,
Uni inson dema, de yilqi, hayvon.

Nazar solsang yaxshi so'z degan tabib,
Ovgatni oz yegan yuradi kilib.

Sog'liq tilasang gar bedard, begasal,
"Oz" degan dorini yegin har mahal.

Rohat istasang ham hayotni uzoq,
"Til" oti go'shtni ye o'zing, hamma chog'.

O'gdulnish O'zg'urmishga ziyoftaga taklif qilmoqlik qoidasimi o'rgatadi

Agar uysa chorlar esang har qachon,
Taraddudni avval pishiqli qil chunon.

Pok bo'lsin osh-u non, uy-joy, to'n-to'shak,
Bergan tuzing manzur bo'lmosg'i kerak.

Yemoq-ichmoq bo'lzin pokiza, egyptu,
Qo'l cho'zganda bo'lzin havas va orzu.

Taklif qilmasang-ku aybi bir bo'lar,
Chorlasang u ko'rib birmi ming qilar.

O'yla, egyptu tutgin osh-suvni toza,
Kelgan to'yib ketsin qaytishda toza.

Do'st-u qardoshlar, uzoq va yaqin,-
Barini chorla, to'o'tagin haqin.

Keluvchisi kelar, kelmassa agar,
Shu sabab dili ko'p shodlamb qolar.

Tomoq quli bo'lza bo'lur ko'p yomon,
Keki o'lza qolar, yurar ko p zam'on.

Nazorat qil-u tut barchaga suv-osh,
Kechikkan bo'lissha yoki qari-yosh.

Osh-ovqat yesalar tutgin ichimlik,
Ne desa berishsin, bo'lар singimlik.

Ichimlik kerakdir qo'yilganda osh,
Ichimlik osh ila kerakdir yondosh.

Oshi bo'lza ammo suvi bo'lmasa,
Og'u bo'ldi, bilgin, bu oshni yesa.

Tilasa fuqo ber¹, tilasa mizob²,
Tilasa julangbin³, tilasa gulob⁴.

Bundan bo'lak yana nimmalar darkor,
Sen mendan so'rama, ey dono sarkor.

Ulug'lar yesa osh, bas qilsa agar,
Kichiklarga ovqat uzat sar-basar.

Barisiga yetkaz, ta'na etmasin,
So'kishmasin ular, nahor ketmasin.

Quyuq-suyuqdan so'ng shira-sharbat qil,
Bular bilan meva qo'ygin quruq-ho'l.

Yirtish ber, kuch yetsa yirt ipak-shohi,
To tish haqin olsin, qolmasin ohii.

Yemak-ichimak osni bo'ldi ko'p to'liq,
Kim borsa eshikni mudom tut ochiq.

Chorlanuvchi to'rt xil bo'lar doimo,
Boruvcchi ham to'rt xil bo'lar, ey dono.

Ba'zisi bir taklif bilan borsalar,
Osh-ovqatni yeydi nima bersalar.

Yana o'z uyiga chaqirmsas kishi,
Bosh burkab yeyilar uyida oshi.

Tag'in bir toifa boradi oshga,
Taklif etar yana o'zi qardoshga.

¹Fuqo — guruchdan tayyorlangan ichimlik (bo'zaning bir tur).

²Mizob — ichkilik turlaridan biri.

³Julangbin — qo'lida tayyorlandigan dorillardan biri.

⁴Gulob — shirinlik qo'shib tayyorlandigan ichimlik tur.

Yana bir bo'lagi oshga bormagay,
Bo'laklarni ham u hech chaqirmagay.

U — o'lik, tirlikka sanama hech ham,
Qo'shilma, u bilan qo'yma hech qadam.

Biri — oshga bormas hech qadam qo'yib,
Ammo tez-tez chorlar so'qimlar so'yib.

Bulardan eng ezgu yo'riq shu erur,
Dono maqtagan fe'l to'liq shu erur.

Xohi borgin, xohi bormagin oshga,
Nafsingni tiy, o'zing salomat yasha.

Ko'p yegan odam chin xasta bo'ladi,
Yuz — sariq, joyi-chi pastda bo'ladi.

Tabib so'z aytibdi, qara, bunga teng,
Mijozeni biluvchi, bilim, ko'ngli keng:

Dardga sabab bo'g'iz — yeyligan oshi,
Kishin dard qaritar, tugamas yoshi.

Bo'g'izni tiyib yur, sen dardsiz yasha,
Bu darddan qilinar qizil yuz ishi.

Bu yanglig' bo'lar, ko'r, ziyofat ishi,
Chorlaganda borsa yo kelsa kishi.

Buni so'zladim men, eshitting o'zing,
Shular yetarlidir, cho'zmagin so'zing.

Dunyo, holi, yo'li, yo'rig'i shular,
Ko'plarga qo'shilib yuray desang gar.

Ey ko'nglim yorug'i, rostilikka yaqin,
So'zim ma'nisini o'ylab ko'r tag'in.

O'ZG'URMISH O'GDULMISHGA BU DUNYODAN YUZ O'GIRIB U DUNYOGA MOYL BO'LMOQNI AYTADI

Javobda O'zg'urmish dedi: ushbu tob
So'zingni eshittim, aytayin javob.

Sen aytgan so'zlarни kim o'rgansa gar,
Olam ichra topar tilak-orzular.

Lekin tiriklikni degan har dono,
Bularmi ham bilib qo'yisin avvalo.

Mol yig'sa kishi gar chekib ko'p tashvish,
Uzoq qolmas esa nega bu yumush.

Bu dunyoni deya yugursa kishi,
To'xtab qolar toat-ibodat ishi.

Mening eshigimga sen kelgan ondan,
Toatlarim to'xtab qoldi-ku chindan.

Yakkaga yaqinlik bo'lsa shu qadar,
Meni undamagin, bo'lar bu zarar.

Ulush, kentga kirmsam mening bu o'zim,
Kishi bilan bo'lar ishim ham so'zim.

Ne tarzda qilarmagan toat-ibodat,
Bu yo'llimga eshik yopilar faqat.

Yigitlikdan o'tdim, qaridim bukun,
Toat tavba bilan yashay tun-u kun.

Yana qayta bormoq yomonlik tomon,
Yarasharmi menga, ey aziz inson.

Ta'llim berdi ilmi daryoday odam,
Eshit, ishga solgin uni sen har dam:

Yigitlikda qilsa qarilik ishi,
Qarisa ketar kuch, yetishmas yoshi,

Yigitlikda shoshil, ibodatni bil,
Qarilikda bo'lmas, buni yaxshi bil.

Kichik yoshlilingdan fe'lling ezgu tut,
Ulug'likka yetsang o'char ushbu o't.

Ne ezgu bo'lар, ko'r, yigitlik chog'i,
Ezgulikning ortib borsa salmog'i.

Ne tengsiz bo'lар, ko'r, qarigan kishi,
Qo'lida qilinsa yigitlik ishi.

Tiriklik uchundir bu dunyo moli,
Tiriklik tugasa — shu mol zavoli.

Narsa yig'ib o'tdi tirikliging, bas,
Ular kimga qolar, kesilsa nafas.

Deylik, tutay endi elig xizmatin,
Tugal bildim, esh-tush, elning odatin.

Oxir o'lar bo'lsak nafi ne, qo'zi,
Bizga undan tegar ikki gaz bo'zi.

Buncha o'tga-suvga kirmoqqa sabab,
Ikki tilak bo'idi, aytay, nozik tab.

Biri — buyuk bo'lsang el ichra o'zing,
Biri — ravo bo'lsa ularga so'zing.

Ko'p ezgu bo'lardi ikkovin olib,
O'llim tutmay, qolsa u mangu bo'lib.

O'lim oldi mendan ikkisini ham,
Ne kerak bu dunyo endi, ey jo'ram.

Kishi qutlisining bo'lar belgisi,
Kundan kun tegadi uning ezzusi.

Agar qutisiz esa sovutar kishin,
Qarilik chog'ida buzar o'z ishin.

Bu to'g'rida dono degan go'zal so'z,
Eshit buni tugal, sen ey qizil yuz:

Kishi qutlug'i shu, ulg'ayib mangu
Yomonlikni qo'ysa, bo'lса chin ezgu.

Tugal belgilidir kishi qutsizi,
Qarisa ham qo'ymas behuda orzu.

Qani bu dunyoni so'rab bir yo'la,
Temir shahar qurgan o'ziga to'la.¹

Qani u tuban it, dunyoni olib,
Yashil ko'kka keigan qora qush minib.²

Qani u men — Xudo degan da'vog'ar,
Joyi bo'ldi suvning osti sar-basar.

Qani ega bo'lgan dunyo bariga,
Moli bilan ketgan yerning qa'riga.⁴

Qani u Sharqdan to G'arbgacha hatto,
Yurib ellar olgan bahodir, dono.

Qani u tayog'in ilon etguchi,
Dengizlamni yorib kirib ketguchi.⁶

Qani dev, pari, qush, odamlarni ham,
Boshida turolgan u fe'li ko'rkam.¹

Qani u o'llikka jon bergen kishi,
O'limga asirlik bo'ldi so'ng ishi.²

Qani u kishining sara, yetugi,
Quruq qoldi dunyo, yo'q to'laligi.³

Ularning barini tutdi bu o'lim,
Seni ham qo'yarmi ey toza fe'lim?⁴

Bu yanglig'dir olam odat — qonumi,
Ista odatin tut, ista aksini.

Nazar sol, bu bo'z yer tubiga qadar,
Qancha odam kirdi, to'lmas o'pqoni.

Ochib ko'rsang edi qora yer qatin,
Ne sara, yetuk er g'amli yotganin.⁵

Ne beglar yotishar qora yer bo'lib,
Ne-ne dono chirir tubida ulib.

Begin quildan ayrib bilolmam o'zim,
Gadoyni g'anidan farqolmas ko'zim.

Biror dard yetishmay ne alp, pahlavon,
Qora yer ostida yotar ushbu on.

Shu yanglig' kishilar qolmay jahonda,
Tirik qolar semmi yo men shu onda.

Yurishlarga mashg'ul qay sayyoh odam,
Yo'lda uy-joy g'amin qilmas sira ham.

Yo'qoldi, hayriyat, bu orzu-tilak,
Meni tinch qo'y, Xudo beradi ko'mak.

¹ Ya'ni Sulaymon.

² Ya'ni Iso Masih.

³ Ya'ni payg'ambar (Muhammad (s.a.v.)

⁴ Ya'ni Shaddod.

⁵ Ya'ni Namrud.

⁶ Fir'avn.

⁴ Ya'ni Qurun.

⁵ Ya'ni Iskandar Zulqarnayn.

⁶ Ya'ni Muso.

Kishin qul qiluvchi bu suqlik erur,
Uni ham yo'qoldim, ko'zim to'q erur.

Nima deydi eshit, dunyoni qo'ygan.
Bevafo dunyoga ko'ngli ko'p to'ygan.

Tilaklarni topdim olamda o'zim,
Ochko'zlik odatin yo'qotdi ko'zim.
O'zim qo'ydim dunyoy tilak-orzusin,
Tilagim tugadi, kesildi so'zim.

Bu dunyo misoli ekinzor bo'lar,
Nima eksa, unga yana shu umar.

Urug' ezgu esa unar ezzulk,
Ul ezgu bo'ladi yegu-kiygulk.

Urug' yomon esa, yomonlik unar,
Bu balo bo'yinga keyin yuk bo'lar.

Toki tark etilmas tilak-orzular,
Nasib bo'lmas keyin menga ezzular.

Seni qo'ymas ekan, bu dunyoni qo'y,
Senga to'ymas ekan, sen oldinroq to'y.

Uni qo'ymasang sen, seni qo'ygay u,
Unga to'ymasang sen, senga to'ygay u.

Dunyoni olsang-u yana qolsa u,
Seni qo'yar esa, o'zing qo'y mangu.

Bu dunyoni qo'ygin, unisin tiia,
U yerda yashagin mangulik ila.

Yana yaxshisini tilasa ko'ngil,
Ikjisim ham dema, ularni qo'ygil.

Kel-ikki olam egasim tila,
Dunyo ne kerak, u oxirat ila.

Beruvchiga erish, berilgan — sening,
Yaratganga erish, yaratgan — sening

Yaratgandan qo'rma, tilama tilak,
Yaratgandan qo'rq, u berar yo'l-yo'lak.

Yaratgan egamning toatin qo'yib,
Yaratganga xizmat etaymi to'yib.

Ikkidan bo'lakmas xizmatkor kishi,
Yo singib xizmati balandlar boshi.

Yo manzur bo'Imagay xizmatin biri,
Bekor bo'lар, kun, oy, tirikliklari.

Yarasa xizmati, beg bilsa buni,
Tobelik bo'ladi erishgan kuni.

Goho och, goho to'q yugumoq kerak,
Begi yotsa, g'amin ko'tarmoq kerak.

Xizmat singdirmasa beg xizmatkor,
Bekor bo'lар kelgan tiriklik bori.

Naf oladi bundan qaysi xizmatkor,
Bu xil ishdan ayt-chi, nima foyda bor?

Nima deydi, eshit, Ilo erkini,
U aytadi xodim odat — erkini:

Boqib ko'r, ko'p qiyin bu beglar ishi,
O'zin ko'rsatolmas, har ishda kishi.

Xizmatchi yarasasi o'z erki yitar,
Yaramasa har kun o'zi past ketar.

Yumushgga ishomma, ey fe'li go'zal,
Yumush qilar oxir boshingni badal.

Sevindi deganda sasitar, so'kar,
Yozildi deganda yana qosh tugari.

Tugal bilib bo'lmas qiliqlarini,
Yana olib bo'lmas oliqlarini.

Bu dunyo, bo'ron, yel miso, ey o'g'il,
Ko'lanka misoli qarorsiz u, bil.

Sarobdir u asli, ko'zingda turar,
Tutayin deganda yitar, yo'q bo'lar.
Navbat bilan kelar bu davlat qo'ri,
Tirik, bevafo u, bo'lar tez qani.

Bu dunyoning menga bo'lmas hojati,
Kerak emas endi davlat navbatni.

Egam yodi yo'ldosh, u berar sevinch,
Uning yorlig'idan organim ovinch.

Egam sevgisi bas menga har qachon,
O'zim yovlashgan yov — yolg'iz bir shayton.

Umidim egamdan, tilagim undan,
Sig'indim o'ziga, keragim undan.

To'nim qo'y yungi, bas oziq — arpa osh,
Tugal bo'lди shundan dunyo, ey qardosh.

Nima deydi, eshit, mehrbon so'zi,
Andishali, g'orda yashovchi o'zi:

Olamdan yetishdi menga ish o'ngi,
Oziq qildim — kepak, kiyim — qo'y yungi,
Shakardan shirimroq kepak bo'tqasi,
Bu juldur kiyimim — ipaklar tengi.

Qorin to'yguncha ye ichgulik, oshlik,
Arpa bo'tqami u ketkazsin ochlik.

Ko'moch ye, go'ja ich to topsang iloj,
Moldek yema ammo — buzilar mizoj.

Lazzatlar ketidan quvma, yashagur,
Lazzatga so'ng javob — tubi yo'q chuqur.

Achchiq-chuchuk ovqat tomoqqa lazzat,
Tomoq lazzatini degan mol faqat.

Ipak, shohi kiyim kishi kiyusi,
Tanga parda sozla, ey er egrusi.

Bo'g'iz bir to'ysa u ikki kun yurar,
Agar bir to'n kiyangsang ikki yil turar.

Shu ilkisi uchun o'zim qul qilib,
Kishi ishin qilsam yaramni bilib.

Arshi a'lodan to qora yer qadar,
Barcha mungli erur senga muqarrar.

Tugal mungsiz erur faqat bir-u bor,
Qarorli, saxoli, mungdan xabardor.

Ko'ngilni bog'ladam, o'ziga tugal,
Tilagimni undan tilay, har mahal.

Shaksiz aniq bo'lidi o'zi bir-u bor,
Dil-u so'zda bo'lidi undan minnatdor.

Boriga iqorman, tilab tun-u kun,
Qayerdan topmoqqa faqat men zabun.

Bgamni izlayman, yo'q ko'z uyquisi,
Nishonin toparman yo'q ko'riglisi.

Qidirgan hormaydi, tila, timmagin,
Topolmadim deya yo'ldan yonmagan.

Qidir, timma aslo, unga yetmoq yo'q,
Tilab topmadim deb, tilib yotmoq yo'q.
Tilagan yugurar, tilib qolmagay,
Yetib tinguchilar tilak olmagay.

Qidirib timmagan topolmas nega,
Tin olgach toparmi tilak, ayt mengai!

Meni U tiladi eng avval suyib,
Uni tilar bo'ldim bor ishni qo'yib.

Meni U tiladi, U edi azal,
Uni so'rar bo'ldim men endi tugal.

Shunday egamni men nega suymayin,
Tilab topmaguncha tilak qo'ymayin.

Mangu to'qligimga faqat u yarar,
Balo, qayg'u yetsa yana u qarar.

Meni U siyladi, eng avval tilab,
Shunga tilar bo'ldim men dilni ulab.

Meni U yaratdi, shudir chin so'zim,
O'stirdi meni U, shon oldim o'zim.

Umid uzdim ko'pdan, sig'indim unga,
Meni asrar doim, ishondim shunga.

O'zim yolg'iz qolsam Egam yodi bas,
So'zlamog'im uchun uning oti bas.

Ovinchim, sig'ingum, tanho, bor-yo'g'im,
Bir-u borning o'zi ham ochim, to'qim.

Nima deydi, eshit, diyonatli er,
Egasiga mudom muhabbatli er:

Ko'ngildagi sirim ocharman senga,
Tilik-orzu birla ucharman senga.
Quvonchim, ovinchim, sig'inar Egam,
Borliqdan uzldim, qocharman senga.

U dunyoga badal bu dunyo bo'lur,
Buni qo'ymaguncha uni kim olur.

Qator narsalarni qo'ymasa kishi,
Aslo bitmas keyin uning to'rtishi:

Bu dunyodan burgin chetga tamom yuz,
Shundan uqbo bo'lар senga tugal-tuz.

Bevafo dunyoni tilasang har dam,
Qaydan yetar senga u mangu olam.

Xatar erur dunyo, har no'shi — og'u,
Toza bo'lsin senda har ichgu, yegu.

Qo'ya bergin dunyo tilak-orzusin,
Shundan topsa bo'lар uqbo-ezgusin.

Haqiqat deb shuni bil, O'gdulmishim,
Aytayin men senga o'zim bilmishim.

Bu dunyo ishini qo'ymasdan tugal,
Uqbo ishi bo'lmas aslo mukammal.

Bo'lmaguncha ko'pdan yiroq, ey qardosh,
Bir-u borning ishi tutqazmaydi bosh.

Havo-orzu bo'yni sinarkan qachon,
To'g'rilik yo'liga kirar tan-u-jon.

Ko'ngildan chiqarsa butun dunyosin,
To unga jo qilsa bir-u borni chin.

Musulmonga tunab o'tar joy — dunyo,
Tunar joyda rohat istama aslo.

Nafsga erk berma, bo'l qattiq, puxtakor,
Shunda to'g'ri yo'lga kirmoqliging bor.

Bekor berma kechar bu vaqting, kuning,
Qayta topilmaydi kechgan bu tuning.

Kechar kun bo'sh ketsa o'kinching ayt-a,
Tiriklik bo'sh ketsa topilmas qayta.

Nima deydi, eshit, biliimga to'liq,
O'zi kamtar, dilkash, ko'ngli ko'p ulug':

Joydan joyga ko'chib yuruvchi kishi,
Oldin ko'ch jo'natsa soz bo'lar ishi.

Ko'chmasdan oldin ko'ch yuborsa o'zi,
Uning nafi bilan yorishar ko'zi.

Xoh yuborma ko'chni, xohiki yubor,
G'ofil bo'lma, bir kun ko'chmoqliging bor.

Kerak esa beg bo'l, kerak esa qul,
Tirik qololmaysan o'llim tutsa yo'l.

Kerak ming yil yasha, kerak o'n sakkiz,
O'llim kelar qo'ygin e兹gu omni iz,

Kerak esa boy bo'l, yoki bo'l gadoy,
Tiriklikni yer bu kechar yil, kun, oy.

Ko'kka bosh tegizsa suyuklik oti,
Kirib yorg'u o'rnинг qora yer qati.

Tiriklik topib er begor bersa gar,
O'zin o'tga otgan hayvonga o'xshar.

Esonlik topib er begor bersa yosh,
Bu ko'rksiz tiruqliq bo'lar, ey qardosh.

Mening qayg'umni sen yema, ey qardosh,
Sen o'z qayg'ungni qil, ko'zdan to'kib yosh.

Bu dunyo ishi bir tuzoqchi misol,
Tuzoqqa ilinma, U tutar darhol.

Bu kun keldi davlat tilagingga mos,
Ishonma u ketar yana tez, bexos.

O'llimni umutma o'zing hech mahal,
Pistirmadan chiqib solar u changal.

Qani biror g'ofil — o'llimdan qochgan,
Talay jam narsani shu o'llim sochgan.

Nima deydi, eshit, sergak ham dono,
O'llimni umutma, u berar balo:

Talay to'pni tarqoq qilgan shu o'llim,
O'llimni o'ylasam oqar ko'z yo'llim.
Men-men deganlarning meni qolmadni,
Naf bermadi aslo yiqqan mol-holim.

G'ofil bo'lma, hayot o'tadi beun,
Kelmas bo'lib ketar kechar vaqt-u kun.

Rohatga ovinma — kuning behuda,
Bu qutga ishonma — vafosiz juda.

"Buyuk — men" degamni yo'q etdi o'llim,
"Ulug' — men" degamni yiqitdi o'llim.

O'limdan buzuldi talay katta joy,
O'lim buzdi qasr-u, shahar, uy, saroy.

Necha-necha tirk yo'qoldi bu kun,
Bizga ko'zni tikib yotarlar kun-tun.

Boqib ko'r ularga, sen ochgin ko'zing,
Bekni quldan ayrib bilarmi o'zing.

Ulug 'lik o'limga hech naf qilmadi,
O'limdan qochuvchi hech naf bilmadi.

O'lim olib ketdi payg'ambarni ham,
Unga kim qilolgay chora yoki em.

Ishonchsiz erur bu jafochi jahon,
Wafosiz, seriafo, qillig'i yomon.

Qanday o'tkazmagan tez kechar kumlar,
Yaxshi, yomon, egrि, to'g'ri ham o'lar.

To'qlikda kechar goh, goh kechadi och,
Ne begka xotir bot, ne qulga iloj.

Rohat-mashaqqati ko'pmas hech qachon,
Shunday ekan nega bu shovqin-suron.

Juda yaxshi debdi dono, ilmi keng,
Qilig'i, yo'rig'i bilan ko'ngli teng.

Oz ezzuga odam unutar o'zin,
Yashil ko'kdan ustun yuritar so'zin.
Necha alp, bahodir, gerdaygan erni,
O'lim yanchdi, timmay oqizdi ko'zin.

Bu edi senga chin yaqinlik haqi,
Buni so'zladim men senga, ey saxy.

Kim esa-da bilsa bu ahvolni chin,
Bu dunyoni tutmas o'ziga yaqin.

Yigitlik yo'qoldi, egildi boshim,
Ipor ketdi, kofur yopindii boshim.

Shubhasiz o'limga hozir bo'lар dam,
Kelmoqda tobora, ey sara odam.

Sevinch ketdi, kelib o'larning g'ami,
O'lindan so'ng nechuk kechar har dami.

O'lim qayg'usida bandman-ku, qo'zim,
Nechuk bog'lay elig ishiga o'zim.

Eligka mendan hech naflar bo'lmagay,
Naf bersin desa ham topa olmagay.

U dunyo ne'matin qilsa gar havas,
Meni keldi sanab yura bersa bas.

Odam o'g'lin axir bu erkli bayot,
Yaratdi ikki ish uchun, berdi ot:

Do'zaxga yo jannat begi bo'lishga,
Tabarruk yo odam tagi bo'lishga.

Tabarruk bo'lishga ayta berdi yo'l,
Tubanlik yo'lin ham belgiladi ul.

Kerak endi qo'lga o'zi qulligin,
Tugal qilsa, olsa bayot tavfiqin.

Agar olsa tavfiq bayotdan quli,
Barcha ezzulikka ochildi yo'li.

Qattiq kirish, keyin qilgin ibodat,
Bor ezzulik eshik ochadi faqat.

Shular edi, mana, mening bilmishim,
Senga so'zladim men, ey ezgu eshim.

Sizlarga o'zimdan nafli so'z kerak,
O'zimdan ko'ra shu so'zim ezzuroq.

Uqboni desang gar, yo'riq shu azal,
Bu dunyoni desang bilasan tugal.

Kela berar iqbol, aylanar davron,
Ne istasang bori bo'lар chin, ishon.

Menda ne bor bo'lak yana ezgu ish,
Sizga naf berolsa to, ey ezgu esh!

Qo'ya bersin elig holimga meni,
Duochi bo'layin unga tun-kuni.

Bilim desa shudir mening bilganim,
Aytib bergen unga bayon qilganim.

So'zimni tutinglar, ko'ngil to'lmasa,
Keyin to'g'ri kelar bugun bo'lmasa.

Juda yaxshi degan bilimi dengiz,
Uni ishga tutsang qizartadi yuz:

Bu kun bu so'zim, ko'r, senga tush bo'lur,
Keyin u yerlarda senga tush bo'lur.

Bayot bersin tavfiq, kuch senga, qardosh,
Duoda unutma, ko'ngil tutma bo'sh.

Meni ham Xudodan so'ray ber turib,
Ko'nglim ocha bersin holimni ko'rib.

G'ofil bo'lma, urin, so'zim ishga tut,
Agar tutmasang u qilar zarar, yut.

Eligdan so'ragin mening uzrimni,
Yarog'i ne esa o'zing qil emni.

Ey qardosh,
ko'nglingga keltirma malo,
Yaqinlik ichida doim esga ol.

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

Javobga O'gdulmish tebratdi tilin,
Uqib oldim, — dedi, haqiqat yo'lin.

So'zingni eshitdim, to'liq tingladim,
So'zim kesdim endi, seni angladim.

To'g'rilikcha aytding so'zni tugal, mo'l,
Bundan boshqa bori, bildim, egri yo'l.

Seniki tugal, chin, meniki — o'yin,
O'yin qoldi, chinga beraman bo'yin.

Borayin men endi, eson, ezgu qol,
Ikki dunyosi bor, ayo ezgu fol.

So'zin kesdi, turdi oyoqqa tikka,
Esonlashdi, uyga jo'nadi yakka.
Otin mindi, qaytdi u uyga keyin,
Kirib tushdi, ancha berildi o'yga.

Yedi, ichdi, o'yalar edi rosmana,
Eshitgan so'zini takrorlab yana.

Quyosh bog'lar edi yuzga yuz bog'i,
Olamga yoyildi qora yer tug'i.

Kokilin tushirdi so'ng rumiy qizi,
Qora soch rangida bo'ldi yer yuzi.
Zangi yuzi kabi osmon burkanib,
Yuruvchi to'xtadi, uchgan ham timib.

Yuvvinib, o'qidi namozin turib,
Joy so'radi, yotdi hozirlik ko'rib.
Uxlab oldi ozroq, uyg'ondi u kez,
Tepadan og'i badi Baqir cho'qun.¹

Yana ko'rdi: oqqan Hulkar yulduzi,²
Sharqdan chayon³ chiqdi balandlar o'zi.

Yana yotdi ancha, uyqu kelmadи,
Bezzakli kishidek ko'z yumilmadi.

Uyqusiz yotdi u ancha vaqt uyg'oq,
Osmon oldi go'yo kofuriy bo'yoq.

Anbar sochgan misol, qoraydi osmon,
Quyosh nuri bo'ldi terilgan marjon.

Baland ko'tarilib kelardi quyosh,
Dumaloq, ol rangi ko'tarardi bosh.

Uyg'ondi, yuvindii turib O'gdulmish,
Namozin o'qidi to bilgancha ish.

Yerdan ko'tarildii qip-qizil marjon,
O'gdulmish yo'l oldi saroyga shu on.

Kelganin eshitib, elig qildi yo'l,
Bu kirdi, eligga qovushtirdi yo'l.

Elig o'tirishga qilganda imo,
Hurmat-ehtiromin u etdi ado.

Eligning O'gdulmishga savoli

Biroz turib so'ray boshladи xoqon,
Dedi: "so'zlarining ayt-chi, bilimdon.

Nima der qardoshing, ne bo'ldi ishing,
Ne bo'ldi tilaging, kelarmi eshing?

O'GDULMISHNING ELIGGA JAVOBI

O'gdulmish javobga ochdi tilini,
U yerda bo'lgan gap-so'z anvolini.

Illi aro bo'lgan bor gapni tugal,
Eligma gapira boshlar shu mahal.

Elig jum qoldi, u xayolda o'zi
Ko'ngil og'ridi, yosh oqizdi ko'zi.

Eligning O'gdulmishga javobi

Dedi: to'g'ri degan qardoshing tamom,
Uning aytg'anlari to'la haq kalom.

Bu kun biz qilarmiz o'zimizga kuch,
Yana unga ortiq qilarmizmi o'ch?!

Bu dunyo o'tkinchi ketar benishon,
Qolgan tiruklig ham belgisiz, ishon.

Shubhasiz, kelar so'ng u mangu olam,
Mashaqqati ko'p-u rohatlari kam.

¹ Baqir cho'qun — Mirrix (Mars) yulduzining turkiy nomi.

² Hulkar — burjillardan biri.

³ Chayon — Aqrab burjining turkiy nomi.

Rohat shuki, u yon borganda kishi,
O'mi ezgu bo'lur, ezgu do'st – eshi.

Hushyor ekran demak, qardoshing tugal,
Maholdir chaqirmoq uni shu mahal.

Biz-ku bo'ldik endi havasga tutqun,
Behudlik ichida kechdi ushbu kun.

Ko'ngli türk ne der, sen endi eshit,
Uning pand-o'gitin o'zingga ish et:

Havo-nafs yov erur, agar olsa kuch,
Yetkazar o'zingga keyin ikki o'ch.

Havo-nafs tirilsa o'lar bu ko'ngil,
Ko'ngil o'lsa toat qolar, ey o'g'il.

Bizning ko'ngil o'ldi, u endi tutqun,
Havo-nafs-chi bo'ldi ko'p yo'g'on bo'yin.

Ulug'lik, buyuklik, bu davlat kuni,
Mangu qolmas, angla sen o'zing shumi.

Rohati oz ammo, ko'p g'amli ishi,
Bosh og'rig'i ko'p ham so'kish, qarg'ishi.

Nima der bu haqda bilimdon kishi,
Olamni sinagan, yetilgan ishi:

Ulug'likka ortiq quwonma kula,
Ulug' bo'lgan esang bosh og'riq bil-a,
Sevinch qayda bo'lsa so'ngida balo,
Rohat qayda esa ming tashvish ilia.

ELIGNING O'GDULMISHGA SAVOLI

Ey O'gdulmish, dedi, — yana bu xoqon,
Uni chorlamoqdan maqsad shu zamон —

Sabab bo'larmidi ezzulkil ishga,
Ko'ngil qolmasmidi talay tashvishga.

Chirandi, unamas bu yon kirishga,
Yo esh-tush, qardoshlar yuzin ko'rishga.

Uning deganlari bari chin, sara,
Yana zo'rlar bo'lsak yarashmas sira.

Senga ham yuk tushdi, tashvishli yurib,
Tilda so'zing aytilding, yugurding horib.

Kutaylik, ko'raylik yana bu ahvol,
Ne ish bilan tugar oxir, ezgu fol.

Qora tun ichida bo'lur bo'igu ish,
Yoritar yoruq kun uni, ezgu esh!

Zamon yoyi hozir turar otishga,
Goho naf, goh zarar berar u ishga.

Bayot hukmiga qo'y neki bo'lsa ish,
Fursat kelsa bitar, sen chekmra tashvish.

Ish qilsangu rohat ko'rmasang ammo,
Qo'ya ber u ishni bilimdon, dono.

Dunyo raftori shu: sen quvsang qochar,
Qo'ya bersang senga qayta yo'l ochar.

Kutaylik, sinaylik uni bir mahal,
Zamon o'zi etar ishimizni hal.

Kunlar kelib bizni tilamay turib,
Boshqa tadbir topar u o'ylab ko'rib.

Shunday deya so'zin tugatdi xoqon,
O'gdulmish ham bo'lди uyiga ravon.

Ancha kunlar o'tdi shu so'zdan keyin,
Elig o'yga botdi yurib old-keyin.

KUNTUG'DI ELIG O'ZG'URMISHNI UCHINCHI BOR CHORLAB YUBORISHINI AYTADI

O'gdulmishni chorlab bir kuni xoqon,
Sendan bir ish lozim, — dedi bu zamon.

Chorladim, qardoshing bu yon kelmadi,
Tilagan tilagim amal olmadii.

Bu istakni endi yo qoldim butkul,
Endi o'zga bo'lди bu tilakka yo'1.

Sen ko'rgin, bu kungi tilagim mening,
O'zim bir ko'rayin yuzini uning.

Yo kelsin bu yon u, yo boray o'zim,
Ziyorat uchun bas, ey qizil yuzim.

O'git, pand, nasihat bersin u kishi,
Keyin qaysitsin, qilsin ne bo'lsa ishi.

Menga nafi tegsin, unga yo'q zarar,
Mendan ketsin noplak raftor bo'lsa gar.

O'GDULMISHNING ELIGGA

JAVOBI

Javobda O'gdulmish dedi: Chindan ham,
Bu gaping yarashiq, ko'rinar ko'rkan.

Bu ish bo'lар, elig tilasa uni,
Chorlayin, buyursa xoqonim meni.

Borayin bu so'zni unga aytayin,
Elig bormasin, men olib qaytayin.

Yana bir xat bitsin endi bu xoqon,
O'qisin, ishonsin u sara inson.

ELIGNING O'GDULMISHGA

SAVOLI

Elig dedi: nega kerak bu bitig,
Bitigdan butunroq o'zing bor, tetig.

Bitig ishonchi yo'q kishiga bo'lur,
Sendan ishonzhiroq kim bo'la olur?!

Yag'mo begi ne der, eshit bu so'zin,
Butun ish ichida pishirgan o'zin:

"Elchiga ishonsa bitig ne kerak,
Ishonch komil esa etig¹ ne kerak,
So'zing tilga chiqar, uni ham eshit,
Yana bir bitig, ey tetig, ne kerak".

Bu unchalik og'ir ish emas, qiyin,
Cho'chib o'zni olib qochsa yo keyin.

Shugina taklifga ne lozim bitig,
O'zing ishonzhisian menga, ey tetig.

¹ Etig — chora, tadbir.

U kelsin, uchrashsin, tez qaytsin yana,
Zo'rlab qoldirmayman, erk berdim, mana.

Uni chorlagayman bir hojat ila,
Uni zo'rلامагин, сен тақліф ғіл-а.

Beri kelmasa men borayın mari,
Yuzini ko'rayın, qaytayın beti.

O'gdulmishning eligga javobi

O'gdulmish javobda dediki, tilak-
Tugal bo'lар bersa bir-u bor ko'mak.

Urinib ko'raman men yana bir gal,
Bu orzu tilaging qilguncha tugal.

Elig hazratim tinch-esonlar bo'lsin,
Barcha tilagiga erishsin, olsin.

Turib chiqdi, minib otini yana,
Uyga yetib keldi, yechildi to'n-a.

Qizil quyosh yuzi o'ngdi bus-butun,
Timiq bo'lди olam misoli oltin.

Quyosh tortdi yuzga sariq za'faron,
O'zin qildi mayna rangidek jahon.

Osmon rangi bo'lди dilbar qiz qoshi,
Jahon bo'lди misli habashlar boshi.

Yeb-ichdi, yuvindi, o'qidi namoz,
To'shagiga yotdi, dam oldi biroz.

Sariq bulbul navo qilar beqayg' u,
Cho'chib turdi o'zi, kelmadi uyqu.

Uyg'oq yotdi ancha, uni tingladi,
Ovundi ul unga, turib tongjadi.¹

Uyqusi yo'qoldi cho'zilib tuni,
Aziz bo'lди unga yorishar kuni.

Osmon yirtti kiygan qora ko'ylagin,
Yorug' yuzli quyosh tikdi qomatin.

Kulib boqdi go'yo to'kis qiz yuzi,
Kungay, kun tushmas yer yorishdi o'zi.

Quyosh keldi o'rhab ko'rsatdi o'zin,
Yorib ketdi dunyo yayratdi o'zin.

O'gdulmish qo'zg'aldi, kiyindi tugal,
Namoz qildi ezgu o'yda mukammal.

Otin tutdi, mindi bir o'g'lon ila,
Jo'nadi qardoshi tomon u kula.

Uyiga yetishib qolganda yaqin,
Oldan tushib bordi eshikka sekin

Taqillatdi sekin u tovush qilib,
Turib chiqdi tezda qardoshi bilib.

O'zg'urmushning O'gdulmishga
savoli

Ko'zda ko'rgach esa bu O'gdulmishni,
Dedi: buncha cho'zding sen bo'lmas ishni.

¹ Tongjadi – hayron bo'ldi, hayratga tushdi.

O'zingni qiyinaysan nega kuch bilan,
Nega yopishasdan menga o'ch bilan.

Ichkari kirgin, yur, menga ayt so'zing,
Nega qaytib kelding yana sen o'zing?

Yurib uyga kirdi bu ikki qardosh,
Qardoshiga zohid turgi qovoq-qosh.

Bor ishni munosib, tengi bo'ladi,
Munosib, teng bilan har nima eson".

Eligda o'zgardi oldingi tilak,
Ziyoratga chorlar, sen bergin ko'mak.

Borib ko'r, kelsin u yo o'zi senga,
Yuzing ko'rsin bir bor, ey ko'ngli keng-a.

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

O'gdulmish dedi: ey pok-u pokdomon,
So'zim tingla qovoq solmay bu zamон.

Sen aytgan so'zlarни buzmay, benuqson,
Eligga yetqazdim, etdim xo'p bayon.

Eshtdi elig, so'z tugal tingladi,
So'zingni eshitgach holin tangladi.

Seni o'z holingga qo'ydi ziyyoda,
Faqt bir tilakni etdi ifoda.

Meni so'zchi etib jo'natdi oxir,
Bunga koyinmagin, ey mard, bahodir.

Har narsaning haddi, fursatlari bor,
Fursatdan o'tkazma ishni, ey nomdor.

Zakovatli degan ushbu ishga mos,
Har nimaga bo'lар ushbu so'z asos:

"Vaqtidan o'tkazma ishni hech qachon,
Ishdan yiroq tushding vaqtini bergen on,

O'zg'urmishning O'gdulmishga javobi

O'zg'urmish dedi: bu so'zlar mukammal,
Zakovatga yaqin, ey ko'ngli tugal.

Musulmon qardoshni musulmon qardosh
Ziyorat qiladi, ey ko'ngli yuvosh.

Bu so'zga egildim, berarman bo'yim,
Ziyorat qilayin uni men bu kun.

Bundan oldin bormas edim men aslo,
O'z nafin tilardi elig mutlaqo,

Uni qo'ydi, tutdi haq yo'lni shu dam,
Haq yo'lni tanladim, qo'ydim men qadam.

Men o'zim borayin, elig kelmasin,
Menga tegsin tashvish, elig olmasin.

Elig el begi u, xalqiga ulug'
Uni hurmat qilmoq kerak chin, to'liq.

Yo'riq tuzsa, keyin haq desa so'zin,
Elidan aritsa yomonlar izin.

Nima der bilimi bir dengiz monand,
Uqvlifi, sabotli, ko'ngli ko'p baland:

"Raiyatga vojib begi yorlig'i,
Uni tutsa tinglab kichik, ulug'i.
Hurmat etsa begin o'zi, so'zini,
Kerak hindu bo'lsin, kumush olig'i".

Ehtirom etarman elig yorlig'in,
Zhyorat qilarman, bo'larman yaqin.

Bor endi, eligga yetkazgin so'zim,
Bormog'imni aytgin mening bu o'zim.

Yorug' kun qoraysa, chiqa boshlab oy,
Men keyin borayin, sen hozirla joy.

Kishi ko'rsa kunduz g'iybat qilladi,
O'zin o'tga otar, so'z ochiladi.

Kel endi boraqol, sen uyingda kut,
Seninigla borayin, unda ko'zni tut.

Eng avval borayin uyingga tomon,
Ne ish etmoq kerak bilarmiz ayon.

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

O'gdulmish sevindi, ko'r, aytdi javob:
— Juda ko'rkl iish bu yana ham savob.

Borayin men endi elig yoniga,
Kesar deyin, sevinch kirsin joniga.

Mendan keyin tutgin sen aytgan so'zing,
Deyilgan soaitda yetib bor o'zing.

Bir so'zga kelishgach ikkala qardosh,
O'gdulmish suyindu yozib qovoq-qosh.

U qayta uqtirdi, dedi ey qardosh,
So'zing qiyma, bongin, ko'ngli serbardosh.

Quyosh rangin olsa bu dunyo yuzi,
Ko'mir rangin olsa bu dunyo o'zi. —

Uyda kutay, kelgin menikiga sen,
Sen uchun hozirlik ko'rib turay men.

Otin mindi, jo'nab ketdi shu zamон,
Ruxsat so'rab kirdi u elig tomon.

Eligga yetkazdi eshitgan so'zin,
Sevinch ichra yozdi elig qosh-ko'zin.

Eligning O'gdulmishga savoli

Dedi: ezgu bo'ldi ishimiz bari,
Rostdan chin bo'lsa gar u deganlari.

Elig so'rar: o'zi keladi qachon,
Uchrashuv joyimiz qayer, bilag'on?

O'gdulmishning eligga javobi

Javobda O'gdulmish dedi: — Ushbu tun
Yorug' dunyo yuzi qoraysa butun,
Uyimga kelishga so'z berdi menga,
Qachon desang paytin, keladi senga.

Elining O'gdulmishga javobi

Elig dedi: chekding meni deb yummush,
Mashaqqat tengida hurmat ol ulush.
Bu edi dardimning davosi, emi,
Sevintirding mening ko'nglimni endi.
Sen uyda kut, aytgin, u kelsin menga,
Kishi borar mendan chorlovchi senga.
Qardoshingni olib menga kelturib,
Ziyorat qilayin yuzini ko'rib.

Bunga o'xshash aytg'an olam donosi,
Uqib ol, ne deydi mag fiz-ma' nosi:

Kishi ko'ngli tilar doim ezzuni,
Ovutadi umid bilan o'zini,
Agar olsa orzu-tilagin tugal,
Undan to'lar ko'ngil, kesar so'zini.

O'gdulmish: xo'p bo'lar, — deya qo'zg'aldi,
Uyiga yetishib biroz dam oldi.

Quyosh yerga qaytdi, yashirdi yuzin,
Qora tuman tutdi yorug' yer yuzin?

Tul to'nini kiydi olam qosh tugib,
Osmon jin yuzidek qoraydi o'ngib.

Bor tebrangan tindi, yumildi ko'zi,
Un-shovqin, kesildi, tiriklar so'zi.

O'zg'urmushning O'gdulmish tomon kelishimi aytadi

Yetib keldi asta uyg'a O'zg'urmish,
Kutib qarshi oldi uni O'gdulmish.
Salom qildi ikkov, olishdilar qo'l,
So'ng sekin olishdi ichkariga yo'l.
Ovqat, sharbat berdi kuzatib chandon,
Xabarchi jo'nati eligga tomon.
Xabar topib elig ham qildi javob,
Ularni chorladи yaqinlik ulab.

Kuntug'di O'zg'urmish bilan ko'rishishini aytadi

Ikkisi borishdi tez satoy tomon,
Peshvoz chiqdi turib o'midam xoqon.
Salom berdi xoqon, eng avval ko'rib,
Alik qildi zohid salomga turib.

Qo'l olishdi zolnid bilan bu xoqon,
Hol-ahvol so'radi shodlanib chandon.

O'zi yaqinidan ko'rsatdi u joy,
Ehtiromlar etdi ochib rang-chirov.

Dedi, ey O'zg'urmish, qiyndalding birrov,
Bu yerga kelibsan sen axir yayov.

O'zg'urmushning eligga javobi

Javobda O'zg'urmish dediki: Qo'zim,
Seni ko'rgach g'anni unutdim o'zim.
O'zim orzu qilib keldim-ku senga,
Nechuk tashvish yetar, ey elig menga.

Kishi tilak qilsa, yetishsa borib,
Tilakka tez yetar, qolmaydi horib.
Nima deydi, eshit, ko'p oliv nasab,
Nomin zako bilan olamga tarab:
Ko'ngil orzulasa yiroq yer yaqin,
Tilagin topar-u bo'lar shod tag 'in.

Ko'ngil bilan qadam qo'ysa orzulab,
Kishi yetar tezda yaqinlik ulab.

Ko'ngilsiz qo'yilsa ne yerga oyoq,
Necha yaqin bo'isn, bo'lar u yiroq.

Oyoq bilan yurgan mashaqqat yutar,
Chin dil bilan yursa mashaqqat yitar.

Chin dil bilan keldim, senga, ey dono,
Qanday yetsin menga, mashaqqat, balo.
Ko'ngil kimni sevsra tilasa tag 'in,
Necha yiroq bo'isn, u bo'lar yaqin.

ELIGNING O'ZG'URMUSHGA

nomid dij SAVOLI

Elig dedi: avval savolimiz bor,
Shu so'zdan o'zing et meni xabardor.

Ko'ngil bilan kelding sen endi menga,
Ruxsat bersang savol berayin senga.

Bilarsanki salom fazli ko'p ulug',
Oldin salom degan yo'l ochar to liq.

Meni ko'rding, ammo salom qilmading,
Nega bu kalomni lozim bilmading?

O'ZG'URMUSHNING ELIKKA JAVOBI

Javobda O'zg'urmish dedi: men salom
Atayla qilmadim senga, xush kalom.

Salomdir kishiga sog'lik beqiyos,
Salom bilan bo'lar sog'likka asos.

Salomdir kishiga eminlik, omon,
Salom qilsa keyin emin bo'ldi ion.

Ushbu gap yaratshar bu gapga rosa,
Buni sen eshitgin, e ko'ngli toza:

Omon berdi erga salom qilguchi,
Salomatlik topdi alik oluvchi.
Salom bo'ldi odam tinchiga garov,
Sog'lik olar salom bilan qolguchi.

Ulug'lar kerakkim kichikka salom –
Oldin bersa, bo'lar bari ish tamom.

Kamtar bo'lsa, olsa ulug'lar so'zin,
Ulug'lik sariga eltadi o'zin.

Kichikka yetmasa ulug' zarari,
Salomatlik topsa kichiklar bari.

Qanday zarar ko'rар mendan bu xoqon,
Kichikdan ulug'ga tegarmi ziyon?!

Elig qo'li bo'ldi el uzra uzun,
Ne tilasa qilar, tumursa yuzin.

Shunga oddiy odam begiga salom –
Oldin bermas axir, ey ilmi tamom.

Meni eng avvalo xizmatga tilab,
Saroyga chorlading, o'zing orzulab.

Bo'yin bermadim men, so'zing olmadim,
Vafosiz olamga ko'ngil solmadim.

Uni qo'yib deding ziyorat uchun,
Bu so'zga ishonib keldim men butun.

Hanuz iymanardim huzuringga men,
Salom ila berding tasallilar sen.

Yana ilk so'ziga bo'lib umidvor,
Qaytmasin deb tilab turgandim zinhor.

Endi senga ko'ngil qo'ydim men tugal,
Sendan ezu xislat sari o'zing bog'la bel.

Eligning O'zg'urmushga javobi

Elig dedi: begi uchun eng yovuz –
Deyishga desa-yu bajarmasa so'z.

Ulug'lik yemasin u qo'li uzun,
Gar etmasa tilga chiqqargan so'zin.

Olam ishiga qo'l topmasin kishi,
Tili yolg'on esa, qo'li – qup-qurug'.

Yana yaxxhirog'in dono so'zlagan,
So'zdan qaytsa qaytar, qochar qut degan.

Kishiga yovuzi bu yolg'on bo'lar,
Yovuzzdan yovuzi so'z qiygan bo'lar.

Bu haqda so'zlagan so'zi to'g'ri er,
Mana sen qulq sol, nimalarni der:

"Begi bo'lsa butun, desa so'z chini,
So'zidan qaytsa kim mard dema uni.
Tilga chiqqargandan qaytmaydi mardlar,
So'zidan qaytsa kim – xotinlar soni".

O'zg'urmushning eligga javobi

O'zg'urmish javobda dedi: ey elig,
Senda jam bo'ldi bu talay ezgulk.

Yana ortsin endi hukming yetgan el,
Ezgu xislat sari o'zing bog'la bel.

El ichra saradir beglarning o'zi,
Sara bo'l sin ular ishi ham so'zi.

Dono bergan ta'llim mana ushbular,
Begi ezgu bo'lsa, eli boy bo'lar.

Nima deydi, eshit, oppoq bosqli er,
Ko'p ishlarni ko'rigan uzun yoshli er.

Fe'lling ezgu qil, ey olam tutguchi,
Keluvchi erur qut yana ketguchi.

Uringin, o'zingga qo'ygin yaxshi ot,
Vafo qilmagay qut, seni qilar yot.

Yomonlik o'ylama, ey qo'li baland,
Fe'l-u so'zni etgin yaxshilikka band.

Ulug'lik, bu beglik ketar shubhasiz,
Faqt shu ezgulik o'chirmagay iz.

Bu kun ezgulik qil, el yukin ko'tar,
Zamon o'tib oxir ezgulik yetar.

Bo'ron, yel misoli tiruklig kuni,
Ishonchsiz erur qut, kechirgay seni.

Elarning O'zg'urmushgaga javobi

Elig dedi: aytgin, bilimi to'liq,
Tilagimni eshit, bergin yo'l-yo'r iq.

Seni so'rmog'imga sabab bor edi,
Mening ko'nglim o'zi senga zor edi.

Endi bergen menga o'git-nasihat,
To qo'lga yetishsin — ezgulik faqat.

Nafsi dardi bilan band talay odam,
To'g'ri, chin, sodig'i yo'qdир bitta ham.

Beklar olar barcha orzu-yu tilak,
Ololmaydi ammo dilga mos ko'mak.

Saroyda kalla ko'p, yuribdi ular,
Lekin naf beruvchi qani, ey bilar.

Bu bayt o'xshar endi, saxho,
Bilay desang o'qi uni avvalo:

"Kishiman deganning sanoqsiz soni,
Kishiga naflisin tilasang — qani!"

Qilar bir kishi ming kishining ishin,
Benaf mingta bo'lса, qilolmas uni".

Ey O'zg'urmish, — dedi yana u xoqon,
Talay ezguliklar sen uchun ehson.

Otingga munosib atvoring butun,
Tugal bersin Xudo ezgulik qutin.

O'zingda bordan ber hissa belgilik,
Ko'ngil baland tut, bu nafsim — o'lik.

O'zg'urmushning eligga javobi

O'zg'urmish javobda dedi: ey xoqon,
Sirtim maqlalgudek ko'rinar har on,

Agar bilsang edi ichimni, dono,
Haydab solar eding, o'zing avvalo.

Menga laqab bo'ldi zohidlik oti,
Bu ot bo'ldi menga toatim yuti.

Menga kelegan madhni shu otim olur,
Bu otim uchun nafs menga berk bo'lur.

Do'konlar chiroyi bezakdir, xolos,
U ko'zga quvонch-u lekin naf oz.

Kishining tashiga berilma sira,
Kishi qilmishin bil doimo sir-a!

Chiroyli bo'larkan qovunning yuzi,
Hidi, shakli yoki rang-ro'yи o'zi.

Mazasi bo'lmasa ichda — u qovun,
Uni chetga otmoq kerakdir beun.

Nima deydi, eshit, bu so'zlarga boq,
Iching bo'sh bo'lmasin, tashing yaltiroq.

Ulug'lik aslida ich-ichdan bo'lur,
Ichi ezu bo'lса, tashi rang olur.

Dunyo ishi qildi ko'p mashg'ul meni,
Toat-ibodatga yetishmoq qani?

Menga pand-o'gitlar bera qol o'zing,
Saodatga eltsin xaloskor so'zing.

O'ZG'URMUSHNING ELIGGA

JAVOBI

Iavobda O'zg'urmish dedi: ey elig,
Senga nasis etsin faqat ezzulik.

Olam ichra tuban, yovuzdan yovuz,
Kishi deb meni bil, bilimi dengiz.

Mendan ham yovuzroq kishi, belgilig,
Bu olamda yo'qdir, bilsang, ey elig.

Ne foyda qiladi mening so'zlarim,
Biror naf berarmi bu o'gittiarim.

Bir-u borga bu kun tutarmann umid,
O'zidir gunohim kechuvhchi vohid.

Nima deydi, eshit, gunohkor odam,
Gunoh uchun tili o'tinar bu dam:

"Gunohkor, jafoli qulingman tuban,
Boqib ko'rsang gunoh menda

ming tuman.
Sendan bo'lak yo'qdир sig 'inар egam,
Gunohim kechirgin, suya qut bilan".

Eligning O'zg'urmushga

javobi

Javob berdi elig: ayo pokiza,
Ichi ham tashidek butunlay toza.

Sen-ku yuk yo'qotding olamni qo'yib,
Men esa tutildim, ketolmam to'yib.

Eligning O'zg'urmishga javobi

Javob berdi elig, dedi: ey xushyor,
Bu xil kamtarilik faqat senda bor.

O'zingni yovuzroq bilsang gar o'zing,
El-u yurt ichida yorug'dir yuzing.

Til-u dilni etding pokiza o'zing,
Menga bir o'git qil, tizilsin so'zing.

Ey ezgu qiliqli, butun ishi chin,
O'git ber, o'zingga tutib sen yaqin.

Ato bo'ldi senga ezzulkik, karam,
Muruvvat yo'lin och menga, muhtaram.
Ey ezgu kishi et o'gitting menga,
Javobini berar binu bor senga.

O'zg'urmish Kuntug'di Eligma pand berishimi aytadi

Javobda O'zg'urmish dedi: ey elig,
Ochiq bo'lар sening yo'ling belgilig.

Uzun yoshli, mash'um, bu qari olam
Talayni qaritti, o'zi yosh bu dam.

Talay beglar o'tdi topganda ardoq,
Senga ham ko'z tikar, g'ofil bo'lma, boq.
Ko'pam bog 'lamagin sen unga ko'ngil,
Vafodor emas u, shuni yaxshi bil.

Nega kerak mendan nasihat-o'git,
Bu davron o'giti kifoya, yigit.

Qadim aidodimiz shoni-shuhrati,
Qani, qayga ketdi, qani qudratii!

Qayerga ketishdi, boqib ko'r ular,
Senga ham uzoqmas, yetishar ular.

Senga tegdi endi amal kezigi¹,
Hozir bo'l, yaqindir, ajal kezigi.

Ularga naf bergen esa qaysi ish,
O'shang amla qil, yo'qolar tashvish.

O'lar chog'i chekdi ular nadomat,
Nimadan, bilib ol, to kelsin omad.

Juda yaxshi degan bilimli, dono,
Dono so'zi inju yo yoqut go'yo.

O'llikni ko'ruchi qolarmi tirik,
O'limga hozir bo'l, e ko'ngil tirik.

O'llimni biluvchi, e fe'l i g'ofil,
Hayotdan ulush ol, o'tib ketgay ul.

Beparvo yuruchi ey orzu quli,
O'limga shoshilma, kelar olgali.

Chuqrur o'ylagilchi yig'ib aqlu xush,
Kechirgan bu kuning missoli bir tush.

Agar qilgan esang o'zing ezzulkik,
Evazi keladi senga mangulik.

Yomon kechgan esa tiruklig agar,
O'kinchi bilan yig'la o'limga qadar.

¹ Kezg — navbat, gal.

Oson emas topmoq turkligni ham,
Yoshlikning kuchi-yu yigitlikni ham.

Shoningni yo'qotma yuraging toshib,
O'limga hozirlan toatga shoshib.

Ey elig, boqib ko'r, o'zingdan burun,
Otang oldi eng to'r — balanddan o'rin.

Xazina, mulozim sohibi bo'lib,
Yashadi uzoq yil tilagi to'lib.

Oxir tutdi o'lim — hayot poyoni,
Naf etmadi shuhrat, sharafi, shoni.

Otang o'ldi, bordi, senga berdi pand,
Otang pandini bil shakar birla qand.

Bunga o'xshar endi, eshit ushbu so'z,
Ololsang nafi ho'p, e jonimga ko'z:

"Otang o'lgan esa ne vaqt-paytidir,
Senga qarab shunday tilak aytadir:
O'limdan omon yo'q tirk kishiga,
Muruvvat eta bil, o'sha qaytadir".

Otaning, onaning, o'limi tugal
O'g'il-qizga panddir, bilsang har mahal.

Otangni, onangni o'lim qo'ymadni,
Seni ham qo'yarmi, o'lim lo'ymadni.

Iafo qildi dunyo ularni tutib,
Senga vafo etmas u jilva etib.

Tiriklikni asra, kerak ishga sol,
Saxovatli bo'lgin, kishi ko'nglin ol.

Kechar kun ichida keragningi ol,
To seni kechirmay tilagningi ol.

Talay och bo'rilar yig'ildi senga,
Qo'ying asra, elig, qulqoq ber menga.

Kechroq yotti, erta yana otlanib,
Saharda saroyga yetishdi borib.

El-u yurt yukini ko'tarding talay,
G'ofil bo'lma saqla o'zing har qalay,

Elingda bir odam agar qolsa och,
Uni sendan so'rar Xudo, ko'zni och.

Yonarsan, ey elig, misoli chiroq,
Shu'lasti birovlar uchundir, biroq.

Tiriklik tugasa, yetilsa yoshing,
Qay ishda qo'l kelar senga bu kishing.

O'zing o'tga otma kishilarni deb,
Ular deb hayotni bermaga qayg'u yeb.

Ulug'lik, buyuklik, bu beglig beshak,
O'lim kelsa qolur, ochsa u eshil.

Adolatdan olar siyosat baror,
Adolat turayli eling barqaror.

Bilim berdi dono didiga monand,
Bu so'z ishga solsang nafi beedad!

Uzatmoq tilasang bu beglik qo'llin,
Odil bo'l, tut odil odamlar yo'llin.

Tag'in bir olamga yetayin desang,
Adolatrii tutgin, bilimdon esang.

Ey begman deguchi ko'tarma ko'kis,
Bu dunyo — vafosiz, umidingni uz.

Bu dunyo qutiga ishonma sira,
Ishonchsiz, bevafo ichi qop-qora!

Ey elig, bu saroy, bu o'rda bari,
Senqa tekkani bir qo'noq singari.

Burungi kishilar tushib kechtilar,
Xuddi tush ko'rgandek tezda ko'chdilar.

Senqa tegdi endi bu o'rda, o'rin,
Ko'chingni jo'natgin o'zingdan burun.

Bu kun sen bezatma o'rda-yu saroy,
Seni qo'ymagay bu o'tar yil, kun, oy.

Sening yotar o'ming aniq, belgilig,
Uni soflik ila hozirla, elig.

Mening deb bilarsan bu kun bu saroy,
Bu gapni domishmand demas noynahoy.

Senqa qarshi kishi so'zi ushbudir,
Chin aytar so'ziga qara, bahodir:

"Bu kun sen deyarsan "mening" deb, "mening",
Nega shunday deding, nechuik u sening?!

Sendan ortdagilar senga "chiq" deyar,
Hozirlandi, kutar, mening der, mening!".

Olam asli zindon, ey olam begi,
Alamdan bo'lak ne uming bezagi.

Bu zindon ichida tilama sevinch,
Sevinch asli jannat erur ham ovunch.

Buzilar rohatni rohat tutmagni,
Yo o'tar sevinchni sevinch demagin.

Ne yanglig' bu davlat — u turmas, qochar,
Terilgan molingni sovurar sochar.

U dunyoni bilgin mangulik makon,
Unga yuz ur endi, qo'yib bu jahon.

Bir-u bor fazliga boqib ko'r o'zing,
U ezzgulik etdi, och endi ko'zing.

Elning uzra uzun bo'ldi bu qo'ling,
Ravon bo'ldi so'zing, tilak ham yo'ling.

Tan-u joni senga o'xshash ko'p odam,
Hojatmand erurlar senga ushbu dam.

Buning shukrini qil bu kun, ey elig,
El-u yurtga bergen mudom ezzgulik.

Adolat uchun deb tiklashdi seni,
Odil bo'l, adolat uzra tur, qani.

Zakovat bilan et butun ishlarining,
Havoga berilma tugib qoshlarining.

Butun xaloyiqqa mudom ezgu qil,
Ulug'u kichikka barobar, odil.

Nima der, eshitgin, bilimi dengiz,
Bilim bilan ishla, yorug' bo'lar yuz.

Olam ezgu bo'lsin desang sen to'liq,
O'zing ezgu bo'lgin, ey elda ulug'.

Yomonlikni desang agar quritay,
O'zing yaxshi bo'lgin — yomon quriqay!

Bu beglar bosh erur — u borsa qayon,
Bo'laklar unga esh bo'lishi ayon.

Xaloyiq buzilsa uni beg tuzar,
Begi buzulsa-chi, uni kim surar?

Fe'l-atvoring sozla, ko'ngilni ovut,
Shunda el qilig'i soz bo'lar, yigit.

Yaroqli yumushni tilasang o'zing,
Yaroqsizga boqma, kesilsin so'zing.

Yomonga qo'shilma, fasoddan yira,
Bu ikki qiliqdan er yuzi qora.

Yaroqsiz, yovuzni dil istamasa,
Yaroqsiz ish etma, so'z aytdim kesa.

Rohatga ovinna, sen ichma suchig¹,
Dengizdir bu ikkov, unga yo'q kechig.

Qillig'ingni soz tut, fe'ling muloyim,
Zako bo'lsin do'sting, kengashching — billim.

Ulug' tut fazilat, tiling ham diling,
O'zingni unutma, yo'qotma yo'ling.

Ko'ngilni kichik tut — kamtarlik kerak,
Lashkarim talay deb kermagin ko'krak.

Necha mag'rur, o'ktam, quvonur bu er,
O'lim kelganida bo'lishdi-ku yer.

Yana yaxshi degan bilimli ulug',
Bilimli so'zin ol, u foyda to'lig'.

"Xazinam talay deb quvonma hecham,
Omadim talay deb ura berna dam

Ko'chiga ishonib ko'ksin kerguchi
Madorsiz qolganda chivinchaga ham!"

G'azabingni bosu sen bo'lma olov,
G'azabing kelar chog' o'zing qil soqov.

Mukofot berishga shoshilgin, mayli,
Shoshilmagin ammo jazo tufayli.

Yengil bo'lmasin hech qilig'ing, so'zing,
Og'irlikda maqtov qozonur o'zing.

Saxiy bo'l, ko'targin saxiylik jomin,
Saxovat yoyadi beglarning nomin.

O'zingni og'ir tut, ayma dag'al so'z,
Dag'al so'zga sovur kishi ko'ngli tez.

Shirin so'zli bo'lsin doimo tilling,
Ochiq tut yuzingni, yorug' manglaying.

Xaloyiq sarasi ekansan o'zing,
Odil tut ko'ngilni, qilig'u so'zing.

Oldin odam qilgam hamma ezbilik
Faqt uning o'zi uchun belgilig.

Agar ezgu tutsa bu beglar fe'lin,
Sevinch tutar undan bor yurtu elin.

Agar bo'lsa beglar qilig'i esiz,
Esizlar kuchayar, ketar ezgu iz.

Esiz bo'lma, oting esiz qilmagin,
Esizlarni qisgin, yorin olmagin.

Esizlik og'udir, yemagin og'u,
Og'u er kishiga tiriglik qayg'u.

¹ Suchig — ichimlik, ichilik.

Zakoli kim esa, uni tut yaqin,
Bilimli so'zin ol, o'tagin haqin.

Butun, chin kishiga tusharmi yo'ling,
O'zingga yaqin tut, unga ber qo'ling.

Hiylakor bu olam jafoga to'la,
G'ofil bo'lma, axir, u chuqur o'ra.

Bezanib, yasanib ko'ngilni olar,
Ko'ngil bog ladingmi, u juftak solar.

O'limni unutma, alam qisqa tut,
O'lim ham yengmasin, e sohibi qut,

Bug'aflat bilan sen yotaverma ko'p,
Bu beglik bilan sen sarkush bo'lma xo'p.

Bu kungi rohatga ovunmay yur-a,
Keyingi rohatga ko'zing tik, qara.

Sevinchi uzunu rohati talay,
Farog'ati desang shudir har qalay.

Rohat istasang kel, o'zing ezgu bo'1,
Ne'matlar ichida yurib mangu bo'1.

Nima der, eshitgin bilimdon kishi,
Bilimdan e'tibor qozongan kishi,

Xudo rohat bersa, yo'qdir g'oyati,
Talay rohat ichra kishi rohati.
G'uddaygan kishiga muqarrar zavol,
Zavolga topilar kimming toqati.

Ey elig, tabiblar misoli o'zing,
Xaloyiq bemordir, shifosi — so'zing.

Ba'zisi zolimdan chekadi alam,
Ba'zi yo'qchulikdan olar ko'zga nam.

Birovi qayg'uli, birov emas to'q,
Birovi ustida esa kiyim-boshi yo'q.

Senda erur, ko'rGIN, bularning emi,
Tuzat dori birla, sen bo'lgin qami'.

Agar qilomasang unga shafoat,
Xaloyiq uchun sen bo'larsan ofat.

O'zingdan so'ragay keyin bu Xudo,
O'zingga ot qo'ygin tavof qilgin ado.

Tirklik kechar tez, bu beglik qolur,
Senga kerakligi ezgu ot erur.

Bu dunyo, ey elig, ekinzor erur,
Ne eksang, qo'ling ham o'shami o'rus.

Kel-u egzilik qil, sen ek egzilik,
Nasibing to bo'lzin oxir mangulik.

Nima der, eshitgin, dono elchi beg,
Bu beglik ishini bilar yo'liche beg.

Ayo beg bo'luvchi xaloyiqqa xo'p,
Ko'ngil, til kichik tut — buning nafi ko'p.

Ey boshliq bo'luvchi, ey baland qo'llim,
Butun ishgaga avval yuritgin bilim.

Bilim bilan qilgin tuman-turli ish,
Bilimdan keladi butun ko'rkli ish.

Ketuvchi erur bu — olam qolqusiz,
O'zing egzilik qil tugab borgusiz.

¹ Qam — kohn, tadbi qiluvchi kishi.

Tag'in dunyo qolar, tug'ilgan o'lar,
Yononusu yaxshining, ko'r, oti qolar,
Yomonga qo'shilma, u qiydar yomon,
Oting ezgu bo'lsa, qolar xo'b nishon

Ey asil, urungil, to bo'lma g'ofil,
Bu g'ofil kishiiga balo yetar, bil.

Amalning negizi g'ofililik emas,
Dunyoni tilagan g'ofililik demas.

G'ofil bo'lsa bu beg, begligi ketar,
G'ofilga olamdan alamlar yetar.

— Adovani tugat, yana to 'kma qon,
Bu ikki gunohga chekar jon fig'on.

Haromnga qo'shilma, o'zing tut qattiq,
Haromning azobi do'zaxdan qattiq

Kishilarga bo'lgin o'zing mehribon,
Birovga sog'inma sen aslo ziyon.

May ichma, fasodga qo'shilma, hech on,
Birovga sog'inma sen aslo ziyon.

May ichma, fasodga qo'shilma, yira,
Ujardan buzulgan ozoda yer-a!

O'limga tug'ilar tug'ilgan kishi,
Otin iz qo'yadi bu o'lgan kishi.

Tutamcha tiruklighi sugar, olqinlar,
Yomon-yaxshi esa, ko'r, oti qolar.

Ovinch birla aldar bu dunyo seni,
Ko'ngil bermaga unga bu g'affat kuni.

Mudom uxlagaydir bu g'ofil kishi,
Kim uxlasa qolar uning bor ishi.

Kishida bo'lmasa bu g'affat agar,
Farishta misoli bo'lar sar-basar.

Elingda sog'lom tut, qulog'ing, ko'zing,
El-u yurtga bo'lgin mehribon o'zing.

Kelar oxir senga Xudodan so'roq,
Xudoning so'rog'i — yozilgan tuzoq.

Nima der, eshitgin, zehni tez kishi,
Zehni tez ishidan ochilar ishi:

E bebosh yuruvchi, kishi o'ktami,
Xudo so'rog'i bor, hozirmi emi?

Ko'ngilcha yuruvchi sohibi qusur,
Senga bermas Xudo so'rog'i huzur.

Behuda yuruvchi, ichuvchi bola,
Hisobga hozirlan, chiqish yo'l tila.

So'roqqa tutadi Xudo barchani,
Qutular yerlarling bormi, qoch, qani?

Elig, qamchi qilich senda bor erur,
Bu qamchi azobni yomonga berur.

Yomonlar fe'lini gar etmasa soz,
Azob bermog'ingni qila ko'rma oz.

Kaltak yeb fe'lin qo'ymasa yomon,
O'zing asra undan, elig, tur omon.

Elig esiz bo'lsa, olamni buzar,
Tiyuvchi bo'lmasa yo'lidan ozar.

E'ozzla bu ezgu kishilarni, hoy,
Xaloyiq soz bo'lar keyin hoynahoy.

O'yingga berilma, kamaysin havas,
Rohatga sevinma, kuning qoldi oz.

Rostlik, to'g'rilikka etginadolat,
O'shanda ko'tarar bu beglik qomat.

Kuching yetganicha harakatni qil,
Behuda ish etsang, ma'zurini bil.

Nima der, eshiqin, xaloyiq boshi,
Adolat tufayli shon olgan kishi:

"Uringin, ey elig to tengi toqat,
Xaloyiq ko'rishsin faqatadolat
Agar nuqson bo'lsa ma'zurini tut,
Uzringni tilagin tilingda faqat".

Yig'avverma oltin, kumush tangalar,
Ulashgin, xaloyiq sevinar, magar.

Bu boylik qolarmi o'zingdan keyin,
O'g'il-qiz buzular, senga aytayin.

Molningni ulashgin to ochiq ko'zing,
Shu yo'l-la hozirla najotni o'zing.

Juda yaxshi degan xaloyiq boshi,
Ulug'likka yetgan, ma'qil har ishi.

"Xazina yig'uvchi, ey olam begi,
Keyin qolsin endi xazina tagi,
Farog'at o'tadi, hisobin so'rar,
Hozirlan, hozirdir senga kelmagi".

E boylik oluvchi xaloyiq aro,
Qurit boyligingni o'zing avvalo.

Vafosiz olamga ko'ngil bog'lama,
Oxir jafo qilar, diling dog'lama.

Ayo beg bo'luvchi, ey ilg'or kishi,
Undan qutulolsang, bu — sog'lik ishi.

Ko'zi suq, ey xudbin, o'zin o'ylar er,
O'lim tutmasidan moling xalqqa ber.

Nafi qolmagay bu o'lim tutsa gar,
Moling-ku qoladi, u berar zarar.

Elig oshni oz ye, mudom qil xizmat,
Oz gapir, ko'paytir hunar-u san'at.

Bechora, yetimga qarab tur faqat,
Ularni kim boqsa, shudir adolat.

G'iybatchi tiliga sen osma quloq,
Yaramassi o'zdan tuta ber uzoq.

Bu yanglig' kishidir kishi yomoni,
Uni yov atagin — yetar ziyoni.

Ochko'z, suqqa berma sen aslo qo'ling,
Sira shulbha qilma, u buzar yo'ling.

Bundan keyin kelgan har bitta kuning,
Bari ezgu bo'lsin keyingi tuning.

Juda yaxshi degan bilimli olim,
Qillingan har ishga javob bor doim:

"Javob so'rar sendan har erta kuni,
Ertani o'ylagan-odil kun-tuni,

G'ofil bo'lma, o'zing hushyor tur mudom,
Sabab qilma hargiz bugun u'buni".

Dinning dunyo bilan birikmog'i yo'q,
Ikkovin barobar tirlimog'i yo'q.

Birisi bor esa, birovi tuzar,
Ikkovin tutubchi yo'lidan ozar.

Bo'rondir bu dunyo, yo yong'ir soni,
Keladi, shatirlar, o'char tez uni.

Kelar qut, eshikda yig'ilib turar,
Ko'ngil bog'ladingmi, yuzini burar.

Boyidim desang, "bo'l, — deyar, — bechora",
Shodnonning yuzini qiladi qora.

Olamning to'qligi bu ochlik faqat,
Farog'at-rohati erur mashaqqat.

Ey elig, bu nafing boshingga ofat,
Shuning uchun unga berma halovat.

Olamda yomon yov havo-nafs erur,
Unga ezgu qilsang, azob keltutur.

Vafot qilsang agar — javobi jafo,
Jafo qilsang o'zi qiladi vafo.

Bu nafsingni qiyina — huzur ko'rар jon,
Bilim beg bo'lib, ko'r, zako bo'lса — xon.

Bu dunyo yog'idir, bu nafsing yog'i,
Bu ikki baloning hozir tuzog'i.

Bu qutga ishonib ko'tarma ko'ngil,
Tiriklikka ortiq ishonma, ey dil.

Buyuklik, ulug'lik kechuvchi bo'lar,
Bu davlat o'ti-chi o'chuvchi bo'lar.

Nima der, eshitgin, bilimli, ulug',
Mehribon so'zining nafi ko'p to'liq:

"Bu beglik bilan sen ko'tarma boshing,
Kerilma, g'o'dayma, og'it qil toshing".

Ey elig, soz o'lса agar uch kishing,
Ularga ishon, ber bo'lса ne ishing.

Uning biri — qozi, pok, toza mijoz,
O'y-idrokli bo'lса, xaloyiqqa soz.

Ikkimchi xalifa, agar bo'lса xo'p,
Xaloyiq o'shandan topar nafni ko'p.

Uchinchli, — sara, pok bo'lса gar vazir,
El-u yurtga ezgu naf undan tegir.

Bu uch ish egasi solim bo'lsalar,
El-u yurt boshiga osoyish yetar.

Xaloyiq topar naf, eligi — kamol,
Duolar ichida ocharsan jamol.

Bu uch ishda bo'lса yaroqsiz kishi,
Yaroqsiz bo'ladi el-u yurt ishi.

Bunga o'xshar endi ko'ngilda so'zim,
Eshitgin buni sen, e ko'rcli yuzim:

"Vazirdir beglarning yo'lin boshlagan,
El-u dargohining ishin ishlagan.
Jilovin teskarı bursa gar vazir,
Butun ish chappadir, oyoq-boshidan".

Bu dunyo bezalgan ne'mat misoli,
Yuruvchiga tegar biror misqoli.

Zamonlar qa'rida yashagan odam,
Yedi, to'yda unga tirk yurgan dam.

Qarab qo'y bu ulug' mozorlar sari,
Ketidan boramiz o'zimiz nari.

Yana bir toifa qorindagilar,
Ne'matni keyinroq yeyuvchi ular.

Bizning ketishimiz kutar bu to'da,
Ular-chi yoniga yetishni juda

Bugun bizga tegdi bu xil dasturxon,
Uni yeyish nasib etgay necha on.

O'liklar chaqirar o'zлari sari,
Qorindagilar-chi, surishar nari.

Birisu surar, ko'r, biri chaqirar,
Bu ikkov aro kim rohatin topar.

Bunchalar o'ylamma, kim qolar uzoq,
G'ofillik zamoni emas ushbu choq.

Haromga qo'shilma, ey elig, sira,
Haromdan ko'ngilga qo'nadi qora.

Pokiza bo'laiyin desang belgilig,
Halol ye, halol bo'l doimo, ulug'.

Nima der, eshitgin, halol yegan er,
Ishini soz etib, halol degan er:

Halol yegan etmas olamda gunoh,
Halol ye, halol bo'l, keyin chekma oh.

Pokiza esa kim — tomoq — kiyimi,
Mana shu bo'ladi gunohga emi.

Tomoq pokligidir yo'ling avvalo,
Bu poklik naf berar misoli daryo.

Xaloyiq nafni o'yla doimo,
Senga ham yetar naf undan beado.

Nima der, eshitgin, ulug' kent boshi,
Butun ishga idrok qadagan kishi:

"Bek elga saodat berishi kerak,
Saodati omma to'yishi kerak,
Bu beglar dengizdir, tubi — injuli,
Dengizga kiruvchi boyishi kerak".

Ular tog'dir, bag'ri — oltin-u kumush,
Kumush kon qazigan oladi ulush.

Begiga lozimdir saxo va karam,
Toki bahra olsa bu ahli olam.

Yorishgin, ey elchi, misoli quyosh,
Xaloyiq topishsin yegu, ichgu — osh.

Omonat tushibdi bugun bo'yningga,
Omonat javobi tushadi senga.

Ey elig, katta och bu kun sen ko'zing,
Buncha multkni nima qilursan o'zing.
Dengiz ila gavhar tugamas senga,
Olamda siymu zar tugamas senga.

Qora yer tubida bu oltin-kumush,
Terilar, barisi sen uchun ulush.

Bu tog'lar tagidan topilgan gavhar,
Yetishmas, go'yoki hali kam ular.

Qora yer yuzida unuvchi bu don,
Xazinang ichiga kelar begumon.

Uchuvchi, suzuvchi, suv ichra baliq,
Qochib qutulolmas, e puxta qiliq.
Karvoning kezadi olamda yurib,
Ipak, shoyi, mo'yna olarsan terib.

Bu kimxob, olamning nozik mollari,
To'latolmagaylar xazinang bari.

Yo'rg'a chopqir otlar, bu tog' hayvoni
Og'iling to'laldi, lek to'qlik qani!?

Tuman ming tuyalar kelar birma-bir,
Cho'lingda oting ko'p, og'ilda — xachir.

Vodiy tog'laringda hisobsiz suruv,
Yoki qul, joriyang ko'p-u ham suluv.

Yo tog' ortidagi behisob qo'tos,
Yo o'tloqda yurgan sigir va ho'kiz.

Qoyada yuruvchi bu serka, taka,
Sendan qutulolmas biror go'shaga.

Kiyik, ohu bo'lzin, so'qoq¹ yo iviq²,
Kifoya emasdii, ey egzu qiliq.

Qulonu³ tog' oti, yoki ko'k takा
Tutib keltiralnai, barini — senga.

Bo'ri, tulki, arslon, ayiq yo to'ng'iz
O'zingandan yashirib ketolmaydi iz.

So'qoqu bu oqqush, yo turna, yug'oq¹,
Yo tuy², yugdiiku yo tudlich yoki qoq.

Hatto ko'kda uchgan u mag'rur quzg'un,
Yo ko'k bo'ri, bo'ldi qo'lingda tutqun.

Ucharni uchirmas sening qushlarin,

Yurarni yuritmas bu arslon, iting.

Otalik otasiz bo'lib qoladi,
Onalik yetimcha nomin oladi.

Bu qadar bepoyon esa-da jahon,
Yetishmas, tugaysan o'zing, pahlavon.

Faqat bir tomog'u egningga bino
Qilib dunyo yig'ding, u qolar, dono!

Bu xil dunyo yig'moq nedir foydasi,
Joningni oladi ajalning sasi.

Nazar sol, ko'philik ataladi suq,
Ko'zi suq kishilar bo'lar qayda to'q!

Nima der, eshitgin ko'zi to'q kishi,
Ko'zi to'qligidir boylikning boshi:

Olamni qozonsa ko'zi suq tugal,
Uni boy deb aytish qiyin bu mahal.

Bechora deyarlar, kim u bechora,
Ko'zi suq boyonga topilmas chora.

Ko'zi suq kishiga boyish nafi yo'q,
Bu suqni yorlaqa, ayo ko'zi to'q.

Ko'zi suqqa bo'lmas mol-u dunyo yor,
Ko'zi to'q kishilar yashar baxtiyor.

¹ So'qoq — ola kiyik.

² Iviq — qir va toshloqlarda yashaydigan kiyik turi.

³ Qulon — ovlandigan yirik kiyiksimon hayvonlardan biri.

¹ Yug'oq — qush nomi.

² Tuy — tuvaloq.

Ko'zi suqning molga to'y magay ko'zi,
Magar to'lmaguncha bu yer chang-to'zi.

Bu edi, ey elig, mening bilganim,
Tushunib, ishonchim hosil qilganim.

So'zim so'zladim, eshitting o'zing,
Nazar sol, uqib ol, ochilsin ko'zing.

So'zim olsang agar keyin nafı bor,
Agar olmasang ko'p azob bo'lar yor.

Zakoli nima der, eshitgin fraqtat,
Agar tinglasang-u o'git nasihat:

"Nasihat nafı ko'p, men aytay kesa,
Nasihatni bergin kim loyiq esa,
Nasihat qilmagin, yonar o't yesin
Agarki eshitgan nom'a'qul esa".

ELIGNING O'ZG'URMISHGA JAVOBI

Bu so'zlar eshitgach elig yig'ladi,
"Kishilar aro ey sarasi", — dedi.

Farosat egasi o'zingsan, dono,
Beglilik bo'ldi menga naq ofat — balo.

Men endi angladim, ochildi ko'zim,
Naq o'tga otibman o'zimni o'zim.

Adashib ozibman o'zim, ey ulug',
Bu yo'lni ko'rsatding sen o'zing to'liq.

O'zg'urmushning Elligga javobi

Javobda O'zg'urmish dedi: ulug' beg,
Xudo bersin ko'mak, tilagingga teg.

Mahkam bo'l, to zako birla bos havo,
Havoga berilsa yetishar balo.

Meni aldaguvchi bu jon rohati,
Tan-u jon rohati — kishi ofati.

Qadim dunyodir bu, o'zi ko'p qari,
Talay begini qildi o'zidan nari.

Talay beg qaridi, seni ham sherik -
Qilaru tutarmi uzoqroq tirik.

Ular bordi, senga qoldi bu o'rın,
Behuda qiliqdan sen astran, urin.

O'limni unutma, ey ochiq qo'lim,
Soati yetishsa kelar bu o'lim.

O'zingni unutma sira, ey elig,
O'zingni unutsang emassan tirik

Bu ikkovini ham unutsa agar,
Adolat yo'li ham unga berkilar.

Nima der, eshitgin, o'zin bilgan er,
Havasni zako-la tutib olgan er:
"O'limni unutma — ko'zing, burning u,
O'zingni unutma, suvi yuzning u,
Manidan tug'ilgan o'zing "men" dema,
Ruhing "men" desa ayt: "ana o'ming — u" !

Bekinib turar u, ko'rimmas o'lím,
Agar poylar esa unutmas yo'lím.

Tirkka bo'lmasa azobdan soya,
O'límgá boqsa bas, shudir kifoya!

O'shandan keyin, eh, necha ish kelar,
O'lím yo'l ochadi, uni kim bilar.

E koshki, shu o'lím esa kifoya,
Yer osti hayotga esa nihoya.

Shu holni bilarkan zakoli kishi
Ne tinch uxbay olar, na tatiydi oshin.

Nima der, eshitgin, bilim berguchi,
Bilim bila ulug' himmat tutguchi!

Buyuk tut himmatni, buyuk tut yurak,
Bu olam g'amini unutmoq kerak.

Olam — zindon, ichi to'la ko'p ilon,
Buni qo'y, yorug', tinch olamga ulan.

Pokiza jon uchun qora yer — kiyim,
Qora yer kiyuvchi fe'li muloyim.

Olam — zindon, o'xshar u quduqqa ham,
Balo-yu ofatlar bari unda jam.

Rohatni bu zindon ichida olib
Bo'larmi, o'zing ayt, sen o'ylab ko'rib.

Bir siqim qora yer — xarob ne kerak,
Mangu makon ista, xarob ne kerak?

Bu tuman-to'zondan tuta bil o'zing,
Pok olamni ista, sen ochib ko'zing.

Yashamagin axir o'zing necha yosh,
Bu o'lím tutadi kelib ey quyosh.

Dunyo qancha ortsas, bosh og'riqlari
O'shancha ortadi, ey er sarvari.

Tilakka erishgan yashab ko'p mahal,
Baribir tilagan topolmas tugal.

Nima der, eshitgin, ey fe'li sara,
Zamona o'qidan bu ko'ngli yara:

"Tugal olsa kimki tilagin tamom,
Tugal eta bilmas keragin tamom.
Tilagin tilovchi tugalin tilar,
Tilagi tugassa sugar chin tamom".

So'zning nafi emas, talay so'zlasa,
Yo so'zga lol bo'lib talay tinglasa.

So'zning nafi shuki, deyilgan bu so'z,
Bir ishga yarasa, unga bo'lsa ko'z.

Talay so'zladim so'z, eshittim tugal,
Uning nafin olgin sen qilib amal.
Tilik to'xtamadi, talay so'zladidi,
So'zim oz emasu suvi oz edi.

Ey elig, doimo ochilsin yo'limg,
Butun ezzulkakka yetishsin qo'ling.

Panohiga olsin biru bor seni,
Duoda unutmata, ey elig, meni.

So'zin kesdi, turdi sekin o'mnidan,
Elig: to'xta dedi, tutib qo'lidan.

Hozirlashdi turli ne' mat va taom,
Ozroq totin, — dedi, — ayo ezgu nom.

Qo'l sundi O'zg'urmish, totindi picha,
Yedi, ichdi ozroq o'zi ta'bicha.

Qo'lin tortdi oshdan, yemadi bo'lak,
Duo qildi, aytdi u ezgu tilak.

O'zg'urmish qo'zg'alib chiqdi joyidan,
Elig ham borardi uning poyidan.

Esonlashdi elig bilan ko'rishib,
Elig qoldi ko'ngli buzilib, tushib.

Turib bordi o'zi yana tog' tomon,
Ortidan kuzatib qoldi bu xoqon.

Urundi juda ham, ko'r, O'zg'urmish-a,
Arang qaytdi uyg'a bu O'gdulmish ~a.

Qaytib kirdi uyg'a, ko'ngli ko'p yana,
Ko'ziga na uyqu ilinar, qara.

Bu mashriq tomondan ko'rindi quyosh,
Olam rangi bo'ldi misoli oqqush.

Quyosh chiqdi, ko'ksin ko'tardi baland,
Olam bo'ldi oppoq kofurga¹ monand.

Farishta yuzidek yorishdi olam,
Kofur misli bo'ldi falak yuri ham.

Yana turdi o'zi to'shagin yig'ib,
Yuvindi, bir-u bor uchun sig'inib.

¹ Kofur — oq, xushbo'y modda.

Kiyindi, jo'naydi u o'sha zamон,
Kirib bordi keyin u saroy tomon.
Kirib bordi saroy ichiga yurib,
Elig taklif etgach ko'rindi kirib.

Eligning O'gdulmishga savoli

Elig so'rар edi: "O'zg'urmish — mehmon
Qancha turdi senda, keidi qay zamон?"

Yana dedi elig: "Ey O'gdulmishim,
Og'u bo'lди endi mening yer oshim.

Hayot endi og'ir bo'lar-ku menga,
Cho'kib borar ko'ngil, o'tinsam senga.

Nega endi beglik — bu olam yuki,
Qayg'udan uzilar ko'ngilning ko'ki.

Lashkarsiz bosh bo'lar elatiga kim,
Bor ishni bir o'zi qilar qay hakim?!

Lashkarni tutishga kerak pul-tovar,
Shu pul-u tovar deb xaloyiq og'ar.

Nima deydi, eshit, lashkar boshlar er,
Hayotin bag'ishlab senga ishlar er:

"Xazina va lashkar — beglarning kuchi,
Shu ikkovi bilan olinar o'chi.
Bu ikki bilan beg buyuklik olur,
Bu ikkov qo'shilsa — ulug' beg toji".

Lashkarni tutishga talay mol yetar,
Mol olmoq uchun-chi kuch-u ion ketar.

Menda ham bir tana, yagona tomoq,
Nega kerak axir bu tashvish biroq.

Axir gadloylar ham qolmas-ku ochin,
Bu o'lim olar-ku tirkdan o'chin.

Nima der, eshitgin, bahodir kishi,
Kumush-la qilinar yovining ishi:

Muxom baland bo'lsin, desang gar qo'llim,
Lashkarni sevintir, ey ochiq yo'llim,
Lashkaring minnatdor bo'ldimi sendan
Xariflar boshiga yog'adi o'llim".

O'GDULMISH KUNTUG'DI ELIGGA ELNI YASHNATISH, ADOLATLI SIYOSATLAR TUZISH QANDAY BO'LISHINI AYTADI

Iavobda O'gdulmish dedi: ey elig,
Ishingni yuritgin o'zing, ey tetig.

Yaroqsiz so'z aytma, budir ko'p yomon,
Bu so'z tosh bosolmas, bilgin, hech zamon.

Zako bilan tutgin havoni bosib,
Bilim bilan tutgin nafsingni kesib.

Nima der, eshitgin, bilim berguchi,
Bilim bilan nafs-u havo bosguchi:

"Havo-nafsn yengish — yo 'Ining to'g'risi,
O'shanday yo'qolar ko'ngil egrisi,
Pishiq bo'l, havo-nafs asir qilmasin,
Shu ikkovi erur dinning o'g'risi".

Nega sen o'zingni sanaysan ojiz,
Kuching kam emas-ku, elig, ezgu iz.

Nega chekmoqdasan bu qadar alam,
Triklik ne uchun senga bo'ldi g'am.

Xazinang behisob, talay lashkaring,
Zakoga to'laysan, ko'p bilimlarling.

Lashkarni sevintir, xazina ulash,
Ullardan keladi sevinch beadosh.

Ularga berolsa tuzu nonini,
Eligdan ayashmas shirin jonini.

Bu lashkar bilan yov-dushmaningni yanch,
Bir-u bordan tila bu ishda tayanch.

Adolat qil elga, rohat olsin u,
Sen uchin yetishsin duolar mangu.

Biru bor berar so'ng senga saodat,
Ikki olamda ham, sohib shijoat.

Eligning O'gdulmishga javobi

Elig aydi: ko'rqli deyarsan bu so'z,
O'zim ham tutarmen faqat shunga ko'z.

Erishmoq yo'li ham ayondir senga,
Bu ishda madadkor bo'l endi menga

Elu yurt tashvishin o'yla sen doim,
Ich-u tash sirin bil, fe'li muloyim.

Sevintir o'zingga yoqishin qarab,
Yomonlarga qilgin jazo-yu g'azab.

Eng avval elingni yashatmoq kerak,
Ich-u tash manzilini soz etmoq kerak.

Xaloyiqqa bo'lsin nizomi odil,
Yaramas, yomonlar yetsin muttasi.

Bu el yashmatishning nedir chorasi,
Shuni ham ayтиb ber, kishi sarasi.

O'gdulmishning eligga javobi

Javobda O'gdulmish dedi: dono beg,
Ishing cho'zma, barcha ishga o'zing teg.

Ne uchun cho'zarsan qilar har ishing,
Ishing cho'zma, o'tib borar-ku yoshing.

Bugun qilmasa ish, keyin ish bo'lar,
Ish ishga qo'shilsa, u tashvish bo'lar.

Bugungi ishingni qo'ymagin keyin,
Keyin qolgan ishlar bo'ladi qiyin.

Kuzat, qil xaloyiq ishini mudom,
O'shanda keladi o'zingga orom.

Zolim bo'lma, zulmni zolimga yurit,
Zolimlarni butun elingdan arit.

O'zing tutsang agar fe'lingni sodiq,
Yomon ham fe'lini soz ettar aniq.

Yaramas qiliqli, yomon fe'l kishi,
Yomonlik arimay sozlammash iши.

Yomonga yondoshma, yuqtirar balo,
Ezgu el bilan bo'l yaqin doimo.

Nima der, eshitgin, kishi rostgo'yи,
Fe'l-u raftoridan to'lib chiroyi:

"Yomonga qorishma, yiroq tut uni,
Yoqimsiz bo'ladi yomonning uni.
Yomonlik so'ngida mashaqqati bor,
Bu ezgu baxt topar haqiqat kuni".

Bu lashkarga in'om oqishi kerak,
Beva-bechorani boqishing kerak.

Xizmat qilgan kishi umidvor yurar,
Umid uezsami u yuzini burar.

Elig, xizmat ahlin turi bor talay,
Ulami sarala, sina har qalay.

Ulardan birisi tilar obro'yin,
Ber unga, qozonsin, mayli, u o'yin.

Yana bir bo'lagi tilar mulk — olam,
Ber unga, to qilsin fido jomni ham.

Yana bir bo'lagi tilar ikkovin,
Taratmoq uchun dong, sharafin, shonin.

Botir bo'lsa agar, ber oltin-kumush,
Jang-jadal ichida keltirar ulush.

Bilimli, zakoli yigit esa gar,
Izzat qil, boshda tut u loyiqi zar.

Yomon-u zolimmi, ko'tarma uni,
Uyatga qo'yadi el ichra seni.

Man-man kishilardan yiroq tur o'zing,
To qomni ko'rnasin charog'on ko'zing.

Nima der, eshitgin, botir va sara,
Zaif ham boyisa bosh egmas sira:

Yomonni boyitma, ey unib o'sar,
Yomonlar boyisa fe'lini buzar.

Qo'li qisqa bo'lsa durust kishi ham,
Zoriqib qiladi yomon yo'1 — qadam.

Zoriqsabu ezzu qiliqli kishi,
Fe'lini buzadi, buzilar ishi.

Yomonni qiyagin, unga tuz yo'riq,
Yaxshini e'zozla, buzulmay qiliq.

Sadoqatli elga sen ochgin quchoq,
Uyatsiz nopolkni yiroq tut, yiroq.

Nafi bori kimdir, nafi yo'g'i kim,
Sen ayrib bilib ol, bilimdon hakim.

Sevar-sevmaslarni billib tur har on,
Bu birga olov bo'1, unga — mehribon.

Sevinching tilamas kishini yo'qot,
Uni sevna, tezroq o'zin chetga ot.

Omonatga qotma xiyonatni hech,
Yaroqsizni qo'yma yaroqliga, kech.

Bir ishni buyurma ikkovga teng-a,
Qilinmay qoladi, ishongin menga.

Ishing ish qiluvchi kishilarga ber,
Qila bilmasa ish, simib qayg'u yer.

Ular xizmatiga berilib emas,
Nafiga ko'ra tut, sen ularni bas.

Eling nafini qil, o'zingni ham to,
Bo'laklar nafidan tiyil doimo.

Ko'ngliga boqma sen sal nafi uchun,
Eling nafin o'yla o'zing tun-u kun.

Senga kim naf etsa, naf et bardavom,
Naf etmas kishini uzoq tut mudom.

E'zozla doimo naf etar kishing,
Unga ber, ey elig, kerakli ishing.

Sening qilar ishing, shular ey elig,
Shunda tinch bo'lar el, yurtting belgilig.

Oting ezgu bo'lар, yorishar ko'zing,
Sendan keyin qolar oting, shon, so'zing.
Eling boy-u, yashnar yana ushbu taxt,
Tilagingcha kelar xazina va baxt.

Nima deydi, eshit, mehribon kishi,
So'ziga barobar qilar har ishi:

"Qaysi el beg etsa sozu ezzungi,
O'sha el boshida tug'adi kuni.

Begga boylik erur eli boyligi,
Tilasang buni qil, tilasang uni".

Shahar, qishlog 'ingdan yomonni arit,
Musofir karvonlar osoyishin et.

El ichra qolmasin zo'ravon yomon,
Tashingga topmasin qaroqchi makon.

Yomonlarga bergin, ayamay jazo,
Yomonga yomonlik bo'lar mos, ravo.

Yomon choh-u zindon ichiga loyiq,
Toki fe'li bo'lsin uning daqoyiq.

Yana bu el ichra toifasi ko'p,
O'zing ayrib olsang naf'i tegar xo'p.

Undan biri — dono olimlar erur,
Olimlar olamga saodat berur.

Ularni e'zozla, nima desa qil,
Shariat yo'lin tut, bo'yin ber, egil.

Bular haqin tiyma, ber sovg'a, in'om,
Olimlar zoriqsqa emas yaxshi nom.

Dillari tinch bo'llib bilim bersalar,
Billimsizlar undan naflar ko'rsalar.

Yana boshqqa biri muhtasib erur,
Ular qo'li kuchli bo'lishi zarur.

Bo'lak toifadir topinuvchilar,
Agar tergamasang it bo'luvchilar.

Ular ish qilishmas, ularning ishi
O'zingga qoladi, tegar tashvishi.

Bulardan bo'lagi avomdir qora,
Ularga addolat ko'zi-la qara.

Yana uch toifa uzra etma zulm,
Agar etsang elga bo'lar yut — o'lim.

Bulardan biri boy — g'anilar erur,
Eling kuchlisi shu, ey fe'li unur.

Bulardan bo'lagi, ko'r, o'rtta kishi,
Bu o'rtta qilolmas g'anilar ishin.

Bular so'ngisidir behol, kambag'al,
Shularni avayla o'zing har mahal.

Ko'tartirma boyning yukin o'rtaga,
Bu o'rtta buzilib, keyin o'rtagay.

Agar o'rtta yukin kambag'al olar,
Tomiri uzilib, u tayin o'lar.

Beholni avayla, u o'rtta bo'lar,
O'zin tutsa o'rtta, olam qozonar.

Behol o'rtta bo'lsa, bu o'rtta boyir,
Bu o'rtta boyisa eling boy bo'lur.

Rohatga yetadi yasharib bu el,
Xaloyiq tutadi duolarga bel.

Nima der, eshitgin, o'ch o'rda xoni,
Ezgu nom tila, ey o'luvchi, qani.

Ezgu ot bilan chiqsa kimda jon,
Duodan bo'shalmas nomi hech qachon.

Kim o'lib qozonsa tuzuk xotira,
Yana bir tiruklig topar bokira.

Yer ostimi joying yo uning beti —
Yigitga kifoya yoyilsa oti.

Ezgu ot kerak, ko'r, muqarrar amal,
Oti qolsa, o'zi mangu har mahal.

Raiyat haqi bor, ular uch bo'lak,
Haqini o'tagin, bajo qil tilak.

Biri — kumush qadrin elda asra pok,
Iyor ishini tut doimo bebok.

Yana bir — ularga adolat yurit,
Ular o'tasida nizomin qurit.

Uchinchchi — emin tut butun yo'llaring,
Qaroqchi yo'lini kessin qo'llaring.

Shunda o'tagaysan raiyat haqin,
Keyin haq talab qil, yarashar, saxiy.

Raiyatda bor uch sening ham haqing,
Munosib talab qil, oshib qulog'ing.

Biri — yorlig'ingni og'ir tutsalar,
Neki so'z deyilsa, uni qilsalar.

Yana, tiymasalar xazina haqin,
Mahal-soatida yetkazib tayin.

Uchinchchi — raqibing raqib bilisalar,
Sevaring kim esa uni sevsalar.

O'tagan bo'lursan o'zing haqlarling,
Haqingni o'tagan bo'lur xalqlarling.

Beg ahli shu yanglig' bo'lishi lozim,
U yanglig' bo'lishi lozim mulozim.

Raiyat bilishsa beg ezzuligin,
Ta'minlar beginning bu manguligin.

Ey elig, olivy baxt mana shu erur,
Illi olamda ham u shodlik berur.

Bulardan bo'lagi — donishmand olim,
Xaloyiqqa bersin tugal bir bilim.

Yana qo'li kuchli bo'lar muhtasib,
Yaramasni tiysa jamoat kezib.

Sotuvchi soz etsa omonatlarin,
Humarmandlar etsa nasihatlarin.

Dehqonlar ishiga kirtsma mador,
Ko'paytirsma molin butun chorvador.

Yana bir bo'lagi — lashkar, hamisha,
Yovingga-bo'riga ulardir pesha.

Sevintir uni, ber shakar birla qand,
Kuzat qilma aslo bo'lak ishga band.

Nafi tengicha et in'om u uchun,
Molini ko'paytir, oshirgil kuchin.

Yovingga — bo'riga berishmay timim,
Yaqingga o'z bo'lsin, yovingga — o'lim.

Shunda yurishadi butun ishlarling,
Ko'ngilcha bo'ladi bu yumushlarling.

Senga bo'lar ikki olam shodligi,
El-u yurt sevinchi — dili obodligi.

Adolat shu erur, odil bo'l, odil,
Tilakka yetarsan odil bo'lsa dil.

Seni tangri sevgay to'g'rilik uchun,
Elga to'g'rilik qil, yo'qtgin o'chin.

Nima der, eshitgin, bilimi yorug',
Bilimi yorug'ning nafi bor aniq;

"Butunligi uchun samo tik turar,
Yer sobit bo'lgandan o'simlik unar."

Buzulma, qoyim tur, adolat bilan,
Bu yanglig' kishiga tilak yuz urar".

Bu edi, ey elig, mening bilmishim,
Borin dedim, qolmay ichim ham tashim.

Ikki dunyo nafin berolguchi so'z
Shu edi, eshitding o'zing, qora ko'z.

Bu dunyo tohati bilan yaxshi ot,
O'zingga yetishar yana oxirat.

Bu dunyo ne'matin barisi qolar,
Noming ezgu tutgin, bu taning o'lar.

Ta'linda so'z kelar unga o'xshagan,
Ma'nili o'sha so'z mana ne degan:

"Otim ezgu bo'lzin, o'zim o'layin,
O'limdan keyin lek shonga to'layin.
Faqtat, — naf yo'llin tut kishilar aro
Agar desang mangu tirik bo'layin".

Elig so'z eshitdi, sevindi tayin,
Ko'ngil, ko'z yoritdi, alam chekmayin.

Eligning O'gdulmishga javobi

Ko'p alqab dedi u: "Ey O'gdulmish-a,
Oson bo'ldi endi menga ko'p ish-a!

Xudo qilsin endi senga inoyat,
Amal etgum o'zim ularga g'oyat.

Menga berdi sendek ko'makchini rab,
Umidim beradi keyin ham qarab.

O'zi bersin orzu-tilaging tugal,
Tugal qilding orzum o'zing bu mahal.

Bu kundan keyin ham o'tab do'st haqin,
Ko'mak beravergin, ey ko'ngli yaqin.

Yurakdan ishongum senga men o'zim,
So'zingni yashirma, ey ko'rkli yuzim.

Quyosh yog'dusidek yordi kumin,
Bunga sen sababsan, ey oyim, kumin.

Juda yaxshi degan ko'ngil topgay er,
Ko'ngil, til birikib yaqin bo'lgan er:

"Ishonch olgan kishi oyna misoli,
Qarasqa ko'rinar o'zin jamoli,
Boqib tursa unga ko'rinar, keyin,
Bo'ladi jamiki qusurdan holi".

Kishi ko'ngli kimga yaqin bo'lsa chin,
O'shangga uzatsin sodiqlik qo'lin.

Ishongan kishiga so'z aymoq kerak,
Ishonchli so'zini bajarmoq kerak.

O'gdulmish eshitdi, ko'tr, elig so'zin,
Bag'oyat sevindi, yoritti ko'zin.

Nihoyat tugatdi elig so'z urib,
Sekin chiqdzi uydan O'gdulmish turib.

O'sha-o'sha elig rohatin qo'yib,
Elini kuzatdi, joni ko'p koyib.

Yomonni yo'qotdi, o'lib ezgu nom,
Butun yaxshilarga ularshdi in'om.

Xaloyiq tuzildi, suzildi eli,
Rohatga ko'mildi, ko'r, oy, kun, yili.

El nafi bilan bu hayoti — rohat,
Ovundi sevinchlar berib farog at.

Og'irladi elig ham O'gdulmishin,
Ishonch bilan berdi unga bor ishin.

Yura berdi ancha bu O'gdulmish-a,
Tezlik bilan o'tib borardi yosh-a.

Ko'zidan kechirdi u qilganlarin,
Tiriklik, yigitlik yomonlik — batin.

Yuragi yorishdi, ochildii ko'zi,
U soqlik tiladi o'ziga o'zi.

O'GDULMISH O'TGAN TIRIKLIKKA ACHINIB TAVBAGA TUTINGANLIGINI

AYTADI

Dedi: "men yuribman g'ofillik aro,
Bu g'aflatda bo'ldi tiriglik qaro.

Tiriglik kuchi bordi mendan ketib,
Tayoq tutdi qo'llim soati yetib.

O'kindi, dedi u: esiz kumin,
Triglik tugadi, qorayar tunim.

O'zim moldek orzu-ne'matlar yedim,
Bilolmay yashadim o'zim kim edim.

Tiriglik tugattim, men g'ofil, nodon,
Kumimi behuda kechirdim shodon.

Yigitlik kuchi bordi mendan ketib,
Achinarman unga kuyinib, tutab.

Tiriglik tuganur, yaqindir o'lism,
O'limga davo yo'q yo o'tar yo'lim.

Sochin bo'lidi shunqor tusidek oqish,
Soqol yozgi maysa — quir boyoqish.

O'ttiz ikki tishim — inju va sadaf,
Uzildi ipi, ko'r, ketar bittalab.

Bir kunli yerni ham ko'rardik o'zim,
Xiralashdi ko'rmay yonimni o'zim.

Yiroqni sezardim qulqoq tutsam-a,
Bugun bo'ldim og'ir endi imlama!

Qora edi quzg'un tusidek boshim,
Ana qo'ndi oqqush — yetildi yoshim.

O'zim ketar bo'ldim, qodirga turib
Gunohim uzrini tilay yolvorib".

O'zim tavba qilmoq tiladi turib,
Zoraki kechirsa yaratgan ko'rib.

Yana u dediki "O'zim shoshnayin,
Shoshilmox gunohdir, uni qilmayin.

Kengash bilan qilsa ishini bilib,
Kengashsiz o'kinar har ishda ulib.

Nima deydi, eshit, so'zamol kishi:
"Bugun ishga davo bu kengash ishi.

Kengashmoq kerakdir, yaqinga kengash,
Kengashda kelishar tuman-turli ish.

Kengashda o'nglanar kishining ishi,
O'kinchli bo'ladi kengashmas kishi.

Borayin men endi qarindosh tomon,
U bilan kengashay ishni bu zamон.

Yaroqli deb aytса qilayin bu ish,
Yaroqsiz desa-chi qolsin bu yumush.

O'z ishin bilolmas kishining o'zi,
Bu paytda lozimdir bo'laklar so'zi.

Kengashsa kengayar kishi bilimi,
Bilim yetsa bo'lgay kengashning emi.

Nima der, eshitgin, kengashgan kishi,
Kengashda bitadi kishining ishi:

"Nima ish qilaring kishiga kengash,
Kengashsiz kishini yaqin tuyma esh.
Nima ishni qilsang kengash, so'ngra qil,
Kengashdan bo'ladi muroding hosil".

U yotdi, o'rnidan turgani zamон,
Otin mindi, bordi saroyga tomon.

Saroyga yetishdi, ko'rib ijozat,
O'rin berdi elig qilib marhamat.

To'shagiga kirib dam oldi uzoq,
Cho'chib ketdi o'zi uyquda biroq.

Eligga o'tindi, dedi: ushbu kun,
Qarindoshni ko'rmoq tilarmen butun.

Agar yorlaqasa eligim zora,
Ziyoratin qilib qaytardim bora.

Eligning O'gdulmishga javobi

"Borgin, — dedi elig, — mendan ham salom,
Tegurgin o'ziga, ey fe'li tamom!

Unutmasin u hech duoda meni,
Yaratganga sirlar aytilar kuni.

O'zidan so'rasa bu gunohlarim,
Ijobat bo'ladi, kechirar karim".

"Bajo", — deb turib chiqdi O'gdulmish-a,
Uyiga yetishdi, yozdi ko'z-qosh-a

Olam rangi bo'lди bu olti misol,
Quyosh rangi bo'lди za' faron jamol.

Falak uydı qoshın, qoraydi yuzi,
Zulumot-la to'lди kishilar ko'zi.

Namoz qildi, yotdi to'shakka kirib,
Dam oldi-kun bo'yи yurgandi horib.

Biroz mizg'idi u, bo'lди ko'p uyg'oq,
O'ylab ketdi: yaqin qoldi sahar chog'.

O'gdulmishning eliga javobi

Keyin yumilmadi ikkala ko'zi,
Uzoq hayol surdi, zerikdi o'zi.

Baqib ko'rdi: Mashriq tomondan Quyosh
Go'yo olov bo'lib ko'tarardi bosh.

Yildriq bilan Ayg'ir yorishdi sekin,
Nishon berdi o'zdan Erangiz keyin.

Bulbullar taratdi ajoyib jarang,
Isrofil nayiga monand bir ohang.

Bosh ko'tardi, boqdi u mashriq tomon,
Quyosh bosh ko'targan edi bu zamon.

Quyosh taratarda olam ichra nur,
Osmouning yuzida olov ko'rinur.

Ma'shuqa kulardek yorishdi olam,
Uzun bo'ldi sevinch, alam esa kam.

Yana turdi, keyin namozin qilib,
Otini mindi tog'ga yuz urdi yelib.

Yetib borgach qoqdi eshilki sekin,
Eshi eshilik ochdi qo'yib toatin.

Salom qildi keyin, ko'r, O'gdulmish-a,
Javob berdi unga, ko'r, O'zg'urmish-a.

Ko'rishib kirishdi ular ichkari,
Hol-ahvol so'radi, qara, u qari.

O'zg'urmushning O'gdulmishga
savoli

Dedi: ey qardoshim, nega kelding, hoy,
Mening kelganimga bo'lmasin bir oy.

Xafa ko'rinasan bu qadar o'zing,
Sarig'roq ko'rinar sening oy yuzing.

Nima qayg'u, nechukdir holing,
Menga so'zla endi, sen ochgin tiling.

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

Javobda O'gdulmish dedi: ey qardosh,
Falkak o'qin otdi, yara bo'ldi bosh.

Zamona berolsa nasihat — irig,
Ko'ngil o'lgan esa bo'lar tip-tirik.

Meni bosgan edi zamon g'affati,
Ushbu kun cho'chitdi zamon o'gitti.

Ko'ngil ko'zi birla turib tingladim,
O'zim yo'ldan ozgan ekan — angladim.

Tiriglik tugadi, yukim ko'p og'ir,
Gunohdan chekinish zamoni axir.

Kela berdi dunyo, tiriglik borar,
Tiriglik tugasa bu dunyo qolar.

Tiriglik uchun men tiladim olam,
Tiriglik tugadi nega bu alam.

Shu tarzda kechadi bu jungi kunitum
Nasib etarmiikin keluvchi tunim.

Sochim misli yozgi chechak boyoqish,
Soqol bo'ldi shunqor misoli oqish.

Keyingi kunitinga bo'layin hozir,
Bajo bo'lsa toki ishim, bahodir.

Bunga o'xshar endi, mana ushbu so'z,
Bu so'z ishga tutgin, ayo ko'ngli soz:

O'kinchda kechirdim tiriklik o'zim,
Qancha kumin qoldi ekan, oy yuzim.

Bekor bordi esiz, yigitlik kumin,
Bekor bormasin bu keluvchi tunim.

Keyin kelar ishga bugun et tadbir,
Deya o'rgatgandi menga dono pir.

Ertalik ishingni bugun qil, sara,
Bu kun qilsang bo'lar keyinga chora.

Yeb ichdim hayvondek yurib behuda,
Och-u tashna etay o'zimni juda.

O'limni unutma, tazaru top-a,
G'ofil bo'lma, o'lim tutadi yoqa.

Yigitlik yoshida ibodat qilgin,
Qarilik yetishsa kuch ketar, bilgin.

Hayotni aziz bil, yumush eigin tez,
O'lim tutmas ekan hushyor bo'l har kez.

O'lim kelmay asran, bo'l'magin g'ofil,
O'lim kelsa nafi bo'lmas aslo, bil.

Shuni o'ylab keldimi uyimdan turib,
Bu ishga kengash ber chuqurroq ko'rib.

O'zing — jonkuyarim, yaqinim menga,
Yaroqligini degin, ishonam senga.

O'ZG'URMISH O'GDULMISHGA O'GITLAR BERISHINI AYTADI

Javobda O'zg'urmish dedi: "ey qardosh,
So'zimni eshitgin, ey ko'ngli sirdosh.

Juda ezgu niyat qilibsan o'zing,
Endi tavfiqli bo'l, yorishsin ko'zing.

Bu yo'lning yo'rig'i birginamas — mo'l,
Men aytay, tegizgin sen ularga qo'l.

Ullardan birini aytayin, eshit,
Yarog'ini ko'rib o'zingga ish et.

U yerda yashamoq senga loyiqdır,
Bu yerda yashamoq menga loyiqdır.

Eling sendan olar bugum ancha naf,
Agar u buzulsa, ketar qancha naf.

Eling qildi qo'ling, ko'r, elga uzun,
Noming ham qut topar kundan-kun.

Rohatga erishib yoshardi eli,
Duo bilan tinmas raiyat tili.

Nima der, eshit, naf berar bir kishi,
Bu yanglig' kishidir kishilar boshi.

"Kishilar aro chin kishi ul bo'lar,
To undan kishilar nafini olar.

Nafi yo'q kishilar kishiga zarar,
Nafi bor kishidan el-u yurt to'lar".

Ezgu niyat qilsa ko'ngilda kishi,
Talgidek bo'lar olamda ishi.

Ezgu niyat ezgu qilganga bo'lar,
Niyati tengida nafini olar.

U yerda bili shing elingda rohat,
Eling shod bo'larlar topib farog'at.

Siyosat, nizomlar tuzildi tugal,
Yomonlar tugadi, qo'yib xiyla ol.

Ular qolsa, endi kelsang sen bu yon,
U ishlar buzilib ketishi ayon.

Yana ostin-ustin bo'ladi nizom,
Buziladi eling, yitar ezgu nom.

Sening o'nningga bir yomon o'mashar,
Xaloyiq jon chekib mudon yig'lashar.

Yomon yo'lga boshlilar elingni yomon,
Bu xalq ergashadi unga begumon.

O'zingdan so'rasha uni biru bor,
Javob topolmasdan qolursan nochor.

Yomon ish, siyosat yuritma o'zing,
Yomon qiluvchiga berma ish, so'zing.

Nima der, dili sof ovozi-uni,
O'git berdi ochiq, unutma buni:

Yomonga qo'shilma, yomon bo'lma sen,
Yomon ish qiluvchi yonin olma sen.

Mudom ezgu bo'lsin siyosat, fe'ling,
Yasha isnod aro sira qolma sen".

Senga ezgu yetdi saralik uchun,
Bu ezzuga jigarponslik uchun.

Ne uchun buzarsan bu ezgu ishing,
Senga naf bo'larmi keyin yoz qishing.

El nafin buzib ham o'z nafing qo'yib,
Nima naf tilarsan bu yerga kelib.

Gohida deyarmen o'zimga o'zim,
Eshit, senga aytay, ey ko'tkli yuzim:

O'zim dunyo-davlat olib ko'rmadim,
Tilak-orzularga ko'ngil bormadim.

Xaloyiq bilan men yo'riq tuzmadim,
Yo beglar bilan men qiliq bilmadim.

O'zim ko'rmadim bu olam molimi,
Yomonmi-yaxshimi elat holini.

Bu holni bilib ham borsam u tomon,
Ibodani qo'ysam bo'lar bu yomon.

Kishi ko'rmas bo'lsa oltin va kumush,
Uni ko'rgach etar ko'p noloyiq ish.

Nima der, eshitgin, xitoy sarboni,
Olamni kezibdi uning karvoni:

"Kishi faqirlikda yashasa qashshoq,
Ezgu fe'lin tashlar boyigani chog'.

Gadoy to'q bo'lib u boyisa agar,
To'g'rilik yo'lli tez uni tark etar.

Bu qut ko'rmagan er agar topsa qut,
Qilig'i buzilar, qilar elga yut.

Bechora kishining uzaysa qo'li,
El ichra uzayar qo'li ham tili".

O'zing yeding endi bu davlat oshin,
Ko'ngil bosding — orzu — havoning boshin.

Ko'zing ham yorishdi, ko'ngil sevinib,
Yurarsan elig birla ezgu bo'lib.

Bularning bari uning fazlidir to'liq,
Ezgulik etdi u, yuzingni yorug'.

To'g'rillikka to'g'rillik, odangarchilikka odangarchilik qilmoqligini aytadi

Bu bir turidir, yana birisini
Chiqarib qo'yayin o'zingga isin:

Unutdingmi ekan yoki pardalab
Bu ishga yuz urding nima naf tilab?

Bilarsan olamda maqtov bor talay
Vafoli kishiga bo'lar har qalay.

Olamning bor esa agar nizomi,
Kishiga kishilik bo'lar nishoni.

Kishi ezzgulikka qilar ezzgulik,
Shu ezgu javobi bo'lar ezzgulik.

Kimki bo'lsa asli otadan toza,
Eliga naf berar u beandoza.

Ona o'g'irlik suv olar bo'lsa — qut,
O'g'il bunyod bo'lsa — yetar xalqqa yut.

Eligdan yetishdi senga ezzgulik,
Qozonding ne'mat-u yegu, kiygulik.

Bu san'at, hunar va bilimga beshak,
Elig sabab bo'ldi, ochildi eshik.

Seni sharaf bilan qildi ko'p ulug',
Ezgulik eshigin ochdi u to'liq.

Unutdingmi bu kun elig himmatin,
Javobi lozimdir, shumi qimmati!

Dag'al so'zladim men, e jigar pora,
O'kinma, ko'ngilni sen etma yara.

Rost so'z dag'al bo'lар, ko'ngilga — og'ir,
Dilingga jo etsang naf berar oxir.

Dag'al so'zga qilma sen aslo g'azab,
Rost so'z dag'al bo'lар, buzmagan asab.

Bunga o'xshar endi bu aytar so'zim,
Eshitgin buni sen, e ko'rkli yuzim.

"Haqiqat dag'aldir, bilib ol buni,
Keyin nafi tegar, shod etar seni,

Haqiqat ko'ngilga botadi dag'al,
Dag'al so'z — haqiqat, haqiqat qani?!"

Kichik o'g'lon eding o'lganda otang,
Bilim-u humarsiz eding holi tang.

Elig oldi seni, qilib parvarish,
Mana endi bo'lding kishilarga esh.

Bu quj, ot, xazina, suv-u yer-bari,
Eligdan yetishdi, ko'zim gavhari.

Bori ezzgulikka yetishding o'zing,
Olamga yogildi shoning ham so'zing.

Yarasharmi endi elating qolib,
Yov-u yog'i kabi o'tirsang kelib.

Nafing tegarida sen undan qochib,
O'tirsang qolmasmi dili ko'p achib.

Senga qildi elig yaxshilik mudom,
Javob kerakmasni unga, ezgu nom!

Odam bolasi to seni alqashib,
Vafoli deyishsin suyib maqtashib.

Nima der, eshitgin, kishi ezgusi,
Kishilik bo'lar chin kishi belgisi.

Kishilik qil, ey er kishi, bo'l saxo,
Kishilik yo'llini shu bil doimo.

Kishiga kishilik eta ber mudom,
El aro qozongin kishi degan nom.

Senga ezgu qildi elig ming bora,
Ul ezgu javobi uchun qil chora.

Kishi yaxshisidir vafoli kishi,
El aro sarasi, bajoo bor ishi.

Kichik o'g'lon eding, bilimsiz, nodon,
Elig qo'lladi — sen qutlisani, shodon.

Jon-u tanni unga et endi fidoo,
G'ofillikni emas, ishin et ado.

Ul ezgu javobi uchun et chora,
Ezgulik yetadi senga ming bora.

Nima der, eshitgin, e ko'ngli yaqin,
Donishmand o'tarkan yaqinlik haqin:

"Birovning oshini yesang, qil ishin,
Uning mehri oshar, halol ye oshin.
Tuz-u non haqini o'tasang tugal,
Kishi fidoo etar hattoki boshin".

Tilakka yetishding, qil ezgu tilak,
Ezgulik etib bo'l kuniga kerak.

O'randing, belanding kiyib shohi — jo'z,
Hasad qilguchilar yumib oldi ko'z.

Sen endi eligga tegiz ezgu ot,
To yonsa dushmami, bo'yin egsa yot.

Ne'matlar yeding sen osoyish olib,
Yo'g'on bo'ldi bo'yning buqadek bo'lib.

Kuching sarf et endi elig ishiga,
Duo ortdin tun-kun uzun yoshiga.

Olam molin olding, o'zing endi boy,
Minganing bu tulpor, saman, tozi — toy.

Ularmi eligga bag'ishla o'zing,
U topsin tilagin, yorishsin yuzing.

Saodatga yetsin ketib pushmoni,
Azobda yer o'psin yovi — dashman.

Qo'ling uzun etdi, tilingni ravon,
Senga ko'z tikarlar ezgu ham yomon.

Duo orttir endi, ey ezgu qardosh,
Saodat yetishsin, qozon katta yosh.

Kishi asli shunday qilar ezgulik,
Nomi ham olamda qolar mangulik.

Yana yaxshi degan bu toziy tili,
Kishi aslin angash yo'li shu, yo'li:

Kishi asliga, ko'r, qiliq andoza,
Qiliq tabiatga kelar teng rosa.

Tabiatga asli qiliq belgidir,
Yomonning qiliq'i yomondir toza.

Bari ezzulikka elig bo'lidi bosh,
Bu ezzuni qo'yib o'zing bo'lma tosh.

Kengash qilding endi ishonib menga,
Bari bilganimni o'tindir senga.

Mening deganim-u o'zing bilmishing
Pishiq-puxta o'yla, pishadi oshing.

Sevindi O'gdumish, dedi: qardoshim,
Shu xil lozim edi mening bu eshim.

Juda yaxshi ushbu qadim so'z bugun,
Yechildi men uchun tugilgan tugun:

Menga parda edi bu so'zlar picha,
Ko'tarding to'siqni, sen aytding ocha.

Yo'qoldi oldingi orzu-yu tilak,
Xudo bo'lsin endi chin orqa yo'lak.

O'zi asrasin u berib pok yurak,
Qillig'-u yurishim imondan darak.

Duo birla menga o'zing qil madaad,
Unutma buni sen, omon bo'l faqat.

So'zini tugatdi, turib shu zamon,
Esonlashdi keyin ketar uy tomon.

Uzun yo'lda bo'lди u charchab, horib,
So'ng biroz dam oldi uyiga borib.

Yorug' yuz yashindi sekin ushbudam,
Go'yo tul to'niga o'ranaq olam.

Quyosha yig'di keyin o'rilgan sochin,
Tiyin¹ rangi oldi olamning ichin.

To'shakka cho'zildi, dam oldi biroz,
Ko'zları yumildi....

Ko'zin ochdi, qarar ko'tarib boshin,
Havo kuldil go'yo qiz ochar tishin.

Quyosha bosh ko'tardi, ochib yuzini,
Go'yo olam oldi oqqush tusini.

Turib keldi, yigit, namozin etdi,
Nonushta chog'ida rejalar bitdi.

Otin mindi bordi saroyga yana,
Tushib yurdi elig tomon u ana.

ELIGNING O'GDULMISHGA SAVOLI

Elig undan so'rdi bu O'zg'urmishin
Surishtirdi sog'lik, yana bor ishin:

"Nima der, bag'ishlarim menga duo,
Duoga daf bo'lар axir har balo.

¹ Tiyin — olmaxon. Quyoshning saxar botish paytida sarg'ish-qizildan qora rangga burkanib borishi go'yo olmaxon rangiga qiyoslangan.

Duo birla odam topar ezzgulik,
Duo birla jannat bo 'lar mangulik.

Olamga yo'q esa bu ezgu duo,
Yer osti to 'larda bu damda go'yo".

O'gdulmishning eligga javobi

Javob berib aytdi O'gdulmish: bu so'z
Bilimga yo'g'irib deding shubbasiz.

Qarindoshim unda bo 'lib parishon,
Bir-u bordan so'rar duoda, ishon.

O'z qayg'usin qo'ygan, u bizni so'rar,
Bu yanglig' mehribon yana kim bo 'lar.

Bizdan bo'lak g'ofil yana kim bo 'lar,
Gunoh biz qilarmiz, duo — u qilar.

Bu kun u eligga yaqinligidan,
Duoni tushirmas mudom tilidan.

Bu yanglig' mehribon yana kim bo 'lar,
O'z qayg'usin qo'ydu, u bizni so'rar.

Bizdan bo'lak g'ofil yana kim xoqon,
Bekor bo'ldi bizlar yashagan zamон.

Tan-u jon semirib ne'mat-orzuda,
Rohatga mahliyo bo 'libmiz juda.

Tanimiz o'lar-ku, yegay qurt-ilon,
O'kinchdan bo'lak yo'q chiqib borsa ion.

Eligning O'gdulmishga javobi

Javob berdi elig, dedi: ey dono,
O'zimni ne tarzda tutay doimo.

Sendan mehribonroq kishi yo'q menga,
O'zim ishonarman chin dildan senga.

Men endi o'y ichra yotarman g'ofil,
Ishim esa tashda qolar endi, bil.

Ko'zimsan, qulog 'im, o'zing ko'r, eshit,
Ne tengsiz ko'rimsa yo'qot, chora et.

Lozim bo'lsa agar o'zimdan ko'mak,
Menga ayt, ilojin qilishim kerak.

Ne lozimki bo'lsa bu askar ora,
O'zing qilgin etmay meni ovora.

Xaloyiqdan uzoq tutilsa zolim,
Nodonlar yo'qolsa, qolsa bir olim.

Boyisa el-u yurt, gullasa elim,
Uning shukrin etsa mening so'z-tilm.

O'gdulmishning eligga javobi

Javobda O'gdulmish dedi: ey xoqon,
Senga tafsiq berar bir-u bor har on.

Tilagim, keragim mening ham o'shal,
Yo'lim ochsin endi o'zi har mahal.

Eligga yetishsin farog'at butun,
Menga-chi mashaqqat, bosh og'riq butun.

Senga qildim endi o'zimni fidoo,
Rohatda yasha sen, ey elchi, dono.

Yagona hojatim, e sohib ado,
Sevinch bilan etgin bu kunda bajo.

Kimni beglar tutsa o'ziga yaqin,
Chaqimchi chaqqadi uning bor yo'g'in.

Meni garchi ezgu tutarsan o'zing,
Chaqimchi chaqqarmi — tugulgay yuzing.

Nima der, eshitgin, bahodir yigit,
Bilib so'zlagay u nasihat, o'git:

"Kishi ko'ngli go'shtdek, uni hid buzar,
Go'shtingni asra, ey fe'li misli zar.

Chaquv tinglamasa ham garchi odam,
Chaqimchi so'zini tinglar qaysi dam.

Begi bo'lsa ziyrak va qancha zako,
Chaqimchi yondoshsha berolmas jazo.

Ko'ngil beg erur, bu tanu jon — asir,
Sovur so'zga goho, gohida isir.

Kishi ta'bi to'rt xil qo'shilolgan yov,
Biri kuldiradi, g'am berar birov.
Biri shoshsa, biri osoyish tilar,
Biri kulta, biri yig'isin qilar.

Shunga iymanarman, ey elim quyi,
Chaqimchi chaqqarmi, u — odam iti.

Ko'ngil og'rigay hamsovuy san o'zing,
Xizmatim ham begor — o'girsang yuzing.

Tilagim shudirki, eligim, senga,
Meni gar chaqishsa, bildirgin menga.

Tubiga qadar ko'r, so'roqla juda,
Chora ko'r nimaki bo'lsa behuda.

Birov chaqar bo'lsa eshitgin so'zin,
Chin-u yolg'onini, surishfir o'zin.

Juda yaxshi degan kishi sarasi,
"Eshitgin-u angla ne so'z sirasi!"

Yana yaxshi degan mana ushbu so'z,
Buni ishsga tutgin, ayo yetulk ko'z.

"Bori so'zni tingla, keragini ol,
Nokerak so'zlamni chegirgin darhol."

So'zin eshit, so'ra yolg'on-chinini,
Chin ol, yo'qtogin bor yolg'onini.

Yolg'onchi ahlidan buzilar jahon,
Chin aytar kishini yaqin tut har on.

Eligning O'gdulmishga javobi

Nima der, eshitgin, kishi sarasi,

Adolat ichida bor ovozasi:

"Kishi ezgusi kim, kishilar boshi,
Kishilik qiluvchi kishiga ishi.
Kishiga vafo qil kishilik tengi,
Vafoli uchun nom qozonar kishi".

Javob berdi elig: dedi: ey kishi,
Ravo bo'lди hojat – tilaging eshi.

Kishilik beribdi qodir biru bor,
Munosib fe'l, tilga etdi sazowor.

Sendan qachon bo'lar yomon yo'l- yo'riq,
Oq sut bilan kirgan axir har qiliq.

Seni so'zlaguchi kishilar menga,
Shubhasiz, yov erur, bilimi keng-a.

Qachon tinglagayman ularning so'zin,
Agar so'zlasalr ko'pu yo ozin.

Ne yanglig' bo'ladi elida ulug',
Bilolmay o'tirsia, kim ezgu, buzug'.

Ne yanglig' bo'lar beg farosati gar,
Yomon yaxshimi jech bilolmas, jigar.

Qachon er elini u yo'l siz odam,
Sinalgan mishinibsimsa har dam.

Nechuk orzu yer u nizom berguchi,
Chinu yolg'oniga topilmay kuchi.

O'zidan chinakam atosan bugun,
Sen sabab yozildi bari berk tugun.

Menga xizmat etding ko'p oliv janob,
Tuz-u non haqiga berolding javob.

Mendan kerak endi munosib javob,
Toki sen ham undan sevinchingni top.

O'gdulmishning elingga javobi

Javobda O'gdulmish dedi: ey elig,
Farog'at qozongin elda belgilik.

Unga bersin ikki olam ezzusin,
Bajo etsin endi tilak-orzusin.

Uning maromida aylansin falak,
Bu davron keltirsin ne ersa tilak.

Ey fe'li muloyim, qilig'i butun,
Tirik tur, eson bo'l, yasha ko'p uzun.

Menga tegdi sendan talay ezzulik,
Bu hurmat-u boylik, yegu-kiyulik.

Mana, xizmatingga bo'ldim men tayyor,
Tavfiq bersin endi bu parvardigor.

Yana der O'gdulmish: ey elning quti,
Olamga yoyildi elig shuhrat.

Ezgu ottri ko'zla, senga keldi qut,
Qutingga erishsang, ko'ngil ezgu tut.

Doim beg bo'layin desang xalq ora,
To'rt xil narsa kerak, bilib ol, ko'r'a:

Biri — tili to'g'ri, so'zi chin, butun,
Yana bir — soz esa nizom el uchun.

Uchinchchi — ochiq qo'l, esa ko'p saxo,
Muruvvat ko'tishsa eli doimo.

Yana biri — botir esa ham jasur,
Toki bo'yin egsa yovi quirigur.

Qaysi beg bu to'rt ish tugal qilmasa,
Egasiz qoladi eli, bilmasa.

Shular edi beglik asos — ildizi,
Shular ezgu beglar yo'rig'i-izi.

Yo'riq buzmagin sen, shu izga yungin,
Qadim ajoddimiz izida turgin.

Qay beg buni qo'ysa, yo'1 tutsa bo'lak,
Buzar begligni, olomas bo'lak.

Og'ir tutgin, elig, uch toifani,
Qulog bersang aytay men ta'rifini.

Biri alp-u mergan, botir kishilar
Qilich birla yovning terisin shilar.

Ikkinchchi — bilimdon, domishmand kishi,
Kengashda naf etar, uning soz, ishi.

Uchinchchi — kotiblar, bilag'on ular,
Kirim-chiqim bilsa qaznoq ham to'lar.

Bularnii kuzatgin mudom ayricha,
In'om ber ularning nafi qadricha.

O'shanda soz bo'lar yummush-ishlaring,
Eling orta borar, kengaygan yering.

Oting ezgu bo'lar, taralar so'zing,
Olam eli ko'rmoq tilagay yuzing.

Nima der, donishmand — kishi ko'zgusi,
Kishi o'lsa yitmas, ko'r, ot ezgusi.

Ne ezgu bo'lar, ko'r, ezgu ot ilib,
Kishi o'lsa ketmas, ko'r, ot o'lib.

Agar ezgu o'lsa, tirikdir otı,
Ki xarchand jo bo'ldi unga yer qati.

Tiriglik tilama, ezgu ot tila,
Oting ezgu bo'lsa tiriksan juda.

Tiriglik tilama, ezgu ot tila,
Oting ezgu bo'lsa turiksan juda.

Tiriglik nima u, bu ezgu nima?
Menga aytib bergen, dono inim-a!

Tiriklikning chini ezzulik, axir,
Bu ezgu tiruklig demakdir, axir.

Ezgu qiliq etgan bo'ladi tirik,
Yomon fe'l bo'lsa kim u o'ldi tirik.

Dunyo kechar, kechmas bu ezgu qiliq,
Bu ezgu qiliq birla ezgu yo'riq.

Vafosiz olamning burilsa yuzi,
Ezzulik naf bo'lar senga, ey qo'zi.

Ovinnma bu olam bilan, ey xoqon,
Vafo qilgan emas olam hech qachon.

O'yin qatoridir bu dunyo ishi,
Oyog'in so'rasang, ro'para — boshi.

O'yinga qo'shilma, uzoq yashagur,
O'yinga qo'shilisang, bo'yin bog'lanur.

Nazar sol, ne deydi bir mashhur kitob,
Ularni unutma, bu senga xitob:

"Bu dunyo ishi, ko'r, o'yindir, o'yin,
O'yinga qo'shilma, ne kerak o'yin.
Egang yorlig 'in qil, o'zing qulliging,
Amal qilmasang gar, tuta ber bo'yin".

Mana shular edi, elig, bilganim,
Bayon etdim endi to'liq bilganim.

So'zim olsang, mana, gar olmas esang,
Shubbhada ko'rasan ne tilak desang.

Eligning O'gdulmishga javobi

Elig dedi: tavfiq tilarman mudom,
Ko'ngilni sof etib tongdan to oqshom.

Tilasa Xudoyim beradi ko'mak,
O'zing ham beparvo bo'hmasang kerak.

Tirish, sirtqi ishlar holatiga boq,
Ko'zing och, qaragin, kuzat, sol quoq.

Kuching yetganin qil, ishonma menga,
Kerak bo'lsa yordam berayin senga.

So'zin kesti elig, tili ham tindi,
Turib chiqdi yigit, otini mindi.

Uyiga kirarkan otin boyladi,
Yechindi, bor ishin xayol ayladi.

Kecha yotdi, sahar yana othanib,
Saroyga yuz burti otidan inib.

Bel bog'lar O'gdulmish o'shandan beri,
Ishin boshladi u manglayda teri.

Xaloyiq rohat-u olam topdi shon,
Elig ham oronda yashadi shodon.

Eli to'ldii ezgu duolar-la liq,
Nomi bo'ldii endi mangu qolgulik.

Ne ezgu erur, ko'r, shu tarz adolat,
Adolatda yashnar bu el to abad.

Bu yanglig' beg bo'lsa elin boshchisi,
Saodatga yetar eli barchasi.

Boshliga ko'tarsa xaloyiq uni,
Shu sabab yorishar beginning kuni.

Bu beglar bir-u bor noibi erur,
Begi ezgu bo'lsa, eli kun ko'rur.

Yomon bo'lsa begi eli ham yomon,
Yomonlar qo'shilsa, balo — begumon.

Yo'riq sozlasa el, begi fe'l tuzar,
Fe'lin sozlasa beg yomonni tuzar.

O'tib bordi endi bir ancha kun-oy,
Olam yashnadi, xalq farovon-u boy.

Tuman-chang aridi, ko'rinnas yomon,
Yaramas yo'oldi, olam sog'-omon.

Shukur qildi elig taqdirda tag'in,
Sano-hamd o'qidi tili tinmayin.

O'ZG'URMISH XASTA BO'LIB
O'GDULMISHNI
CHAQIRISHINI AYTADI

Shu kunlarda bir tun bu O'gdulmish-a,
Hozirlanar edi qo'yishga bosh-a.

Ovoz qildi kimdir, shoshib undadi,
U odam yubordi, yugur, kim? — dedi.

YUMUSHCHI O'G'LONNING
O'GDULMISHGA JAVOBI

Yumushchi dediki qarab: "bir yigit
Gapim bor demoqda, — yoniga kirit".

O'GDULMISHNING XIZMATKORGА

SAVOLI

Yana dedi:" borgen, aniqla so'zin,
Nimani demoqchi, kim ekan o'zin"

XIZMATKORNING CHOPARGA

SAVOLI

Yana chiqdi o'g'lon, so'radi so'zin,
Qayerdan kelishin, kim ekan o'zin.

CHOPARNING XIZMATKORGА

JAVOBI

U dedi: O'zg'urmish elchiday qilib
Yubordi, xo'jayin borni ishqilib.

XIZMATKORNING O'GDULMISHGA
JAVOBI

Xizmatkor chaqirdi, kirdi u qo'noq,
Qatindoshi gapin gapirdi shu chog'.

O'GDULMISHNING CHOPARGA
SAVOLI

O'gdulmish ro'para bo'ldi shu oni,
Salom berdi unga kelgan mehmoni.

Dediki: qayerdan kelarsan o'zing,
Ey dono, ne erur tilaging, so'zing?

CHOPARNING O'GDULMISHGA
JAVOBI

"O'zg'urmish chaqirar, — dedi u qo'noq,
Yoniga borishing kerak ushbu chog'.

Og'ir bo'ldi holi, yotar qiynalib,
U seni kutmoqda ko'zi to'rt bo'llib".

O'GDULMISHNING CHOPARGA
JAVOBI

Javobda O'gdulmish dedi sal kulib,
Nima gap,yashirma, borayin bilib.

CHOPARNING O'GDULMISHGA
JAVOBI

Unamadi, dedi yaqining holi
Yomonroq, menimcha, tuganur yo'lli...

Men endi borayin yoniga uning,
U yerda kutayin borishing sening

Yigit ketti tezda otini niqab,
Bu-chi qoldi hayron, qo 'lin ishqalab.

Uyiga burildi u qayg'u etib,
G'am-alam ko'paydi sevinchi ketib.

Yotib ko'rди — uyqu sira kelmadı,
Tuni bo'lди yilcha, yotib bo'lmadı.

Yopib oldi ko'zin u uyqu tilab,
Boraverdi uyqu ko'zidan yirab.

Yana turda ancha bo'lib holi tang,
Oqara boshlahdi g'ira-shira tong.

Chechaklikda bulbul chiqardi ovoz,
Uyg'oq dilga xushnud orom berdi soz.

Otin mindi, bordi qardoshi tomon,
Qo'l o'pdı — ko'rishdi yetishgan zamон.

Qarindoshi yotar, hushi o'zida,
To'niga to'shangan, yengi -yuzida.

Kasallik o'tadi bo'lursan eson,

Gunohing to'kilib yurarsan omon.

O'GDULMISHNING O'ZG'URMISHGA SAVOLI

Dediki, ne bo'lди senga ey og'a,
Seni ko'rib bo'lди bu ko'nglim yara.

O'zg'urmishning O'gdulmishga javobi

Dedi: ey jiigarim, yo'lim rostlanur,
Menga ko'z tikibdi, o'lim rostlanur.

Sening yuzingni bir ko'rayin dedim,
Senga tashvish yetdi, seni qiy nadim.

O'GDULMISHNING O'ZG'URMISHGA JAVOBI

O'gdulmish javobda dedi: jonajon,
Kasallik odamga esdr har qachon.

Diling buzma, begor chiqarma sassing,
Gunohingga bu dard erur evazing.

Bilimli so'zini eshitgin bir bor,
Bilim ketkazadi ko'ngildan g'ubor:

"Gunohga evazdir bu kasallik, bil,
Gunohsiz kishi kim, qani bayon qıl,
Gunohi to'kilas kusal kishining,
Gunohingni to'kkin, undan tez qutul!"

Odam borki gunoh qilur ko'p yo oz,
Gunohsiz odam-ku olam ichra oz.

Kasallik o'tadi bo'lursan eson,
Gunohing to'kilib yurarsan omon.

Nega tilda ko'rksiz keladi so'zing,
O'luringni bilding qayerdan o'zing?!

O'zg'urmishning O'gdulmishga javobi

Javobda O'zg'urmish dediki: sabab
Tushda ayon etdi o'zimga bu rab.

Tushunda bari bir ochildi menga,
O'limim ko'rindi so'zlasam senga.

Qazoni kim uzra ko'rarkan ravo,
Ayon etgay uni tushda avvalo.

O'gdulmishning O'zg'urmishga javobi

Javobda O'gdulmish dedi: bu so'z ham
Uncha yaxshi emas, e fe'li ko'rkam.

Odam o'lsa edi bemor bo'lsa sal,
Tirik zot qolmagay edi bu mahal.

Tirik odam borki, bo'ladi kasal,
O'lavermas ammo kasal har mahal.

Odam uxlaganda ko'rar goho tush,
Uni yo'rguvchilar yo'rar yaxshi, xush.

O'GDULMISH O'ZG'URMISHGA TUSHNI TA'BIR QILISHNI AYTADI

Bu tush yo'rguchilar tush ilmini hal
Etishni bilishi kerak mukammal.

Turli turman bo'lar tushingga yo'riq,
Uni bilmog'ing shart, e fe'li yorug'.

Bilimsizga dema tushungni ochib,
Kechasi so'rama ta'birmi shoshib.

Kechasi qurilgan tushungga ta'bir
Kunduzdag'i tushdan tamom o'zgadir.

Bu tush ta'biringning sharoti ko'p,
Eng avval shularni bilib olsa xo'p.

Tushing izohlama sen o'zing yo'rib,
Yana aytma uni har kingga ko'rib.

Butun tushni tush deb yo'ravermagin,
Tushingga ta'bir ko'p, boqib ko'r sekin.

Tushing yo'rima, yo'rsang bilim birla yo'r,
Qiyosla, ma'no ber, chuquur o'yla, ko'r.

Tushungda ne ko'rsang ta'bırcha bo'lар,
Yo'ra bilmsang u befoyda qolar.

Nima der, eshitgin, bilimi dengiz,
Bu so'z ishga solgin, qizart endiyuz:

"Yo'riqcha qolar tush, tushing yaxshi yo'r,
Tubi aslini bil, uquv birla ko'r.
Ne tarz yo'rsa tushni o'shandek bo'lur,
Yomon yo'rima tushni, seni qilar xo'r."

Ba'zi tush yeb-ichmak ta'siri bo'lар,
Yaroqsiz oziqdan yomon tush kelar.

Kichik ersa o'g'lon, yil fasliga,
Narsa qizil bo'lsa, yerning rangi bo'z,
Qoni oshdi degin unga shubhasiz,
Uning tomiridan biroz qon oqiz.

Kuz oyi bo'lsa ham yigit navqiron,
Tushida ko'rimsa, qizil, za'faron.

Sarig'i kuchaygan bo'lur, ey dono,
O'zini bo'tshatsa ketadi balo.

Tushida bu o'rtta yashar kuz oyi.
Agar ko'rsa quduq, tog', olov joyi.

Kuchaygan bo'ladi uning savdosi,
Dori ichsa bo'lar uning davosi.

Qish chog'I esa-yu ko'ruchchi ulug',
Oqar suv, qor, yomg'ir bo'lsa gan to'ilq.

Kuchaygan bo'ladi uning balg'ami,
Issiqqliq berilsa qilinár eni.

Tag'in bir toifa bo'lар poyma-poy,
Bu xil tush ta'biri bo'lmas hoyna hoy.

Odam ko'rsa uzoq o'ylanganda tush,
Ta'biri bo'lmagay uning tengu tsuh.

Yana bir tish uchun sababdir shayton,
Bu xil tushdan keyin yuvinar inson.

Yana birov kasbin ko'rар tushida,
Unga ham ta'bir yo'q, urinma juda.

Bularning bariga qilib farosat,
Ta'birlasang keyin chiqadi hojat

Nima der eshitgan tabirchi ha'kim,
So'ramog'i lozim tush ko'rsa har dam.

Ta'bir qilma tushmu biliб-billmayin,
Ta'birini ne desa bo'lar shundayin.

Alam ko'rsa tushda javobi sevinch,
Sevinch ko'rsa qayg'u kelar tundayin".

Tushungning ta'biri yagona emas,
Fe'li soz kishilar yagona demas.

Xaloyiq tushuning bo'lak ta'biri,
Bu beglar tushuning bo'lak tadbiri.

Sevinch ko'rsa, tushda, o'zini shodon,
Alam-qayg'ularga ochildi gumon.

Tushida yig'lasa, ko'rsa ko'p alam,
Shodonlik yetishar, rohati begam.

Ba'zi tush bo'ladi, ta'biri uning,
Bo'laklar uchundir, u bo'lam sening.

Odamiga qarab ko'rilar bu tush,
Uni yaxshi yo'rsang ma'qullandiy xush.

Ba'zi tush kishiga amal keltirar,
Ba'zi tush kishiga kasal keltirar.

Buning barchasini bilishing kerak,
Keyin tush ta'birlin qilishing kerak.

U tushing qanaqa, degin-chi ochib,
Uni men yo'rayin ayirib, yechib.

**O'ZG'URMISH O'GDULMISHGA
QANDAY TUSH
KO'RGANINI AYTADI**

Javobga O'zgurmish boshladi so'zin,
Deya boshladi u tushini o'zin:

"Shoti ko'rdim — ellik uning pog'nasi,
U tiklab qo'yilgan baland va yassi.

Unga chiqib bordim bosib birma-bir,
To oxir sanadim o'zi nechadir.

Tepada suv tutar bir otliq odam,
Olib ichdim-u men qoniqidim u dam.

Keyin ko'kka uchdim xavolab, ishon
Ko'rinnmay qolibdi o'zimdan nishon.

O'GDULMISH O'ZG'URMISHNING TUSHIGA TA'BIRINI KERAGIDEK AYTADI

O'gdulmish javobda dedi: bu tushing
Juda foydalidir, yig'ib ol hushing,

Ne uchun tushingni yo'rarsan chatoq?
Yo'rishcha bo'lar tushsa ey yuragi oq!

Baland chiqsa odam topar saodat,
Aslida balandlik demakdir omad.

Tushda ko'tarilsang oshar davlating,
Ko'payar humruting, ortar humruting.

Shotiga chiqardek chiqar onading,
Ulug'ilik ichida yashar qomating.

Men-chi, qochdim, axir, dunyoni qo'yib,
Bu yerda yuraman alanga to'yib.

Ushbu so'zga qulooq bergin bu mahal,
Ta'birchi so'zini debdi ko'p go'zal.

Tushimda ko'ringan o'sha bir shoti,
Mening ta'birimda — yigitlik oti.

Shotining boshiga chiqib borganim —
Yoshimni tugaldim, nasibam yedim.

"Shoti — tush ko'ruchi uchun bir omad
Zina xathamoq ham berar saodat.

Qancha ko'tarilsa ortar izzati
yetishadi unga sevinch va rohat".

Idishdag'i suvni olib ichganing —
Uzoq yil yashamoq uchun yetganing.

Sening ko'kka tomon uchib bormog'ing
Omad sari dadil qadam urmog'ing!

XUDDI O'SHA TUSHNI O'ZG'URMISH BOSHQACHAROQ TA'BIR QILISHNI AYTADI

Javobda O'zg'urmish dedi: shu tushim
Ta'biri bu emas, ey eshlim, tushim!

Agar ko'rsang edi bu tushni o'zing,
Tamom to'g'ri bo'lur edi bu so'zing.

Negaki himmatning eruk ko'p ulug',
Bu xil kishi topar tilagan to'liq.

Men-chi, qochdim, axir, dunyoni qo'yib,
Bu yerda yuraman alanga to'yib.

Tugal yo'rmading tush yo'rigin menga,
Eshit endi o'zin yo'rayin serga.

Tushimda ko'ringan o'sha bir shoti,
Mening hayotinda — yigitlik oti.

Shotining boshiga chiqib borganim —
Yoshimni tugaldim, nasibam yedim.

Tepamga yetishdi bir otliq kelib,
Men ichdim u bergen suvni olib.

U shunday sipoziy erur, azizim,
Nominni quritar, quritar izim.

U shunday otliqki, obod va azim,
Qo'liida buzilar tamom, azizim.

Idishdagii suvni ichgandim tugal,
Tirklik deding sen, — uzun yoshta hal.

O'zing aytganiingdek, tiruklig shu suv,
Agarki yarimi qolar bo'lsa u.

Yarim suv ichilib qolsaydi yarim,
Yarim qolgay edi tirukliglarim.

Idishdagii suvni ichibman tugal,
Tirklik tugadi demak bu mahal.

Nima der, eshitgin, domlaning so'zi.
Donolar bo'zidir har ishning ko'zi:

“ Idishdagii suvni kim ichsa yarim,
Tirklik tugadi, yarmi-berim,

Agar suvni ichsa oxingacha to,
Tirklik, tugadi, qazildi go'rim ”

Mening yuqotiga borib yetganim,
Yashil ko'kka sekin ketganim

Kishi joni erkin, u erur ozod,
Uchib borsa bir bor keladimi bot.

Ayon qildi tushda taqdirmi qodir,
O'limga hozirlik kerak bahodir.

Bu tushmaning ta'biri shu yabglig', uka,
Bo'lakcha ta'birning hojati nega?!

Tasallli berishga urinding o'zing,
O'lim yuz tutar ekan begor har so'zing.

Boqib ko'rgin o'zing, ey ko'ngli yorug',
O'lim bilan to'ldi qabriston to'liq.

Necha qasru o'rda, bezaklig staroy
O'lim qarshisida buzzildik-ku joy!

Necha mard amaldo, buyuk bahodir,
O'lim o'trusida qora yerdadir.

Zo'rg'a jam qilingan talay narsani,
O'lim yerga tikdi, nazar sol qani.

O'lim ajab emas, tug'ilgan o'lar,
Tug'ilgan bari zot o'limga kelar.

Ajab budorki, tug'ilgan shu zot
Barini unutlar mangude hayot.

G'ofil odamzod-ku bilar o'lmog'in
Lekin nega qo'ymas g'ofil bo'lmog'in.

O'limi-ku muqarrar, unga ne deyin,
Ne hol bo'lg'usidir o'llindan keyin

G'anim shukri mening, ko'ngildosh eshim,
O'limdan keyin qilsa tangri ishim.

Qanoat bilan men kechirdim kuniim,
Azob-rohat ortdi, yorishdi tunim.

Qo'lini qisqa tutdim, olam yig'madim,
Havo-ozzularga ko'ngil belmadim.

Bu kunga saqladim bori yuklarim,
Oson qilgin endi gunohlarim.

Nima der, eshitgin, bilm Berguchi,
Kuyinib nashihat, ta'lim Berguchi:

"G'ofil bo'lma, o'yla, yuikingdan qutul,
O'zingni avayla, nozikdir bu yo'1.

Olim kelgunicha ishingni bitir,
Ko'char payti kelsa hozirlikda bo'1".

Yana dedi: endi yaqinim, jiagar,
Izimdan borarsan o'zing sar basar.

Senga bir necha so'z o'zim so'zlayin,
Unutmagan uni o'zimdan keyin.

Tirk chog'i o'zim yaqin bo'layin,
O'zimdan keying so'zim qo'yayin.

So'zim shukij, g'ofil bo'lma, ey qardosh,
Tirklikni bermal, begor qilma yosh.

O'ZG'URMISH O'GDULMISSHGA PAND BERISHINI AYTADI

Halol bo'1, yo'qotma halollik yo'lin,
Shu yo'ldan toparsan tilagin qo'lin.

Butun jonlilarga saxovat uzat,
O'ziga sig'ingin, ko'ngli-til tuzat.

Shilkoyatni kam qil, ibodatni ko'p,
Shosharda sokini g'azab chog'i xo'p.

O'llimni umutma, chorasin qil,
O'zinigni unutma, tag-aslingni bil.

Dunyoga ko'z tikma sen suqlik qilib,
Qolur bu, borur sen o'kinchda ulib,

Bir-u bor hukmin ol, nima kelsa yut,
El-u yurtini o'yla, kela bersa yut.

Durust so'zla, qavling tugal qil, butun,
Bo'lur qavli yolg'on kishilar tutun.

Kular yuz, iliq so'z, fe'li ezzu bo'1,
Zamon senga bo'lil, quting berur qo'1.

Saxiy bo'1, doimo tuz-u non oshir,
Kishi aybin ochma, to imkon yashir.

Og'ir bo'1, ish chog'i etmagin achchiq,
Tan-u jon qutursa, ko'pam cho'zma, yig'!

O'zni emas, doim el nafini bil,
Elingga yuk ortma, o'zing yulchi bo'1.

Mol-u dunyoni qil o'zingga fido,
Xaloyiq sevinsin bo'lil beado.

Kishi sarasi, ko'r, kishilik qilar,
Shirin jonn berib sevinchni tilar.

Juda yaxshi degan bilimdon, sara,
Bilimdon, saraning so'ziga qara:

Nafi bor kishidir kishining sarasi,
Mehri bor kishidir kishining sarasi.

Kishilik oti, ko'r, ikki xil bo'lur,
Biri — dilkash, biri — saxyi, non berur.

Yana yaxshi aytar buni zakovat,
Zakovat yo'lida bo'lar xalovat.

Saxiy deb atalar, qani u saxiy,
Saxiy jon bag'ishhab o'tar el haqi.

Saxiylik emas u ulashsa tillo,
Saxiy joni xalqi uchun ming fidol!

Saxiy er eliga oqizsa molin,
Oqar suv kabi xalq! Ko'ring timsolin.

Ilki narsa erur olam ovozi:
Biri mol-u mullk, biri — obro' sozi.

Bu ikkovni olib yashasha kishi,
O'lim kelganida buzilmas ishi.

El-u yurt sevinsa beg bo'lar sobit,
Uzangi bor esa sipohlar sobit.

Kishi maqsadi mol, shu nari-beri,
Erishgan chog'ida bo'lar u qari.

Ko'charsa, oting ham juda ko'chgun-ey,
Ko'chiruvchi o'lim kelar so'ng kun-ey!

Ko'char kishi etmas o'rda-yu saroy,
Yo'lovchi yo'lidan qolmas yil-u oy.

O'zingni yo'l o'tgan sana, ey qardosh,
Sevinch qilma ortiq, yoziq tutma qosh.

Kechuvchi erur bu olam qolqusiz,
O'luvchi erur jon, kuni belgisiz.

Hozir turadil bu o'lim tirmog'i,
Bexabar bo'lganni ilar qarmog'i.

Bu dunyo taomdir, uni yevchinining
Otini o'zing ayt, tilim yo'q mening.

Orzu izin quvma, og'ir bo'l birrov,
Kishi g'iybatidan tiling qil soqov.

Nima der, eshitgin, odobi yana,
Bu so'z ishga tutsang azob begona:

"Tilak — orzu surmoq iuda ham totiq,
Totig'ning javobi esa ko'p qattiq.

Totiq — bemaza, chuchukka — achchiq,
Uchishga tushish ham balandga — botiq".

Tugal qiz qiliqli erur bu olam,
Seni avramasin, fe'li xush odam.

Faqat elga ketdi senideklar-ey,
Kechirdi eligdan qator beglar-ey!

Ko'z ochdi sizlarga, o'zi berdi qo'l,
G'ofil bo'l magin sen, ayo ezuq fe'l.

Necha kulsang oxir hayot yig'latar,
Necha sozlamagin yana to'zdirar.

Qilik'i jafodir, ravishi — balo,
Yorug'ligi ozroq, tutuni a'lo!

Bexabar, kishiga o'zin ko'rsatar,
Ko'ngil bersang esa oyoq berkitar.

Shakar bilan boqar, berar so'ng zahar,
Vafosiz bu davlat, garchi jilvagar.

Nima der, eshitgin, bu o'ychan kishi,
O'ylab qilgin ishni, e davlatboshi:

Saqlan, berma qolar dunyoga ko'ngil,
Iafochi erur bu, bilib qo'y, o'g'il.

Juda yaxshi degan bilimli fozil,
Bilimli, zakoli, idroki komil:

"Vafosiz shu qut deb yo'qotma yo'riq,
Ishonchsiz bo'lur qut, u buzar qiliq,

Ko'lanka misoli bu davlat, jo'ra,
Ko'lanka joyida turarmi ko'r-a!"

E'tiqoding soz tut, molingni — tengsiz,
Shu yo'l hurmat berat, bilimi dengiz.

Eta boshlasa gar mahliyo rohat,
Yaratgan yodi-la topa bil toqat.

Seni aldamasin bu davlat, qardosh,
Keyin ko'zlariningdan oqar qonli yosh.

Nima der, eshitgin, bu xalqning boshi,
Har so'zda sinalgan tarozi-toshi.

Kimni avrab olsa bu davlat kelib,
Qora yer qatida yotadi u ulib.

Ulug'lik ichida mast bo'lsa keyin
Qora yer qatida azobi qiyin.

Yigitlik yo boylik takaburligi
Chog'ir mastligidan battar, el begi.

Ichuvchi hushini yo'qotsa ichib,
Mastligi tugaydi ko'zini ochib.

Bu davlat xush olsa, keyin bo'lmagay,
Qutula bilo mas toki o'lmagay!

Oting qul bo'ldi-ku, qolsin beg ishi,
O'zing qulliging qil, ey ezzu kishi.

Mangu qolgu emas tiruklig kuni,
Uzoq yetgu emas ulug'lik uni.

"Vafosiz shu qut deb yo'qotma yo'riq,
Ulangan bu jomni o'zing uzasan.

Necha yil yashama o'zing o'lasan,
Bunga o'xshash edi eshitgin bu so'z,
Ko'ngilga joylab ol, hech o'girma yuz:

"Tugal orzu-ne' mat yesang hamki bot,
Muyassar esa gar bu obi hayot,
Samo gumbaziga yetsa ham boshing,
Baribir makoning qora yer, hayhot!"

Qarindosh senga men ochiq so'zlayin,
E ko'ngli yaqinim, neni kezlayin.

Nega sevmas odam bu dunyo molin,
Go'zallar yuzini, qadd-u jamolin.

Rohat-farog'anni qo'yishga bois —
Vafosiz bu dunyo uzib qo'ydi iz.

Bu mulk deb o'zidan yiroqdir odam,
Shu mulk deb saxodan yiroqdir odam.

Shu mulk deb donishmand olamni qo'yib,
Yelib-yuguradi alamga to'yib.

Birovi tog'u tosh kezadi, yotoq —
G'or ichida, yemish — o't, tikani butoq.

Biroviga sahro, dala, biyobon
Azob chekmak uchun bo'libdi makon.

Birovi-chi juldur, bukilgan ucha,
Birovi yer kezar ko'zi yosh socha.

Birovi osh yemas, o'zin sizg'irar,
Birovi tur-u kun oyoqda turar.

Shu yanglig' bo'ladi g'ofilmas kishi,
G'ofil bo'ldik endi, biz g'ofil boshi.

Sen asta o'zingni, ey chin qarindosh,
Seniki shu dunyo, o'zing unga bosh.

Idrokda kesilsa havo nafasi,
Shu bo'lar botirlik nishon, belgisi.

Bu ikki yo'qotar igit kuchini,
Shu ikki to'zitar yigit uchimi.

Mana men borurman bu kun ayilib,
Sening ham yo'ling shu, kel ezgu qilib.

Yomonga qo'shilma, fe'ling ezgu tut,
Yomon har qayerda qilur o'zga yut.

Nima der, eshitgin bosilgan kishi,
O'lim kelmasidan hozirli ishi:

Yomonga bu o'jar tuyalar kabi
Yomonlik sog'ingga, e sof matlabi.

Ayo keng yo'riqli, kishi o'ktami,
O'limdan buzilar tiritlik tomi.

Ayo "men" deguvchi, "meni sev, meni",
O'limga hozirlan, kutar u seni.

Ayo och, ko'zi suq, bu dunyo quli,
O'lim suqlanur, ko'r, seni tutgal.

Dediki: o'larmen mana men bu kun,
Ikti narsa uchun kuyarmen butun:

Bugun yo keyinroq yumilsa ko'zim,
Sizing duongizga hojatmand o'zim.

Duoda unutma, aziz qardoshim,
Keyinroq bo'lursan axir yo'ldoshim.

Ko'ra tur sen endi kishi holini,
Senga bo'lsa ibrat, qil o't-emini.

O'lim keldi, eltar, borurmen xafa,
Hozir bo'l, keiar senga bir da'fa.

Bugun ayrilarman o'kinch-la, qo'zi,
Qachon qovushtirgay yaratgan o'zi.

Nima der, eshitgin, ketuvchi kishi,
O'lib yerga ketgan o'lurda boshi:
"O'kinchda ulurman, oqar ko'z yo'lim,
Rohatni berohat qilar bu o'lim."

O'limdan keyin, ko'r, ikki yo'l kelar,
Menga nasib bo'lar endi qay yo'lim".

Yana aytdiki u, ey yaqin qardosh,
Mening qayg'um uchun quyi qilma bosh.

Ko'ngil buzma, anduh uraverma ko'p,
Ko'ngil bos, duo qil, chuuqr o'yla ko'p.

Faryod chekma ortiq, toqat qil o'zing,
Bu ish avvaldan bor, kamaytir so'zing.

Keta qol, azizim, bor, o'yingga bor,
Alam qayg'u birla diling qilma tor.

Kerakli so'zimni eshitding ochiq,
So zimni unutma, e ko'ngli ochiq.

Elingga olib ber mendan ko'p salom,
Bu so'nggi salomdir, ey ko'ngli tamom!

O'GDULMISHMING O'ZG'URMISHGA JAVOBI

Javobga O'gdulmish til ochdi turib,
"Qay ahvol borayin seni men qo'yib.

Og'ir dardda tanho qolib bu mahal,
Ne yanglig' turarsan, e fe'li go'zal.

O'ZG'URMUSHNING O'GDULMISHGA JAVOBI

O'zg'urmish aytdiki: "jo'tam bu dam-a,
Mening qayg'u- g'anim sira ham yema.

Yaratgan yodi bas, o'shadir eshim,
Tashlab qo'ymagay u, etadir ishim.

Kimni ezu tutsa, o'zi qo'llasa,
To'kis bo'lidi bori neki ko'zlasa.

Juda yaxshi demish durust so'zli er,
Ko'p ishlar kechirgan, pishiq ko'zli er.

Vohid kinga qilsa inoyat, madad,
Keyin topgay axir sevinch beedad.

Qodir fazli kinga yetishsa tugal,
Unga ikki olam yetar mukammal.

Tashlab qo'ysa agar, e mard bahodir,
Baribir kuchukmi yoki bo'ridir.

So'z kesdi O'zg'urmish, dedi: ey qardosh,
Boraver, eson bo'l, sira to'kma yosh.

Ko'chishdi O'gdulmish bu O'zg'urmish-a,
O'poshib yig'lashib to'kishdi yosh-a.

Qayg'u bilan chiqdi u yerdan turib,
Otin mindi keldi uyga yuz urib.

Tushib kirdi uyga, qovog'i soliq,
Sevinchi juda kam, unda to'la g'am.

Tilagi bajomi, sevinch kuldirar,
Agar qayg'u kelsa, alam yig'latar.

Seviklmini topsa sevinar, kular,
Firoq chog'i-chi, bosar qayg'ular.

Goh visol yetkazar kishiga rohat,
Goh firoq yig'latar, toq bo'lar toqat,

Bu firoq hayotga alamlar suqr,
Firoq qayg'ulari dengizdan chuqr.

Tirkilar-ku oxir topishar yana,
Qidirib, kutishib qovushar yana.

O'lim oldida-chi, olam bechora,
Unga na iloj bor va yo bir chora.

Tirkilar firoqi yaqin yo yiroq,
O'limning firoqi yiroq bu firoq.

Bu she'mi o'qigin, qaragin, mana
O'qisang ma'nosi ochilar yana:

“O'limdir olamda eng og'ir firoq,
Firoqdan yosh to'kar ko'ruchchi qaroq,
Tirikka visoldan umid va ishonch,
O'lik-chi visoldan beshubha yiroq”.

O'gdulmish totindi, dam oldi biroz,
Keyin bajo etdi oqshomgi namoz.

Quyosh yerga indi, yashirdi yuzin,
Samo ham qoraydi, qidirdi izin.

To'shakka cho'zildi, yota bilmadi,
Alam qayg'u bilan ko'zin yummadi.

Sekin chiqди uydan, uning ko'ngli g'ash,
Olanning yuzi-chi misoli xabash.

Yana qaytg'a uyg'a, to'shakka kirib,
Alam ichra bo'lmas sira mizg'inib.

Yuzini yashirdi bu rumiy qizi,
Okam rangi bo'ldi xabashning yuzi.

Yeta bilmadi u, qaradi yana,
Hulkar ham og'ibdi, tugabdi tun-a.

Ko'zin ko'kka tikdi, boqib turdi kech,
Qora tun qoraydi, yorishmadi hech.

Biroz mizg'ib oldi joyidan turib,
Yashil ko'kka boqdi tikilib ko'rib.

Sharqdan qora qush ham baland o'rladi,
Go'yo yov qo'lida olov o'rladi.

Boshini ko'tardi yana yetikon,
Yildroqu ayg'ir og'ib u tomon.

Erantiz boshini egibdi quyi,
Quyosh bosh ko'tardi yuz ochgan quyi.

U turib yuvindi, tarandi toza,
Namoz bajo qildi dilini yoza.

Olam rangi bo'ldi go'yo oltin-oq,
Yolindek qizardi, qara, unga boq.

Tunin qiydi tezda otini tutib,
Saroyga yetishdi uyidan turib.

Jadallab kirdi u saroy ichiga,
Elig chorladi, u dami ichida.

Boqib ko'rdi elig, shu O'gdulmish-a,
Yoki tushdimikan, boshiga ish-a?

ELIGNING O'GDULMISHGA SAVOLI

So'radi, nechukdir, bo'tam, ahvoling,
Qayg'uli ko'rinar bugun jamoling?!

Nima yuk ko'tarding ko'ngilga bugun,
Nishoni ko'rinar — yuzingda tugun.

Nega sarg'ayibdi bu qizil yuzing,
Nega rang olibsan olamdan o'zing?!

Hali o'girmadi baxt sendan yuzin,
Vafosiz bu davlat tikar-ku ko'zin.

Qay aylanar-ku bu davron senga,
Xafalik boisi nima, ayt menga?

Senga tugmadim men bu qoshi, ko'zim,
Sening ishlarindan roziman o'zim.

Seni qiyndadimi yo biror odam,
Nega bo'imsa, ey, bu shuncha alam.

Alamning o'rnimi, hozir, dilafgor
Menga ayt, bilay-chi, fe'li barqaror.

Sal alam, mashaqqat yetsami senga,
Rohat-u farog¹ at qayerda menga.

O'gdulmishning eligga javobi

Bu O'gdulmish ochdi javobga tilin,
Qarindoshi holi nechuk ekanin.

Dedi borganin ham uni ko'rganin,
Ne tarzda nasihat, o'git qilganin.

ELIGNING O'GDULMISHGA SAVOLI

Elig dili yondi, oqdi ko'z yoshi,
Dedi: yo darig^{'o}, edi xo'p kishi.

Bag'ishlasin endi uning jonini,
Quritmasin undan eti qonimi.

O'gdulmishning Eligkka javobi

Yana dedi holi nechukdir uning,
Nechuk qoldira bildi ko'ngling sening.

Unga kim qaraydi, qani ayt-chi kim?
U yolg'izmi, bormi tabib yo hakim.

Nega sen yonida tura turmading,
Nega ahvolini ko'ra turmading?!

O'gdulmishning Eligkka javobi

Bu O'gdulmish, aytди eligga boqib:
Men unga o'tindim joniimni qoqib.

Rad etti o'tinchim, so'zim tutmadi,
Yalindim, o'tindim, kuchim yetmadi.

Arat nashridan keyin Q. Karimovda tushib qolgan baytlar

Elig dedi: asrar uni bir Xudo,
Xudoyim qo'lida kasalga shifo.

Xudoga bos egsa simiq har ko'ngil,
Yomonlik ko'rarmi kishi, jon o'g'il.

Olamdan burilsa agar qul yuzi,
Yaratganga faqat sig'insa o'zi.

Panohiga olar uni bir bayot¹,
Tilagin beradi, qozonadi ot.

¹ Bayot — "Xudo", "Yaratgan" ma'nosini beruvchi qadimgi turkiy so'z.

Bunga o'xshar endi, bu so'zni eshit
Ko'ngilga jo etu o'zinga ish et.

Xudoga sig'ingin, bo'lakdan yira,
Ko'ngil, tilni soz et, ko'zingga qara,
Bayot bergusidir tilaging tugal,
O'ziga talpingin, sig'in yolvora

Yana dedi elig: azizim, bo'tam,
Seni chulg'amasin alam, qayg'u g'am.

Ul ezgu edi-yu ezmular boshi,
Vafot etgan esa, bu — Xudo ishi.

Biz uchun ko'nikmoq bo'lar endi ish
Yaqin kelar endi bizga bu yumush.

Yigitlik behuda ketibdi, esiz,
Yirikroq ochaylik ko'zimizni biz.

Tiriklik degani bo'lar endi tush,
Uning shiddatidan o'char aql-u xush,

Bu qolgan hayotni begor qilmagin.
Havo-orzularga ko'ngil qo'ymagin.

Nima qilsa oxir o'ladi odam,
Nadomat ichida qolar so'nggi dam.

Bugundan yig'ib ol o'zigngni, qo'zim,
Budun baxtin o'yla, ayo oy yuzim.

Meni qutqar, o'zing bo'l omon,
Javob ham bo'ladi senga begumon.

Nima der, eshitgin, qiligi go'zal,
Xudo qullariqa hodiydir¹ azal.

Kishi ezmilikka gar ochsa quloch,
O'zzi ezmilikka yetar, ko'zni och.

Yomonlik qiluvchi o'ziga qitar,
Yomonlik javobi yomonlik bo'lar.

Yomonlik tilasang yomon bo'l, tamom,
Yomonlik ular, yomon bo'lar nom.

O'gdulmishning Ezmaga javobi

Javobda o'gdulmish dedi: E xoqon,
Ezgu o'git olsa odam har qachon,

Bari ezmilikka yetishar qo'li,
Ochiq bo'lar unga Xudoning yo'li.

Uzun umr ichida yashasin xoqon,
Unga fido bo'lsin shu tanu shu jon.

Olamda ololmas esa ezgu ot,
Behuda bo'libdi bari bu hayot.

Kutib turar o'llim seni tutgani,
G'ofil bo'lma, ochgin ko'zingni qani!

Juda go'zal aytar dononing tili,
Bu yanglig' bo'ladi donolik yo'li:

Pisib kutar axir ko'rinnas ajal,
G'ofilning ishini oson etar hal,
Yomon, yaxshi-bari qora yer bo'lur,
Haqiqat mana shu taqdirlar azal.

¹ Hodiy — to'g'ri yoi ko'rsatuvchi.

Elgining O'gdulmushga javobi

Elig der: bugundan keyin men faqat
Xudo bersa tavfiq, etay adolat.

So'zini tugatdi u ulug' xoqon,
Bu O'gdulmish bo'lар uyiga ravon.

Necha kecha-kunduz sezilmas uni,
Alam qayg'ularda kechardi kuni.

Qarindosh deya u o'zi qayg'urib,
Sariq bo'lди yuzi, uzoq oh urib.

Sog'inch ortib o'zin tutardi arang,
Yana keldi qayta borgisi qarang.

Elig huzurida yetishdi g'arib
Elig chorladi-yu ko'rindi kirib.

O'gdulmishning Eligga savoli

O'tindi eligga, dedi: ey xoqon,
Qatindoshni tilar ko'ngil bu zamон

Holi nechuk ekan, ko'rayin uni,
Tirik bormi yoki kesildi uni.

Elgining O'gdulmishga javobi

Borishing munosib bo'lar, — der elig,
Yaqinlik haqi ham shudir belgilig.

Bora qol, o'zimdan degil ko'p salom,
Salomat bormikan, qara, ko'nglin ol.

Xudo nomin aytib kelar uyiga,
Nimalar keladi uning o'yiga.

Yedi, ichdi ozroq, so'ng otin tutib,
Yo'l oldi ziyyarat sari qon yutib.

Yetib bordi, tushdi, qovushtirdi qo'l,
Eshik qoqtqi, diydor sari oldi yo'l.

O'zg'urmushning muridi

Qumaru uning
vafot etganini aytadi

Muridi Qumaru eshikni ochib
Salom berdi keyin ko'zi yosh sochib.

Yurib keldi dedi: ayo qarindosh,
Xudo bersin endi tavfiq-u bardosh.

Ko'chib ketdi o'zi, yetim — bu olam,
Sen uzoq yashagin, chekaverma g'am.

Fig'on chekma, etma joningga halak,
Tirikka chiqish yo'q o'limdan bo'lak.

Tug'ilgan o'ladi, aziz ion qolar,
Na beglar qoldi, na qul, payg'ambar.

Ko'zin tikar o'lim bizga doimo
O'limga shoh gado — bari barobar.

O'gdulmish eshiddi, egildi boshi,
Egildi, ezildi, oqar ko'z yoshi.

Qumarining O'gdulmishga ta'ziya izhor qilgani

Tushimdamo ko'rdim seni men yotib,
Ko'rakko rmasimdan yirading botib.

Qumaru yigitga dedi, e qardosh
Xudo hukmiga ko'n, to'kaverma yosh.

Bugun o'chgan esa qarindosh oti
Keyin bizga kelar o'lim navbatii.

Nega yig'lagaysen, birov urdimi?
Yo so'kdimi birov, nari surdimi?

Xudo berган edi unga tan-u jon,
Yana qaytib oldi, bu so'zga ishon.

Ul endi kelolmas qayta beriga,
Senu menga yo'l ham shudir — nariga.

Yuraqol, boraylik mozor boshiga,
Ziyorat qilaylik uning qoshida.

O'gdulmishning O'zg'urmish uchun aza tutishini aytadi

Turib bordi, quchti go'rin, vo darig',
Ko'zi yosh sochardi misoli ariq.

Dedi: e qardoshim, menga boq turib,
Alamlarim o'chsin yuzingni ko'rib.

Kusab keldim, axir seni ko'rgani,
Yuzingni yashirma, menga boq, qani.

E ko'nglim yorug'i, tanamizga jon,
Sening siz to'kislik toparmi jahon,

Eligning O'gdulmishga ta'ziya Izhor qilishini aytadi

Eshiddi-yu elig, qoshiga borib,
Ko'ngil so'rdi undan yonida turib.

Elig dedi: o'g'ilim, shu erur hayot,
Duo birla etgini endi uni yod.

Xudo yorlaqasini o'tgan barini,
Kechirsini boru yo'q gunohlarini.

Bu qayg'uga to'zim berar biru bor,
Bari jannat ahli o'lsin unga yor.

Eshiqing yopibsan yana yo'1 kesib,
Yuzig yashiribsan tilingni bosib.

Senga yarasharni bu yanglig' qiliq!?
Uquvli yo'llimas bu yanglig' yo'riq.

Senga kim tegindi yo ko'rsatdi kuch,
Yo kim do'q uraru qilar senga o'ch?!

Xudo hukmi edi, qarindosh ketdi,
Yuritdi kazosin-hayoti bitdi.

Nechun uliyapsan qari olamga
Bu qiliq yarashmas, axif, odamga.

Tug'ilgan o'lari baland past bo'lar
Yuruvchi tinaru beruvchi olar.

Qarindosh o'limi senga pand, o'git,
O'gidan ulush ol, ko'zing och, yigit.

O'lmlarni ko'rgan tirk qoluvchi
O'git olsin undan, qani biluvchi!

O'lim pandiga boq, deyar: ko'r buni,
O'lim turdi, ketdim, tutar u seni!

Bunga o'xshar endi donishmand so'zi,
O'qigin ko'ngilga jo et ko'zi:

"Sendan oldin o'lgan kishilar ming-a,
Bu pandni deyishgan menga, ha, menga.

G'ofillikda yurdim, ovundim mudom,
O'lim turdi, ketdim, kelur u senga" ...

Bu O'gdulmishini so'raydi xoqon,
Nechuk holati-yu holi bu zamон.

O'gdulmishning Eligga javobi

O'tindi eligga neki ko'rganin,
O'lishda vasiyat etib qo'yganin.

Turib rakva¹ birla tayog'in² olib,
Eligga uzatdi qumaru³ qilib.

Dedi: shu qarindosh menga qo'ygani,
Mana shu o'zidan bori qolgani.

¹ Pakva — ko'za, kashkul. Ba'zan u charmidan qilingan suv idishi sifatida ham talqin qilinadi.

² Tayoq — tayoq, hassa.

³ Qumaru — yodgorlik, meros; vasiyat, qilingan narsa.

Elingga ilindim ularning birin,
Bugun naf berar u yoki sal keyin.

Elingga O'gdulmishga javobi

Tayoqni qo'liga olib bu elig,
Dedi: bu qumaru nafi belgilig.

Senga rakva bo'l sin, mayli xotira,
Uni eslash uchun bu ham bir chora.

* * *

Bu O'gdulmish oldi rakvani o'zi,
Ko'ngil sindi, yosh sochardi ko'zi.

Elig dedi: ko'rgil, bu ibrat bugun,
Hayotga ishora bo'lar biz uchun.

O'shandog' yashadi, tugadi olam,
Osuda yashaylik endi, ey odam!

Nima deydi eshit, qillig'i go'zal
Uqquv ila mudom etar ishni hal:

Ko'paysa-da ortmas bu dunyo moli,
Ozi ham yetadi havo misoli.

Olam qusuri ko'p, fazilati oz,
Har odam yashaydi tasavvurga mos.

Talaying nafi yo'q o'limdan keyin,
Keyin keluvchiga bu sevinch tayin.

Holiga qarasang o'sha qarindosh
Kiyim juldur edi, oziq — arpa osh.

Yashadi xotirjam, alam bilmadi,
Olam mollarini ko'zi ilmadi.

Tirishdi tunu-kun, yo'q edi yuki,
Olamdan betashiyish ketar go'yoki.

U ishin bajardi, qutuldi bugun,
Ne bor peshonada? — Bu bizga tugun!

* * *

Ming egzu o'gitin dedi bu elig,
Yaqinlikka belgi bular belgilik.

Saroyiga bordi ozurda, g'arib,
Uyiga yetishdi alamli bo'lib.

* * *

Bu O'gdulmish etdi aza necha kun,
Marosimlar o'tdi, otar yangi kun.

Unutdi g'am, alam dog'ini biroz,
Ko'nika boschlari u, so'nar ehtiros

Juda yaxshi degan budun boshlagan,
Bilim, uquv ila ishin ishlagan:

Necha qayg'u alam seni tig'lasa,
Bu ko'z qayta kular, necha yig'lasa.

Olamning azali qonuni shudir:
O'tar yaxshi-yomon nasiba esa.

Yigit ham chiddadi buning bariga,
Alam qayg'ularmi surib nariga,

Bosiqlik bilan u ishin boshladi.
Demay kecha, kunduz ishin ishladi.

Eligning O'gdulmishga savoli

Eshitdi elig so'ng, o'rindan turib,
Ta'ziyatlar etti ko'ngli ko'p irib.

O'zingni bosib ol, — dedi so'ng xoqon,—
Duo birla etgin ishini oson.

Xudo yorlaqasim u rahmatlini
Egam bersin endi savob ajirini,

Eshik berkitibsan, yo'lingni kesib
Yuzing berkitibsan, so'zingni qisib.

Senga hech yarashmas bu yanglig' qilig'
Zakovatli tumas bu yanglig' yo'riq.

Senga kim tegindi, yoki qildi kuch,
Ko'ngil og'ritib yo senga qildi o'ch.

Xudo hukmi shunday, tushungin, jigar,
Yuritti qozosin, fe'ling qil digat.

Ne uchun qilursan bu qadar fig'on,
Bu to'g'ri tutummas, yomondir chunon.

Tug'ilgan o'ladi, baland bo'lar past.
Yuruvchi tinadi, necha qilma qasd.

Qarindosh o'llimi senga namuna,
Sabr qil-ki so'ngi shakar qand ila.

O'likni ko'ruchi qolarmi mangu,
O'gitni tutuvchi lozim. Qani u?

O'lik pandiga boq, deyar: Ko'r, meni,
O'lim tutti ketdim, tutar u seni.

Bularga monand ko'p she'rlarni o'qi,
Ular dili tubiga jo bo'lzin toki:

U dunyoga ketgan o'lliklar ming-a,
Ular o'git berar: "Nazar sol menga,
Qarindosh haqida ne ma'lum senga".

Elig dedi, O'gdulmish, ayt-chi menga,
Qarindosh haqida ne ma'lum senga?
O'lim tutti, ketdim, kelur u senga".

Eligga dedi u neki ko'rgamin,
O'lurda vasiyat etib qo'ygamini.
Turub rakva¹ birla tasbehin olib
Eligga uzatdi xotira qilib.

Dedi: shu — qardoshim menga qo'yimishi
Bu edi o'zidan meros qolmishi.

Elig olsin endi ularning birin
Xotirin shod etsin, ish bersin keyin.

Qo'lin cho'zdi elig bu tayeq sari,
Nafin bersin, dedi u, — o'zi singari.

Sen ol rakvani to tirikmiz, sira
O'chib ketmasin do'st nomi — xotira

Sekin oldi rakva bu O'gdulmisha,
Ezildi dili-yu, oqizdi yosha.

Elig dedi: ko'ring, bu ibrat bugun,
Unga boqsang endi ochilgay tugun.

U shunday yashadi, tugadi, olam —
Yana qoldi ortib, e keng fe'l bolam.

Nima der, eshitgin, fe'li muloyim,
Zakovat-la ishin qiluvchi doim.

Oshiq bo'lmas aslo bu dunyo moli,
Necha oz esa-da yetar a'moli.

Olam fazli ko'p-u quşurlari kam,
Tilagi ne bo'lsa kechirar odam.

O'limdan keyingi bu mo'llik nega?
Sevinar u uchun keyingi ega.

Yaqining qo'yib qochti dunyo molin,
Faqrilik ichida ko'rib kamolin.

Kechirdi turuklig, nomi o'chmadidi,
Yo'lib er kishilar moli kechmadi.

Sobit bo'ldi tun-kun, kamib zahmati,
Kechib bordi undan olam mehnati.

Hozirligin etti qutuldi bugun,
Bizning ish ne bo'lar — bu hali tugun.

Elig ko'p o'gitiñ eta berdi xo'p,
Vujudi berilib o'git qildi ko'p.

Saroyiga bordi bu elig turib,
Tushib kirdi uyga alamlı bo'lib.

Motam tutti ko'p kun bu O'gdulmish-a,
Kechirildi qayg'u, yozildi qosh-a.

Unutti u sekin alam qayg'unii,
Yuz urdi shodonlik, sevinchlar uni.

¹ Rakva — yuvinish uchun ishlataladigan charmdan yasalgan idish.

Juda yaxshi degan yetakchi yigit,
Bilimli, chorali, ko'makchi yigit.

Asir qilsa hamki olamning g'ami,
Kular yuz-u ko'zning ko'rinnmas nami.

Olamning qadimiy odati shudir:
Yomon-u tuzukining bo'larmi kami.

Motamin kechirdi, ko'r O'gdulmish-a,
Kuzatdi ishini etib andisha.

Hasislik bilan u ishin boshladi
Sahar bordi yana ishin ishladi.

Elating O'gdulmishga savoli

Chaqirdi yoniga bu elig uni
So'radi: ne ekan, xaloyiq kuni.

Dedi el holi ne: nedek yurt, zamон?
Nechuk kechayotir bu davru davron?

Munga ko'z-ziquoqsan, ishingga beshak
O'zing bosh erursan, ocha ber eshik.
Necha kunki senga yuz urdi alam,
Tega bilmadi qo'l ishingga, bo'tam.

O'gdulmishning eliga javobi

Javob berdi O'gdulmish aytdi: e beg,
Elig holi ezuq duo ortgudek.

Yashab o'tdi ne-ne biliimi shoyon,
Topa bilmadilar tiruklig shodon.

Go'yoki olamga kelmagan bo'lib
Qora yer qatida yotarlar ulib.

Ne turfa odamlar hayot edi, ko'r,
Qora yer ularni yedi ketdi, ko'r.

Bezangan saro-yu o'rdasin qo'yib,
Qora yer tubida yoturlar kuyib.

Ular uxlaganni yo borni tini,
Nechukdir holati biluvchi qani?

Alamda yoturlar, o'kinchlari ko'p,
Kusab ezzulgulgu sevinchlarни xo'p.

Xudo bergan ekan bu kun-u zamон
O'tkazib bo'larmi uni sal yomon.

Xudo bersin insof, qanoat mudom
Butun ezgularga, ey ezuq nizom!

Tilda duo qildi, O'gdulmish-a,
Dedi ey dono beg, uzoq yil yasha.

Olam qolmasin hech semingsiz qurug',
Xudo kesmasin hech o'zingdan urug'.

Nimani tilasang, tilagingni top,
Xudo senga qilsin madad ushbu tob.

Nima bo'lisa orzu tilaging yana,
Beraversin Alloh tugal, rosmana.

Sevinch-u ovinchda yashagin o'zing,
Shodonlik nuriq qorilsin ko'zing.

Ming afsus semingdek kishilar o'lib
Qora yerda yotsa suyagi chirib.

Ne iloi, olamning ishimi Xudo
Shu taxlit yaratgan, e sohib ado.

Joni mangu bo'lar odam asli yo'q,
Biroq ezgu nomli ketar ko'ngli to'q.

Xohi o'l, xohi yashagin uzoq,
Noming ezgu bo'isin el aro biroq.

Sevaring ko'paysin-u seymaslarining
Sochilsin butunlay, kengaysin yering.

Yer o'pti, turib chiqdi, kesdi so'zin,
Otin mindi, burdi uyiga yuzin.

Kelib tushdi, kirdi uyga bu mahal,
Yegan bo'ldi ul-bul, orom oldi sal.

Yana turdi erta, ishin boshladi,
Yo'riq berdi, ko'rди, o'zi ishladi.

Ko'ngil til bir etti, u tuzdi yo'riq,
Butun egirlar ham soz etti qiliq.

Yashardi bu olam, ko'paydi duo
Quvongan har dilda duo beado.

Ular o'tti, qoldi faqat ezgu nom,
Yarashar bu nomga tugal ehtirom.

Ko'ra bergen endi, bu yanglig' kishi
Odammi bo'lur, bu — farishta ishi.

Odam deb atalsa ular u zamон,
Nimadir bugungi bu xalq — olomon.

Agar bizni odam sanamoq kerak,
Ularni farishta demaklik beshak.

Ular raftorini, fe'lini begam
Bilib, bejiz ulug' lagan emas-da egam.

Uquvli uqar-u bilimli bilar,
Odam-ku o'ladi, bu dunyo qolar.

Topilgan shoningni begor qilmayin
Ibodat qila tur, o'kinmay keyin.

Bulardan ulug' pand yana ne bo'lar,
Bor ajdod ketadi, buni ko'z ko'rар.

Qolur barcha saroy, hashamat to'liq,
Tuta bilmas odam uni, ey ulug'.

Ne-ne pishiq o'rda, saroyning bari
O'limdan buzildi, guvoh — yer qa'ri.

Ne shahar, ne qishloq, ne bog'-u bog'ot
O'limdan buzildi, ey o'zi hayot.

Qolur barcha o'rda, saroy, bog' senga
Olib sen tutarsan, bu pand bas menga.

Behisob bu lashkar egasi qani?
Ular qoldilar-ku bo'lib yer soni.

Qani u suq elchi, elim oz dedi,
Ko'p el oldi, ammo yeya bilmadi.

Qani u zo'ravon, ko'z-u ko'ngli och
Nasibasi bo'ldi shu yer bir quloch.

Qani u musulmon qonin to'kkuchi
Qalay kirdi yerga, qayerda kuchi!

Qani u olamni ezuvchi kishi,
Qora yer ichida azobdir ishi.

Qani u berib jon shu dunyo uchun
Turib qoldi dunyo ko'ra bil kuchin.

Qani u tinimsiz tovar yig'guchi?
Bo'z o'ldi libosi, achinsin ichi.

Qani u oshiq yer tilagan kishi,
Qora yer yetishdi, qilindi ishi.

Jahon tarzi mudom faqat shu kabi
Zakovatli uchun yaqin matlabi.

Rohati — mashaqqat, sevinchi — azob,
Sharafi — so'kish-u ovunchi-xunob.

Ne kelsa yut ichga, oh-u voh dema,
Rohatning azobi keladi yana.

Eshitgin nima der bilim berguvchi,
E sen, qayg'u ila sabr qilguchi.

E ne'mat egasi, shukr qil, yegil,
E mehnat egasi sabr qil, egil.

Sabr qilsa mehnat bo'lur ne'mating,
Shukrdan forig'lik, shuni bil, degin.

Zamomni kuzatgin oyoq-boshgacha:
Bugun ish bo'libdi tamom boshqacha

Bilimli xarob-ku, avaylar o'zin,
Dono lol-u soqov, ochoholmas so'zin.

Ko'paydi el aro yaramas kishi,
Yuvosh qoldi chetda, egilgan boshi.

Yuvuqsiz, yaramas, namoz qo'yguchi,
Botir deb ataldi, zo'raydi kuchi.

Fasodchi bahodir ataldi nuqlu,
May ichmas kishining otidir baxil.

Namoz, no'za birla yuruvchi kishi
Munofiq atandi, ey elchi boshi.

Halolining o'miga sekin, birma-bir,
Harom keldi, yana yomon, ko'ngli kir.

Halol oti qoldi, nishonasi yo'q,
Haromlar ko'paydi, nihoyasi yo'q.

Qani bu haromni harom deguvchi
Haromni qoyib bir halol yeguvchi.

Nomusli degan bir odil ezzuni
Nahotki ko'rarmiz qiyomat kuni.

Harom ila g'oyat qoraydi ko'ngil,
Halolni qayerdan topay, ey o'g'il.

Bunga mos kelibdi mana ushbu so'z,
Buni yaxshi tingla, ayo ko'nghi tuz¹.

Harom birla ko'nglim qaro bo'ldi, kir,
Bilinga amal yo'q olam ichra bir.

Bu nafsim qul etti, havasim — asir,
Toatga toqat yo'q, diliq ochsa sir.

Olamdan ish ortar qora boshga ko'r,
Odam tili boshqa, dili boshqa, ko'r.

Vafo ketdi eldan, jafo tolmadi,
Ishonchli bir odam qani — qolmadi.

Butun elga qo'ydi shu jafo qadam,
Ishonchli-yu sobit qani bir odam?

Jigarporalikni yo'qoldi yaqin,
Og'ayni tan olmas yaqinlik haqin.

Ulug'da bilim yo'q, kichikda adab,
Yomonlar ko'paydi, tugamas sanab.

Yaqinlik faqat bo'ldi yarmaq² uchun
Qani ish qiluvchi odil haq uchun.

Omonat oti bor, qiluvchi qani,
Nasihat so'zi bor, tutuvchi qani!

Qani amri ma'ruf qiluvchi kishi
Qani nahy-u munkir tiyuvchi kishi.

¹Tuz — bu so'z "tuz", "namak", "dala-tuz", "to'g'ri", "halol" ma'nolarida qo'llangan.
²Yarmaq — pul.

Sotuvchi yo'qoldi omonatlarin,
Hunarmand yo'q etdi nasihatlarin.

Bilimli ochiqroq deyolmas so'zin,
Ayoldan uyat ketti, yopmas yuzin.

Saxo o'min oldi past-u tuban o'y,
Qani bir toatli, sobit, Xudojo'y.

Jamoat ko'p edi, bu masjidlar oz,
Machit-ku ko'paydi, jamoatlar oz.

Kishi zotu pulning qulli bo'lildilar,
Kumush kimda bo'lsa, bo'yin berdilar.

Nima der eshitgin nomusli kishi,
Bu so'zga qulog tut, e ezzu boshi.

Qani to'g'rilikni qiluvchi, qani,
Ko'ngildosh,
Xudojo'y yuruvchi qani?
Bu olam butunlay buzuldi, axir,
Ko'rib buni hayrat etuvchi qani.

Muslimmon-muslimmon uchun o't-balo,
Kofir-chi oromda farog'at aro.

Muslimmon moli-ku toroj-u talon,
Qani u sarishta deyilgan falon.

Fasod-fisq shovqini kuchayar kecha
Qani ilmi Qur'on, ovozi — picha.

Ko'ngil-temir-til biram yumshadi,
Adolat yo'qoldi, sezilar hidi.

Otalik qilur, ko'r, otaga o'g'il,
O'g'il beg bo'lib, ko'r, ota bo'ldi qul.

Tirklik azob-u, uzaydi alam,
Xasislar ko'paydi, kamaydi beg'am.

Yetimlar holini biluvchi qani,
Yomonga javoblar qiluvchi qani.

Juda yaxshi degan donishlari keng,
Saxiy-u donoga kim bo'ladi teng!

Olam bo'ldi oxir,adolat tamom,
Yomonlar ulashdi razolat tamom.
Uquvchi uqaru bilimli bilar,
Yil, oy, kun oxiru jaholat — tamom.

O'g'il-qizga bir pul ota hurmati,
Kishiga haqorat qarilik otı.

Butunlay buzuldi qoida qonun,
Qorishdi qora-oq to'la, bus-butun.

Bu barcha Ulug' kun¹ nishoni erur,
Nishoni ko'rinsa keluvchi kelur.

Xudo asrar esa bu imonimiz,
Tugaydi bu fitna, balo, yomon iz.

Yil oltmish iki edi to'rt yuz bilan,
Tugattim kitobni nozik his bilan.

Bilim yetganicha dedim bemalol,
O'qib anglaguchi, o'zing ulush ol.

¹ Ya'ni qiyomat kuni.

Nechog'li lozimdir yo'rig'ing, yo'ling
Deya berdim ozroq, qurug'ing-ho'ling.

Budir din yo'li ham bu dunyo yo'li,
O'ngidan boraver, yo'qolsin so'li.

Bu dunyoni desang, so'zi ushbudir,
Oxiratni desang, izi ushbudir.

Og'ir bo'l, beradi Xudo senga kuch,
Tilaging ne esa o'sha yo'lda uch.

Iloho, bu so'zim hech o'lmadi kam,
Tilagim ne edi bilarsan, egam.

Tilamadim aslo sharaf, shon-u ot,
O'qisa dedim bas, yaqin yoki yot.

O'quvchi o'qisa zamonalr o'tib,
Duo qilsamikan meni yod etib!

Tilagim shu edi, umidim-da shu,
O'qigan duosi kifoya mangu.

Tilim so'zladı so'z, yozishdi qo'slim,
Tugar bu so'z-u qo'l, fe'lì muloyim.

Qo'l-til nishoni mana shu kitob
Xotira bo'ladi, e sohib odob.

Unitma meni, ey o'quvchi, tirik,
Agar o'lsam o'zim, qaro yer — sherik.

Ayo mangu mungsiz egamsan ulug',
O'zing yorlaqagin quilingni to'liq.

Adashgan qulingman, gunohim begam,
Gunohim kechirgin, o'zing, ey egam.

Qulingman, egamsan, qul oti qul ey,
Qodir bir egamsan, egalik qil-ey.

Qulingman, egamsan menga, ey g'oifr,
Meni yorlaqagin, gunohim kechir.

Mo'minlarni olgin panohga, Xudo,
Bu Mag'rib-u Mashriq eligacha to.

Yomonman, yomondan yomonlik qolur,
Azizsan, fozilsan, gunohim kechir.

Ipordan iporing hidi keladi,
Paliddan yomon hid doim yeladi.

Umidim o'zingsan menga, ey umid,
Umid bog'lagayman senga, ey umid!

Gunohkor qulingman qilarman jafo,
Vafodorda vafo qachon bo'ldi kam?

Jafokor ravishi jafo, ey egam,
Ular deb gunohim bag'ishla doim.

Mo'min ahlin qo'lla o'zing, Xudoyim,
O'sha yo'l ko'rsatuchi Rasulga, Xudo!

Tuman ming salomim Rasulga, illo,
Tegizzin Xudoyim, to'la, vassalom.

Yigitlikka achinib,
qarilik haqida aytadi

Yuruvchi bulutdek bugun yo'q yigitlik,
Shamol-u bo'rondek tugar tiruqlig.

Esiz yigitligim, esiz yigitlik,
Tuta bilmadim men bugun bosh egik.

Yana qayta kelgin, yigitligim, sen,
Boshimda ko'taray, poyondozing — men

Yigitligim esiz, ne yerga borar
Birov topdimikan, magar yolborar?

Tirkilik huzuri, sururi faqat
Yo'qoldi, jonida — alam, oqibat.

Kichikligi faxr-u, keyin shon — sharaf,
Barisi yo'qoldi, qayga bo'ldi daf?

Qarilkida qo'r yo'q, qadim bo'ldi xam,
Behuda yo'qolgan hayotdan alam,

Achinib qarayman senga, yigitlik,
Butun ko'rk, chiroyim yitib-bitgulik.

Qizil yuzli edim go'yo arg'uvon,
Za'faron o'radi ularmi bu on.

Ipor¹ rangli sochim kofunga² badal,
To'lin oy — yuzim ham so'libdi jadal.

¹ Ipor — ayrim hayvonlar, xussusan, kiyikning bezlariidan olinadigan xush-bo'y modda; ko'chma ma'noda qora rangni ifodalaydi.

² Kofur — g'oyatda oq va xushbo'y modda. Ko'ch..oq rang.

Yorug' yozdek edim chechaklarga boy
Xazon fasli bugun hokim, hoynahoy.

Qayindek bo'yim-chi uchar o'q misol,
Egildi yoysimon, qani u jamol?

Tirikligim, esiz, oqar ariqqa,
Ko'z yoshim bo'yaldi qizil-sariqqa.

Bolalik yo'qoldi, yigitlik qani?
Topilmas biror kuch madad bo'lqani.

Yemak-ichmagimga hayvon qoldi lol,
Tilak quvib tanda bugun yo'q majol.

Solib qush, ov ishin etardim bajoo
Uchar qushdek otim¹ qani, ajabo?

Adash, qo'ldoshimga edim sevik jon,
Yovuz dushmanimga asov, beomon.

Kichig-u ulug'ga ko'tarib ovoz,
Gunohsiz nechaga qo'l bo'ldi daroz.

Kerildim yovuzni yiqitgan kabi,
G'o'daydim qoyadek — g'urur sohibi.

Ichib yotgan erdek o'zimga keldim,
Yo'limni yo'qotdim, uyaldim, o'ldim.

Xudo toatinmas, kishiga toat
Qarangki men uchun bo'libdi odat.

Tilak-orzu ila yugurdim, yurdim.
Quturgan bo'ridek o'zimni ko'rdim.

Birovning molidan hazar qilmadim,
Nomus-u andisha ishin bilmadim.

Agar so'rasami Xudoyim biriov,
Javobga so'zim yo'q, tilim-chi — soqov.

Nodon, telbadan-da bo'libman yomon,
Yo'qolgan umr deb qiynaladi jon.

Sevinch o'tdi, o tar mashaqqat-u g'am,
Abas bo'lidi hayot, dil to'la alam.

Faraz qil: yo Kisro², yo o'zim Qaysar³,
Yo Shaddod-u⁴ Odga⁵ fe'lummi o'xshar?

Olamni ham oldim go'yo Iskandar⁶,
Yashadim olamda Nuh⁷ yoshi qadar?!

O'zim Haydar⁸ edim, qilichi-yashin,
Yo Rustam⁸ o'zim-u yog'ildi — chivin.

¹ Kisro — No'shiravonning laqabi. U "Xustrav"ning arablashgan varianti hisoblanadi. U chek-u chegarasiz mulk egasi sifatida mashnur o'lgan.

² Qaysar — podshoh, Rum podshohi. "Sezar"ning Sharqdagi ifodasi.

³ Shaddod — Odning farzandalardan biri. Jannatni bu dunyoda yaratish ishitiyoji bilan yashagan va afgonalarga ko'ra, buning uchun uch yuz yildan ko'proq vaqtini sarflagan. U xudolikni da'veo qilgani uchun qattiq jazoga giriftor bo'lgan.

⁴ Od — Son ibni Nuhning farzandalardan biri. U mansub qabila ham shu nom bilan yuritilgan. O'z zamonida dunyoda undan kuchli va quadrati hech kim bo'lmagan.

⁵ Iskandar — tarixiy-afsonaviy shaxs. Filip (Faylaqus) Maqduniyning o'g'li. Yunon muarrizlari uning aijoddalarini Gerakl va Axillga bog'lashadi. Sharqda arab, fors va turkiy xalqlar tarixchilar u haqdagi ko'plab afsona-Imi yozib olishgan. Firdavsiyning "Shohnoma"sida, Nizomiydan boshlab esa ko'plab "Xamsa"larda bu obrazning badiy tasvirlari berilgan.

⁶ Nuh — u uzoq (yil) umr ko'rgan payg'ambarlardan biri hisoblanadi.

⁷ Haydar — kuchli sher yoki arslon. Hazrati Alining laqabi.

⁸ Rustam — "Shohnoma"dagi mashnur qahramonlardan birining nomi.

Yana ko'rkka chiqdim missoli Iso¹,
Yoki adolatda No'shirvon² go'yo.

Na Qorun³ moldiek xazina basar
Na as'hobi Ra'sdekk qurildi shahar.

Yana yerga qaytish bo'lar so'nggi so'z,
Olam qolar, senga tegar ikki bo'z⁴.

Yalong' och kelinar, ketish — yalong'och,
Nega shunda bu ko'z hamon, hali och!?

Kechar dunyo kechdi misoli bo'ron,
Nechun yopishibman ularga chunon.

Mengaf beruvchi bir ishim qani?
Har kishi nasibi o'zi ekkani.

¹ Iso — payg'ambarlardan birining nomi, Maryamning farzandi, Afsonalarga ko'ra, "U Isroiil qavmini o'z dinigiga da'vat etadi. Ular buni qabul qilish o'miga undan mo'jiza talab qilishadi. Iso ularning talabi bilan o'llikni o'z nafasi bilan tiritiradi. Uni yo'q qilmochchi bo'lshadi. Iso qochadi, ammo havoriylardan biri o'tuz diuham evaziga uni ko'rsatib beradi. Ular Isoni qo'lg'a olmoqchi bo'lganlarida ilohiy madad bilan ko'zga ko'rinnmay qoladi va o'zlarining sarkardalari Ishuni Iso qiyofasiga kiritib qo'yadi. Ular Ishuni Iso guman qilib, qo'lg'a olishadi va xochg'a tortishadi. Maryam dor ostiga borib, zor-zor yig'laydi, zero, u ham o'g'lini xochga tortilgan deb o'yardi. Yetinchi kechasi onasiga tasallii berish uchun u yerga qaytadi. Havoriylarning yetti nafari o'sha kechasi Isoni ko'rishadi va sahangacha u bilan birga bo'lishadi. Sahar chog'i Iso yana osmonga qaytadi" (Nasriddinov. A. Kulliyoti osor. Dar haft mujallad, jildi 4, — Xujand, "Xuroson", 2013, s. 384.)

² No'shirvon — 531–579-yillarda sosoniyilar hukmdori bo'lgan. U shunday quadrati davlatini barpo etgan ediki, oxir-oqibatda Rum qaysari ham unga bo'ysungan. Anushervoni odil, Kistro, "No'shirvon", "Xistravi Anushervon" nomlari bilan mashhur bo'lgan. (O'sha kitob, 222 bet)

³ Qorun — Musoga asidosh bo'lgan, Bani Isroiil qabilasiga mansub, boylik nuqtayi nazaridan chek-u chegara bilmaydigan shaxs nomi. Xazinalarining umumiylaj hajmimini tasavvur qillish uchun unda to'rt yuz mingdan ortiqroq xazinalarning kaliti borligini qayd etish kifoya qildi.

⁴ Ikki bo'z — ikki gaz bo'z mato — kafan nazzarda tuttiladi.

Nima ekkan esam uni ushладим,
O'rilgan ekindan ko'ngil xushладим.

Yigitlik yo'qoldi, qarilik kelib,
Qabul tavbagaga yo'q, u uchar yelib.

Uzun tunda yotma, egamanga topin,
Bedor bo'l, tot et, sira olma tin.

Ilon, qurt-qo'ng'izga yem bo'lar tana,
Hayotni shu uchun beribman, mana.

Ayo g'ofil, o'kir, yig'la multtasil,
Xudoga toat qil, haqiqatni bil.

Qarilik kuch oldi yigitlik yirab,
Halovat yo'qoldi oyoq qaltirab.

Qari dunyo tortdi domiga doim
Tuyilibdi qahri menga muloyim.

Yo Rab, uyg'ot endi quling bemajol,
Meni chetga surma, panohingga ol.

Gunohim kechirgin, yo'lingni tuttim,
Meni qo'lla, garchi seni unuttim.

Zamon buzuqligini do'stlar
jafoсини айтади

Turayin, borayin, kezayin olam,
Olamda kim ekan vafoli odam!

Chin odam qayerda, qidiray, topay,
Topolsam qo'lini, yuzini o'pay.

Ushaldi bor orzu, chin odam-chi yo'q,
Topilsami ko'ngil bo'lar edi to'q.

Vafo bo'ldi qahat, jafo ko'paydi,
Vafoli birovni ko'zim ko'rmaydi.

Agar topsam edim vafoli kishin,
Boshimga ko'taray, qilay bor ishin.

Topilmasa agar vafoli odam
Kiyik ila tog'da yashay ushbu dam.

Yemish — tomir, ichmак — yomg'ir suvlari,
Yotishga kifoya qum tepalari.

Yo vahshiyilar ila makon — biyobon,
O'zim, mayli, ketay odam yo'q tomon.

Bu ham yetmas esa qayon boqayin,
Shamolday to'ziyin, suvdek oqayin.

Vafo ahli yo'q-ku olamda, egam,
Topilsaydi agar beray jomni ham.

Odam oti qoldi, o'zi yo'q ro'yo,
Vafo ahli butun qirilgan go'yo.

Odamda topilmas biror mehribon,
Yovuzlikka to'ldi bu yorug' jahon.

Yaqin tutsam agar kishin ko'z misol,
Uning fe'li shayton bo'lar bema'lol.

Birin sevib unga nisor etsa jon
Jafo keldi undan, qayerda imon?

Kishiga alomat tili ham so'zi,
Ko'ngil ola esa, kim bo'lar o'zi?!

Asil esh bo'lisinga qani bir odam,
Yaqin do'st, birodar qani ushbu dam?

Ko'ngil kimga berib, mungimni ochay,
Yorilay yonida, yoshimi sochay?

Yaqin-u yoyuqda ovunch ko'rmadim,
Qarindosh urug'da sevinch ko'madi.

Kafolat bo'lolmas ushbu kun qasam,
Qasanga sodiqqa joning ber, jo'ram.

Tuz-u non haqini kim etar ado?
Bu xil odam uchun mol-u jon fidо.

Sevinch qayg'ularga qani qayg'udosh?
Qani bir yaqinim, qani tuyg'udosh?

Birodar-u do'stga beradi kim yon,
Uni beg, o'zimni qul etay bu on.

Chinakam odamni topolmay biroq
Yig'iga yaqinman, sevinchdan uzoq.

Bo'lak bo'ldi bu xalq, buzuldi qonun,
Zamon aynidimi — ne bo'lди bugun?!

Yo'limni yo'qotdim, uchar boshda xush,
Bori ko'rganim shur: yo ro'yo, yo tush.

Yo saydo kuchayib, miyam aynidi,
Ko'zim ham timadi — davo ne edi?

Menga uchradimi yomonning bari?
Yo o'zim yomonman, tamom teskarri!

Qani u odamlar asil, sarasi,
Ko'rimmaydi bugun vafo qorasi.

Ko'rinib qolarkan nishon mabodo,
Bu ham asli, bilgin, moziydan sado.

Ular aytsa edi: ne ezgu odat,
Yomon emas, ezgu topar saodat.

Bari ezgu ketdi, nizom tugadi,
Yaramas yovuzning kuni tug'adi.

Odam deb atalsa bularning bari,
Farishta ekan-da o'tgan yosh-qari.

Azizlar yitishdi, yomonlar trik,
Ne aybim qilibdi bularga sherik.

Nega so'zlamayin — tugamaydi so'z,
Yana yaxshi tezroq yumilsaydi ko'z.

Bulardan ko'rinar yana yaxshiroq,
To shahar bo'lmasa, ovul yo qishloq.

Otim bilmasinlar, meni ko'rmasinlar,
Ishim qilmasinlar, qonim so'rmasinlar.

Chayondek chaqarlar, chivindek so'rib qon,
Ko'pakdek hurarlar, azob chekar jon.

Ulidim, o'kindim, peshonada sho'r,
Yomonlar bo'lib fil, men misoli mo'r

¹Mo'r — chumoli.

Nechun manglayimda bu qadar jafo?
Noloyiq, tubandan asra, ey Xudo!

Rasuli akramni qil o'zing panoh
Yana to 'rt eshiga meni qil hamroh.

KITOB EGASI YUSUF ULUG' HOJIB O'ZIGA PAND BERADI

Bilimdon kishiga o'rin bo'lди to'r
Bilimli — buzilmas bino, deya ko'r.

Bilimsiz yurak, til yarar nega ham,
Bilim suv misoli kerak damodam.

Bilishda davom et, qidir, tilagin,
Bilimli tilakka yetishar tayin.

Bilarman desa kim — bilimdan yiroq,
Donolar ichida nodon u biroq.

Bilim bir dengizdir, yo'q oxir, boshi,
Qancha suv ko'targay sinchalak qushi.

Bilimlar bilan-ku boshing aylanar,
Biroq o'zligingga qachon yo'l bo'lar?

Bilim bil, kishi bo'l — boyisin bu ruh,
Yo hayyon atalgın — cho'lda sur shukuh.

Bilimsiz yechilmash tugundir, tugun,
Go'yo shod yuradi mudom tun-u kun.

Bilimli kishanda¹ yomondan yiroq,
Bilimsiz kishani uzilar shu choq.

¹ Kishan obrazini Yusuf Xos Hojib har xil yomonliklardan asrovchi vosita sifatida qalama qolgan olgan.

Qo'llimni uzattim bilmuni tilab,
Go'zal tizma qildim ularni ulab.

Go'yo tog¹ kiyigi bu turkiy so'zim
Qo'llimga avaylab o'rgatdim o'zim.

Silab siypaladim, so'ng berdi ko'ngil,
Yemish chog'i hanuz hurpayadi ul.

Izidan borishga toki tolmadim,
Ipor hidllaridan benaf qolmadim.

So'zlarimni to'g'ri dedim, gar dag'a'l,
Buni ko'tarolgay chin er bu mahal.

O'quvchiga sira og'ir kelmasin,
Mening mehnatimni oson bilmasin.

Faqat to'g'ri so'zdir menga chegara
Bu yolg'on-u rost so'z farqi oq-qora

Yil oltmish ikki-yu yana to'rt yuzi¹,
Bezandi so'zimdan bu olam yuzi.

Tugal o'n sakiz oy o'tib bu mahal
Kitobim nihoya topibdi tugal.

Bahoriy chechakdek muattar hidi
Deganim, kitobxon, mana shu edi.

Olamda talay so'z, tugannas biroq,
Axir oqqanida tugar qay buloq?

E Yusuf, deya ber kerakli so'zing,
Keraksiz so'z aytсанg kuyarsan o'zing.

¹ 462-yil kitobining hijriy sanada yozilgan yili. U milodiy sanada 1069-1070-yillarga to'g'ri keladi.

Talay so'z devilsa ozayar ma'ni,
Talay so'z qochirar sendan hammani.

Ishonch yo'q olamga, udir bevafo,
Uquvli, uzoq tut o'zni mutlaqo.

Sen o'zing yopishding olamga juda,
Ko'ngil bog'lamagin unga behuda.

Emin bo'lma unga, ko'zingga qara,
Xudoga ko'ngil ber, sig'in yolvora.

Talay xalqni olam yo'qoldi tugal,
Hozir bo'l, yetishar senga endi gal.

Kulib boqadi u, seni chalg'itar,
O'zing qo'lga olgin, yetar qayg'ular.

Olam oldim degan ne-ne azamat
U dunyoga ketdi alamda faqat!

Yigitlik behuda, abasdир kunim,
Tirkilik tugar-u tugaydi timim.

Necha ming yashama — oxiri o'lim,
Necha mol yig'ildi.

Qani? Bo'sh qo'lim!

O'zingga sig'indim, o'zing astragin,
Tazarru qilurman, toatlarim chin.

Uyatsiz qulgingman, talay gunohim,
Hayot so'nggi kelar, o'zing — panohim.

Huzuringda o'zim gunohkor, g'arib,
Sig'inib kelurnan bugun yolvorib.

Nimaga ishonding, ayo mungli jon?
Ko'z yopiq edimi yo avvar jahon?

Yo'lingni tuzatgin, yasha chin, halol,
O'zingga munosib o'rinn-joyni ol.

Alam-g'amga to'la ekan bu olam,
Olib qolmas, axir, sira meni ham.

Tiling tiy, ko'zing och, g'ofillikni ot,
Ko'zing yum, quloq yop, o'tar bu hayot.

Yo Rab, yorlaqagin mo'minlar zotin,
Yoritgin nuring-la quling hayotin.

Tuman ming salomlar rasulimizga,
Hidoyati toki yetishsin bizga.

"Qutadg'u bilig"¹ kitobi tarixning sakkiz yuz qirq uchinchi yili-
da, qo'y yilining Muhamarram oyida Hirotda tugadi.¹

AHMAD YUGNAKIY



¹ Bu sana milodiy yilga to'g'ri keldi.

da yozilgan bu kitobni shoir mahorat bilan nazm rishtasiga tergan. “Qutadg’ u biling” dan bir-ikki asr keyin yaratilgan bu asar qadimiy va boy turkiy adabiyotning noyob durdonasi hisoblanadi. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida Adib Ahmadga alohida o’rin ajratib, ham shaxsi, ham ijodi xususida yuksak fikrlarni bildirishi uning ham zabardast so’z ustasi, ham mashhur tasavvuf namoyandasi bo’lganligidan dalolat beradi¹.

Shoir tug’ilgan joy olimlar o’ritasida ko’p tortishuvlarga sabab bo’lgan. Samarcand, Farg’ona va Turkistonda Yugnak degen joy borligi aytilsa-da, ko’pchilik uni Samarcand atrofida deyishga moyil va keyingi davrlarda ilmiy muomalaga kiritilgan adabiy-tarixiy manbalar bu fikrning to’g’riligini tasdiqlayapti. Jumladan, XII asrda yashagan mashhur tarixchi Abdulkarim as-Sam’oniy “Al-Ansob” (“Nasabnama”) kitobida yozadi: “Yug’ anak — Samarcand qishloqlaridan. Abu Homid Ahmad ibn Abu Ahmad al-Yug’ anakiy bu nisbat bilan mashhurdirlar. Bu kishi Samarqand ahliidan. Sohib ibn Muslim al-Balkhiy, Abdurahim ibn Habib al-Bag’dodiy va Abu Is’hoq Ibrohim ibn Is’hoq as-Samarqandiydan hadis rivoyat qilganlar. O’zlaridan esa Abdulloh ibn Mas’ud ibn Komil as-Samarqandiy hadis rivoyat qilganlar”².

Bu ma’lumotlar Adib Ahmadning Samarqand atrofidagi Yug’-anak qishlog’ida tug’ilganligini oydinlashtiribgina qolmay, uning nafaqat zabardast shoir, ayni paytda, mashhur muhaddis ham bo’lganligidan xabar beradi.

Adib Ahmad tug’ma ko’r bo’lgan. “Tug’ a ko’rnas edi Adib-ning ko’zi” (95), — deyiladi bu haqda asarga ilova qilingan nom’lum shoirning to’rligida. Lekin, Navoiy ta’biri bilan aytganda, u nihoyatda ziyrak va zakiyli bilan ajralib turgan: “Ammo bag’ oyat ziyrak va zakiy va zohid va muttaqiy kishi ermish. Haq subhonahu va taolo agarchi zohir ko’zin yopuq yaratqandur, ammo ko’ngil ko’zin bag’ oyat yoruq qilg’ondur... Va aning tili turk alfozi bila mavoiz-u nasoyihqa go’yo ermish. Xeyli elning muqtadosi er-

¹ Qarang: Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Mukammal asarlar to’plami. Yigirma jildlik. 17-jild. — Toshkent: Fan, 2001, 426-427-betlar.

² Abdulkarim as-Sam’oniy. Hasabnomma (Tarijmon Hoji Abdulg’afur Pazoq Buxoriy, Komiljon Pahimov). — Buxoro, 2003, 199-bet.

AXLOQ MUALLIMI

XII asr oxiri — XIII asr birinchi yarmida yashab ijod qilgan, “Hibat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar tuhfasi”) asari bilan o’zbek adabiyotida o’ziga xos o’rin tutadigan ulug’ shoir va mutafakkir Adib Ahmad Yugnakining tarjimayi holi haqida juda oz ma’lumotga egamiz. Asarining faqat bir yerida u o’z nomini tilga oladi:

*Adib Ahmad olim, adab-pand so’zum,
So’zum munda qolur, borur bu o’zum!*

“Hibat ul-haqoyiq” qa Adib Ahmad shaxsi, hayoti va faoliyatining ayrim nuqtalarini oydinalashtiruvchi nomalum bir shoir va Amir Sayfiddinlarning to’rtliklari hamda temuriy amaldorlardan Arslon Xo’ja Tarxonning 10 baytlik masnaviysi ilova qilingan. Masnaviyda, jumladan, quydagi ma’lumotlarni o’qiyimiz:

*Adibning yeri oti Yugnak erur,
Safoliq ajib yer — ko’ngullar yorur.*

*Atosi oti Mahmud Yugnakiy,
Adib Ahmad o’g’li — yo’q ul hech shaki.*

Kitobining oti erur “Hibat ul-Haqoyiq” — iborat adabdin o’shul.

*Tamomi erur koshg’ariy til bila,
Ayitmish Adib riqqati til bila (96–97).*

Ma’lum bo’ladiki, Adib Ahmad Yugnak degen so’lim va bahavo joyda tug’ilgan. Otasining oti Mahmud Yugnakiy bo’lgan. Kitobining nomi arabcha bo’lib, “Hibat ul-haqoyiq”. Koshg’ariy til-

¹ Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq (Hashrga tayyorlovchi Q.Mahmudov). — Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1971, 93-bet. Keyingi missollar ham shu nashrdan olinib, sahifasi qavslashtiriladi. — E.O.

mish. Balki aksar turk ulusida hikmat-u nuktalari shope'dur. Nazm tariqi bila aytur emnish, aning favoidiindur:

*Ulug'lar ne bersa, yemasman dema,
Hik sun, og iz ur, yemasang-yema!*

Va aningdurkim:

*So 'ngakka ilikdor, eranga — billik,
Biliksiz eran — ul iliksiz so 'ngak¹.*

Birinchi bayning maznuni: "Ulug'lar senga qurlug' dasturxonidan bir nimani ilinsalar, harchand to'q bo'isang ham yemayman deb ularning qo'llini qaytarma, yemasang ham qo'lingga olib, bir og'iz tegizib qo'y".

Bu yerda ulug'lарини hurmat qilish ma'nosida so'z borayapti. Ikkinci bayning mazmuni: "Suyak ilik bilan, er kishi bilim bilan ko'rkli. Bilimsiz kishi iliksiz suyakka o'xshaydi".

Bu yerda ilm-ma'rifat ulug'lanayapti.

Asarning mayjud nussxalarida mazkur baytlarning yo'qligi "Hibat ul-haqoyiq" ning asrlar davomida turli o'zgarishlarga uchraganligini ko'rsatadi. Alisher Navoiy otasi Husayn Boyqaroga qarshisyon ko'targan Badiuzzamon Mirzoga pand-nasihat qilib yozgan maktubida ham Adib Ahmadning bir to'rligini keltiradi:

*Atodin xato kelsa, ko 'rma xato,
Savob bil xato toki qilsa ato.
Atoning xatosini bilgil savob,
Seni yuz balodin qutqarg'ay Xudo².*

Ushbu dalillardan "Ahmad Yugnakiyining shaxsiyatini va uning "Hibat ul-haqoyiq" asari XV-XVI asrlarda ham el orasida mashhur bo'lgani ko'rindi"³.

Adib Ahmad "Hibat ul-haqoyiq"ni tugatib, uni hukmdori — "aql-u hush makoni-yu, bilim va fazilat koni" (35) bo'lmish Dod Sipohsorbekka taqdim etadi:

*Dod Sipohsorbek uchun bu kitob —
Chiqartim ochunda oti qolsu(y) tep (38).*

Dod Sipohsorbekning kimligi to'g'risida bahs-munozaralar hali yakuniga yetmagan. Abdurauf Fitrat bu nom Sayfi Isfarangiy (1185—1268) qasida va hajiyiyalarida tilga olinganligidan kelib chiqib, u XII—XIII asrlar orasida Farg'onasi hokimi bo'lgan, degan fikrni ilgari suradi. Xuddi shu Dod Sipohsorbekni "Adib Ah-madning hukmdori deb qabul qilish kerak. Butun ehtimollarning kuchlisi shudir".

Adib Ahmad "Hibat ul-haqoyiq" asari bilan o'zbek adabiy tili va adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shdi. Mashhur sharqshunos olim Y.Bertels bu asar qadimgi o'zbek adabiy tilidan mumtoz o'zbek adabiy tiliga o'tishda bir ko'priq bo'lganini aytadi. Asarda qadimiy turkiy so'zlar bilan bir qatorda, ko'plab arab va fors so'zlarining ham qo'llangan shundan dalolat beradi. Taniqli tilshunos Qozoqboy Mahmudovning aniqlashicha, "Hibat ul-haqoyiq"da atoqli other va arab tilida yozilgan sarlavhalardan tashqari, 300 ga yaqin arab va fors so'zlarini mayjud bo'lib, ular asardagi jami so'zlarining 20 foizini tashkil etadi².

"Hibat ul-haqoyiq" ilk bor uyg'ur yozuvida bitilgan. Uning nusxalarini ko'p bo'lib, ularda asar hajmi turlicha. Hozircha ma'lum qo'lyozmalardan 3 tasi to'liq, qolganı parchalardan iborat. 1444-yili Samarcandda Zaynulobidin baxshi, 1480-yili Istanbulda Abdurazzoq baxshi va Turkiyaning To'pqopu kutubxonasi dagi nomalum kotib tomonidan ko'chirilgan qo'lyozmalar e'tiborli nuxsalar hisoblanadi. Asani birinchini marta turk olimi Najib Osimbek topib nashr etirgan (qisqartirilgan nashri — 1906, to'liq nashrlari — 1916, 1925). Keyin 1951 va 1992-yillarda uni Rashid Rahmati Arab

¹ Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlari. 2-jild (Ilmiy asarlari). — Toshkent: "Ma'naviyat", 2000, 48-49-betlar.

² Mahmudov Q. Ahmad Yugnakiyining "Hibatul-haqoyiq" asari haqida. — Toshkent: "Fan", 1972, 17-bet.

so'zboshi, izohlar va 6 ta nusxasining faksimilesi va Turkiyada XVI asrda ko'chirilgan arab yozuvidagi nusxasining tarjimasi bilan chop ettiради. O'zbekistonda asardan parchalar Fitrat, Oybek, Porso Shamsiyev, Solih Mutallibovlar tomonidan o'zbek adabiyoti namanlardan tuzilgan majmualarda e'lon qilingan. So'ng u Qozoqboy Mahmudov tomonidan alohida kitob sifatida nashr qilindi (1968–1971). O'tgan asr oxirlarida uyg'ur olimlari H.Temur va T.Ayyub, qozoq olimlari E.Qurishjonov va B.Sog'indiqovlar uni asl matni, tarjima va fotonusxalari bilan nashr ettileranlar. Shuningdek, Y.Bertels, Fitrat, Fuod Ko'pruli, T.Takin, E.Rustamov, N.Mallayev, A.Qayumov, A.Hayitmetov, A.Rustamov, M.Imomnazarov, B.To'xliyev, N.E.Rahmonov, I.Haqquq, G.Xo'janova va boshqalar Ahmad Yugnakiy va "Hibat ul-haqoyiq" haqidada u yoki bu dairajada tadqiqot ishlarini olib borgalar.

"Hibat ul-haqoyiq" 14 bob, 512 misradan iborat. Dostonning birinchi bobi Olloh hamdi, ikkinchi bobi Muhammad alayhissa-lom na'ti va choryorlar ta'rifiga, uchinchchi bobi Dod Sipohsolorbek madhiga bag'ishlangan. To'rtinchi bobda kitobning yozilish sabbabari bayon qilingan. Dastlabki to'rt muqaddima bobdan so'ng asosiy qismiga o'tiladi. Beshinchchi bob — ma'rifatning foydasi-yu jaholatning zarari, oltinchi bob — til odobi, yettinchi bob — dunyoning o'tkinchiligi, sakkizinchchi bob — saxiylik va baxillik, to'qqizinchchi va o'ninchchi boblar turli masalalarga bag'ishlangan bo'lib, o'n birinchi bob — kitobning xotimasi (Asarning 1480-yili Istanbulda Abdurazzoq baxshи tomonidan ko'chirilgan nusxasi-da 11 bob mavjud — uch bob yo tushib qolgan, yo boshqalariga qo'shilib ketgan).

"Hibat ul-haqoyiq" ham "Shohnoma" va "Qutadg'u bilih" kabi mutaqoribi musammani maqsur (mahzuf) vaznida yozilgan. Asarning an'anaviy kirish qismlari qasida, g'azal va qit'a shaklida (a-a, b-a, v-a) bo'lib, assosiy qismlari to'rtlik (a-a-b-a) shaklida davom etadi.

Adib Ahmad o'zini shoir enas, balki adab muallimi deb hisoblagan. O'ziga xos axloq kitobi bo'lgan "Hibat ul-haqoyiq" da Qur'oni karim va hadisi sharif ma'nolari singdrilgan. U islon dini axloqini tashviq qilish, komil insomni tarbiyalab yetishi-

rish maqsadi bilan yozilgan. Shunga muvofiq, asar ham, asosan, pand-nasihat usulida yozilgan. Bu haqda muallisining o'zi shunday deydi:

*Bezadim kitobi mavoiz, masal,
Boqig 'li, o'qug 'li osig' olsu(v) tep (39).*

Mazmuni: "Ko'rgan, o'qiganlar manfaat olsin, deb kitobimni turli xil maqol-matallar, pand-nasihatlar bilan bezadim".

Ko'pchilik bayt va misralarning hikmat kabi jaranglashi Adib Ahmadning shoirlik salohiyati chindan ham baland bo'lganligidan dalolat beradi. Voqe'an, asarga ilova qilingan Amir Sayfiddimming to'rligida Yugnakiyning iste'dodi va maqomi xususida ham yuskak fikrlar bildiriladi:

*Adiblar adibi, fozillar boshi,
Guhartin so'z aymish odin so'z bishi (96).*

Mazmuni: "Adiblar adibi, fozillar sarvari gavhar kabi bebaho so'zlarini nazm shodasiga tergan".

"Bu faktlar bir tomonдан, Adib Ahmad Yugnakiyning yetuk shoir, zamonasining ulug' bilimdoni ekanligini ko'rsatsa, ikkimchi tomonдан, zamondosh shoirlar, adiblar oldida hummatga sazovor ekanligini bildiradi. Adibning malik ush-shuaro bo'lgani haqida ma'lumot bo'lmasa ham, o'zining hamkasblariga adabiyotdan ta'llim bergani ehtimoldan uzoq emas".¹

"Hibat ul-haqoyiq" ning o'zbek muntoz adabiyotining nodir namunalarini qatoridan joy o'rganligi bejiz emas. Chunki asardagi axloqiy, ma'rifiy va falsafiy mazmundagi ko'plab hikmatlar asr-larni bo'ylab keldi va asrlar osha yana kelgusi avlod ma'naviy tabbiyasi uchun xizmat qilaveradi. Xususan, ilm-ma'rifat masalalariga asosiy e'tibor qaratiladi. Mutafakkir shoir nuqtayi nazariga ko'ra:

*Bilik birla bilmur saodat yo 'li,
Bilik bil, saodat yo 'lini bula (40).*

¹ Q. Mahmudov "Hibat-ul-haqoyiq" asarining yozilish davri, g'oyasi va uning muallifi haqida. Ahmad Yugnakiy. Hibat-ul-haqoyiq. — Toshkent, 1971. 9-bet.

Mazmuni: "Saodat yo'li bilim bilan ochiladi. Shuning uchun bilim egallab, saodat yo'lini izla".

Bu mo'jaz asardagi hikmatlarning mavzusi keng va rang-ba-rang: ularda olam va odam munosabatlari, hayotning mazmuni, kishi umrinning mohiyati, bilmning afzalligi, odob-axloqning inson kamoloti uchun ahamiyati, insoniy fazilat va qusurlar xususida chuquq bilim va katta hayotiy tajiriba assosida kundalik turmushdan olingan misollilar vositasida teran mulohazalar yuritilib, ibratli xulosalar chiqariladi.

Masalan, mualif hukmdorlarni adolat va muruvvatga chaqirar ekan, arzimas bir ayb bilan ham bosh kesilaversa, dunyoda tirik kishi qolmaydi deydi:

*Bu bir aybdan o'tru boshin kesguchi,
Ochunda tirlig'u kishisiz qolur (79).*

Saxovat va muruvvatdan xoli odamni mevasiz daraxtga qiyoslaydi — mevasiz daraxt esa kesib o'tin qilishgagina yaraydi:

*Yemishsiz yig'ochdek karamsiz kishi,
Yemishsiz yig'ochni kesib o'rtagil (73).*

U, ayniqsa, baxillikni qattiq qoralaydi. Chunki bu dunyoda baxilning qilmishidek ahmoqona qilmish, baxilning hayotidek bema'ni hayot bo'lmasa kerak:

*Baxil yig'di zar-siyim harontin o'kush,
Vabal ko'tru bordi, uzala so'kush.*

*Ulush bo'ldi moli kishilar aro,
Baxil oldi andin so'kunchin ulush... (62)*

*Qamug' qozg'onikli ochun molini,
Yeyumadi, bordi — ko'rung holini (66).*

Mazmuni: "Baxil haromdan hazar qilmay, oltin-kumush yig'di. O'zi o'lib keldi-yu, xalqning la'natiga sazovor bo'lgani qoldi. Odamlar uning mol-dunyosini bo'lishib oldilar, o'ziga tek kan ulush esa elning qarg'ishi bo'ldi... Dunyo molini yig'ib, o'zi yeb-ichmagan kishining qismati ana shunaqa bo'ladi".

Shoir xalq maqollari, el ichida yurgan qanotli so'zlarini ham mahorat bilan she'rlari qatiga singdirib yuboradi. Masalan, qu-yidagi misralarda "Qonni qon bilan yuvib bo'lmaydi" maqolidan o'zingin badiliy maqsadini ifodalash uchun foydalanganadi:

*Jaf o qildaching'a yonut qil vafo,
Arimas necha yuvsu qon birla qon (74).*

Mazmuni: "Jaf o qilganga ham vafo qil, chunki qonni qon bilan yuvib ketkazib bo'lmaydi".

Ko'riniib turibdiki, bu pand-u nasihatlar xuddi bugungi kun-da aytilganday. Barcha davrlarda qimmatini yo'qotmay kelgan bu teran o'gitlar dunyo turguncha o'z ahamiyatini va ta'sir kuchini yo'qotmasligi shubhasiz. Barkamol asarlarning barhayotligi shunda ko'rindi.

Qadim turkiy, arabiyl, forsiy so'zlariga boy "Hibat ul-haqoyiq" asarini o'qib tushunish hozirgi o'quvchiga qiyinchilik tug'dirgani uchun shu paytgacha uning mazmuni zamonaviy o'zbek tilida nass-riy bayon qilinib kelgani ma'lum. Biz uni 11 hijoli barmoq vaznida she'riy tabdil qildik. Ushbu tabdilni "Hibat ul-haqoyiq" ning taniq-li tilshunos olim, filologiya fanlari doktori Qozoqboy Mahmudov tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matni va uning nassriy bayoni asosida amalga oshirdik¹. Boblar va ichki sarlavhalar nomi arabcha bo'lgani uchun ularni Q.Mahmudov tarjimasi bo'yicha qoldirdik. Yillar davomida asar mazmuniidan nasriy bayon orqali xabardor bo'lgan o'quvchilar endi uning zamonaviy o'zbek tilida qida she'riy tabdilini o'qib, nazmiy jarangidan ham bahramand bo'ladilar, deb o'yaymiz.

Ergash Ochillov,
filologiya fanlari nomzodi

¹ Qarang: Q. Mahmudov Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq asari ha-qida (Kirish, fonetika, morfologiya, tanqidiy matn, transkripsiya, sharh, lug'at.

— Toshkent: Fan, 1972.

O'lilik va tirlkning almashinishi haqida

Tirlkni o'ldirar, o'lilki esa,
Tirlitirar, bilsang, qudratli Xudo.

Qudratda yagona ulug' Tangriga,
O'lilki turgizish emas muammo.

Payg' ambar alayhissalom na'ti (madhi)da

Payg' ambar fazlini vasf etay endi,
Yaxshilab eshit-u, ko'nglingga qil jo.

Insonlar ichida eng afzali u,
Unga teng kelolmas hech kishi aslo.

Rasullar yuzidan agar yog'sa nur,
Bu quyosh kabi nur manbai go'yo.

Uning madhi bilan shirindir tilim,
Uning yodi qand-u asaldan a'lo.

Qiyomatda istab shafoatini,
Tilm to'xtamaydi qilishdan duo.

To'rt xalifa ta'rifi

Yana to'rt do'stingga ayturman salom,
Bu to'rt xalifaga bo'lsin jon fido.

Sodiq bilan Foruq, yana Zumurayn,
To'rtinchchi Ali — mardlikda tanho.

La'nat bo'lsin kim bu to'rt xalifaga,
Agarda e'tiqod qilmasa bajar!

Ilohim, kechirib kelegansan o'zing,
Yana afv et mendan o'lsa har xato.

Agar lutf aylasang, toparmen najor,
Holim yomon adl aylasang ammo.

Ulug' Amir Dod Sipohsolorbek Tangri yorlaqag'urning madhi

Ey til, qani, madh et, aylayin tortiq,
Shohimga — dourug'i tumish dunyoni.

Shohim madhi bilan bezadim kitob,
O'qigan kishining yayrasin joni.

Kimga kengash berar, kimga yo'l-yo'riq,
Himmati balanddir, cheksiz ehsoni.

U aql-u hush, tengsiz idroq sohibi,
Bilim manbai ham fazillat koni.

Simok yulduzidan himmati baland,
Saxovati ming bir dardning darmoni.

Xalqqa mehribondir, beozor, halim,
Arslondekk lekin qaynasa qoni.

Haybat-u quvvatda Umardek kuchli,
Saxovatda Usmon kabi nishoni.

Tengi yo'q tetiklik, sezgirlik ichra,
Adolatda zamон No'shiravoni.

Saxovati uyatitirar bulutni,
Tan beradi unga hatto dushmani.

Ey shohim, sendagi fazillatlarining,
Qum zarrasi kabi yo'q haddu soni.

Siyosat,adolat,yurt boshqarishda,
Tengi yo'q — bu so'zning yo'q hech yolg'oni.

Haq siylab, muruvvat, saxovat kabi,
Ezgu xislatlarning bo'ldi u koni.

Bulutdan bir tomchi yoqqaniga shod,
To'iqin urishini ko'rgil daryoni.

Dengizdan ming qatla saxiyroq shohim
Qabul qilsa, tong yo'q, haqir savg'oni.

Bu kitobning yozilish sababi va zarurati haqida

Bitdim bu kitobim Sipohsolorbek,
Nomi bu dunyoda mangu qolsin deb.

Kitobimni ko'rgan, eshitgan kishi,
Shohim duo bilan yodga olsin deb.

Kelgusi avlodlar uchun ham uning,
Ezgu nomi mangu yashhab qolsin deb.

Uning mehri bilan ko'ngillar yashnab,
Uning yodi bilan olam to'lsin deb.

Bezatdim kitobni pand-o'git bilan,
O'qiganlar undan foyda olsin deb.

Shohimga baxsh etdim, mening o'ziga
Siddqu sadoqatim yaxshi bilsin deb.

Muhammad (alayhissalom)ning ilm o'rganish haqida aytganlari

BIRINCHI BO'LIM

Im manfaati va jaholat zarari haqida

Bilimdan so'zlayman — so'zimni eshit:
Bilimli kishiga o'zni yaqin tut.
Bilimdan ochilar saodat yo'li,
Bilim ol — saodat manziliga yet.

Bilimli azziddir misoli oltin,
Johil bir mevadir, yo'qdır ta'm, toti.
Bilimli-bilimsiz teng bo'larmi hech?
Bilimli xotin — er, johil er — xotin.

Suyak ilik bilan, er kishi bilim,
Erga ilm, suyakkalik ko'rk doim.
Bilimsiz iliksiz suyakday bo'm-bo'sh,
Iliksiz suyakka qo'l uzatar kim?

Bilim bilan bo'lди er kishi mashhur,
Johilni o'lik deb ayla tasavvur.
O'lik maqomida tirk yursa ham,
Dono o'lib, topar ikkinchi umr.

Bitta bilimli ming bilimsizga teng,
Bilimli biladi bilim qadrin deng.
Endi o'zing bogib, uqib, sinab ko'r.
Bilim foydasiga nima kelar teng?!

Olim yuksaladi bilimi bilan,
Bilimsiz kishilar bo'ladi tuban.
Bilimli bo'l, sira erinma, Rasul
Kim bilimli bo'lsa, ulug'lang degan.

Bilimli biladi bilim farqini,
Bilimli biladi bilim qadrini,
Bilim qimmatini bildirar bilim,
Bilimsiz qayerdan biliadi uni?!

Nodon haq so'zdan ham tuymaydi ma'no,
Unga pand-nasihat kor qilmas aslo.
Yuvinsa pok bo'lar har qanday nopok,
Johil ming yuvinsin, pok bo'lmash aslo.

Tangriming mo'jizalar johillikdan
tiyilish, Xudoning rasuliga sodiq
bo'lish haqida
Rasululloh
sallollohu alayhi vasallamming
aytgan so'zlar

Bilimli ne qilar — biladi tayin,
Bilib qilganidan o'kimmas keyin.
Bilimsizga har ish ko'tinor to'g'ri,
Shundan unga chora yo'q o'kinnayin.

Bilimli kerakli so'zin gapirar,
Keraksiz so'zini ko'mib yashirar.
Bilimsiz ne desa, uqmasdan deyar,
Uning o'z tili o'z boshin yeyar.

Haqni tanish uchun kerak ma'rifat,
Bilimsizlikda yo'q hech ezgu jihat.
Bilimsizligidan ko'p qavmlarga,
Qo'llini but qilib, sig'inish odat.

Bilimli so'zi pand-nasihat, adab,
Bilimlini maqtar Ajam-u Arab.
Bilim faqir uchun tugammass boylik,
Hisobiszga bilm yechilmas hisob.

IKKINCHI BO'LIM

Tilni tiyish va odob-axloq haqida

Qulqut — bilimli ninalar deyar:
Adab boshi — tilni tiyishlik bo'lar.
Tilingni tiyib yur, tishing simmasin,
Tilingni tiyimasang, tishing sindirar.

O'ylab so'zlaganning so'zi haqiqat,
Yomon til o'zingga dushman beshafqat.
So'zga ehtiyyot bo'l, tiyib yur tiling,
Tiyiqsiz til boshaqta keltitar ofat.

Oqil emas tili zaharli kishi,
Til zahridan ketdi ko'plarning boshi.
Tilin top, birovni qilma o'zga yov,
O'q yarasi bitar, bitmas til nishi.

O'q zaxmi, aqldan ozish,
til jarohati va uni tiyish haqida

Yaramas kimsaning tili — dushmani,
Tilidan to'kildi ko'p kishi qoni.
Ko'p gapirgan kishi chekar ko'p afsus,
Tilin tiyganidan o'kingan qani?

Kishiga ne kelsa, tilidan kelar,
Tildan kim yaxshi, kim yomonlik ko'rар.

Qulqut bu pandga — u barchaga teng,
Kim uni dilga jo qilar, yukanar.

Tilingga erk berma, qisqa qil so'zing,
Tiling tiyib yursang, omonsan o'zing.
Rasul der: kishini o'tga tashlar til,
Tiling tiy, bu o'tdan xalos qil o'zing.

Kim ikki narsadan emasdир xoli,
Yopilgandır unga muruvvat yo'li:
Birisi — beluda vaysasa timmay,
Birisi — ko'p yolg'on so'zlaska tili.

Yolg'onchidan o'zni chetga ol darhol,
To g'rilik bilan kun kechirgil halol.
Til-u og'zing beza to g'ri so'z bilan,
To g'ri so'z og'iz-u tilga ko'rik, jamol.

Yolg'on — sassiq piyoz, to g'ri so'z — asal,
Asal turib, piyoz yema hech mahal.
Yolg'on so'z dard bo'lsa, to g'ri so'z — davo,
Bu haqda shunday bir naql bor azal.

To g'ri bo'l, to g'ri yur, to g'ri nom qozon,
To g'ri desin seni har biitta inson.
To g'rilik to'nin kiy, egirlikni qo'y,
To g'rilik to'niday to'n yo'q begumon.

Qattiq yashir — siring birov bilmasin,
So'zingdan o'zingga o'kinch kelmasin.
Barcha pinhon siring bo'lib oshkora,
Ko'rgan-eshitganlar senga kulmasin.

Do'stim deb ishonib, sir aytmra aslo,
Har qancha ishonchli bo'lsa ham hatto.
O'zing astrolmagan simi birovning
Asrashidan umid qilma mutlaqo.

Dunyoning o'zgarib turishi haqida

Dunyo – karvonsaroy: kelgan ketgusi,
Hamma ham unga bir qo'nib o'tgusi.
Bir karvon bu yerdan chiqqanda yo'lga,
Bir karvon manzilga borib yetgusi.

Bu dunyo ortidan barcha yugurar,
Baxil-ku boylik deb tinnay ranj chekar.
Boylikka ko'p ko'ngil bermá, u kelsa,
Ko'payar, kamayar, oxir yo'q bo'lar.

Ko'ngildan chiqjar mol-dunyo suqligin,
Ista ust butligi, qorin to'qligini.
Boylig-u faqirlik yeb-ichishdamas,
Qashshoqlik deb bilma oziq yo'qligini.

Dunyoda kifoya, anglasa inson,
Kiyim bilan taom, qolgani ziyon.
Ekinzor deb aytdi dunyoni Rasul,
Unda ekin ekkan ko'tarar xirmon.

O'tkinchidir ushbu dunyo lazzati,
Yeldek kechar uning shirin muddati.
Yangi eskiradi, qariydi yigit,
Beli bukiladi, ketar quvvati.

Boylik bugun kelsa, ertaga ketar,
Mulking boshqa birov yo'liga o'tar.
Neki butun bo'lsa, yemrlilar bir kun,
Neki obod, xarob sari yuz tutar.

Qancha obod yerning chiqdzi taqiri,
Gurkiragan elning bitti taqdiri.

Qancha dono edi, qancha faylasuf,
Qolmadi ularming mingidan biri.

Dunyo goh qosh qoqar,
goh qovoq solar,
Bir qo'lida asal, birida zahar.
Asal bilan totli qilib taoming,
Ortidan zaharli qadahni tutar.

Shirimlik yeganda achchiqlikka yo'y,
Bir rohat ortida o'n g'am tortar bo'y.
Ey mashhaqqat chekmay rohat istovchi,
Bu orzung ushalmas sira — bilib qo'y!

Ilondek dunyoning ishi sehr-jodu,
Yuvosh deb aldanma, ichi liq og'u.
Yuvosh ko'rimsa-da, fe'l'i ko'p yomon,
Hazir bo'lmaganni o'ldiradi u.

Bu dunyoning juda chiroyli tashi,
Lekin ichidadir ming bir noxushi.
Bas, uning sirtiga mahliyo bo'lib,
Ko'ngil bog'lamoq, bil, xatolar boshi.

Dunyoga muhabbat qo'yish
xatolarning boshi ekanligi
haqida Payg'ambar salallohu
alayhi vassalamning so'zi

Goh niqobin olib, dunyo yuz ochar,
Quchgruday bo'lib qo'l yozar-u qochar.
Ko'klam bulutti yo tushdek omonat,
Baxt yeldekk tez kechar yo qushdek uchar.

TO'RTINCHI BO'LIM

Saxovat va baxillik oqibati haqidá

Ey do'stim, bilimli kishi izlagil,
Agar so'zlasang so'z, billeb so'zlagil.
Maqtamoqchi bo'lsang, saxiyini maqta,
Baxilga qattiq yoy o'qin ko'zlagil.

Saxiyini ulug'lar barchanning tili,
Bachar aybin yuvar saxiyning fe'yli.
Saxiy bo'l, to senga yog'masin la'nat,
Saxovat berkitar la'natning yo'lin.

Saxiy eritar tosh bo'lsa-da ko'ngil,
Maqsadiga yetar agarchi mushkul.
Baxillikni hech kim maqtagan emas,
Saxiylikni esa maqtar butun el.

Boq, saxiy ilmning qadriga yetdi,
Topganini ilm yo'liga baxsh etdi.
Boq, qisqa umrini burkab shuhuratga,
Dunyoda ezgu nom qoldirib ketdi.

Baxil yig'di harom oltinu kumush,
O'ldi-ketdi olib la'natu so'kish.
Talash bo'ldi moli kishilar aro,
El qarg'ishi bo'ldi baxilga ulush.

Ey boylik egasi, saxiy, yaxshi er,
Haq senga berdimi,
sen ham xalqqa ber!
Ko'pchilik mol yig'ib, qilmaydi ehson,
Ehsondan qochmasang, dunyo yig'aver!

Dunyoda eng yaxshi saxiy degan nom,
Baxil oti esa yomondir mudoni.
In'om beruvchi qo'l qutlug'dir juda,
Qutsizdir qaysi qo'l bermasa in'om.

Baxillik davolab bo'lmas darddir ul,
Saxovat yo'lli berk baxilga butkul.
Yig'ib ko'ngli to'lmas ko'zi och baxil,
Mol-dunyo go'yo shoh, baxil esa qul.

Xalqning eng yaxshisi saxiy er erur,
Saxiylik shon, obro', qadr orttirur.
Sevilmox tilasang kishilar aro,
Saxiy bo'l, saxiylik seni sevditur.

Baxil, tuban kishi boylik posboni,
yemay-ichmay yig'ar, tutar pinhoni.
Tiriklikda do'sti totmagan tuzni,
O'igach maza qilib yeydi dushmani.

BESHINCHI BO'LIM

Tavozelilikning foydasi,
takabburlik

va hasislikning zarari to'g'risida

Yana bir keraklik so'zim bor senga,
Aytayin men uni — quoq tut menga.
Takabburni boshdan oshirib tashla,
Tavozeni top-u, do'st tutin unga.

Takabbur hamisha nafratga loyiq,
Qo'ydek muloyimlik eng yaxshi qiliq.
O'zin katta tutsa kim manmansirab,
Uni na xaloyiq sevar, na Xoliq.

Yig'ib-terib butun dunyo molini,
Yemay o'lib ketdi — ko'ring holini:
U qabr ichra so'roq berar qoldirib —
Yot erkakka ham mol, ham ayolini.

Kibr to'nin kiyib, ko'krak kermagil,
Xalqqa tiling bilan ozor berma mo'1.
Mo'minlik nishoni tavoze erur,
Agar no'min esang, tavozeli bo'1!

Tavozeni Xudo xush ko'rар hatto,
Odamzodni qilar takabbur rasvo.
O'zing ulug'lama, ulug'yolg'iz Haq,
Mensiz ulug'lik yo'q degandir Xudo.

Tavozelilikni oshirish va
takabburlikni tashlash to'g'risida
Payg'ambar sallallohu
alayhi vassallamning aytganlari

Mol-dunyo tufayli bo'ldingu ulug',
Kibru havo seni qul qildi to'liq.
Moldan ne nef, o'lgach ketsang yalang'och,
Qolsa uy-joy, hamyon, mol to'la sandiq.

Agarda takabbur asilman desa,
Men javobin beray so'zini kesa:
Bir ota, bir ona farzandi bu xalq,
Tafovut qolmas chin dunyoda esa.

Odam Ato va Momo Havodan
ibrat olish haqida

Yana pandimni ol — qil unga amal,
Ikkilanna — poylab turibdi ajal.
Amal deganim bu ko'p o'yamoqdир,
Kamroq o'ylab, ko'proq ish qilgan afzal.

Molga had bo'lmasisin deysan, qulga son,
Osha-tosha bo'lsa libos, may, osh-non.
Bir umrlik molu dunyo yig'sang ham,
Behuda bo'lmasa agar bosh onon.

Hasislik bu yomon insoniyl illat,
Hasis g'am-hasratda qolar oqibat.
Boylik,
kambag'allik — Xudo qismati,
Hasisning chekkani behuda zahmat.

Rasulullohning hasislik haqida aytganlari

Hasis to'ymas sira yig'ib mol-dunyo,
Hasis qarir, hirsı qarimas ammo.
Hasis hasisligin qo'ymaydi o'lib,
Tuproqning qa'riga kirmaguncha to.

Hasis boylik yig'ib charchamas aslo,
Hasislik dardiga kim topgan davo?
Foyda chiqar joyni topsa agar u,
O'n tila qilar bir tillani hatto.

Rasululloh: kishilarning ikki
"vodi" to'la "oltin" i bo'lsa ham,
uchinchisini istashi
haqida aytganlari

Hasis bandasi bo'lgan, ey hasis odam,
Ayt-chi, hasislikdan naf bormi hecham?
Ozmi-ko'p — rizq azal qilingan taqsim,
U ko'paymas hasislikdan zarra ham.

Tangri dunyo ne'matlarning taqsimoti haqida

Asli pokning bo'lar fe'li ham go'zal,
Ko'ngilini jazb etar xulqi har mahal.
Farosati yo'qlar bilmaydi sira,
Odamning odamdan farqi ko'p azal.

SO'NGGI BO'LIM

Axloqning karomati, hasislikni tashlash haqida

Inson fe'l-atvordin o'rgan bus-butun,
Karamdan mosuvvo odammas tayin.
Mevasiz daraxtdek karamsiz kishi,
Mevasiz daraxtni chopib, qil o'tin.

Muslimonga mushfiq bo'sib, mehricon,
O'zing kabillarni sana musulmon.
Jafo qilganga ham vafo qil mudom,
Ketmas qancha yuvgan bilan qonni qon.

Tangrining amri va shafqatiga itoat qilish haqida

Rasululloh (alayhissalom)ning aytganlari

Qormin to 'yg'az bo'lsa har qayerda och,
Ustин but qil qayda ko'rsang yalang'och.
Zulm-zo'rlik qilma birovg'a zinhor,
Ko'maging ayama ko'rganda muhtoj.

Yomonlik qilganga ham yaxshilik qil,
Muruvvatning boshi shudir — yaxshi bil.
Agar birov senga qilsa yaxshilik,
Uning duosidan to'xtamasin til.

Gunohkor kishining gunohin kechir,
Adovatildizin tagidan ko'chir.
G'azab o'ti agar olsa alanga,
Shafqat suvi bilan u o'tni o'chir.

G'azzabni bosish, kishilar (gunohini) kechirish,
Xudoning marhamatini sevish haqidagi
Tangrining so'zlari. Payg' ambar alayhissalomning
g'azabni yengish, Tangrining har narsaga
qodirligi, iymonga erishish yo'llari, uning
Rasuliga sadoqat va Olloohning
muhabbatiga yetishish to'g'risida aytganlari

Karam binosidan hilim bo'lar hosil,
Karam keng dengiz yo gulzor ichra gul.
Xulq-odob egallab, o'zni kamtar tut,
Karam sohibiga arzir bo'lsa qu!

O'zingdan kattani hurmat qil, hurmat,
Tashla, qancha bo'lsa yomon fe'l, odat.
Chunki bu ishlaring yoshlarни buzib,
Kattalar ko'nglida qo'zg'aydi nafrat.

Shodlikka yo'y balo kelsa, sabr etib,
Shodlik kelishiga ko'z tut qon yutib.
O'char kulfat o'ti — kechar navbat,
Qolalar sabr qilgan savobni tutib.

Tangriga muhabbatni qattiq tutish,
shuningdek, Rasululloh (alayhissalom)ning
ibodat orqali sevinchni kutish haqida aytganlari

Ulug'likka yetsang, yanglishma o'zing,
Ipak kiyganingda unutm'a bo'zing.
Fe'lingni yaxshilab ulug'larga xos,
Muloyim qil katta-kichikka so'zing.

OXIRGI BO'LIM

Turlichma ma'nno bildiruvchi baytlar haqida

So'zni bilib so'zla, shoshib so'zlama,
Bo'lmag'ur so'z aytil, keyin bo'zlama.
Do'sting mingta bo'lsa, ko'p ko'rma sira,
Dushman bitta bo'lsa, uni oz dema.

Rusululloh (alayhissalom)ning ming do'stdan bir dashman ko'p degani

Tadbirli kishi ham goh qilar xato,
Aybsiz emas mohr usta ham hatto.
Kesilaversa bosh har bir ayb uchun,
Odamlardan bo'shab qolardi dunyo.

Yasha odamlarning ko'nglini olib,
Yomon odattarni orqaga solib.
Bir ish qilar ekan, o'ylab qil, uning —
Kerakli yo keraksizligin bilib.

Senga to'g'ri kelsa qay ishni qilmoq,
Yaxshidir uning old-ortini bilmoq.
Agar xayrlidir, dil bersa arzir,
Agar o'kinchlidir, lozim qutulmoq.

Biror ish qo'lidan boy berilganda
uning zararidan saqlanish, tikan
ekilsa, unda uzum bitmasligi haqida

Yaxshining qo'lidan yomonlik kelmas,
Yomon hech yaxshining qadrini bilmas.
Ey yomonlik qilib, yaxshilik kutgan,
Kim tikan izlasa, u uzum yulmas.

Yaxshining bo'ladi yaxshi do'sti ham,
Yaxsini do'stdan yetar yaxshilik har dam.
Yomonga qo'shilma, yomon subbat
Yomonlik yo'liga boshlar seni ham.

Rasululloh (alayhissalom)ning zulm va jinoyat yo'lidan saqlanish haqida aytganlari

Majoz bo'lди do'stlik — haqiqat qani?
Ming do'st ichra yo'q bir haq yo'l tutgani.
Ko'philiik kishining ichi qoradir,
Ko'plamring do'stligi soxta ekan-ye!

Bu kun insoniylik dunyoda azz,
Insoniy xislatlar yo'q bo'lди, esiz.
Qurib biddi butkul vafo chashmasi,
Jafo to'lib-toshdi misoli dengiz.

Qani ahsga vafo, qani ezgulik?
Adolat kelguncha xayr ketgulik.
Boshi ketsa xayming, so'nggi ham ketar,
Oldi kelsa xayming, orti kelgulik.

Dunyo to'lди jabru jafo, zulm ila,
Qani bir vafoli — bor bo'lsa, tila.
Buzuqlar tufayli buzildi dunyo,
Buzuq ne qilardi dunyoga kela?..

Islom zaif edi, zaif bo'lди boz,
Ibodat riyyoru niqobdir namoz.
Xarobot ko'chasi bo'lib obodon,
Masjid xarobu xalq bo'lди benamoz.

**Islomning tushkunlikka uchrashi
va saodatning qaytishi haqida
Rasululloh (alayhissalom)ning aytganlari**

Zohidda zuhd yo'qdir, olimda amal,
Orif raqsu samo' qilar har mahal.
Bid' atdan qaytarar kishi qolmadi,
Kundan-kunga ortar bid'at bexalal.

Qani yaxshi ishlar, yaxshi kishilar?
Qani, qayda yaxshi kishilar yashar?
Zamonni ayblama odamlar qolib,
Zamonni ozdirgan asli o'shalar.

Kim ichkilik ichsa, yomon kishi ul,
Yomonlik tilasang, kel, ichuvchi bo'.
Kim ilmu hunarli — yo'li ochilmas,
Kim nodon, humarsiz — ungadir keng yo'!

Ey yaramas kishi, kibringni tashla,
To hayot ekansan, yaxshi ish boshla.
Istagancha tinchu qayg' usiz yasha,
Yaxshi ishing bilan ko'ngilini xushla.

Dunyoda uyatning qolmadi oti,
Halol kishilarning topilmas zoti.
Halol yashayotgan kishi qani kim?
Halolu haromning yo'q tafovuti.

Odamlar boylargacha burib yuzlarin,
Ularga qul qilib berar o'zlarin.
Yuzlarin o'girib faqir kishidan,
Ko'massga olarlar yumbi ko'zlarin.

Ey boylik oshig'i, bilsang, molu mulk
Bu dunyoda tashvish, u dunyoda yuk.
Harom bo'lsa moling — qismating azob,
Halol bo'lsa moling, hisobi bor lek.

**Payg'ambar alayhissalomning
halolga hisob, haromga azob
bo'lishi haqida aytganlari**

Mol-dunyoga nega muncha och ko'zing,
Boyluk dildagi g'am, tildagi so'zing.
O'lgach yiqqanlarin dushmanqa qolur,
Senga nasib bo'lar ikki gaz bo'zing.

To plagan mol-dunyong ulfadir senga,
Lekin yashirganing kulfatdir senga.
Shirin tuyuladi bu kun mol yig'moq,
U kun tashlab ketish hasratdir senga.

**Tangrining o'ziga va aytgan
so'zlariga sodiq bo'lish haqida**

Achchiqqa omuxta dunyo lazzati,
G'am-tashvishi ko'pu, ozdir rohati.
Asal bor joyda bor ari ham, asal
Istaganning zahrin chekish qismati.

Fazlu hunar ahlin qiynar bu dunyo,
Fazlu hunarsizni qo'llar doimo.
Fazl ila davlat birga bo'lishi
Bu dunyoda barcha ishlardan a'lo.

Dunyoga ne qildi bu sohibhunar,
Dunyo nega uni timimsiz qiynar?
Xasini ulug'lab, yaxshini xo'rlab,
Kinu adovatli bu dunyo kechar...

Ey dunyoga hukm etuvchi Xudo,
O'zing berib, O'zing qilarsan judo.
Sening hukming bilan bo'lar har bir ish,
Sening amring bilan har ish jobajo.

Dunyoni ayblama, ey nodon kishi,
Ollohnинг qо'lida taqdирming ishi.
Tuzoqqa yetarlar kiyknı taqdir,
Taqdirdan oyoqqa tikan kirishi.

Hamma narsa taqdirdandır begumon,
Nodon esa sabab izlab sargardon.
Haq quşhlari uchar taqdir tufayli,
Taqdirdan tashvishga tushsa nogahon.

Qazo kelsa, jonzot yurmas yugurib,
Qazoni qaytarib bo 'lmas g'ov qurib.
Tangri berar kimga ganj-u kimga ranj,
Sen jabr-u zulm qilma Yaratgan turib.

SO'NGGI SO'Z

(So'zning tugallanish sababi)

Bu kitob bosh-oxir pand-o'git, masal,
O'qigan bo'ladi yegandek asal.
Kimki unga qidirsa biror-bir qiyos,
Munosib kitobni aylasın badal.

Adib Ahmad — otim,
adab-pand — so'zim,
So'zim yashab qolar, o'tsam-da o'zim.
Umr o'tar bahorlar aylanib kuzga,
Umrim ado qildi bahor-u kuzim.

Turkiyda bittim bir pandnomा kitob,
Xohlasang ulug'la, xohla qil itob.
Bittim eng go'zal va tansiq so'zлarni
Bu dunyodan o'tsam nomim qolsin deb.

Ushbu kitobga xos asosiy xislat —
Unga ziynat bo'lди pand, o'git, hikmat.
Behuda so'z xor-u nodir so'z tansiq,
Bo'z arzon-u atlas bo'lgandek qimmat.

Mendan so'ng keluvchi, ey baxtli avlod,
O'qisang, qil meni duo bilan yod.
Bu nodir kitobim qoldirdim senga,
Duo aylab, qilsin ruhimni, deb, shod.

Alayhirrahmaning ta'rifiga doir

Tug'ma ko'r edi bu Adibning ko'zi,
O'n to'rtta bob ichra jo bo'lди so'zi.
Bir tuyu oltin-u javohirga teng —
Bu so'zlar agar oz bo'lsa-da o'zi.

Alayhirrahma Amir Sayfiddinning ta'rifi

Adiblar adibi, fozillar boshi,
Gavhar kabi so'zlar edi yo'ldoshi.
Rahmatiga olib uni Xudoyim,
Qiyomatda qilsin do'stlarning boshi.

Buyuk tadbirli Amir (mo'minlar)
soyaboni Xoja Arnob Arslonxoja
Tarkon alayhirrahma ta'rifi

Yugnak — Adibning ko'z ochgan ma'vosi,
Dillarni yayratar ko'ru safosi.
Otasingin oti Mahmud Yugnakiy,
Adib Ahmad uning o'g'li — yo'q shaki.

"Hibat ul-haqoyiq" — arabcha otı,
Pand-u nasihatdir uning murodi.

Koshg'ariy til bilan yozilgandir u,
Nazm rishtasiga tizilgandir u.

Koshg'ariy tillini bilsa har kishi,
Adib so'zlarini oson uqishi.

Til bilgan biladi nimadir ma'no,
Bilmas bilaman deb qilmasin da'vo.

Ko'p kishilar bordir — bilmas o'zini,
Buzib aytib yurar Adib so'zini.

O'zi taqin qilib ularmi xato,
Adibni aybdor qilmish xalq aro.

Bitildi el nafi uchun bu kitob,
Xoh ijobat qil-u xoh ayla itob.

Kim amal aylasa Adib so'ziga,
El ichra e'tibor topar o'ziga.

LUG'AT VA IZOHLAR

Ajam — g'ayri arab; Eron, eronliklar.

Alayhirahma — unga (Ollohnning) rahmati bo'lsin.

Alayhissalom — unga (Ollohnning) salomi bo'lsin.

Ali — Hazrat Ali. Muhammad alayhissalomming amakivachhasi va kuyovi.

Alfoz — so'zlar, iboralar, jumlalar.

Amir Dod Sipohsoltorbek — Adib Ahmadning hukmdori va ho-miysi.

Arab — Arab mamlakaatlari.

Arslonxoja Tarkon — Turkistondagı Sabron shahri hokimi. Amiri kabir Xoja Arnob Arslonxoja Tarkon ma'rifatli kishi bo'lgan. U 1444-yilda Samarqandda Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar qaymog'i") asarini uyg'ur yozuvida ko'chirtilgan. Asarning kirish qismida uning muallif va asari haqida fikr yuritilgan 20 misradan iborat masnaviy shakkidagi kirish so'zi keltirilgan. Undan ma'lum bo'fishicha, amir uyg'ur yozuvini ham, turkiy xalqlar adabiyotini ham, "Hibat-ul-haqoyiq" asarining mazmun-mohiyati va adabiy qimmatini ham yaxshi bilgan. Ilm-u adabiyotni sevgan bu zot Samarcand ilm-u adab ahliga homiylik qilgan. Sakkokiy unga bag ishlab 5 ta qasida yozgan. Chunki shoir uning saroyida xizmat qilgan. Hokim shoirni majlislariga taklif etib turgan, g'azallariiga hofizlarga buyurib, kuy bastalatgan va eshitigan. Sakkokiy o'z qasidalarida Xoja Arslonni obodonchilik ishlariiga bosh-qosh bo'lgan, ilm-u ma'rifatni sevgan fozil kishi sifatida ta'rif-tavsiif etadi:

Tarkon Arslon Xojakim, gardun nazirin ko'rmadi,
Haq qilibtur zotig'a majmui fandin fath-u bob.

Badal — evaz, biror narsaning o'miga, evaziga beriladigan haq yoki narsa, narsaning qiyomatiga teng keladigan boshqa biror narsa.

Bid'at — dün aqidalariga xilof yangilik.

Bilik — bilim, aql.

Boz — yana, qayta, tag'in.

But — sig'iniqidan narsa, sanam.

Gaz — 0,71 metrga teng uzumlik o'chovi; arshin.

Ganj — 1) boylik, xazina; 2) oltin-kumush, zar-zevar.

Iobajo — joyida, o'minda.

Zaxm — yara, jarohat.

Zohid — uzlat va taqyoni kasb qilib olib, dunyo lazzatidan yuz o'gingan kishi. Bu toifa ishq va infondan bexabar bo'lib, maqsadi taqyo bilan oxirat mafg'iratini qozonish, Qur'onda va'da qilingan jannatning huzur-halovatiga yetishish. So'fiylarning har ikki dunyodan maqsadi Xudonning o'zi, uning divydori bo'lganligi uchun zohidlarning bu ishini tamagirlilik deb hisoblaydilar va ularni tanqid qiladilar.

Zunnurayn — ikki nur sohibi. Muhammad alayhissalomining avval Ruqiya, u vaftot etgach, Ummu Kulsum degan qizlariga uylangani uchun xalifa Usmon shunday atalgan.

Zuhd — dunyodan voz kechib, toat-ibodat bilan shug'ullanish, taqvodorlik, pathezkorlik, porsolik.

Ilik — qo'l.

Itoib — 1) malomat, ta'na; 2) qahf, g'azab.

Karam — saxyilik, oljanoblik: in'om, ehson.

Koshg'ariytil — Qoraxoniyilar davri adabiy tili. Bu adabiy tilni Mahmud Koshg'ariy — xoqoniyligi tili, Yusuf Xos Hojib — bug'raxon tili deb atagan edilar.

Mavoiz — nasihatlar, pandlar, o'gittar.

Majoz — o'zining tub ma'nosida ishlatalimay, biror munosabat va o'xshatish orqali boshqa ma'noda ishlataligan so'z.

Ma'vo — boshpana, makon; maqom, manzil.

Ma'rifat — Olloh mohiyati haqidagi ilm, irfon. deb atagan edilar.

Mosubo — butunlay mahrum bo'lgan, judo bo'lgan, ayrilgan. Muttaqiy — taqvodor, parhezli.

Mushfiq — mehribon, shafqatli.

Muqtado — yo'lboschi.

Muhaddis — hadisarni to'plash, saralash va sharhash bilan shuning ullanadigan ilohiyot olami.

Nasoyih — nasihatlar.

Na't — madh, vaf, ta'rif-tavslif, maqtov. Ezgu va go'zal xislatlar, sifatlar, xulqlar, ishlar ta'rifi. Na't so'zi umuman madh ma'nosida bo'lsa

ham, Sharq adabiyotida u, asosan, Muhammad alayhissalom vasfiga qaratilgan. Aksar o'tmish shoir-u adiblari masnaviy, doston, devonlar, ilmiy-tarixiy asartlar muqaddimmasida hamd va munojottdan keyin na't kel-tirganlar. Bu bora-bora an'ana ko'rinishini olib, na't Sharq adabiyotdag'i badilii asar unsurlaridan biriga aylangan. Na't mazmun-mundarijasini, asosan, payg'ambar va as'hoblari ta'rifi tashkil etadi. Na't turli she'riy janarda (qasida, g'azal, qit'a, ruboy, masnaviy) yozilgan.

Nish — tikan; 2) zaharli jonivorlarning chaqish a'zosи; 3) nayza, tig'; 4) biror narsaning uchi.

Nukta — nozik va teran ma'noli so'z, hikmat.

No'shiravon (Anushervon) (Hukmronlik yillari — 531 — 579) — soseniyilar sulolasiga mansub Eron shohlarining yigirma birinchisi Xus-rav I. U Sharq xalqlarida adolat timsoli hisoblanadi. Xalqparvar va ideal podshoh sifatida mumtoz adabiyotda keng kuyylanadi. Bu obraz o'zining mukammal talqinini Abulqosim Firdavsiyning "Shohnomma" asarida topgan.

Omuxta — qo'shilgan; aralash.

Orif — ma'rifat sohibi, Ollohni tanigan kishi, komil inson. Olinning zoti, sıfatları va ismlarını mushohada etadigan zavqiy va vajdiy ilmlar egası bo'lgan zot.

Ochun — dunyo, olam.

Og'u — zahar.

Ranj — 1) mashaqqat, qiyinchilik; 2) azob, alam, dard.

Rasul — elchi, payg'ambар.

Riqqat — noziklik, latofat.

Sallallohu alayhi vassalam — unga Oollohning salovati va salomi bo'isin.

Samo' — so'fiylarning vajd-u holga erishish maqsadida uyushtiradigan she'r, qo'shiq, musiqa va raqs mailislarini.

Simok — Asad burjidagi qo'sh yulduzning nomi. U oy manzilli hisoblangan 14-manzilda. Biri Simoki A'zal, biri Simoki Romeh deb atladi va ikkalasi Asad burjinining ikki uchida deydilar. Simoki Romehning yonida yana bir yulduz bo'lib uni nayzansimok deydilar. Yonida boshqa yulduz bo'limgani uchun Simoki A'zal shu nom bilan atalgan va uning ma'nosi yaroq'siz erkakdir. U sunbulanining yuqorisida.

Sodiq — rostgo'y; vatodor: Abu Bakr Siddiqning laqabi.

Sohib hunar — fazl-u hunar egasi; bitor fan va san'at sohibi.

Tirguzish — tirlitirish.

To'rt xalifa — xulafoi roshidin — to'g'ri yo'lidan yurgan xalifalar:
Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali.

Ulus — xalq, el, omma.

Favvoid — foydalar.

Fazl — yetuklik, afzallik.

Fozil — olim, dono, donishmand.

Foruq — haq va botlini ajratuvchi: xalifa Umarning laqabi.

Xayr — 1) yaxshii, yaxshilik; 2) in'om.

Xarobot — xarob joy, vayrona. Tasavvufda insoniy sifatlarning xarobotidan maqsad — komil inson huzuri.

Xoliq — Yaratuvchi; Xudo.

Chin dunyo — u dunyo, oxirat.

Shafoat — yonini olish, himoya qilish, birov uchun vositachilik qilish. Ma'lumki, Muhammad alayhissalomga qiyomatda ummatlarini shafoat qilish huquqij berilgan — bu yerda shunga ishora qilinyapti.

Shoye' — yoyilgan, mashhur bo'lgan.

Eran — 1) mard; 2) avliyo.

Qazo — taqdir, qismat. Olloh taoloning hamma narsalarning kela-

jakda qanday bo'lishini azaldan bilishi.

Qut — 1) yegullik, ovqat, taom; 2) jon, ruh.

Hadis — 1) so'z, kalom; 2) naql, hikoya. Muhammad alayhissa-lomning aytgan so'zлari, qilgan ishlari, ko'rsatmalarini to'g'risidagi ri-voyalar.

Haybat — xavf, qo'rquv.

Hasis — ochko'z, tamagir.

Hasislik — ochko'zlik, tamagirklik.

Hilm — muloyimlik, yumshoqlik.

Hunar — fazilat, iste'dod, mahorat.

MUNDARIJA

YUSUF XOS HOJIB

(*Tadbil, so'zboshi, lug'at va izohlar muallifi Boqijon T'oziyev*)

Yusuf Xos Hojib va uning "Qutadg'u bilig" asari.....⁴
Qutudg'u bilig¹³

AHMAD YUGNAKIJ

(*She'riy tadbihi amalga oshtiruvchi va so'zboshi muallifi Ergash Ochilov*)

Axloq muallimi.....⁵⁷⁰
Hibat ul-haqoyiqi.....⁵⁷⁸
Lug'at va izohlar⁶⁰¹



YUSUF XOS HOJIB AHMAD YUGNAKIJ

3-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir Sunnat Xo'jaahmedov
Badiiy muharrir Shuhrat Mirfayozov
Dizayner Bobur Tuxtarov
Teknik muharrir Yelena Tolochko
Kichik muharrir Ziliola Mahkamova
Musahihh Sadogat Beshimova
Sahifalovchilar: Shahlo Burriyeva,
Islam Azamatov

Tasdiqnomalariga qarab:

Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 1/6.
Ofset qog'ozli. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 38.0. Nashriyot-nisob tabog'i 28.45.
Adadi 1 185 nusxa. Sharhnomasi N° 71-1/22. Buyutma raqami N° 22-282.

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va omaviy kommunikatsiyalar agentligining
"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHI bosmaxonasida chop etildi.
Bosmoxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Yu 91 Yusuf Xos Hojib. Ahmad Yugnakiy [Man]: nazm/to'plovchi va nashriga tayyorlovchilar Boqjon To'xliyev, Ergash Ochilov. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. - 608 b.

ISBN 978-9943-8722-0-2

UO'K 821.512.1-1
KBK 83.3(54)

YUSUF XOSHOJIB
AHMAD YUGNAKIY